17-18-asrlarda balandligi 4—5 m li devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘on (shaharcha) bo‘lgan. Shaharchada taxm. 5 ming kishi yashagan; ko‘plab mayda do‘konlar, ustaxonalar ishlab turgan. 1873-yil avgust oyida Turkiston viloyati gazetasida Yangi Urganch haqida: “Kattaligi Orol bo‘yidagi Kazalinskiy shahricha keladi, atrofi qal’a devorlari bilan o‘rab olingan, Amudaryodan 12 chaqirim narida joylashgan kichkina shahar. Orol dengizidan to Xivaga kelguncha Urganchdek go‘zal shahar yo‘q. U bog‘lar va ariqlar bilan o‘rab olingan”, deb yozilgan. O‘sha davrda Yangi Urganchda 6 mingga yaqin aholi yashagan. 1889-yilda shaharda Yaroslavl manufakturasi korxonasiga qarashli paxta tozalash zavodi, 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida «Xayriya jamiyati», Rus-Osiyo banki, rustuzem maktabi, xotinqizlar maktablari ochildi.

Buyuk allomalar shayx Najmiddin Kubro, Piryor Valiy, Ali Sulton, Hojib kabi tabarruk zotlar hoki qo‘yilgan maqbaralar To‘rabekxonim, Ar-Roziy, Tekesh, “Qirq mulla”, “Uch yuz oltmish avliyo”, Qutlug‘ Temur kabi ziyoratgohlar qayta tiklandi. O‘tmishda “Ilmu hikmat Ka’basi” deb nomlangan Ko‘hna Urganch bugun jahon jamoatchiligi diqqatida. Uning YuNESKO tashkiloti tomonidan ro‘yxatga olinganligi bu tabarruk maskanga ziyoratga keluvchilar sonini yanada oshirdi. Shunisi quvonchliki, 1905-1907 yillarda Muhammad Rahimxon (Feruz) tomonidan bunyod etilgan 24 hujralik madrasa binosida tarix va xalq hunarmandchilik muzeyi barpo etilgan. Muzeyning Ma’mun Akademiyasiga bag‘ishlangan zalida nodir qo‘lyozmalar, IX-XI asrlarga doir uy-ro‘zgor buyumdari, turkman gilamlari, voha hunarmandchiligining bebaho namunalari joylashgan.

Endilikda Ko‘hna va Yangi Urganchlar ajdodlarimizning ming yillik an’analarini davom ettirib xalqaro sayyohlikning “Oltin halqasiga” ulanib bordi-keldini yanada avj oldiradilar. Endi ikki og‘iz so‘z Yangi (toza) Urganch haqida. Shahar Amudaryo va Shovot kanali sohidida VIII-asrlarda bino etilgan Said Vaqqos bobo maqbarasi (hozirgi Doshqinjon bobo) yonida qurila boshlangan. Dastlab shaharning “Ko‘hna qal’a” mavzesida 5 ming aholi yashagan. XVIII-XIX asrlarda shahar savdo-sotiq va hunarmandchilikka asoslangan.1889-yilda Bolshaya Yaroslavskaya minofaktura shirkati tomonidan paxta-moy zavodi, 1905 yilda Rus-Osiyo banki ishga tushirilgan.

Shovot kanali Urganch shahri o‘rtasidan oqib o‘tib, Urganchni shimoliy. va janubiy qismlarga ajratgan. Shimoliy qismida, asosan, turar joy binolari, ilmiy va madaniy maorif muassasalari, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari, janubiy qismida esa ishlab chiqarish korxonalari joylashgan. Har ikkala soxil birbiri bilan ko‘priklar orqali bog‘langan.

1931-yilda viloyat teatri Xiva shahridan Urganchga ko‘chib o‘tdi.

1935-yilda shaharda o‘qituvchilar instituti faoliyat ko‘rsata boshladi. 1952-yilda Chorjo‘y-Urganch — Qo‘ng‘irot temir yo‘li qurib bitkazildi. 1959-yildan Urganch

Taxiatosh elektr energiyasini ola boshladi, 1963-yilda O‘rta Osiyo — Markaz magistral gaz quvuriga ulandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Машарипов О. Хоразм тарихидан саҳифалар. – Тошкент: “Ўзбекистон” 1994й. – Б.36.
2. Машарипов О. Хоразмнома. олтинчи китоб. – Тошкент: “Истиқлол нури” 2014й. – Б.335.
3. Матниёзов М. Хоразм тарихи. I жилдлик.– Урганч,“Хоразм”, 1997. – Б. 77.
4. Абдурасулов А., Абидова З. Хоразм қадамжолари ва зиёратгоҳлари. – Тошкент: Янги нашр, 2016.
5. Zumrad Rakhmankulova. (2022). Mahmud Amin Afindi’s journey from Istanbul to Central Asia. Look to the Past, 1(SI 3), 3. https://doi.org/10.5281/zenodo.7483028
6. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро ва Хиванинг ташқи иқтисодий алоқарига доир (Архив ҳужжатлари асосида) // Шарқшунослик. 1997. №8. 165-166 б.
7. Davletov S.R., Allanazarov S.B. Urban Planning And Urbanization Processes In The Khorezm Oasis//International journal on human computing studies. Volume: 03. Issue: 2. March-April 2021.
8. https://urganchshahar.uz/uz/shahar-haqida/urganch-shahar-tarixi/

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDA SANOAT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHI VA UNING TARIXIY NATIJALARI

Asadova Ra’no Baymanovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi
Xolturayeva Muxayyo Norsafarovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Qashqadaryo viloyatida sanoat infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning bosqichlari hamda tarixiy natijalari tahlil qilinadi. Sanoat korxonalari, transport-logistika, energetika va investitsion infratuzilmaning shakllanish jarayonlari tarixiy manbalar va statistik ma’lumotlar asosida yoritiladi.

Kalit so’zlar: Qashqadaryo viloyati, sanoat infratuzilmasi, mustaqillik yillari, investitsiya, modernizatsiya, iqtisodiy islohotlar.

РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО ИСТОРИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

Асадова Ра’но Баймановна,
Доцент кафедры «История и социальные науки» Университет экономики и педагогики Кандидат исторических наук
Холтураева Мухайё Норсафаровна,
магистрант Университета экономики и педагогики

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, реализованные в Кашкадарьинской области по развитию промышленной инфраструктуры после обретения Республикой Узбекистан независимости, их этапы и исторические результаты. Процессы формирования промышленного производства, транспортно-логистической, энергетической и инвестиционной инфраструктуры освещаются на основе исторических источников и статистических данных.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, промышленная инфраструктура, годы независимости, инвестиции, модернизация, экономические реформы.

DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL INFRASTRUCTURE IN KASHKADARYA REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS HISTORICAL OUTCOMES

Asadova Ra’no Baymanovna,
Associate Professor of the Department of «History and Social Sciences» University of Economics and Pedagogy Ph.D. in History
Kholturaeva Mukhayyo Norsafarovna,
Master’s student of the University of Economics and Pedagogy

Abstract: This article analyzes the reforms implemented in the Kashkadarya region to develop industrial infrastructure after the Republic of Uzbekistan gained independence, their stages, and historical outcomes. The processes of formation and development of industrial enterprises, transport and logistics, energy, and investment infrastructure are examined based on historical sources and statistical data.

Keywords: Kashkadarya region, industrial infrastructure, years of independence, investment, modernization, economic reforms.

Kirish. 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi mamlakat iqtisodiy hayotida tub burilish yasadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni hududlar taraqqiyotida, xususan, sanoat infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslarga boyligi, qulay geografik joylashuvi va mehnat resurslari bilan respublika sanoat salohiyatida muhim o‘rin egallaydi. Shu bois mustaqillik yillarida viloyatda sanoat infratuzilmasini shakllantirish va modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin (1991-yildan boshlab) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tubdan o‘zgardi. Xususan, hududiy jihatdan muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyati sanoat infratuzilmasining rivojlanishi mustaqillik davrining asosiy izlanish yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Mustaqillikdan oldingi davrda viloyatning sanoat tarmoqlari, ishlab chiqarish salohiyati va infratuzilma imkoniyatlari respublika markazlashgan siyosati sharoitida shakllangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bozorlarga moslashuv, xususiylashtirish va investitsiyalarni jalb etish yo‘nalishlari ustuvor bo‘ldi. Sanoat infratuzilmasining modernizatsiyasi – bu nafaqat Korxonalar va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, balki transport, energetika, kommunikatsiya tarmoqlarini takomillashtirish, kichik sanoat zonalarini shakllantirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirish orqali hududiy iqtisodiyotni mustahkamlash demakdir. Bu jarayon Qashqadaryo viloyatida ham sezilarli darajada davom ettirilmoqda, o‘sish sur’ati va sifatida ijobiy natijalarni bermoqda [1, 45-b.].

Ilmiy adabiyotlarda Qashqadaryo viloyatining sanoat infratuzilmasi va uning rivojlanish jarayonlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Utkirov (2025) tomonidan olib borilgan tahlilda Qashqadaryo viloyatida sanoat rivojlanishining umumiy ko‘rsatkichlari, tarmoqlar o‘sish sur’ati va hududiy iqtisodiyotga ta’siri asosiy e’tibor markazida bo‘lgan. Muallif sanoat salohiyatini baholashda ishlab chiqarish hajmlari, rivojlanish omillari, tarmoqlararo aloqalar va mavjud muammolarni o‘rganadi, shuningdek istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlaydi [2, 13-b.].

Qashqadaryo viloyatida kichik sanoat zonalarining investitsion salohiyatini tahlil qilgan ilmiy ishlar ham mavjud. Bu tadqiqotlarda infratuzilma omillari, investitsiyalarni jalb etish strategiyalari va samaradorlikni oshirish mexanizmlari muhokama qilinadi, hududiy sanoat infratuzilmasining kompleks o‘sishiga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, iqtisodiy geografik nuqtai nazardan tahlil etilgan tadqiqotlarda Qashqadaryo sanoati tarmoqlarining iqtisodiy geografik xususiyatlari, tabiiy resurslar va transport infratuzilmasi o‘sish sur’ati bilan bog‘liq omillar yoritilgan. Bu ishlar viloyatning sanoat infratuzilmasini shakllantirishda hududiy jihatlar muhimligini ko‘rsatadi [3, 64-b.].

Umumiy olganda, O‘zbekiston sanoat siyosati va infratuzilma modernizatsiyasiga doir milliy miqyosdagi tadqiqotlar mamlakatning umumiy industrializatsiya jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Bu tadqiqotlar mustaqillik yillarida O‘zbekiston sanoatining o‘sishi, investitsiya siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va hukumat strategiyalarining ta’siri kabi umumiy tendensiyalarni ochib beradi, ayrimlarida Qashqadaryo viloyatiga oid natijalar ham keltirilgan [4, 85-b.].

Adabiyotlarda Qashqadaryo viloyatining sanoat infratuzilmasi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Ular nafaqat umumiy ko‘rsatkichlar va sanoat o‘sish sur’atlarini yoritadi, balki hududiy infratuzilma omillarini, investitsion muhiti, kichik sanoat zonalarining rolini ham hisobga oladi. Bu tadqiqotlar mustaqillik davrida viloyat sanoat infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy

natijalari bo‘yicha kompleks tasavvur beradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda hududiy rivojlanish masalasi, xususan, viloyatlarda sanoat infratuzilmasini shakllantirish va modernizatsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslarga boyligi, qulay geografik joylashuvi hamda mehnat resurslari salohiyati bilan respublika sanoat tizimida muhim o‘rin egallaydi. Mustaqillik yillarida viloyat sanoat infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy ahamiyatga ega jarayon sifatida namoyon bo‘ldi[5, 32-b.].

Sovet davrida Qashqadaryo viloyati asosan xomashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida shakllangan bo‘lib, sanoat korxonalarining faoliyati markazlashgan reja asosida boshqarilgan. Mustaqillikdan so‘ng esa bozor iqtisodiyotiga o‘tish, mulkchilik shakllarining diversifikatsiyasi, xususiy sektorning rivojlanishi va xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlari sanoat infratuzilmasining tubdan yangilanishiga olib keldi. Energetika, neft-gaz sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari viloyat sanoat tizimining tayanch yo‘nalishlariga aylandi[6, 72-b.].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati sanoatining rivojlanishi masalasi iqtisodchilar, tarixchilar va iqtisodiy geografiya mutaxassislari tomonidan turli jihatlardan o‘rganilgan. Tadqiqotlarda, asosan, sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, infratuzilma obyektlarining kengayishi, transport va energetika tarmoqlarining takomillashuvi hamda investitsiya muhitining yaxshilanishi masalalariga e’tibor qaratilgan. Ayrim ilmiy ishlarda kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi va ularning hududiy iqtisodiyot rivojiga ta’siri muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, mavjud adabiyotlarda Qashqadaryo viloyatida sanoat infratuzilmasining rivojlanishi ijtimoiy soha bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Xususan, yangi ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilishi aholi bandligini oshirish, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda hududning iqtisodiy faolligini kuchaytirishga xizmat qilgani ta’kidlanadi. Shu bilan birga, ba’zi tadqiqotlarda infratuzilma rivojidagi muammolar – transport-logistika tizimidagi nomutanosibliklar, texnologik yangilanishning yetarli darajada emasligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi masalalar ham qayd etilgan[7, 9-b.].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili Qashqadaryo viloyatida sanoat infratuzilmasining mustaqillik yillaridagi rivojlanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon viloyatning iqtisodiy qiyofasini tubdan o‘zgartirib, uni respublikaning muhim sanoat markazlaridan biriga aylantirdi. Shu bois, mazkur mavzuni tarixiy nuqtai nazardan kompleks o‘rganish hududiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash hamda kelgusidagi sanoat siyosatini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida sanoat infratuzilmasining rivojlanishi respublika miqyosidagi iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, viloyatda sanoat infratuzilmasi sobiq markazlashgan tizimdan bozor iqtisodiyoti talablariga moslashgan zamonaviy shaklga o‘tib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Energetika, neft-gaz, qurilish materiallari, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi sanoat infratuzilmasining tayanch yo‘nalishlarini belgilab berdi[8, 72-b.].

Tahlillar asosida aniqlanishicha, mustaqillik davrida amalga oshirilgan investitsiya siyosati, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va kichik sanoat zonalarini tashkil etish viloyat iqtisodiy salohiyatining oshishiga, ishlab chiqarish hajmlarining ko‘payishiga hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikning ta’minlanishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, sanoat infratuzilmasining rivojlanishi aholi bandligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy infratuzilmaning kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat infratuzilmasining barqaror rivojlanishi hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda sanoat infratuzilmasini shakllantirishda davlatning faol ishtiroki, strategik rejalashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda hududiy ixtisoslashuv tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya va Germaniya kabi davlatlar tajribasi sanoat infratuzilmasini rivojlantirishda samarali mexanizmlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Janubiy Koreya tajribasida sanoat infratuzilmasining rivoji davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan sanoat zonalari va texnoparklar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu mamlakatda hududlar tabiiy va mehnat resurslariga mos ravishda ixtisoslashtirilgan bo‘lib, transport-logistika va energetika infratuzilmasi sanoat ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlantirilgan. Natijada sanoat ishlab chiqarishining eksportga yo‘naltirilgan modeli shakllangan va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar sezilarli darajada kamaygan.

Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi esa sanoat infratuzilmasini rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar va erkin sanoat hududlarining muhim rolini namoyon etadi. Xitoyda sanoat infratuzilmasi dastlab qirg‘oqbo‘yi hududlarda rivojlantirilgan bo‘lsa, keyinchalik ichki mintaqalarga bosqichma-bosqich kengaytirildi. Bu jarayonda davlat investitsiyalari, xorijiy kapitalni jalb etish va infratuzilmani markazlashgan holda modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tajriba hududiy sanoat rivojlanishining muvozanatli modelini yaratishda samarali bo‘ldi.

Turkiya tajribasida esa kichik va o‘rta sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyot faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Turkiyada “tashkil etilgan sanoat zonalari” orqali infratuzilma muammolari markazlashgan holda hal etilib, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bu yondashuv sanoat ishlab chiqarishining hududlar kesimida kengayishiga va bandlik darajasining oshishiga xizmat qilgan.

Yevropa davlatlari, xususan Germaniya tajribasida sanoat infratuzilmasi yuqori texnologiyalar, ekologik barqarorlik va innovatsion rivojlanish bilan uyg‘unlashtirilgan. Transport, logistika va energetika infratuzilmasining rivojlanganligi sanoat klasterlari shakllanishiga imkon yaratgan. Ushbu model sanoat rivojini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham samarali tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoat infratuzilmasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun hududiy ixtisoslashuv, davlat va xususiy sektor hamkorligi, investitsiya muhitining barqarorligi hamda infratuzilma obyektlarining kompleks rivoji muhim ahamiyatga ega. Ushbu tajribalar Qashqadaryo viloyatida sanoat infratuzilmasini yanada rivojlantirish, kichik sanoat zonalarining samaradorligini oshirish va hududiy sanoat siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyatida sanoat infratuzilmasi rivojining tarixiy natijalari hududning iqtisodiy qiyofasini tubdan o‘zgartirganligi aniqlandi. Xomashyo yetkazib berishga yo‘naltirilgan hududdan sanoatlashgan, diversifikatsiyalashgan ishlab chiqarish tizimiga ega mintaqaga aylanish jarayoni mustaqillik davrining eng muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi. Bu holat viloyatning respublika sanoat tizimidagi o‘rnini mustahkamlab, uning raqobatbardoshligini oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida sanoat infratuzilmasining mustaqillik yillaridagi rivojlanishi tarixiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u hududiy rivojlanishning barqaror modelini shakllantirishda muhim omil bo‘ldi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida viloyat sanoat infratuzilmasini yanada takomillashtirish,

investitsiyalarni samarali jalb etish va hududiy sanoat siyosatini ilmiy asosda rivojlantirish uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2.Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R. Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 312 b.

3.Utkirov A.A. Qashqadaryo viloyati sanoat salohiyati va rivojlanish istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. – Toshkent, 2020. – №4. – 45–52-betlar.

4.Tursunov B.O. O‘zbekistonda sanoat infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 198 b.

5.Qodirov A.S. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sanoatining hududiy rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2016. – 256 b.

6.Ismoilov M.I. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari. – Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2019. – 184 b.

7.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi: statistik to‘plam. – Toshkent, 2022. – 120 b.

8.Xudoyorov Z.T. Sanoat infratuzilmasi va hududiy iqtisodiy o‘sish masalalari // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent, 2021. – №6. – 33–39-b

QUYI AMUDARYO HUDUDI NEOLIT DAVRI JAMIYATI RIVOJLANISHINI IQTISODIY OMILLARI

Matyaqubov T.
Tadqiqotchi

Annotasiya: Maqolada Janubiy Orolbuyi hududi geografik muhiti ta'sirida Neolit davrida jamiyat rivojlanishi iqtisodiy omillari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Gerodot, Strabon, Kes A.S, Tolstov S.P, Vinogradov A.V, Matyaqubov X.X, Quyi Amudaryo, Sariqamish, Uzboy, Qizilqum, Qoraqum, Tuyamuyin, Shuraxon, Sulton Uvays.

Аннотасия: В стате анализирован Экономические фактори на развитие географических влияние неолитического периода Южного Приарале.

Ключевие слова: Геродот, Страбон, Кес А.С, Толстов С.П, Виноградов А.В, Матякубов Х.Х. Низовя Амударя, Сарикамиш, Узбой, Кизилкум, Каракум, Туямуин, Шурахон, Султон Уваис.

Kirish. Er geologiyasi uchlamchi va to'rtlamchi davr natijalari munosabati bilan tarkib topgan Uzboy, Sariqamishbuyi va Orolbo'yi tekislik bo'lgan. Mil.avv-gi 8-7 ming yilliklarda Amudaryo Qoraqumda "Tentiragan holda" shimoliy tomon tekislikni xam o'ng va so'l soxil xududlariga bo'lgan, xududi shu xolat xozirgi vaqtda mavjud bo'lgan. Mazkur maqolada Quyi Amudaryo xududi neolit davrida Bunga Qizilqum va Qoraqum sharoitida o'rnashgan ajdodlarimizni bunyodkorlik faoliyatlari tarixini mavjud bo'lgan paleogeograf, tabiiy-iqtisodiy manbalar omillar tarixini yoritishga xarakat qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili.

Xorazm ekspedisiyasi XX asr 30 yillari oxiridan axoli tomonidan qoldirilgan yodgorliklarida yarim asrdan ziyod davrda olib borgan arxeologik izlanishlar natijalariga e'tibor berib, mazkur maqola mazmunini yangicha qarashlar va yondoshuvlar asosida yoritish mumkin.

1937-1940 va 1945-1950 yillarida Xorazm ekspedisiyasini Uzboy, Sariqamishbuyi, Quyi Amudaryo xududlarida olib borgan arxeologik amaliyoti davrida ro'yxatga olingan yodgorliklar turli tarixiy davrga oid bo'lgan. Xorazm vohasida ro'yxatga olingan yodgorliklarda o'rnashgan axolini tarixini o'rganish maqsadida tadqiqotchilar mavzularni tanlab olib, uni o'rganish ishlarini belgilab olib, tadqiqotlarni boshlab yuborgan. Masalan, S.P.Tolstov tarixiy-geografik tadqiqotlar, A.S.Kes geomorfologik va paleogeografik, A.V.Vinogradov neolit davri, M.A.Itina bronza davri, B.V.Andrianov Qadimgi Xorazm sug'orilish tarixi, E.E.Nerazik Xorazm qishloqlari tarixi. Yu.P.Rapoport Qadimgi Xorazm dini va x.k. Mazkur yunalishlardan biri A.S.Kes Xorazm vohasi geomorfologiyasi va paleogeografiyasi asosiy e'tiborni berib, bir qator ilmiy nashrlarni ilmiy jamoatchilik e'tiboriga xavola qilgan. Shu bilan birga ekspedisiya xodimlari xamkorlikda chop qilingan monografiyada Xorazmning ibtidoiy jamoa tuzumi davri paleogeografiyasi, Qizilqum va Qoraqum saxrosi sharoiti, ularni Qumtepaliklari o'rtasida botiqlar suv xavzalariga aylanganligi munosabati bilan vujudga kelgan iqtisodiy omillar to'g'risida fikr mulohazalari o'rin olgan. Masalan, XX asr 60 yilida nashr qilingan Monografiya birinchi bobida Xorazm tekisligida Amudaryo xarakati tarixiga bag'ishlangan. Yozma manbalar Amudaryo haqida ilk ma'lumotlar uchraydi. Yunon tarixchisi Gerodot Tarix asarida ikki atamada Areks, ikkinchisi Akes, uning bir tarmog'i Amudaryodan Kaspiy dengiziga suvini olib borganligi qayd qilingan . Antik dunyo geografi Strabon Oks va Yaksart Quyi qismi oralig'i 80 parsang (Farsax) yoki 2400 Stadiy, ya'ni 420 km

A.S.Kes Amudaryo harakatini o‘rganish asosida ikki tarixiy davrga ajratgan, ya’ni tarixiy davrni Pliosen va Quyi va o‘rta turtlamchi davrga, ikkinchisi esa tez xarakati yuqori to‘rtlamchi va hozirgi davrga ajratgan

Birinchi davrda Amudaryo Abu Rayxon Beruniy fikricha, Chordjuy shaxridan (Qadimgi Amul) Sariqamish xududi Uzboy orqali suvini Kaspiy dengiziga olib borgan.

Ikkinchi tarixiy davrda Amudaryo xarakati yuqori to‘rtlamchi (Xvalik davri) Qoraqum orqali Xorazm tekisligi tomon yunalib geografik xolatiga o‘zgartirishni boshlagan. Mazkur tarixiy davr uch bosqichga geografik xususiyatdan farqlanuvchi uchta Amudaryo xavzasi shakllangan, ya’ni Oqchadaryo (Beruniy bo‘yicha Faxmi), Sariqamishbuyi xavzasi (Beruniy bo‘yicha Mazdubalb) va xozirgi zamonda Orolbuyi xududi

S.P.Tolstov fikricha, bundan VI-V ming yillikda Oqchadaryo, Sariqamishbo‘yi Uzboy xududlari paleogeografik xususiyatini bir-biriga ulangan yoki aloxida shakllangan maydonchalar suv xavzalariga aylanishi, ular sohili etaklari o‘simlik va hayvonot olami mavjud bo‘lgan. Kes A.S. Golosen davrida (Neolit) Amudaryo yunalishlari natijalarini o‘rganishi natijasida bundan 22 ming yil avval, uning asosiy suvini Orol dengiziga olib borgan

Xorazm vohasi Neolit davri tarixi maxsus o‘rgangan A.V.Vinogradov asarida Amudaryo uning suv sathi ko‘tarilish munosabati bilan Sho‘raxon-Orol dengizi o‘rtasi paleogeografi xolatini tasvir qilgan. Bunda Oqchadaryo irmog‘i uchburchak shaklda Orol dengiziga suvini olib borgan

M.A.Itina Xorazm vohasi Janubida Tuyamo‘yin xududida Amudaryo suv sathi ko‘tarilishi munosabati bilan sohil ko‘tarmasidan oshib ketgan suv oqimi Qoraqum Qumtepaliklari oralig‘ida maydonchalar suv havzalariga aylanishi munosabati bilan geografik xolatida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan

Tadqiqot metodologiyasi . Ilmiy – xolislik, tarixiy-xronologik taxlil, nazariy-qiyosiy tasnif, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya, geologiya, fanlari natijalaridan foydalanildi.

Taxlil va natijalar.

Xorazm ekspedisiyasi xodimlari va Mustaqillik yillarida tadqiqotchilar asarlarida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni nazariy-qiyosiy taxlil qilish asosida Neolit davri jamiyatining iqtisodiy rivojlanishiga bo‘lgan omillar taxlil qilindi. Geologik taraqqiyot natijalari asosida tarkib topgan Xorazm tekisligini geografik xolatini tasvir qilgan Qizilqum va Qoraqum to‘lqinsimon Sochma qum uyumlari oralig‘ida botiqlar Amudaryo suv sathi ko‘tarilishi munosabati bilan sohil chegarasini belgilab bergan ko‘tarmasidan oqib shiddat bilan Qizilqum tomon yo‘nalishi munosabati bilan aylangan suv xavzalari ajdodlarimizning xo‘jalik sohalarini olib borishiga omil bo‘lgan. Bu jarayonda Amudaryo irmoqlari o‘ng soxilda Oqchadaryo, o‘ng soxil xududida Dovdon va Daryolik irmoqlari suvlari yangi-yangi suv havzalari, ko‘llarini xosil qilib, iqtisodiy omillarni hosil qilganlar. Neolit davrida Uzboy, Sariqamish, Tuyamuyin va Oqchadaryo xavzasi xududlari bir-biriga ulanib ketgan yoki aloxida – aloxida suv xavzalari odamzot uchun kundalik faoliyatlarini olib borishiga keng imkoniyatni xosil qilgan.

Mazkur tarixiy ma’lumotlar asosida quyidagi natijalarga erishildi.

Geologik jarayonlarning takror-takrorlanib turishi natijasida rang-barang (geografik, tabiiy-iqtisodiy Xorazm tekisligi tarkib topgan) ular yer yuzasi tog‘lar (Sulton Uvays tog‘i, Qoratog‘, Yumurtog‘, Qubatog‘).

Amudaryo asosiy suv oqimini Sariqamishbuyi xavzasidan keyin tekislikda yo‘nalishini shimoliy tomon olib borishi natijasida o‘ng va so‘l sohili xududlariga bo‘lingan;

Amudaryo suv ta’minotining yuqori darajada bo‘lishi natijasida ajralib chiqqan Oqchadaryo, Dovdon va Daryoliq o‘zanlari suv sathi ko‘tarilishi munosabati bilan

Qizilqum va Qoraqum qumtepaliklari oralig‘ida maydonchalar suv xavzalariga aylanishi iqtisodiy omillarni hosil qilgan. O‘ng va so‘l soxil xududi Neolit davrida suv xavzalari, ularning sohili etaklari qamishzorli o‘simliklar, Qumtepaliklar sof tuprog‘ida o‘sib maysalar odamzotning kundalik faoliyatlarini olib borishiga imkon beradigan omillar vujudga kelgan.

Xulosa va takliflar.

Xorazm ekspedisiyasi xodimlarini Uzboy, Sariqamishbuyi, Quyi Amudaryo xududida keng qamrovli ravishda olib borgan paleogeografik, paleogeologik xamda arxeologik izlanishlar natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosa va takliflar ilgari surildi:

-Xorazm vohasi vatanimizni shimoli-g‘arbiy qismi, Qizilqum va Qoraqum oralig‘ida joylashib, qo‘shni tarixiy-geografik xududlarida farqlanish xolatini Amudaryoning dinamikasiga bog‘liqligi;

-Vatanimizning asosiy dexqonchilik xududlarida Qizilqum orqali aloxidalik xususiyati;

-Qizilqum va Qoraqum oralig‘ida botiqlar ikki azim daryolari suv ta’minoti barqaror bo‘lishi munosabati bilan suv xavzalariga aylanishi, ularning etaklari Flora va Faunaga ustunlik qilishi iqtisodiy omilni vujudga keltirgan.

Yuqorida qayd qilingan xulosadan kelib chiqib, quyidagi takliflar izohlandi:

-Xorazm vohasi paleogeografiya va paleoekologiyasi hozirgi zamon mazmuni bilan qiyoslash;

-Ikki buyuk geografik atamaning ijobiy va noijobiy xususiyatlarini o‘rganish;

-Geologik jarayonning Neogen davridan boshlab, neolit davridan Xorazm tekisligi yuzasi o‘zgarishi Amudaryo va Sirdaryolari faoliyatlarini yoritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Gerodot. Tarix T. IX L.202.

2.Strabon. Geografiya XI. II.

3 Nizovya Amudari Sarikamish. Uzboy Istoriya formirovaniya i zaseleniya-M; Nauka, 1960 № 3.

4.Kes A.S. Antropogennoe vozdeystvie na formirovanie relfa allyuvialno-deltovix ravnin Amudari //Kultura i iskusstvo Drevnego Xorezma //Vost.-Lit-M.:Nauka, 1981.

5.Tolstov S.P. Raboti Xorezmskoy arxeologo -etnograficheskoy ekpspedisii v 1949-1953 gg //TrXAEE-M.:Nauka, 1958 T.II.

6.Kes A.S. Aralskoe more v Golosene.//Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii.-M:Nauka, 1979.

7. Vinogradov A.V. Neoliticheskie pamyatniki Xorezma-M.:Nauka 1968. Vip.8.

8.Itina M.A. Pamyatniki Neolita i bronzi //Drevnosti Yujnogo Xorezma //TrXAEE-M. 1991. T-XVI.

9.Matyaqubov X.X. Xorazm vohasi bronza asri va ilk Temir davri tarixi-Toshkent, 2014-B 13.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

NUTQ O’STIRISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARINING FONETIK XUSUSIYATLARI QIYOSIY TAHLILI

Dilmurodova Dilnura Ilhom qizi,
O‘zbekiston Milliy univesiteti Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarining fonetik tizimlari chuqur tahlil qilingan hamda fonetika, ya’ni tovushlar tizimi, til o‘rganish jarayonida asosiy komponentlardan biri ekanligiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi fonemik kontrastlar, urg‘u va intonatsiya tizimlaridagi farqlar o‘rganilib, bu farqlar o‘zbek auditoriyasi uchun qanday qiyinchiliklar tug‘dirishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Mazkur maqolada fonetik kompetensiyani rivojlantirish uchun metodik tavsiyalar ham taqdim etilgan. Tadqiqot natijalaridan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi ingliz tili o‘rganuvchilarning fonetik xatolarini aniqlash va tuzatishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: fonetika, fonema, urg‘u, intonatsiya, talaffuz, fonologiya, o‘zbek tili, ingliz tili, nutq, nutqo’stirish, yondashuv, natija.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФОНЕТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ В КОНТЕКСТЕ РАЗВИТИЯ РЕЧИ

Дилмуродова Дилнура Илхом кизи,
Студентка 2-го курса Национального университета Узбекистана, факультета иностранных языков и литературы

Абстрактный: В данной статье представлен углубленный анализ фонетических систем английского и узбекского языков, с акцентом на то, что фонетика, то есть система звуков, является одним из основных компонентов процесса изучения языка. Также рассматриваются различия в фонемных контрастах, ударении и интонационных системах между английским и узбекским языками, и предоставляется информация о том, как эти различия создают трудности для узбекской аудитории.

В статье также приводятся методические рекомендации по развитию фонетической компетенции. Результаты исследования могут быть использованы для выявления и исправления фонетических ошибок у изучающих английский язык, говорящих на узбекском языке.

Ключевые слова: фонетика, фонема, ударение, интонация, произношение, фонология, узбекский язык, английский язык, речь, развитие речи, подход, результат.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PHONETIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEKISTAN IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH GROWTH

Dilmurodova Dilnura Ilhom qizi,
2nd year student of the National University of Uzbekistan, Department of Foreign Languages and Literature

This article provides an in-depth analysis of the phonetic systems of English and Uzbek, emphasizing that phonetics, that is, the system of sounds, is one of the main components in the language learning process. It also examines the differences in

phonemic contrasts, stress, and intonation systems between English and Uzbek, and provides information on how these differences pose challenges for Uzbek audiences.

This article also provides methodological recommendations for developing phonetic competence. The results of the study can be used to identify and correct phonetic errors in Uzbek-speaking English learners.

Keywords: phonetics, phoneme, stress, intonation, pronunciation, phonology, Uzbek language, English language, speech, speech development, approach, result.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o‘rganish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya va ta’lim sohalarida eng yetakchi vositalardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Ingliz tilini o‘rganishda fonetik kompetensiyaning o‘rni beqiyosdir. Fonetika, ya’ni tovushlar tizimini to‘g‘ri tushunish va qo‘llay olish, to‘g‘ri talaffuz, urg‘u va intonatsiyani shakllantirish orqali og‘zaki nutqning aniq va tushunarli bo‘lishi ta’minlanadi.[1]

Ingliz va o‘zbek tillari fonetik jihatdan sezilarli farqlarga ega. Ingliz tilidagi fonemalarning ko‘pligi, ayniqsa unli tovushlarning uzun-qisqa kontrasti, urg‘u va intonatsiya tizimidagi murakkabliklar o‘zbek tili fonetikasi bilan qiyoslaganda yanada murakkabroq ko‘rinadi. O‘zbek tilida talaffuzdagi ozgina o‘zgarishlar ko‘p hollarda semantik farqqa olib kelmaydi, ingliz tilida esa bu holat juda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o‘zbek o‘rganuvchilari ingliz fonetik tizimini o‘zlashtirishda ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Nutq o‘stirish jarayoni — bu murakkab psixolingvistik, pedagogik va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u o‘quvchining muloqot madaniyati, tafakkuri va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Nutq inson tafakkurining ijtimoiy shakli sifatida o‘qituvchi rahbarligida, faol kommunikativ muhitda shakllanadi. Zamonaviy yondashuvlar bu jarayonni yanada samarali qilish imkonini beradi. Shunday ekan, nutq o‘stirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan texnologik vositalardan foydalanish muhim omil sanaladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, nutq — o‘quvchining fikrini aniq, ravon va izchil ifoda etish qobiliyatini shakllantiruvchi o‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Nutq o‘stirish ta’lim jarayonida o‘qish, yozish, tinglash va gapirish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali amalga oshadi. Bu jarayon shaxsning nafaqat tilni bilish darajasini, balki uning muloqot madaniyatini, tafakkur kengligini ham belgilaydi.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarining fonetik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, fonemik tizim, urg‘u, intonatsiya, talaffuzdagi asosiy farqlar yoritiladi. Shu bilan birga, o‘zbek o‘quvchilari duch keladigan muammolar aniqlanib, fonetik kompetensiyani rivojlantirishga doir tavsiyalar beriladi.

Tadqiqot usullari.

Zamonaviy ta’lim tizimida nutq o‘stirish kommunikativ, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va innovatsion yondashuvlar asosida olib boriladi. Kommunikativ yondashuv o‘quvchini muloqot jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchining nutqiy malakasini hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv individual farqlarni hisobga olgan holda, har bir o‘quvchi uchun qulay o‘qish muhitini yaratadi.

O‘qituvchi faoliyatida nutqni o‘stirish jarayonining muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq:

1. O‘quvchilar bilan samarali muloqot muhitini yaratish;
2. Motivatsiyani oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish;
3. Audiovizual va raqamli resurslarni dars mazmuniga mos tanlash;

Nutqni rivojlantirishda bolaning psixologik xususiyatlari, yosh davrlari va idrok imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Psixolingvistlar fikriga ko‘ra, nutq faoliyati motiv, maqsad, til materiali, nutq harakati va nazorat bosqichlaridan iborat. Bu bosqichlarning har biri o‘qituvchi tomonidan boshqariladi va o‘quvchining faol ishtirokiga asoslanadi. Buni har bir yosh bosqichida quyidagicha izohlashimiz mumkin. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivoji ko‘proq taqlid va muloqotga asoslanadi. Boshlang’ich maktab yoshida esa o‘quvchi nutqni ongli o‘zlashtira boshlaydi, lug‘at boyligi kengayadi, grammatik tuzilish to‘g‘rilanadi. O‘rta va yuqori sinflarda esa mantiqiy, ijodiy, bahsli nutq ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli har bir bosqichda qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar yosh psixologiyasiga mos bo‘lishi zarur.

Innovatsion yondashuvda esa nutqni rivojlantirish jarayoni raqamli vositalar orqali boyitiladi. Masalan, onlayn platformalarda interaktiv topshiriqlar, sun’iy intellekt yordamida talaffuz tahlili, virtual suhbat muhitlari orqali nutqiy muloqot ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu holatda texnologiya o‘qituvchining o‘rnini bosmaydi, aksincha, uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu sababli ingliz va o‘zbek tillarining fonetik tizimlarini o‘rganishda bir nechta ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish madsadga muvofiq. Avvalo, deskriptiv tahlil orqali har ikki tilning fonemik tarkibi, ya’ni undosh va unli tovushlar soni va ularning artikulyatsion xususiyatlari tavsiflanadi. So‘ngra kontrastiv tahlil asosida ikkala tilning fonologik tizimlari bir-biriga qiyoslab o‘rganiladi. Bunda fonemalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlilik darajasi aniqlanib, urg‘u va intonatsiya tizimidagi tafovutlar ko‘rsatiladi.

Tadqiqotning empirik qismida esa ingliz tilini o‘rganayotgan o‘zbek guruhlari ustida eksperiment o‘tkazilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda xorijiy tillarni o‘rganuvchilar sinovdan o‘tkazilib, ularning talaffuzdagi muammolari o‘rganiladi va fonetik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida maxsus testlar va so‘rovnomalar orqali ularning fonetik bilim darajalari o‘rganish ham mumkin. Shu bilan birga fonetika, fonologiya, tilshunoslik va metodikaga oid mahalliy hamda xorijiy manbalar chuqur tahlil qilinadi. Jumladan, Peter Roach, Ladefoged, Crystal singari olimlarning fonetika bo‘yicha asarlari asosiy nazariy poydevor sifatida xizmat qiladi. [4] Shuningdek, O‘zbekistonda chop etilgan fonetika va metodika darsliklari ham qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. [2], [3]

Natijalar. Olib borilgan qiyosiy fonetik tahlil natijalari ingliz va o‘zbek tillarining fonemik tuzilmalari, urg‘u tizimi hamda intonatsion xususiyatlari o‘rtasida chuqur va tizimli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot doirasida o‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalarning ingliz tilidagi fonetik birliklarni o‘zlashtirishda duch kelayotgan qiyinchiliklari atroflicha o‘rganildi.

Avvalo, fonemik tizim jihatidan farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ingliz tilida mavjud bo‘lgan 44 ta fonemadan 20 tasi unli, 24 tasi undosh tovushlar bo‘lib, bu tizim fonologik jihatdan yuqori darajada differensiyalashganligini anglatadi. Ayniqsa, uzun va qisqa unlilar o‘rtasidagi kontrast (masalan, /iː/ – /ɪ/ yoki /ɑː/ – /ʌ/) semantik tafovutni yuzaga keltiradi, bu esa o‘rganuvchilar uchun sezilarli fonetik farqlash qobiliyatini talab etadi. [4] Bunga qarshi tarzda, o‘zbek tilida faqat olti unli mavjud bo‘lib, bu tovushlar o‘zaro uzun-qisqa kontrastni ifodalamaydi. Shu sababli, ingliz tilidagi fonemik farqlarni anglash va to‘g‘ri talaffuz qilish o‘zbek o‘rganuvchilari uchun sezilarli darajada murakkab kechadi.

Urg‘u tizimiga oid tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida urg‘uning so‘zdagi o‘rni so‘z ma’nosini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Masalan,’record (ot) va re‘cord (fe’l) so‘zlarida urg‘uning joylanishi semantik farqlilikka olib keladi. Ingliz tilining stress-timed (urg‘uga asoslangan) ritmik tabiati gap bo‘yicha urg‘u naqshlarini muhim

kommunikativ vosita sifatida shakllantiradi. [1] O‘zbek tilida esa urg‘u odatda so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi va bu urg‘u o‘z navbatida ma’noga ta’sir qilmaydi. Bu struktura farqi urg‘uning joylashuvi orqali ma’no farqlanishini talab qiluvchi ingliz tilidagi vaziyatlarda xatolarga olib keladi.

Intonatsion tizim ham ikki til orasidagi farqlarning muhim qismidir. Ingliz tilida intonatsiya muloqotdagi vazifasiga qarab turlicha shakllanadi: buyruq, savol, undov va tasdiq gaplarda turli intonatsion naqshlar qo‘llaniladi. Bu esa so‘zlovchining niyatini, emotsiyasini va gapning funksional yukini aniq ifodalashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida esa intonatsiya ko‘proq ohang darajasida ifodalanib, semantik tafovutlar yaratishda nisbatan kamroq ishtirok etadi. Shu sababli, ingliz tilidagi ko‘tariluvchi yoki tushuvchi intonatsion naqshlarni to‘g‘ri qo‘llash talabalar uchun muayyan darajada murakkablik tug‘diradi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan fonetik testlar shuni ko‘rsatdiki, talaffuzdagi asosiy xatolar /θ/ (think), /ð/ (this) kabi interdental tovushlarni to‘g‘ri ifoda eta olmaslikda, ularni /s/ yoki /z/ tovushlariga almashtirishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, /æ/ (cat) va /ʌ/ (cup) tovushlarining chalkashligi, urg‘u va intonatsiyadagi noto‘g‘ri qo‘llanmalar so‘z ma’nosining noto‘g‘ri tushunilishiga olib kelgan. Bu holatlar fonetik kompetensiyaning rivojlanishi uchun maqsadli va metodik yondashuv zarurligini ko‘rsatdi.

Muhokama. Yuqoridagi natijalar ingliz tilining fonetik tizimi o‘zbek o‘quvchilari uchun murakkab til o‘rganish sohasi ekanligini tasdiqlaydi. Fonemik farqlarning ko‘pligi, urg‘u va intonatsiya tizimining o‘ziga xosligi, talaffuzdagi nozik fonetik kontrastlar o‘quvchilarning fonetik kompetensiyasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek tilining soddalashgan fonetik tizimi, ayniqsa fonemalarning miqdoriy cheklanganligi, o‘quvchilarni ingliz tilidagi murakkab fonologik strukturalarni o‘zlashtirishda qiyin holatlarga duch keltiradi. Talaffuzdagi xatolar, xususan, interdental va differensiyalashgan unli tovushlarni adashtirish, stress naqshlarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi, so‘z va gap darajasida intonatsiya vositalarining yetarli darajada qo‘llanilmasligi, til o‘rganish samaradorligini pasaytiradi. Bu holatlarning bartaraf etilishi uchun fonetik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonetik kompetensiyani rivojlantirishda birinchi navbatda fonetik transkripsiyalarni puxta o‘zlashtirish zarur.[3] Xalqaro fonetik alfavit (IPA) asosida talaffuz mashqlarini bajarish, har bir fonemaning artikulyatsion xususiyatlarini chuqur o‘rganish, eshituv asosida farqlashga oid treninglar tashkil qilish natijador usullardan hisoblanadi. Audio va video materiallar orqali model talaffuzni eshitish, o‘z nutqini yozib olib tahlil qilish orqali o‘quvchilar fonetik sezuvchanlik va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, zamonaviy fonetik laboratoriyalar, mobil ilovalar (masalan, ELSA Speak, Forvo) va interaktiv platformalar yordamida fonetik treninglar o‘tkazish, ayniqsa mustaqil o‘rganishga yordam beradi. Individual yondashuv asosida har bir o‘quvchining fonetik muammolari aniqlanib, maxsus mashqlar orqali ularni bartaraf etish mumkin. Bu differensial yondashuv orqali o‘quvchilarning fonologik sezgirligi ortadi, talaffuzdagi ishonch mustahkamlanadi va fonetik kompetensiyaning rivojlanishiga erishiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan holatlar ingliz tilining fonetik jihatlarini samarali o‘rgatishda innovatsion metodlar, multimodal vositalar va individual yondashuvlar muhim omillar ekanligini tasdiqladi. Natijada, fonetik kompetensiya til o‘rganish jarayonida ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanishi zarur.

Xulosa.

Ingliz tilining fonetik tizimi o‘zbek tiliga nisbatan ancha murakkab bo‘lib, bu holat til o‘rganuvchilarning fonetik xatolariga olib keladi. Fonemik tizimdagi uzun

va qısqa unli tovushlar, interdental undoshlar, murakkab urg‘u va intonatsiya tizimi o‘zbek o‘quvchilari uchun eng katta to‘siqlardir. Shu bois, fonetik kompetensiyani rivojlantirish o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Til o‘rganishda fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashqlar, texnologik vositalar va zamonaviy metodikalar joriy etilishi lozim. Ingliz tilini o‘qitishda fonetik komponentni mustahkamlash, o‘qituvchilarning fonologik malakasini oshirish va doimiy fonetik monitoring yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitishda fonetik komponentni mustahkamlash o‘rganuvchilarni kelajakda ta’sirchan va malakali pedagog sifatida shakllantirishda muhim omildir. Bu nafaqat kasbiy, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning ham poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology. Cambridge University Press.
2. Ashurov, Sh. (2016). Fonetikadan kirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Yusupova, D. (2020). Ingliz tili fonetikasi. Samarqand: SamDU.
4. Ladefoged, P. & Johnson, K. (2014). A Course in Phonetics. Cengage Learning.
5. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi. (2021). Xorijiy til o‘qitish metodikasi.
7. Rahmonov, N. Nutq o‘stirish metodikasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
8. Tojiboyeva, Z. Til o‘rganishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

УДК: 491.709

ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОЙ КОНСТРУКЦИИ «НА + ПРЕДЛОЖНЫЙ ПАДЕЖ» В СТРУКТУРЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Ким Светлана Федоровна,
доцент, Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова,
Институт языков и культур народов Центральной Азии.
Республика Узбекистан, г. Самарканд

Аннотация: статья посвящена лексико-грамматическим особенностям синтаксической конструкции «на + предложный падеж». Рассматриваются концепции некоторых ученых относительно синкретизма семантики членов предложения (ЧП) данной конструкции. Дается описание лексической и грамматической классификации иллюстративного материала.

Ключевые слова: семантика, структура, экстралингвистический, синкретичный, объектный, локальный, объектно-обстоятельственный, синкретичная семантика, синтаксические отношения, дифференциация.

LEXICAL AND GRAMMATICAL FEATURES OF THE SYNTACTIC CONSTRUCTION «NA + PREPOSITIONAL CASE»

Kim Svetlana Fedorovna
Associate Professor,
Samarkand State University named after Sh. Rashidov,
Institute of Languages and Cultures of the Peoples of Central Asia,
Republic of Uzbekistan, Samarkand

Abstarct: This article examines the lexical and grammatical features of the syntactic construction «na + prepositional case.» The concepts of some scholars regarding the syncretism of the semantics of the sentence members (SP) of this construction are examined. A description of the lexical and grammatical classification of the illustrative material is provided.

Keywords: semantics, structure, extralinguistic, syncretic, objective, local, object-adverbial, syncretic semantics, syntactic relations, differentiation.

GAP TUZILMASIDA “HA + PREDLOGLI KELISHIK” SINTAKTIK KONSTRUKSIYASINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Kim Svetlana Fyodorovna,dotsent,
Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyatlari instituti,
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand shahri

Annotatsiya: Ushbu maqolada “na + predlogli kelishik” sintaktik konstruksiyasining leksik va grammatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Mazkur konstruksiya tarkibidagi gap bo‘laklari (GB) semantikasining sinkretizmi haqidagi ayrim olimlarning qarashlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, misol sifatida keltirilgan materiallarning leksik va grammatik tasnifi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: semantika, tuzilma, ekstralingvistik, sinkretik, obyektiv, lokal, obyekt-hol, sinkretik semantika, sintaktik munosabatlar, differensiallash.

Введение. По мнению Щербы Л.В., именно синкретичное явление, «неясное и колеблющееся, и должно больше всего привлекать внимание лингвистов» [12,35]. Виноградов В.В., обнаружив функциональную нестабильность некоторых членов предложения, настоятельно рекомендовал обратить внимание на так называемые синкретические формы, особенно распространенные в кругу обстоятельств [8, 95 – 96].

Однозначная трактовка многозначного факта неизбежно ведет к «дискриминации» данного явления. Таким дискриминированным явлением в сфере второстепенных членов предложения можно считать члены предложения объектно-локальной конструкции «на + П. падеж» (объектно-локальный член предложения – ОЛЧП) типа сидеть на ветке, лежать на столе, заметить на волосах, потоптаться на соломе, стоять на крыше, видеть на домах и мн. др., которой приписывается или семантическая функция объекта и синтаксическая роль дополнения, или функция обстоятельства и синтаксическая роль обстоятельства, между тем как, на наш взгляд, было бы точнее трактовать их как синкретичные, совмещающие в различной степени значения объекта и обстоятельства места: «Синицы сидят н а в е т к а х (н а в е т к а х) , пересыпают в горле стеклянные шарики, звенят, трещат и смотрят н а п о д о к о н н и к (н а п о д о к о н н и к)». Паустовский К. « … они (солдаты), одни в молодецких, другие, напротив, в самых скромных позах, сидели н а б а р а б а н а х (н а б а р а б а н а х), курили, пили и шутили, не заботясь о смерти …». Толстой Л. «Тогда пёс потоптался н а старой с о л о м е (н а с о л о м е), лег, долго смотрел в темноту и подымал уши …». Паустовский К. «Я поднял глаза: н а к р ы ш е (н а к р ы ш е) моей стояла девушка в полосатом платье, с распущенными волосами». Лермонтов М. «Вермель видел на некоторых д о м а х (н а д о м а х) совсем короткие надписи: «В этом доме людей нет». Паустовский К. и др.

Такой односторонний подход, когда сложное, многоаспектное явление квалифицируется по принципу «или-или», не способствует адекватной трактовке данного явления и установлению его подлинного статуса в системе языка [4, 149 – 151].

Исследования ученых, посвященные проблеме синкретизма в сфере синкретичных второстепенных членов предложения, показывают, что наличие в языке синкретичных образований, не отраженных в традиционной классификации второстепенных членов предложения (ВЧП), – вполне закономерное явление, которое было вызвано обусловливающимиих синтаксическими отношениями, наблюдающимися в строе предложения между его составными частями. Бабайцева В.В. утверждает: «… переходность – свойство языковой системы, зона синкретизма есть между всеми противопоставленными единицами языка, …и многие синкретичные явления … в синтаксисе характеризуются стабильностью»: «они известны с древнейших времен и не обнаруживают тенденции к функциональной дифференциации» [4, 149 – 151; 5, 8 – 23].

В этой связи не являются исключением и объектно-обстоятельственные члены предложения (ООЧП), обозначающие, с одной стороны, объекты действия, с другой – обстоятельства, характеризующие данное действие с разных сторон: местонахождения, причины возникновения, цели, способа (образа) действия и т. д.

Наличие в языке синкретичных ООЧП обусловлено прежде всего экстралингвистическими факторами. В синкретичных второстепенных членах предложения отражается разнообразие связей и отражений реального мира.

В объективной действительности всегда существует пространственная соотнесенность между предметами или между предметами и его признаком. Всякий

предмет действительности, по отношению к которому совершается действие (проявляется признак), указывает сам по себе и на обстоятельства данного действия. Отсюда возникает возможность для появления объектно-обстоятельственной связи. Эта пространственная соотнесенность и есть объективная предпосылка для появления ООЧП.

«Поскольку каждое действие совершается при известных обстоятельствах места …, то указание на эти обстоятельства может сопутствовать каждому глаголу … , – писал Кацнельсон С. Д. [10, 26], указывая тем самым на возможность совмещения отношений между явлениями реального мира. Ученый выделял ряд предикатов, «в значении которых уже содержится указание на обстоятельство, что открывает при таких глаголах вакансию для обстоятельственного «дополнения» [10, 26].

На взаимосвязь обстоятельственных (пространственных) и объектных отношений указывает и Арутюнова Н.Д.: «… синтаксические отношения, термином которых является имя, в принципе распадаются на отношения пространственного и временного плана с последующим развитием первых в объектные, а вторых – в логические значения» [2, 122].

Предложно-падежная форма в конструкциях типа сидеть на ветке, лежать на столе и др. является синкретичной по семантике языковой единицей, так как одновременно выражает значения объекта и места (объектно-локальное значение места – ОЛЗ). Объектная семантика словоформы подтверждается возможностью введения в структуру данного предложения с сохранением его прежнего значения морфологизованного обстоятельственного слова. Например: Синицы сидят на ветках, пересыпают в горле стеклянные шарики, звенят, трещат и смотрят на подоконник (К. Паустовский). Ср.: … сидят там на ветках …

На значение объекта в анализируемой форме «на + П. падеж» указывают также факты употребления ее в предложении со словоформой обстоятельственной семантики. Ср.: Они (солдаты), одно в молодецких, другие, напротив, в самых скромных позах, сидели на барабанах курили, пили и шутили, не заботясь о смерти … (Л. Толстой) и На полянке, поодаль от дороги, сидели на барабанах Полторацкий, два офицера 3-ей роты и бывший кавалергард … барон Фризе (Л. Толстой).

О наличии обстоятельственного компонента в семантике рассматриваемой формы свидетельствует возможность распространения предложения без изменения его семантики морфологизованным уточняемым словом. Например: Синицы сидят на ветках и Синицы сидят там, на ветках … (К. Паустовский).

Синкретизм семантики предложно-падежной формы «На+П. падеж» и структура типа лежать на книге создается синтаксическим значением предлога НА, с одной стороны, с другой – лексико-грамматическим значением сочетающихся словоформ глагола и существительного. «Семантика слова, – говори Мещанинов И.И., – в известной степени обусловливает свою синтаксическую роль в предложении. Оно выступает в позиции соответствующего члена предложения, включаясь в общее смысловое содержание высказывания и принимая на себя соответствующую долю смыслового значения предложения» [11, 4 – 5].

Центральное значение предлога НА – пространственное (нахождение на поверхности) и объектное отношения. В конструкциях типа разложить на столе, стоять на тумбочке, висеть на деревьях и т.д. в предлоге НА представляется, на наш взгляд, возможным усматривать синтез пространственного и объектного значений (нахождение на поверхности объекта), т.е. синкретичное значение пространства (места) и объекта одновременно (локальный объект и объектный локализатор). В

анализируемых словоформах «НА + п. падеж» сочетаются в равной мере локальное и объектное значения. В силу этого мы допускаем постановку двух вопросов: где? (обстоятельство места) и на чем (дополнение).

Итак, член предложения объектно-локальной конструкции «НА + П. пад.» обозначает как место (точку размещения на поверхности чего-либо) то, что одновременно делается конкретным предметом (объектом).

Данное положение обусловливается тем, что «1) объектное и пространственное отношения связаны между собой генетически: первые развились позднее на базе пространственных отношений и 2) назначение пространственных предлогов, каковым является и предлог НА, – подчинять себе имена конкретного значения» [2, 122].

Синкретичная объектно-локальная семантика ЧП, выраженного предложно-падежной формой субстантива «на + П. падеж», обнаруживается в сочетании с глагольной формой ситуативного, процессуального и – реже – событийного содержания.

В глаголах ситуативного плана «нет значения состояния, они характеризуют определенную ситуацию через отношение предметов, т.е. по семантическому содержанию это ситуативные глаголы» [1].

Глаголы процессуального содержания, как указывает Грубор Д., «выражают состояние, в котором кто-либо (что-либо) находится; в процессе пребывания в таком состоянии ничто не возникает, не изменяется, не перемещается, только время течет мимо этого состояния, указывая на его продолжительность» [9, 50].

Для выражения значения локального объекта (или объектного локализатора) предназначены имена существительные с предметной семантикой, а также могут употребляться существительные вещественные и собирательные имена. Все сказанное можно представить в виде общих формул сочетаемости:

1. Ситуативный глагол + конкретно-предметное (вещественное или собирательное) имя.
2. Процессуальный глагол + конкретно-предметное (вещественное или собирательное) имя.
3. Активный глагол + конкретно-предметное (вещественное или собирательное) имя.

Синкретичная объектно-локальная семантика ЧП в форме «на + П. падеж» в конструкциях типа сидеть на скамейке, лежать на диване обусловлена потребностями мышления и общения, а именно – в желании выразить наиболее экономно сложную семантику. «Только типичными членами предложения, – замечает В.В. Бабайцева, – нельзя выразить многие оттенки значений, так как не всегда однозначны сами и отношения между явлениями действительности. Синкретичные члены предложения – экономный способ конденсации смысла» [6, 87].

«Синкретизм, говорит Бабайцева В.В., – не есть механическое совмещение, соединение дифференциальных признаков противопоставленных явлений, а представляет собой интеграцию новой семантики. Любое синкретичное образование формирует зону синкретизма между противопоставленными явлениями, признаками которых совмещены в нем. Зона синкретизма неоднородна: она состоит из структур периферийных, характеризующихся доминированием одного, их компонентов, и структур промежуточных, для которых характерно равновесие сочетающихся компонентов» [3; 5, 8 – 23].

ОЛЧП, выраженные предложно-падежной формой «На + П. падеж» формируют зону синкретизма между ЧП объектной и локальной (пространственной) структур.

Синкретичная семантика данных ЧП представляет собой не застывшее соотношение компонентов, а динамическую структуру в отношении своих составляющих.

Динамизм этот обусловливает наличие промежуточной и периферийных областей в зоне указанного синкретизма. Конфигурация компонентов в семантической структуре синкретичной единицы (равновесие или доминирование), а тем самым и локализация ее в той или иной точке зоны синкретизма детерминированы лексико-грамматическими значениями (свойствами) сочетающихся форм глагола и субстантива – отнесенностью к различным лексико-грамматическим разрядам слова, лексико-семантическим полям, валентными свойствами форм глагола [3.].

Промежуточная область отличается наибольшей семантической емкостью, она ярко отражает природу всей зоны синкретизма, что позволяет считать ее центром последней. В силу своей подчеркнутой характерности промежуточная область объектно-локального синкретизма становится предметом дальнейшего нашего рассмотрения [3.]

Общее значение ОЛЧП конструкции «на + П. падеж» – поверхность локального объекта, на которой протекает действие субъекта (или другого объекта).

ЧП объектно-локальной конструкции «на + П. падеж», как правило, выражается конкретными именами, лексическое значение которых совпадает с их категориальным значением «конкретный предмет (вещь)». Например: кровать, книга, чемодан, дерево, ветка, скамейка, камень и т.д.

Конкретно-предметные имена объединяются в различные лексико-семантические поля, среди которых выделяются ЛСП растений (дерево, цветы, ягоды, кусты, грибы …); ЛСП предметов мебели (кровать, диван, стол, стул, тумбочка, полка …); ЛСП различных приспособлений для принятия положения в пространстве (скамейка, доска, бревно, камень …); ЛСП вместилищ (сумка, чемодан, ящик, корзина, мешок, сундук …); ЛСП вещей (платок, китель, веник, бурка, костюм, юбка) и др.

Каждое ЛСП конкретно-предметных имен представлено системой микрополей (МП), выделенных с учетом лексической семантики глагольной формы, в сочетании с которой формируется синкретичное объектно-локальное значение.

Глагольная форма может обозначать событие следующих семантических групп: положение в пространстве: сидеть, лежать, висеть, оставаться, держаться, застыть, вытянуться, валяться, собраться, уместиться, положить, приспособиться, расположиться и др.; состояние, изменение состояния: спать, свернуться, отдыхать, дремать, лопаться, развертываться, завязываться, вздрагивать, кипеть, плакать, скончаться, всхрапывать, гореть, блестеть, сверкать, играть и др.; проявление признака (его изменение): чернеть, розоветь, желтеть, высыхать, побелеть, синеть, просыхать, углубиться и др.; движение: прыгать, завозиться, шнырять, качаться, приплясывать, шевелить, трепетать, дрожать, качать, ворочаться, подтягиваться, вертеться, двигаться, вздыматься, шевелиться и др.; звучание: петь, кричать, застучать, ворковать, трещать, смеяться, дребезжать, тикать, зашипеть, запрыгать, зазвонить, прозвучать, скрипеть и др.; восприятие: виднеться, видеть, заметить, явиться, найти, почуять, почувствовать, отразиться и др.

Проиллюстрируем наши наблюдения речевыми фактами.

Наиболее частотными для промежуточной области зоны синкретизма объектно-локальной конструкции «на + П. падеж» являются следующие семантические модели (СМ):

Положение субъекта на поверхности — растений; предметов мебели; вместилищ; вещей; приспособлений; для принятия положения

Например: *Крупные тяжёлые капли **висели** **на** **глянцевитых** **ветках** кустов* (Б. Полевой). *Валек по-прежнему **лежал** **на траве** и задумчиво **следил** **за** паривши на небе **ястребом**. Алеша подал ему маленькое складное кругленькое зеркальце, **стоявшее** **на комоде** (Ф. Достоевский. Братья Карамазовы). Множество раскрытых книг **валялось** **на столе, на стульях** **и подоконниках** (К. Паустовский. Дым отечества). Сотни людей **сидели** **и** **лежали** **на корзинах, на тюках и чемоданах** (К. Паустовский. Дым отечества).*

Проявление, изменение признака субъекта на поверхности — растения

Например: *На тополях чернеют шапки, высотные дома грачей* (В. Быков). *В поле шла жатва, **желтели** **на деревьях** листья* (В. Короленко). *Солнце еще не всходило, **на траве** **розовела** роса (М. Шолохов. Жеребенок). Роса до полудня **не высыхала** **на бруснике*** (К. Паустовский. Правая рука).

Движение субъекта на поверхности — растения; предметов мебели

Например: *Осторожная и пугливая кукушка не сидела, а то и дело **шныряла** **на ветках** и в такт кивала головой, поднимая хвост кверху (В. Арсеньев). Ранним утром … пчелы нетрезво **качаются** **на** желтых **цветках сирени** (М. Шолохов. Алешкино сердце). Теплый ветер все так же лениво **шевелил** **на ольхе** сухие листья (М. Шолохов. Судьба человека). Кузьмин слышал, как Башилов **ворочался** **на койке** и сморкался (К. Паустовский). Евграф Иваныч то и дело **двигался** **на стуле**, расстегивал воротник си тобы не было душно* (А. Чехов. Тяжелые люди).

Звучание субъекта на поверхности — растений; предметов мебели, других конкретных предметов

Например: *На далеких **деревьях** **кричат** сонные грачи (А. Чехов. Невеста). Нет-нет затрещит в лесу дрозд, **застучит** **на** сухом **дереве** труженик дятел (И. Соколов-Микитин. Русский лес). Две горлинки ворковали на том же дереве, да одна кукушка (И. Тургенев. Ася). «Ках-ках-ках» – коротко рассмеялся на осинке ворон (А. Чехов. Сладкая ягода). Они (часы) тикают на врытом в землю круглом столе* (К. Паустовский. Степная гроза).

Восприятие субъекта на поверхности — растения; предметов мебели

Например: Почти на всех осинках виднеются такие загрызы (М. Пришвин. Кладовая солнца). Дерево принялось, и вскоре на ветках мы заметили свежие, пушистые побеги (Т. Тасс). Первая желтизна появилась на листьях березы (К. Паустовский). Маша нашла на столе Вермеля маленький карманный атлас Европы (К. Паустовский. Дым отечества). Все шли в столовую и всякий раз видели на столе одно и то же: блюдо с устрицами, кусок ветчины, сардина, сыр, икру, грибы, водку и два графина с вином (А. Чехов. Попрыгунья).

Анализ словоформы «на + П. падеж» в позиции синкретичного ОЛЧП промежуточной области зоны синкретизма позволяет сделать некоторые выводы:

1. ОЛЧП синтезирует в относительно равной степени значения двух типичных членов предложения – дополнения (объектное значение) и обстоятельства места (локальное значение). Данный ЧП обозначает поверхность конкретного предмета (объекта), который одновременно является и местом действия.

2. Появление ОЛЧП можно, по-видимому, мотивировать экономией языковых средств (эллипсисом), при котором оставшаяся часть берет на себя функции эллиптированной (опущенной), сохраняя и свою исходную функцию.

ЛИТЕРАТУРА

1. Авилова Н.С. Вид глагола и семантика глагольного слова. – М., 1976.
2. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. – М., 1976.
3. Бабайцева В.В. Зона синкретизма в системе частей речи современного русского языка // Филологические науки. – 1983, № 5.
4. Бабайцева В.В. Изучение членов предложения в школе. – М., 1975. – М., 1975.
5. Бабайцева В.В. Переходные конструкции в синтаксисе. – Воронеж, 1967.
6. Бабайцева В.В. Система членов предложения в современном русском языке. – М., 1980.
7. Бабайцева В.В. Явления переходности в грамматическом строе русского языка и методика их изучения // Явления переходности в грамматическом строе современного русского языка. – М., 1988.
8. Виноградов В.В. Введение в кн.: Грамматика русского языка. – М., 1960. Т 2., ч. I.
9. Грубор Д. Видовые замечания. – В кн.: Вопросы глагольного вида. – М., 1962.
10. Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // ВЯ, 1987, № 3.
11. Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. – М. – Л., 1945. –
12. Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Л., 1958. Т.1.

INGLIZ TILIDAGI KINOYAVIY BIRLIKLARNINIG O‘ZBEK TILIDA BERISH MASALASI

Latipov Bobur Baxromovich,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi kinoyaviy ko‘chimlarning o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda kinoyaning pragmatik va stilistik ta’sirini saqlash bilan bog‘liq asosiy qiyinchiliklar aniq misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kinoya , ingliz tili, o‘zbek tili, tarjima, madaniyat, dunyoqarash, ma’no, matn, ko‘chim.

ВОПРОС О ПЕРЕДАЧЕ ИРОНИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Латипов Бобур Бахромович,
Преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация. Данная статья посвящена проблемам перевода на узбекский язык англоязычных иронических переводов, в которой на конкретных примерах анализируются основные трудности, связанные с сохранением прагматического и стилистического влияния иронии.

Ключевые слова: ирония , английский, узбекский, перевод, культура, мировоззрение, смысл, текст, перевод.

THE QUESTION OF TRANSFERRING IRONIC UNITS OF THE ENGLISH LANGUAGE INTO THE UZBEK LANGUAGE

Latipov Bobur Bakhromovich,
Teacher of Karshi State University

Abstract. This article is devoted to the problems of translation into the Uzbek language of English-language ironic translations, in which the main difficulties associated with preserving the pragmatic and stylistic influence of irony are analyzed on the basis of specific examples.

Keywords: irony, English, Uzbek, translation, culture, worldview, meaning, text, translation.

Kirish. Kinoya o‘z tabiati jihatidan ikki qarama-qarshi hodisa, belgi yoki xususiyatning yagona kontekstda to‘qnashuvi orqali yuzaga keladigan nutqiy hodisadir. Ko‘pincha shaklan ijobiy yoki neytral bo‘lgan til birliklari vositasida salbiy yoki teskari ma’no ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Kinoyaviy ko‘chimlarni tarjima qilishda kuzatiladigan uchta asosiy holatdan ikkinchisi – teskari ma’noni salbiy denotativ yuklamaga ega bo‘lgan leksik birliklar orqali ifodalashdir. Bunday yondashuv matnning semantik mohiyatini buzmasa-da, kinoyaning estetik va pragmatik ta’sirchanligini sezilarli darajada pasaytiradi, chunki kinoyaviy ko‘chimning o‘ziga xos ziddiyatli tabiati va nozik ta’siri yo‘qoladi. “Kinoya nutqning shunday shakliki, unda matnning shakli mohiyatiga zid keladi. Bunda muayyan so‘zning teskari ma’noda qo‘llanishi matn mohiyatiga ta’sir o‘tkazadi”[1]. Shu sababli, kinoyaviy ko‘chimning kommunikativ va emotsional ta’sirini saqlab qolish uchun tarjima matnda ham kinoyaviy mexanizmdan – ya’ni shaklan ijobiy yoki neytral birliklar orqali teskari ma’noni ifodalashdan foydalanish zarur. Tarjimada ushbu nuqsonga yo‘l qo‘yilishining asosiy sababi tarjimonning asl matn

tili vakillari nutqiy odatlari, kommunikativ ko‘nikmalari va madaniy foniga oid yetarli bilim va tajribaga ega emasligidir. Kinoyaviy ko‘chimlarning turlari va qo‘llanilish xususiyatlarini to‘g‘ri idrok etish uchun xalqning muloqot madaniyatiga oid chuqur bilim, mustahkam ko‘nikma va malaka talab etiladi. Masalan, ingliz tilida kundalik nutqda tez-tez uchraydigan kinoyaviy iboralar (masalan, “Great job!” yoki “Nice work!” vaziyatga qarab haqiqiy maqtov emas, balki qoralash yoki tanqid ma’nosida ishlatilishi) bu mexanizmning yorqin namunasidir. Bunday iboralarni tarjima qilishda salbiy denotativ ma’noli to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentlar (masalan, “Ajoyib ish!” o‘rniga “Yomon ish!”) tanlash kinoyaning nozik ta’sirini yo‘qotib, matnning pragmatik va stilistik qiymatini pasaytiradi:

Well, that went well (Ha, hammasi zo‘r bo‘ldi) – ishlar yomon kechgan vaqtlarda qo‘llanadi;

Oh, what a brilliant idea! (O, qanday zo‘r g‘oya) – ishning orqaga ketishiga sabab bo‘lgan g‘oya haqida;

I love queing (Navbatda turishni juda yoqtiraman) – navbatda turishdan bezor bo‘lgan o‘rinlarda qo‘llanadi;

Not bad (Yomonmas) – vaziyat nihoyatda yomonlashgan vaziyatlarda qo‘llanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Keltirilgan misollarda kinoyaviy iboralar ko‘pincha ichki nutq shaklida – ya’ni shaxs o‘z-o‘ziga murojaat qilgan holda – namoyon bo‘lib, salbiy vaziyatlarni yumshatish, og‘riqli holatlarga tasalli berish yoki norozilikni bilvosita ifodalash vazifasini bajaradi. Ingliz madaniyatida bunday kontekstlarda “Oh, what a brilliant idea!” yoki shunga o‘xshash iboralar shaxsning o‘ziga nisbatan yengil hazil yoki o‘zini tinchlantirish mexanizmi sifatida qo‘llaniladi. Ingliz tili korpuslarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu iboralar muayyan nutqiy vaziyatlarda to‘liq salbiy yuklamaga ega bo‘lgan fikrlarni almashtirib, emotsional zo‘riqishni pasaytirishga xizmat qiladi. Kinoyaviy ko‘chimni tarjima qilishda teskari ma’noni kontekstga mos salbiy denotativ ma’noli leksik birliklar orqali ifodalash mumkin bo‘lib, bu holda matnning semantik mohiyati saqlanib qoladi. Biroq kinoyaning pragmatik va estetik ta’siri sezilarli darajada susayadi, chunki tarjima matnda ma’no ko‘chishining o‘ziga xos ziddiyatli mexanizmi yo‘qoladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Masalan, vaziyatga qarab kinoyaviy ma’no kasb etgan “Oh, what a brilliant idea!” iborasini “Bu nihoyatda yomon g‘oya edi!” tarzida to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ekvivalent bilan tarjima qilish matnning asl mazmunini buzmaydi, ammo kinoyaning nozik ta’sirchanligini – ya’ni shaklan ijobiy birlik orqali salbiy ma’noni bilvosita ifodalashni – butunlay yo‘qotadi. “Kinoya jamiyat yo alohida insonning estetik qarashlari real voqeylik bilan qarama-qarshi kelib qolgan vaziyatda vujudga keladi. Yuqorida aytilgani kabi, kinoya asosan norizolik paydo bo‘lganda ochiqdan-ochiq emas balki bilvosita bayon etiladi”[2:203-210]. Shu nuqtai nazardan, kinoyaviy ko‘chimning samaradorligi ko‘pincha maxsus intonatsiya yoki kontekstual ishoralarga bog‘liq bo‘lib, ijobiy denotativ ma’noli leksik birlikning teskari ma’noda qo‘llanilishi boshqa tilda salbiy denotatli to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent bilan almashtirilganda kinoyaning ifodaviy va pragmatik jihatlari yo‘qqa chiqadi. Natijada, tarjima matn kinoyaning madaniy va psixologik funksiyasini – norozilikni yumshoq va nozik shaklda ifodalash imkoniyatini – yetarli darajada aks ettira olmaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Kinoyaning yuzaga kelishi va kommunikativ ta’sirida tanlangan leksik vositalar bilan bir qatorda prosodik unsurlar, xususan, maxsus intonatsiya (ohang) ham hal qiluvchi rol o‘ynashi ingliz tili fonetikasini chuqur o‘rgangan tilshunoslar tomonidan ham qayd etilgan. Masalan, J.D. O’Connor kinoyaning ifodalanishida intonatsiyaning muhim o‘rin tutishini ta’kidlab, uning

semantik ziddiyatni kuchaytiruvchi omil ekanligini ko‘rsatadi[3:152]. Misol tariqasida keltirilgan “She’s quite pretty” iborasi yuzaki qatlamda “U juda yoqimtoy” ma’nosini ifodalagan bo‘lsa-da, maxsus intonatsiya (masalan, past tushuvchi yoki cho‘zinchoq ohang) orqali butunlay teskari – salbiy yoki masxaraomuz ma’no kasb etishi mumkin. Tarjimon orfoepik (talaffuz) normalarining pragmatik funksiyasini yetarli darajada anglamagan holda iborani sof maqtov sifatida qabul qilsa, matnning asl illokutiv maqsadidan jiddiy chetlashadi. Shu bilan birga, tarjimon matn mohiyatini to‘g‘ri idrok etgan taqdirda ham, kinoyaviy ta’sirni e’tiborsiz qoldirib, faqat teskari ma’noni ochiq ifodalashga o‘tishi mumkin – masalan, “U juda yoqimsiz ekan” tarzida tarjima qilish orqali. Bunday yondashuv semantik mazmunni saqlab qolgan bo‘lsa-da, kinoyaning o‘ziga xos prosodik va stilistik ta’sirini, shuningdek, uning bilvosita norozilik ifodalash mexanizmini butunlay yo‘qotadi. Natijada, kinoyaviy ko‘chimning adekvat tarjimasi uchun eng maqbul yo‘l maqsadli tilda ham kinoyaviy mexanizmdan – ya’ni shaklan ijobiy yoki neytral leksik birliklarni maxsus kontekstual yoki prosodik ishoralar bilan teskari ma’noda ishlatishdan foydalanishdir

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Kinoyaviy ko‘chimlarni tarjima qilishda kuzatiladigan uchinchi holat – teskari ma’noni maqsadli tilda ham aynan kinoyaviy ko‘chim vositasida ifodalashdir. Ushbu yondashuv kinoyaning pragmatik, estetik va stilistik ta’sirini saqlab qolish nuqtai nazaridan eng maqbul va samarali usul hisoblanadi. Tarjima o‘z mohiyatiga ko‘ra so‘z san’ati shakllaridan biri bo‘lib, u matnni so‘zma-so‘z ko‘chirish emas, balki asl matnning semantik, pragmatik va estetik mohiyatini to‘liq yetkazishga qaratilgan qoidalarga asoslangan ilmiy va ijodiy jarayondir. Shu nuqtai nazardan, tarjimon nafaqat til ustasi, balki asl muallif darajasidagi ijodiy mahorat va chuqur tushunishga ega bo‘lishi zarur. Badiiy tarjima esa alohida mas’uliyat yuklaydi, chunki tarjimon asarning originaldagi san’atkorlik xususiyatlarini – stilistik nozikliklar, emotsional ta’sir va madaniy konnotatsiyalarni – to‘liq saqlagan holda maqsadli til o‘quvchisiga yetkazishi lozim. Bu jarayon o‘quvchida asl matnga teng darajada chuqur taassurot uyg‘otishi kerak. “Tarjimon asarning unda tasvirlangan voqealarning ichiga kirib borishi, qahramonlar bilan birga yig‘lashi, ular bilan birga kulishi, birga o‘ylab his etishi, harakat qilishi, xullas, qahramonlar orasiga qo‘shilib ketishi zarur”[4:58-63]. Kinoyaviy ko‘chimlarni tarjima qilish masalasida badiiy matnlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, chunki kinoyani matnga mutanosib va ta’sirchan tarzda integratsiya qilish til egasidan yuqori darajadagi so‘z san’ati mahoratini talab etadi. Kinoyani nafaqat ijodiy qo‘llash, balki uni matn tarkibidan aniqlash va to‘g‘ri idrok etish ham muloqot ishtirokchilaridan maxsus tayyorgarlik va pragmatik kompetensiyani talab qiladi. Shu sababli, kinoyaviy ko‘chimlarni bir tildan ikkinchisiga o‘tkazishda ham tarjimonlik iste’dodi va ijodiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tiliga ingliz tilidagi kinoyaviy ko‘chimlarni tarjima qilish jarayoni faqat semantik mazmunni yetkazish bilan cheklanmaydi; unda yashirin mazmun, madaniy xususiyatlar, so‘z o‘yinlari, prosodik nozikliklar va uslubiy ta’sirlarning adekvat ifodalanishi talab etiladi. Tarjimon lug‘aviy ekvivalentlarni topish bilan kifoyalanmasdan, matndagi yumoristik, iztehzoli ruhni, estetik zavqni va ijtimoiy kontekstual muvofiqlikni maqsadli tilda qayta tiklashi zarur. Kinoyani shakllantirishda fonetik-intonatsion (iztehzo ohangi, cho‘zinchoq tovushlar, pauzalar), leksik (enantiosemiya, ijobiy ma’noli so‘zlarning salbiy kontekstda qo‘llanilishi), frazeologik (maqol va iboralarning zid ma’noda ishlatilishi) hamda sintaktik vositalar keng qo‘llaniladi. Bu vositalar shakl va mazmun o‘rtasidagi nomutanosiblikni ta’minlab, kinoyaning ta’sirchanligini oshiradi va uni nafaqat hazil, balki ijtimoiy tanqid vositasi sifatida ham samarali qiladi. Masalan, sovuq va bulutli havoda aytilgan “What a pleasant day!” iborasini “Qanday ajoyib kun!” tarzida kinoyaviy kontekst va ohangni saqlagan holda tarjima qilish nutqiy samaradorlikka xizmat qiladi,

chunki “ironik iboralar ko‘pincha gapning tashqi ko‘rinishi va ichki ma’nosi o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asoslanadi”. Xulosa qilib aytganda, kinoyaviy ko‘chimlarni tarjima qilishning uchta holati orasida aynan kinoyaviy mexanizmdan foydalanish eng samarali hisoblanadi, zero u kinoyaning estetik va pragmatik ta’sirini, shuningdek, so‘zlovchining salbiy munosabatini bilvosita ifodalash funksiyasini to‘liq saqlab qoladi. Original matnda kinoya maqsadli ravishda qo‘llanilgan bo‘lsa, uni tarjima matnda ham saqlash tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kinoyaviy ko‘chimlarni (sarcasm va irony) tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni bir necha jihatga ajratish mumkin bo‘lib, ulardan eng muhimi ingliz va o‘zbek tillari foydalanuvchilari o‘rtasidagi madaniy farqlardir. Kinoya nutqda amalga oshirilishi madaniy stereotiplar, ijtimoiy normalar va jamoaviy bilimlarga tayanishini hisobga olgan holda, bu jamoaviy bilim til jamoasi a’zolari tomonidan kinoyaviy ifodani to‘g‘ri talqin qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Madaniy kontekstdagi bunday tafovutlar tufayli bir tildagi kinoyaviy ko‘chimni boshqa tilga o‘tkazish ba’zan mutlaqo imkonsiz holatga kelib qolishi mumkin. Masalan, ingliz madaniyatida, xususan britan an’anasida “understatement” (kamaytirib ifodalash) fenomeni keng tarqalgan bo‘lib, u hazil va kinoyada ham o‘ta kamtarlik va bosiqlikni saqlashni talab qiladi. Bu kinoyaviy ma’no uzatishda haddan tashqari oshkorlikdan qochishni anglatadi. O‘zbek madaniyatida esa ifoda uslublari nisbatan ochiqroq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lishiga moyillik kuchliroq ekani sababli, bunday kinoyalarni o‘zbek tiliga o‘tkazish jiddiy murakkabliklar keltirib chiqaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma doirasida til vositalarining pragmatik samaradorligi milliy-madaniy o‘ziga xoslik nuqtai nazaridan o‘rganilmoqda. Bunda ekstralingvistik omillar va kontekstual sharoitlarni hisobga olgan holda lingvistik birliklarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish muhim samara beradi. “Kinoya singari polifunksional vositalarning tilshunoslar, faylasuflar, psixologlar, estetika va semiotika sohalari mutaxassislari tomonidan tadqiq qilinishi, obyekt sifatida tanlanishi kabilar uning yakka shaxs nutqidan kengroq tushuncha ekanligini ko‘rsatadi”[5:45-52]. Ilmiy adabiyotda dastlab adabiyotshunoslik doirasida o‘rganilgan kinoya hozirda pragmatik tilshunoslik nuqtai nazaridan suhbatdoshga ta’sir etishning samarali vositasi, nutq madaniyati chegaralaridan chiqmasdan turib ochiq ifoda qilish qiyin bo‘lgan fikrlarni uzatishning qulay mexanizmi sifatida qaralmoqda. Ushbu xususiyatlar kinoyaviy ko‘chimlarni faqat individual nutq mahsuli deb hisoblab, so‘zma-so‘z yoki mexanik tarzda tarjima qilishning maqsadga muvofiqligini inkor etadi. Kinoyaning mohiyatini to‘liq tavsiflash uchun yakka lingvistik yondashuv yetarli emasligi hodisaning serqirraligi va qamrovining kengligi bilan izohlanadi. Hozirgacha kinoya xususiyatlarini to‘la aks ettiruvchi maxsus lug‘atlar mavjud emasligi ham, uni biror tilshunoslik darajasiga qamrab bo‘lmasligi ham mutaxassislar tomonidan ta’kidlanmoqda[6:520]. Shu sababli, kinoyaviy ifodalarni tarjima qilishda milliy mentalitet va muloqot madaniyatining mahalliy xususiyatlarini hisobga olish matn ma’nosini bir tildan ikkinchisiga muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kinoyaviy ko‘chimlarni tarjima qilishdagi navbatdagi muhim muammo ikki tilning lingvistik vositalari, xususan, leksik va frazeologik resurslari o‘rtasidagi tafovutlardir. Ko‘pincha ingliz tilida kinoyaviy ma’no yaratishda qo‘llaniladigan idiomatik iboralar, kollokatsiyalar va barqaror birikmalar o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobilga ega bo‘lmasligi mumkin. Masalan, “feel like a million bucks” (o‘zini juda yaxshi his qilmoq, energiyaga to‘la bo‘lmoq) kabi idiomatik ifoda o‘zbek tilida mavjud frazeologik birliklar orasida aniq ekvivalentga ega emasligi sababli, kinoyaviy kontekstda uni yetkazish jiddiy qiyinchilik tug‘diradi. Bunday hollarda

tarjimonlar ko‘pincha funksional ekvivalent izlashga yoki deskriptiv tarjima usuliga murojaat etadilar, ya’ni idiomatik iborani so‘z birikmalari, izohlovchi ifadalar yoki hatto to‘la gaplar vositasida ifodalaydilar. Biroq bu yondashuv kinoyaviy ko‘chimning pragmatik ta’sirini sezilarli darajada pasaytiradi, chunki frazeologik birliklarning nutqdagi o‘ziga xos jihati – ularning qisqalik, obrazlilik va tinglovchiga psixologik ta’sir kuchliligi – so‘zma-so‘z yoki izohli tarjimalarda yo‘qoladi. “Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko’chma ma’no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarining o’zaro birikuvi va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi bilan izohlanadi”[7:180-184]. Shu nuqtai nazardan, kinoyaviy ma’no frazeologik birlik orqali ifodalangan bo‘lsa, tarjima tilida ham shunga yaqin idiomatik iboraga murojaat qilish eng optimal yechim hisoblanadi. Afsuski, har bir tilning frazeologik fondi cheklangan va o‘ziga xos bo‘lgani uchun har doim ham to‘liq muqobil topish imkoni bo‘lavermaydi. Shunga qaramay, tarjima amaliyotida mazmunan va pragmatik jihatdan eng yaqin frazeologik birliklarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Ba’zi hollarda, masalan, “The last straw” (so‘nggi tomchi) iborasida bo‘lgani kabi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kalka qilish orqali muvaffaqiyatli ekvivalent yaratish mumkin bo‘ladi, chunki bu ifoda o‘zbek tilidagi “oxirgi tomchi” frazeologizmi bilan semantik va madaniy jihatdan mos keladi. Umuman olganda, frazeologik qatlamdagi farqlar kinoyaviy ko‘chim tarjimasida nafaqat leksik, balki stilistik va pragmatik yo‘qotishlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi, shu sababli tarjimonlardan milliy til frazeologiyasini chuqur bilish va ijodiy yechimlar izlash talab etiladi.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kinoyaviy ko‘chimlarni tarjima qilishdagi navbatdagi muhim qiyinchilik tagma’no (implication) va yashirin ma’nolarni yetkazish bilan bog‘liq bo‘lib, bu kinoyaning asosiy pragmatik mexanizmlariga taalluqlidir. Kinoyaning ta’sir kuchi, asosan, yashirin tanqid, teskari ma’no va emotsional kontrastni maxsus intonatsiya, mimika yoki kontekstual ishoralar orqali yetkazishda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, tagma’no va kinoya bir-biriga ontologik jihatdan yaqin hodisalar sifatida qaraladi, chunki ularning to‘liq talqini nafaqat yuzaki leksik-semantik qatlamga, balki butun matn kontekstiga, lisoniy va nolisoniy vositalarning o‘zaro ta’siriga bog‘liqdir. Kinoya implikatura (implication) ning maxsus turi sifatida affektiv va kognitiv jarayonlarning murakkab kombinatsiyasini ifodalaydi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, “Kinoya modeli his-tuyg‘ular kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi hamda ekspressiv belgi yashirin, ammo ta’sirli tarzda yetkaziladi”[8:494-499]. Bu xususiyat tarjima jarayonida matnning chuqur tahlilini, so‘zlovchi sub’yektiv emotsiyalarini va implitsit ma’nolarini sharhlashni talab qiladi. Tilshunoslar kinoyani aniqlashda kontekstual indikatorlarga (intonatsiya, leksik kontrast, situatsion nomutanosiblik) alohida e’tibor berishlari lozim, zero bu ishoralar so‘zning literal ma’nosidan farqli o‘laroq, chuqurroq emotsional va evaluativ qatlamlarni ochib beradi. Kinoya ko‘pincha kontrast prinsipi asosida ishlaydi: aytilgan ibora yoki jumla real vaziyatga qarama-qarshi qo‘yilishi orqali tinglovchida kutilmagan kognitiv reaksiya uyg‘otadi. Bu effekt shakl va mazmun o‘rtasidagi nomutanosiblikdan kelib chiqib, kinoyaviy ko‘chimning pragmatik samaradorligini ta’minlaydi. Tarjima amaliyotida mutaxassislar ushbu implitsit mexanizmlarni hisobga olmagan holda, kinoyaviy ta’sirning sezilarli darajada yo‘qolishiga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shuning uchun kinoyaviy matnni bir tildan ikkinchisiga o‘tkazishda kontekstual ishoralar, emotsional kontrast va yashirin implikaturalarni maksimal darajada saqlab qolishga qaratilgan ijodiy yechimlar talab etiladi, bu esa tarjima jarayonining umumiy samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1) https://www.powerthesaurus.org/irony/definitions [Elektron manba:] Murojaat

sanasi: 22.03.2025.

2) Jumayeva G. Kinoya, uning turlari va estetik baholash mezonlari // Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. Vol 3. №4. 2024. – P.203-210.

3) O'Connor J.D. Better English Pronunciation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 152 p.

4) Эгамова Я. Гётенинг "Ғарб-у Шарқ девони" ва унинг таржимаси хусусида // ГулДУ ахборотномаси. 2002. №1. – Б.58-63.

5) Шкицкая И.Ю. Феномен иронии и ее функции в манипулятивном дискурсе // Вестник Томского государственного университета. №440. 2019. – С.45-52.

6) Utsumi A. Verbal irony as implicit display of ironic environment: Distinguishing ironic utterance from nonirony // Journal of pragmatics. 2000. Vol.32. – P.1778.; Карасик В.И. Языковые ключи. Волгоград: Парадигма, 2007. –520 с.

7) Mamurova Sh. Ibora, so'z birikmasi va frazeologik birliklar haqida umumiy tushuncha // "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo'qon, 2024. – B.180-184.

8) Желватых Т.А. Психолингвистческий анализ восприятия иронии в художественном тексте (устном и письменном) // Вестник Башкирского университета. №2. 2016. – С.494-499.

MUSTAQILLIK DAVRIDA XORAZM ADABIY MUHITI

Palvanova Tuxtajon Palvanovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmning boy tarixi, urf-odat, an’analar va madaniyati asosida shakllangan mustaqillik davri adabiy muhiti erkin fikr, milliy qadriyatlarni tiklash va zamonaviy ijod bilan boyigani, yosh shoirlar, badiiy asarlar va adabiy tanqid bilan yangi yo’nalishlar rivojlanib borayotgani haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Xorazm, adabiyot, mustaqillik, yosh shoirlar, milliy qadriyatlar, Omon Matjon, Bahrom Ro’zimuhammad, Erkin Samandar, adabiy muhit.

Аннатация: В данной статье рассматривается литературная среда периода независимости, сформировавшаяся на основе богатой истории, обычаев, традиций и культуры Хорезма, которая обогатилась свободным мышлением, восстановлением национальных ценностей и современным творчеством. Также обсуждается развитие новых направлений, связанных с молодыми поэтами, художественными произведениями и литературной критикой.
Ключевые слова: Хорезм, литература, независимость, молодые поэты, национальные ценности, Омон Матжон, Бахром Розимухаммед, Эркин Самандар, литературная среда.

Abstract: This article discusses the literary environment of the independence period, shaped by the rich history, customs, traditions, and culture of Khorezm, which has been enriched by free thought, the revival of national values, and modern creativity. It also addresses the development of new directions related to young poets, artistic works, and literary criticism.
Keywords: Khorezm, literature, independence, young poets, national values, Omon Matjon, Bahrom Ro’zimuhammad, Erkin Samandar, literary milieu.

Xorazm hududi qadim-qadimdan boy tarixi, urf-odat va an’analari, tarixiy obyektlari, ilm-fan madaniyati, adabiy muhiti bilan boshqa hududlardan ajralib turadi.

Mustaqillik davrida Xorazm adabiy muhiti o‘zining xususiyatlari va o‘zgarishlari bilan o‘ziga xos bir rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi. Mustaqillikni qo‘lga kiritishdan so‘ng, Xorazmda adabiyotda bir qator yangiliklar yuzaga keldi, bu esa mintaqaning madaniy va adabiy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Mustaqillik davrida Xorazm adabiy muhitining xususiyatlari quyidagilar:

Erkin fikr va o‘zlikni ifoda etish: O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, adabiyotda erkinlik va mustaqil fikrlash jarayoni kuchaygan. Xorazmda ham zamonaviy adabiyotda mustaqil shaxs va erkin fikrni ifoda etishga alohida e’tibor berilgan.

Milliy va tarixiy qadriyatlar: Xorazm adabiyotida milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar va xalqning o‘ziga xos madaniy merosi tasvirlangan. Mustaqillik davrida bu qadriyatlarni tiklash, ularga e’tibor qaratish katta ahamiyat kasb etdi. Adabiyotda Xorazmning tarixiy va madaniy merosi yangicha nuqtai nazardan yoritildi.

She’riyat va prozaning o‘sishi: Xorazmda she’riyat va proza rivojlandi. She’riy ijodda mahalliy til va uslub qo‘llanildi. Xorazm shoirlari o‘z she’rlarida milliy istiqlolni, vatanparvarlikni va xalqning erkinligini ulug‘ladilar. Proza asarlarida esa insonning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi tasvirlandi.

Jurnalistika va adabiy tanqid: Xorazmda jurnalistika va adabiy tanqid sohalari ham rivojlandi. Adabiy tanqidchilar va jurnalistlar adabiyotda yuz berayotgan o‘zgarishlarni va yangi avlod ijodini chuqur tahlil qilib, mustaqillik davrining adabiy muhiti haqida

fikrlar bildirdilar.

Zamonaviy yozuvchilar va shoirlar: ustoz ijodkorlar E.Samandar, E.Madrahimov (Oshiq Erkin), Komil Avaz, M.Abdulhakim, B.Ro‘zimuhammad kabi shoirlar izidan borib, o‘z yo‘li va uslubini topishga harakat qilayotgan yosh shoirlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bugungi yosh shoirlar ijodida an’anaviy barmoq vaznidagi she’rlar bilan bir qatorda, modern yo‘nalishidagi she’rlar ham talaygina. N.Yangiboyeva, M.Ibodullayeva, Z.Nurmonova, Z.Masharipova, Z.Sobirova, U.Nurzoda, O.Mengliyev, Otabek Safar, Malohat Baxt, Zumrad Daryo, Shohruh Sardor Xorazmdan chiqqan zamonaviy shoirlar va yozuvchilar, masalan, va boshqalar, mustaqillik davrida o‘z ijodlari bilan adabiyotga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ularning asarlarida xalqning mashaqqatli hayoti, mustaqillikka erishish yo‘lidagi kurash va yangi hayotga bo‘lgan umid tasvirlangan.

Mahalliy folklor va adabiyotning uyg‘unligi: Xorazmning folklori, shu jumladan xalq qo‘shiqlari, afsonalar va rivoyatlar, mustaqillik davrida adabiyotda o‘z ifodasini topdi. Bu xalq madaniyatining mustahkamlanishi va saqlanib qolishiga xizmat qildi.

Mustaqillik davrida Xorazm adabiy muhiti milliy uyg‘onish, erkinlik, tarixiy va madaniy qadriyatlarni tiklash yo‘lidagi adabiy ijodning rivojlanishi bilan ajralib turadi. Yangi yozuvchilar va shoirlar o‘zlarining asarlari orqali zamonaviy Xorazm adabiyotining yangi bosqichini yaratdilar, milliy g‘urur va mustaqillikni ifodalaydilar.

Mustaqillik davrida yaratilgan Omon Matjon, Bahrom Ro‘zimuhammadning falsafiy she’riyati, Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq”, “Tangri qudug‘i”, Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” romanlari, Matnazar Abdulhakimning Najmiddin Kubro, Bedil, Pahlavon Mahmud ruboiyoti va g‘azallarining o‘zbek tiliga tarjimalari muhim ahamiyatga ega. Professorlardan O.Madrahimov, S.Ro‘zimboyev, Z.Do‘simov, J.Yusupov, arab va fors tillari bilimdoni A.Ahmedov va boshqa adabiyotshunoslikka doir asarlar yozdilar. Ayniqsa, bu borada H.Abdullayevning Abu Bakr Xorazmiydan hozirgacha yashab ijod qilgan adabiyot ahlining hayoti va ijodini aks etttirguvchi tazkirasi, N. Kabulovning 2 jildli „Xorazm adabiy muhiti“ asari, S.Ro‘zimboyevning “Go‘ro‘g‘li” kitobi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Omon Matjon (Omon Matjon – taxallusi; asl ism-sharifi – Matchonov Omon) – O‘zbekiston xalq shoiri. 1943-yilning 14-fevralida Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida tug‘ilgan.

Shoirning she’rlari 1965-yildan boshlab e’lon qilina boshlagan. Shoirning “Karvon qo‘ng‘irog‘i” (1973), “Quyosh soati” (1974), “Yonayotgan daraxt” (1977), “Yarador chaqmoq” (1977), “Seni yaxshi ko‘raman” (1981), “Daraxtlar va giyohlar” (1984), “O‘rtamizda birgina olma” (1990), “Odamning soyasi quyoshga tushdi” (1991), “Qush yo‘li” (1993), “Iymon yog‘dusi” (1994), “Ardaxiva” (2000), “Xoja Ahror ziyoratlari” (2002) va boshqa she’riy asarlarida voqelikni nozik his etgan holda badiiy ifodalash, muayyan hodisadan favqulodda falsafiy xulosalar chiqarish, o‘zi tug‘ilib o‘sgan muhit koloritiga mos ifodalar topish tamoyili ustuvorlik qiladi. Omon Matjon lirik she’rlar bilan birga lirik qissa va dramatik doston janrlarida ham ijod qilib, Xorazm xalq afsonalarining o‘ziga xos badiiy talqini — “Haqqush qichqirig‘i” (40 afsona, 1979) she’rlar kitobini, istiqlol arafasidagi sho‘rolar mamlakati hayotining ziddiyatli manzaralari va jarohatlari tasviriga bag‘ishlangan “Gaplashadigan vaqtlar” (1986) qissasini, shuningdek, o‘zbek xalqining Xorazmdan chiqqan buyuk siymolari haqidagi dramatik dostonlari (“Pahlavon Mahmud”, 1975; “Beruniy”, 1977 va boshqalar) ni yaratgan. “Ming bir yog‘du” (1982) asari Alisher Navoiy “Xamsa”si ta’sirida yozilgan. Omon Matjon bu asarlarida o‘tmishda yashab ijod qilgan o‘lmas siymolar hayoti va hozirgi davr muammolarini tasvirlashda liro-epik she’riyat imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. O‘zbek she’riyatiga Xorazm shevasiga xos leksik unsurlar va musiqiy ohanglarni olib kirgan, lirik she’riyatni epik she’riyat unsurlari bilan boyitgan .

Erkin Samandar (asl nomi Samandarov Erkin) (1935-yil 22-mart, Xonqa tumani, Xorazm viloyati, O‘zbekiston SSR – 13-aprel 2024-yil) – yozuvchi, shoir, dramaturg. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist (1989).

Erkin Samandar 1935-yil 22-martda Xonqa tumani, Navxos qishlog‘ida tug‘ilgan. 1956 – 1961-yillarda Xorazm viloyati radioeshittirish qo‘mitasi o‘zbek eshittirishlari tahririyati muharriri, 1963-1967-yillar, 1990-yilda O‘zbekiston Kompartiyasi Xorazm viloyat qo‘mitasi mas’ul xodimi, 1967-1969-yillarda O‘zbekiston televideniyesi “Yoshlik” studiyasi bosh muharriri, 1969-1975-yillarda televidiniyaning dasturlar direktori, 1975-1977-illarda adabiy dramatik eshittirishlar bosh muharriri, 1961-1963-yillarda “Xorazm haqiqati” gazetasida bo‘lim mudiri, 1977-1990-yillarda bosh muharrir, 1990-1993-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari lavozmida faoliyat yuritgan. Shoirning yoshligi Xorazm viloyati Xonqa tumanida o‘tgan. Xorazm pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan (1952-1957) [4].

Shoirning ilmiy-adabiy asarlari “Amu jilolari” (1966),“Dunyoning yoshligi” (1968), “Osmon to‘la nur” (1970), “Vafo degan gavhar” (1973), “Mening yigitlik vaqtim” (saylanma,1979), “Qabul soatlari” (1980), “Sohildagi bolalar” (1982),

“Bahor oqshomlari” (1984), “Sevgi fasllari” (1987), “Bu bog‘ni qaysi bog‘ derlar” (1988), “Yurakka yo‘l” (1990), “Sevgi kitobi” (1996). “Va yana bahor” (2010, qizi Sayyora Samandar bilan hammuallifliкda), “Ko‘ngil yoshligi” (2010).

Jami 17 ta she’riy majmuasi chop etilgan. 100 dan ortiq qo‘shiqlar muallifidir. “Osmonning tosh tulpori”, “Oltin sandiq”, “Qo‘shiq izlab”, “Erk sadolari”, “Ishqiy maktublar”, “Samarqandni oshiqlar qurgan” kabi dostonlar muallifidir.

Dramaturgiyaga oid asarlari: “Javohir” (musiqali drama, 1984), “Ajdodlar qilichi” (tarixiy drama, 1986), “Jaloliddin Manguberdi” (“Yot hujra”, pyesa, 1988), “Bashorat” (musiqali drama, 1988),“Arabmuhammad” (tarixiy drama, 1992), “Dilda borim” (musiqali drama, 2012).

Xorazm viloyat musiqali drama teatrida “Dilda borim” (2012) va “Jaloliddin Manguberdi” (2019) spektakllari sahnalashtirilgan.

Tarixiy asarlari: “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” (roman,1989),“Tangri qudug‘i” (roman, birinchi kitob, 1989),“Quduq tubidan sadolar” (roman, ikkinchi kitob, 1989),“Suyanch” (1996), “Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy” (2000), “Ming otlilar diyori” (2003), “Sulton Jaloliddin” (roman, 2007), “Quyun yuzlari yoxud Ogahiy” (roman, 2009), “G‘arb qushlari” (roman, qissa va hikoyalar, 2011).

Bugungi kunda Erkin Samandarning ijodiy faoliyati yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. 2022-yilda UrDU “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori Sarvar Otajonov tomonidan “Erkin Samandarning folklorizmlardan foyalanish mahorati” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan. Tadqiqotda adibning “Nazm nafasi” saylanmasi (2015), “Mening yigit vaqtim” (1979), “Yurakka yo‘l” (1990), “Amu jilolari”(1966), “Vafo degan gavhar” (1975), “Bu bog‘ni qaysi bog‘ derlar”(1982), “Qabul soatlari”(1980), “Bahor oqshomlari” (1984) she’riy to‘plamlari, “Sulton Jaloliddin” (2007), “Quyun izlari yoxud Ogahiy” (2009), “Qiron g‘ildiragi”(2016) romanlari olingan. Yozuvchining yirik nasriy asarlarida analitik folklorizmlarning asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni, ularning xalq etnografiyasini voqealar tizimida aks ettirishdagi roli, asar tilining emotsional-ekspressiv xususiyatlarini yuksaltirishdagi ahamiyati asoslangan.

Komil Avaz – shoir, dramaturg va O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining a’zosi. 1942-yil Xiva tumanida dunyoga kelgan. Toshkent to‘qimachilik institutini tamomlagan. Kasbiga ko‘ra injener-mexanik bo‘lishi bilan bir qatorda iqtisodiyot fanlari nomzodi bo‘lgan. Dastlab paxta tozalash sanoat tizimida faoliyat yuritgan, 1985-yildan so‘ng oddiy

chilangarlik lavozimidan Xorazm paxta tayyorlash tresti bosh muhandisi lavozimiga loyiq deb topilgan. Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama teatrida adabiy emakdosh sifatida ishlagandan so‘ng direktor vazifasida ish yuritgan. Shuningdek, Ogahiy nomidagi xayriya jamg‘armasida rais bo‘lib ishlagan.

Ijodi. Uning ijodga kirib kelishiga o‘z hissasini qo‘shgan ustozi – og‘asi Erkin Samandardir. 1957-yilda “Maktabim” nomli she’ri bir vaqtning o‘zida rus (N.Gatsunayev tarjimasida) va o‘zbek tillarida “Xorezmskaya Pravda” hamda „Xorazm haqiqati“ gazetalarida nashrdan chiqqan.

1982-yil “Ajib sir” deb nomlangan asari “Muallifning ilk kitobi” sifatida chop etilgan. “Shashmaqom” (1983) “Xiva xonishlari” va “Xivinskiye napevi” (1884, Strinkovskaya tarjimasi) she’riy kitoblari nashrdan chiqqan.

1982-yil “Jahannam” nomli ilk pyesasi Ogahiy nomidagi Xorazm viloyati teatrida sahnalashtirilgan. “Tashkildagi hangoma” (1990), “Jobbi jo‘jakning hiylasi” (1991), “Marvarid taqqan ayol“ (1992), “Feruz” (1994, musiqiy drama), “Munoqasha” (1994), “Telbalar” (1997, groteks), “Diyonatga xiyonat”(1998), “Javlon jurra” (2000), “Avesto – mehr farzandi” (2001), “Guliravza” (2001, musiqiy drama), “Tandir” (2005), “So‘nggi umidlar” (2007) kabi sahna asarlarining muallifidir. O‘zbekiston televideniyasida adibning “Saqili navo”, “Jobbi jo‘jakning hiylasi”, “Deyishma”, “Tashkil” nomli asarlari asosida filmlar suratga olingan. Xorazm maqomi va suvoralariga atab yaratilgan ssenariysiga ko‘ra “Dil-u jonim sanga qurbon” deb nomlangan uch qismli telefilm tasvirga olingan.

2003-2009-yillar oralig‘ida “Tong epkini”, “Qo‘lang‘a”, “O‘tayotgan vaqt” saylanmasi, “Shoh bo‘ldi ishq ichinda”, “Ibrat manzili” hamda Ogahiy tavalludining 200 yilligiga atalgan }Muhammad Rizo Ogahiy” kabi asarlari chop etilgan. 2006-yilda “Olis yulduzlar” pyesasi va “Komil Devoniy haqidagi adabiy-badiiy to‘plam”i nashrdan chiqqan.

2009-yil “Sharq yulduzi” jurnalining birinchi sonida “Ogahiy“ dostoni e’lon qilingan. Undan so‘ng 2009–2011-yillar davomida “Iztirob”, “Sahroda bir kun”, “To‘li timmitning to‘yi”, “Kelin kiyintirish”, „Sahrodagi odam“ nomli asarlari yaratilgan. 2022-yil 24-iyun kuni Urganch shahrida olamdan o‘tgan.

Matrnazar Abdulhakim (to‘liq ismi: Matnazar Abdulhakimov; 1948-yil 20-fevral, Urganch tumani, O‘zbekiston SSR) — shoir, tarjimon, o‘qituvchi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, adabiyot sohasida tadqiqotchi.

1948-yil 20-fevralda Xorazm viloyatining Urganch tumani “Qorovul” qishlog‘ida tug‘ilgan. Rossiyaning Taganrog shahridagi Rus tili va adabiyoti institutini tamomlagan. Urganch tumanidagi “Urganch haqiqati” gazetasida bo‘lim mudiri, maktabda o‘qituvchi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyat bo‘limida, Xorazm Ma’mun akademiyasida faoliyat yuritgan.

Ijodi. Matnazar Abdulhakimning “Tiniq tonglar” (1982), “Fasllar qo‘shig‘i” (1984), “Qor qo‘shig‘i” (1990), “Mavj”, “Tabarruk tashrif” (1991), “Kim agar ozoddur” (1992), “Yonimdagi daryolar” (1993), “Qorachiqdagi dunyo” (1994), “Bir quchoq gul”, “Oydinlik”, “Iymon tuhfasi” (1997), “So‘nggi yaproq” (1999), “Haq fayzi” (1999), “Yaldoni yoritgan nur” (2001), “Oy ketdi, oftob keldi” (2002), „Ikkinchi muallim saboqlari“ (2005), „Vorislik baxti“ (2006), „Humo parvozi“ (2007), “Javzo tashrifi” (2008), “Azizlar anjumani” (2008), “Ko‘prik” (2009), “Mangulik jamoli” (2009), “Ishq yog‘dusi” (2009), “Takallum”, “Ibratli umr hikoyati”, “Jamoling menga bas”, “Ko‘ngil ko‘zlari”, “Shavqingni yod etib“, “Tafakkur chorrahalarida” (2013), „Tanlangan asarlar“ (2017) she’riy, publitsistik va tarjima kitoblari chop etilgan. She’rlari rus, ingliz, turk, fors, qozoq, ozarbayjon tillariga tarjima qilingan.

Tarjimalari. Shoir Mirzo Abdulqodir Bedil, Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Najmiddin Bag‘dodiy, Shermuhammad Munis, Ogahiy, Pahlavon Mahmud, Komil Xorazmiy Rojiy, Ahmad Tabibiy she’rlarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Tarjimonning “Tabirruk tashrif” (“Xorazm” nashriyoti), “Kim agar ozoddir” (G‘afur G‘ulom nashriyoti), “Jamoling menga, bas” (G‘afur G‘ulom nashriyoti), “Shavqingni yod etib” (G‘afur G‘ulom nashriyoti), “Oy ketdi, oftob keldi” (Xorazm Ma’mun akademiyasi nashriyoti), “Humo parvozi” (“Yangi asr avlodi” nashriyoti), “Azizlar anjumani” (“O‘zbekiston” nashriyoti), “Ishq yog‘dusi” (“Yangi asr avlodi” nashriyoti) kabi o‘ndan ortiq tarjima kitoblari chop etilgan.

Mixail Dudin, Nikolay Rubsov, Rasul Hamzatov, Imant Ziyedonis, Yevgeniy Yevtushenko, Nikolay Dmitriyev she’rlarini rus tilidan o‘zbek tiliga, Omondurdi Annadurdiyev, Go‘zal Zaripova, Itolmas Xudoyberganov, Oytug‘di Nazarov, Mamatnazar Bobonazarov, Qilichmurod Qaqaboyev, Oqmurod Muhadov she’rlarini turkman tilidan o‘zbek tiliga, shuningdek, Boltaboy Bekmetov, Go‘zal Begim, Mahmud Rajab she’rlarini o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilgan.

Ilmiy faoliyati. Shuningdek, shoirning Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud, Ogohiy ijodi tahliliga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop maqolalari chop etilgan. Uning “Iymon tuhfasi” (“Yozuvchi“ nashriyoti), “Yaldoni yoritgan nur” (Xorazm Ma’mun akademiyasi nashriyoti), “Ikkinchi muallim saboqlari“ (Xorazm Ma’mun akademiyasi nashriyoti), “Mangulik jamoli” (Xorazm Ma’mun akademiyasi nashriyoti) kabi ilmiy kitoblari o‘quvchilar qo‘liga yetib borgan.

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan Madaniyat xodimi” (1996) unvoni bilan taqdirlangan. Shuningdek, 2002-yilda “Ofarin” mukofotining “Yilning eng yaxshi shoiri” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan.

UrDU “O‘zbek adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori Bekposhsha Rahimova tomonidan “ Bugungi adabiy jarayonda xorazmlik yosh shoirlarning o‘rni” mavzusida ilmiy maqolasi e’lon qilingan. Unda Xorazm hududida endi adabiy muhitga qadam qo‘ygan yosh ijodkorlar haqida ma’lumotlar beriladi.

Bugungi kunda ham Xorazm diyorida ulug‘ bobokalonlarning vorislari adabiyot ilmini, xususan, Xorazm she’riyatini, dunyoga tanitayaptilar. Ustoz ijodkorlar E.Samandar, E.Madrahimov (Oshiq Erkin), Komil Avaz, M.Abdulhakim, B.Ro‘zimuhammad kabi shoirlar izidan borib, o‘z yo‘li va uslubini topishga harakat qilayotgan yosh shoirlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bugungi yosh shoirlar ijodida an’anaviy barmoq vaznidagi she’rlar bilan bir qatorda, modern yo‘nalishidagi she’rlar ham talaygina. N.Yangiboyeva, M.Ibodullayeva, Z.Nurmonova, Z.Masharipova, Z.Sobirova, U.Nurzoda, O.Mengliyev, Otabek Safar, Malohat Baxt, Zumrad Daryo, Shohruh Sardor kabi yosh ijodkorlar o‘z she’rlarida ona-Vatanga muhabbat, do‘stga sadoqat, muhabbat tuyg‘ularini tarannum etadilar. Eng muhimi, bu yoshlar tarannum etayotgan mavzular sodda va samimiyligi, beg‘uborligi hamda barcha mavzularni qamrab olganligi bilan e’tiborlidir. Muhimi shundaki, navqiron avlod o‘z izlanishlarida inson shaxsiga, jamiyatga, ijtimoiy voqelikka, ma’naviy-intellektual, axloqiy qadriyatlarga nisbatan yangicha nuqtayi nazarlarni ko‘-ramiz. Olam va odam sinoatlarini yangicha tushunishga, anglatishga chog‘langan mayllardan, safarbar etilgan istaklardan o‘quvchining bahri-dili ochiladi. Ana shu yangicha qarashlar dunyoni yangicha ko‘- rishga hamda tushuntirishga qaratilgan mohiyati bilan yaxlitlik kasb etayotir. Yosh avlodning qiziqishlari va intilishlarini yaxlit bir o‘zanga solib, birlashtirib turgan bosh omil – bu har bir shoir o‘z ko‘nglida kechayotgan jarayonlarning kechinmalar tariqasidagi ranglarini, fikr-mushohadalar uyg‘otgan to‘lqinlarini yangi-yangi obrazlar tiliga ko‘chira olganligi bilan belgilanadi. Zero, poetik shakllar xilma-xilligi va ijodiy individualliklar rang-barangligida, badiiyatning boyligida namoyon bo‘ladi. Bugungi yosh avlod she’rlarida mavzular turfa rang bo‘lishi bilan bir qatorda,

badiiyatning yuksakligiga intilish kuchli ekanligini ham kuzatamiz. Bugungi xorazmlik yosh ijodkorlar azaldan ma’rifat-u madaniyat, adabiyot-u san’at maskani bo‘lib kelgan azim vohaga munosib avlod bo‘lishga intilayotgan yoshlardir. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyat bo‘limi qoshida “Oydin orzular” to‘garagi faoliyat yuritadi. Mazkur to‘garakka nasr va nazm yo‘nalishida ijod qiladigan xorazmlik yosh ijodkorlar to‘plangan. Ustozlar izidan dadil qadam tashlab borayotgan yosh avlod vakillarining ijod mahsullarini o‘qib, inson qalbi faxr va iftixorga to‘ladi. Sevinch Yoqubova, Akmal Jumaniyozov, Otabek Odil kabi yosh shoirlarning ilk kitoblari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi “Ijod” jamoat fondi tomonidan “Birinchi kitobim” loyihasida yigirma ming nusxadan chop etilib, mamlakatdagi o‘quv dargohlariga tarqatilgani ham ular iste’dodining qadrlanganligidan dalolat beradi.

Iste’dod maktabi respublika yosh ijodkorlarining Do‘rman anjumanlari ishtirokchilari Ma’ruf Mengli, Javlon Matnazarov, Malohat Baxt, Nazokat Sharifboyeva, Nilufar Otajonova, Otabek Odil, Zomin anjumani ishtirokchilari Zebo Nur, Mahfuza Ibragimova, Azamat Xudoyberganov kabi yosh iqtidorli ijodkorlarning mamlakat adabiy jamoatchiligi orasida tanilib qolgani har bir xorazmlik qalbini faxr va iftixor tuyg‘usiga to‘ldiradi. Ana shunday iqtidorli yosh ijodkorlardan biri Zebo Nur (Zebo Sobirova) dir. Yosh shoira respublika yosh ijodkorlaring Zomin anjumani ishtirokchisidir. Uning she’rlarida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, hayotni seva olish kabi xislatlar shunday ulug‘langanki, u umrining har bir daqiqasida bu tuyg‘ularni qadrlay olganligini uning talaygina misralaridan anglab olish qiyin emas. Zero, yosh shoira ruhiyatida kechayotgan har qanday kechinmalarni qog‘ozda betakror o‘xshatishlar ila muhrlab qoldira oladi.

Xullas, Xorazm adabiy muhitida ijod qilayotgan yosh shoir va shoiralar original tashbehlar, o‘ziga xos uslublari bilan katta ijod olamiga kirib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek zamonaviy she’riyati antologiyasi (Turkiy adabiyot durdonalari turkumidan). 32-jild. - Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2022. B-536.
2. O‘zbek zamonaviy she’riyati antologiyasi (Turkiy adabiyot durdonalari turkumidan). 33-jild. - Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2022. B-512.
3. XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi. - Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2016. B-624.
4. https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/omon-matjon-1943/
5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/bahrom-ro-zimuhammad-1961

O`ZBEK DOSTONCHILIGI RIVOJIDA XORAZM BAXSHICHILIK SAN’ATINING O`RNI

Sabirova Nasiba Ergashevna,
Xorazm PMM Tillarni o’qitish metodikasi kafedrasi mudiri, professor, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqoladi so’z baxshi ijrochiligining paydo bo’lishi doston janrining shakllanishi bilan bog’liq ekanligi, qadimgi madaniyat o’choqlaridan biri bo’lgan Xorazmda san’atning shakllanishi va taraqqiy etishi haqida so’z boradi. Shuningdek, Xorazm vohasida eng qadimgi baxshi, o’z navbatida baxshilar piri Oshiq Oydin haqida ancha ishonarli ma’lumotlar saqlanib qolganligi va bu bilan bog’liq dostonlar, ularning tarixi haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: baxshi ijrochiligi, doston janri, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”, eng qadimgi baxshi, Oshiq Oydin piri, oshiq baxshilar, “Kitobi dadam Qo’rqut”, Qo’rqut ota.

Аннотация. В статье рассматривается становление эпического жанра, становление и развитие искусства в Хорезме, одном из центров древней культуры. Также в Хорезмском оазисе есть очень убедительные сведения о древнейших бахши, в свою очередь, пир бахши Ашик Айдын и связанные с ними былины, научные сведения об их истории.

Ключевые слова: перформанс бахши, эпический жанр, священная книга зороастризма «Авесто», древнейший бахши, Ашик Айдын пири, ашик бахши, «Китаби дадам Коркут», Коркут ота.

Annotation. This article deals with the formation of the epic genre, the formation and development of art in Khorezm, one of the centers of ancient culture. Also, in the Khorezm oasis there is a very reliable information about the oldest bakhshi, in turn, the piri of bakhshis Ashik Aydin, and related epics, scientific information about their history.

Key words: Bakhshi performance, epic genre, the sacred book of Zoroastrianism «Avesto», the oldest bakhshi, Ashiq Aydin piri, ashiq bakhshis, «KitabidadamKorkut», Korkutota.

Kirish. Baxshi ijrochiligining qachon paydo bo’lganligini, albatta doston janriningshakllanishi bilan bog’lashga to’g’ri keladi. Ayrim manbalarda “X-XI asrlarda dostonlarni do’mbira jo’rligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. Dostonning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizlari bo’ylaridagi qadimgi ko’chmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago’ylar ko’payib borgan sari ustoz-shogirdlik an’analari vujudga kela boshladi”[1], deb yozadi tarixchi olim T.Pardaev. Professional baxshichilikning shakllanishi bilan bog’liq holda masalaga yondoshilsa, ushbu fikrga qo’shilish mumkin. Biroq, baxshichilikning qo’shiq shaklidagi turli ko’rinishlari yuqorida ta’kidlaganimiz kabi ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. Qadimiy madaniyat o’choqlaridan biri bo’lgan Xorazmda san’atning shakillanishi va taraqqiy etishi miloddan oldingi davrlarga to’g’ri keladi.

Asosiy qism. S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasini izlab” kitobida san’at tarixi uchun muhim bo’lgan quyidagi so’zlar bor: “Tuproq qal’adagi marosimlar zali devorlarida rombsimon kataklarga mashshoqlarning rasmi ishlangan. Shu rasmlardan biri-arfa cholg’u asbobini chalayotgan ayolning sarg’ish rangdagi nafis rasmi butunicha saqlanib qolgan. Shu xonada surnay va qum soati shaklidagi qo’sh nog’ora tasvirlangan naqsh fragmenti ham topildi. “Arfachi ayol xonasi” ostidan do’mbiraga o’xshash

ikki torli cholg'u asbobining pardasini ushlab turgan odamning qo'li tasvirlangan naqsh fragmenti, yana bir xonadan esa niqob bilan o'ynayotgan ayol tasviri topildi. Bularga o'xshash rasmlarni Rim davridagi Suriya-Misr va qisman Qora dengizning Shimolidagi muzofoti tasviriy san'atida, O'rta dengiz vohasi hamda Hindiston, Eron san'atida yaratilgan obrazlarda uchratish mumkin. Shu tariqa bu rasmlarda ikki badiiy uslub, ikki an'ana bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan, biroq ular qadimgi Xorazm san'ati negizida o'ziga xos o'zgarishlarga uchragan" [2]. Miloddan oldingi davrdayoq shunday yuksak madaniyatga erishgan xalq orasida iqtidorli baxshilarning yetishib chiqishi ham tabiiy holdir. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ning yaratilishi va uning "goh"larini kohinlar tomonidan kuylanishi ham kohinlik, shomonlik, baxshilik kasb-korla[3]rining paydo bo'lishiga zamin hozirlagan. Zardushtiylik dini hukmron bo'lgan davrlarda har bir Rustakda (qishloq,mahalla) otashgohlar bo'lib, unda kohinlar "Avesto" kitobini targ'ib qilishgan. Shu sababdan bo'lsa kerak Xorazm dostonlarida "Avesto" va "Shohnoma"ga aloqador mifologiya hamisha o'zini namoyon qilib turadi. Bertels bergan ma'lumotlarga qaraganda XI asrning 1 yarmida Unsuriy degan forsiygo'y shoir yashab, lirik she'rlar yozish bilan birga uchta doston ham yaratgan. U Beruniy bilan bir davrda yashab ijod qilgan. Uning "Vomiq va Uzro", "Xing but-u surxbut (Oq sanam va qizil sanam), "Shodbahru Aynul hayot" kabi dostonlarini Beruniy arab tiliga tarjima qilgan. Ushbu dostonlar orasidagi "Vomiq va Uzro" asari hozirgacha yetib kelgan. Demak, X asrlardayoq turli asotirlar negizida dostonlar ijod qilish, ularni tarjima, targ'ib qilish faol rivojlangan. O'sha davrda ijod qilingan ko'plab dostonlar syujeti turli o'zgarishlar bilan hozirgacha kelib yetgan. Albatta ularni o'qiydigan, ijro qiladigan talantli shaxslarning bo'lganligi ham tabiiydir. Xorazmda ko'l va daryolarda qayiq va kema haydovchilar o'zlarining piri sifatida Nuh payg'ambarni tan oladilar. Temirchilar ish boshlaganda Dovud payg'ambarni yodga solishadi. Xorazm baxshilari esa o'zlarining ma'naviy ustozi sifatida Oshiq Oydinni e'zozlashadi. Bu tabarruk shaxs turkman baxshilarining ham piri hisoblanadi [4]. To'ra Mirzaevning yozishicha, Samarqand dostonchiligi doirasida baxshilar piri sifatida mulla G'oyib tan olinadi. Ushbu shaxs haqida shu nomdagi doston ham bor [5]. Shuni ta'kidlash kerakki, bir paytlari "Oshiq Oydin" nomli doston ham bo'lgan [6]. Qoraqalpoq va qozoqlarda So'ppasli Sipira Jirov, Ozarbayjonlarda Qo'rqut ota kabi shaxslar ham baxshi, jirovlar piri sifatida ulug'lanadilar. Oshiq Oydin pirning nomi "Xirmondali", "Oshiq Najab", "Oshiq Alband" kabi Xorazm dostonlarida ko'plab uchraydi. Ayniqsa "Oshiq Najab" dostonida uning faoliyat doirasiga katta e'tibor qaratilgan. Najab Oshiq Oydin pirga xizmat qilib, uning dutorini sovg'a sifatida olishga muvaffaq bo'ladi. "Xirmondali" dostonida soz va so'z borasida hech bir kimsa yenga olmagan Xirmondalini Oshiq Oydin aytishuvda yengib chiqadi. "Oshiq Alband" dostonida Oshiq Oydin pir epik qahramon taqdirining eng qaltis damlarida Albandga duch kelib, unga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, dalda bag'ishlaydi:

Tanisangiz nafas etgan piringman,
Oshiqlarning maqsadini bilurman,
Sango duo etganOydinpiringman,
Ko'pyig'lama, sevar yorni ko'rarsan [7],

deb ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Dostonlarda oshiq-baxshilar, piri bo'lgan ushbu shaxs haqida ko'plab rivoyatlar to'qilgan. Aytishlaricha uning qabrini tunagan baxshilarga pir sharob tutar ekan, agarda uni shogird ichsa, ulug' sozanda, oshiq-baxshi bo'lib yetishar ekan. "Oshiq Mahmud" dostonining O'zR FA TAFI folklor bo'limining qo'lyozmalar fondida 1431-raqamli inventarda saqlanayotgan qo'lyozmasida Mahmudjon va Nigorxonlar suvga cho'kib hayotdan ko'z yumganlarida Oshiq Oydin pir ularni "Jon tana gir" kuyini chalib tiriltiradi. Oshiq Oydin pir dastlabki xalifa Abu Bakr Siddiq (632-634) bilan aloqador silsilaga

borib bog’lanadi. Bu silsila o’ziga xos g’oyaviy oqim bo’lib, so’fiylik silsilasi deb yuritilgan. Bu oqimga Abu Ali Ibn Sino, Abul Hasan Haraqoniy, Abu Sayid Maxnaiy, Abduxoliq G’ijduvoniy, Mansur Xalloj, Ahmad Yassaviy, Yusuf Hamadoniylar ham kirganlar. Oshiq Oydin pir maqbarasining shayxidi saqlanadigan “Tazkirat ul Husayin” nomli kitobda bu haqda aniq ma’lumotlar bitilgan. Shayxning vafoti hijriy yilning 632-sida voqe bo’ldi. Mudqat muboraklari shahri Bo’stonning Diyorbakr haddida hamda Bag’dodda ikki joyda ham ziyoratgohlari bor turur”. Bertelsning “So’fizm va so’fiylik adabiyoti” kitobida ushbu davr bilan aloqador muhim ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, o’sha kitobda as-Suhravardiy degan muallifning “Avoriful-maorif” degan ishi haqida so’z yuritib, uning adabiyot va san’at rivojiga qo’shgan katta ulushi xususida aytib o’tadi. Uning Giloniyning shogirdi ekanini ta’kidlab, 1255 (melodiy) yilda vafot etganini qayd qiladi [8]. Ushbu shaxsning Oshiq Oydin pir ekanligiga shubha qilmasa ham bo’ladi.Chunki biz yuqorida ta’kidlab o’tgan “Tazkirat ul Husayn” asarida Oshug’iddinning vatani shariflari Suhravarddir deyilgan. Yana o’sha kitobda aytilishicha shayx hazratlarining “Avorif sharif as Salohiy Had” degan asari ham bo’lib, u Makkada chop etilgan. “Oshiq Najab” dostonida Oshiq Oydinning shahri Bo’stonda yashaganligi, 360 so’fisi borligi, 115 yoshda ekanligi aytib o’tilgan. “Xirmondali”da ham shunga yaqin ma’lumotlar berilgan. Uning Chingizxon bosqinidan keyin 16 yil yashaganligi haqida ma’lumot beruvchi manbalar ham mavjud.So’nggi ma’lumotlarga qaraganda haqiqatan ham Oshiq Oydin pirning shajarasi Eronning Suhravard shahri bilan uzviy bog’lanadi. Ular uch qarindosh Najib Suhravardiy (1097-1168), Shayx Shahobiddin Abu Hafs Yahyo Suhravardiy (1115-1191) Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy, (1144-1234) bo’lib, Najib Suhravardiy ularga ustozlik qilgan [9]. An-Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh Muhammadning obro’-e’tibori yuksalib, ulug’vor ishlarga qo’l urib boshlaydi va Bag’dodga yurish maqsadini amalga oshirishi ma’lum bo’lib qoladi. Uning bu maqsadidan qaytarish uchun eng obro’li, shayxlar shayxi nomini olgan Shixobiddin as-Suhravardiy Xorazmga elchi qilib yuboriladi. Biroq Xorazmshoh shayxni mensimay kutib oladi. Hatto ancha navbat kutib huzuriga kirganda unga o’tirishga ruxsat bermaydi. Nihoyat shayx unga payg’ambar hadislaridan so’zlamoqchi ekanini aytadi. Xorazmshoh bunga rozi bo’lib, pastga tushib tiz cho’kib o’tirib, shayxni tinglaydi. Shayx hadis orqali uni urush qilish maqsadidan qaytishga undaydi. Biroq bu harakatlar bekor ketadi. Nihoyat u Bag’dodga yurish qiladi. Ammo qo’shini tabiat injiqliklari tufayli parokandalikka uchraydi. Bundan ta’sirlangan Xorazmshoh as- Suhravardiyning so’ziga amal qilmaganidan pushaymon etib, shayxni qaytadan Xorazmga elchi sifatida kelishga taklif etadi [10]. Sal o’tmay Chingiz bosqini yuz beradi. Shayx Shixobiddin Suhravardiyning Xorazmshoh tomonidan yaxshi kutib olinmaganligi, Shayxning bashorati to’g’ri chiqib, Xorazmshohning xor-zorlikda halok bo’lishi Oshiq Oydinning xalq orasidagi obro’si oshib pir darajasiga ko’tarilishiga sabab bo’lganligi ehtimolga juda yaqin. Umar Suhravardiyning o’g’li Shayx Zayniddin (Zayniddin bobo) ham diniy va jamoat arbobi bo’lgan. O’sha soha bo’yicha u Toshkentga ham kelgan. Umar Suhravardiy asos solgan suhravardiylik tasavvuf tariqati deb ataluvchi bu oqim ikki daryo oralig’ida zohidlik maktabi negizida tarkib topgan bo’lib, uning a’zolari hunarmandlar va o’qimishli ziyolilar xisobiga kengayib borgan. Suhravardiylar sunniylik aqoyidchilari bo’lib mo’’tadil so’fiylik qarashlarini targ’ib qilganlar. Ular dunyoviy ilm bilan ilohiy ilmning uzviy bog’lanishini tan olishgan. Umar Suhravardiy o’zining 63 bobdan iborat “Avorif ul maorif” asarida “dunyoviy ilm-go’yoki sut, ilohiy ilm esa-uning qaymog’idir” deb yozadi. Uningasarlari arab, fors, nemis va ingliz tillarida nashr etilgan. Maboda e’tibor berilsa, Oshiq Oydin pir baxshilarning Qambar, bobo esa sozandalarning piri sifatida mashhurlik kasb etadi. O’tgan asrning 90-yillarida Oshiq Oydin pir qabri joylashgan Vos qal’asida Oshiq-baxshilar musobaqasi o’tkazish

an’anaga aylangan edi. 1991 yilda bu yerda baxshilarning xalqaro bellashuv ko’rigi bo’lib o’tgan. Bu anjumanda Ozarbayjon, Turkiya, Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, O’zbekiston respublikalaridan kelgan ko’plab baxshilar ulug’ pir qabrini ziyorat qildilar. Ayniqsa Xorazm, Toshovuz va Qoraqalpoq baxshilari bu tadbirda faol ishtirok etishdi [11]. “Kitobi dadam Qo’rqut” eposining barcha shoxobchalarida faol harakat qiladigan asosiy obraz Qo’rqut otadir. Bu obraz haqida turli olimlar turli fikrlar bildirishgan.V.V. Bartoldning ko’rsatishicha, u bahodir emas, balki urug’ oqsoqolidir. Unda xalq donoligi mujassamlashgan [12]. Qo’rqut ota bashoratchi baxshi va afsonaviy shaxs. O’z navbatida u sehrgar, shomondir [13]. Binobarin, Qo’rqut ota kitobning bosh qahramoni emas. Lekin uning fikrlari, qiyofasi, jami hodisalar va qahramonlar taqdirida tutgan o’rniga ko’ra butun asarni birlashtirib turuvchi qahramon rolini o’ynaydi [14].Qo’rqud ota haqida dastlab fikr yuritgan shaxs Abul G’oziy Bahodirxondir. Buyuk tarixchi olim “Shajarai tarokima” asarida Qo’rqud otani 14 joyda tilga oladi. Uning ko’rsatishicha, Qoraxo’ja o’g’li Qo’rqud Inal Yavi xonning vaziri bo’lib, 295 yil umr kechirgan, uchta xon davrida vazirlik qilgan, g’aroyib ishlarni amalga oshirgan. Butun o’g’uz eli unga bo’ysungan, biror farzand tug’ilsa, albatta u kelib ism qo’ygan [15].

Muhokama. T.Mirzaevning yozishicha, Salor Qozon turkumini tashkil etuvchi qahramonlik qo’shiqlari Sharqiy Turkistondan kelgan turkiy qabilalarga tegishli bo’lib, XI asrda saljuqiylar davrida bu turkum Kichik Osiyo va Kavkazga o’tib, “Kitobi dadam Qo’rqut” tarkibidan joy oldi [16]. “Go’ro’g’li” turkumining ustuvorlik qila boshlashi bilan Qo’rqud ota to’g’risidagi doston unutilib ketgan: XIX asr boshlariga kelib, “Kitobi dadam Qo’rqud” eposining yozma nusxalarga ko’chirilishi an’analari asosida “Go’ro’g’li” turkumi dostonlari ham yozuvga olina boshlagan.Qo’rqut ota haqida jiddiy tadqiqotlar olib borgan X.G.Ko’ro’g’li o’zining “Shaman, polkovodets, ozan” (evolyutsiya obraza dede –Korkuta) maqolasida Qo’rqut ota shaxsida shomonlik, o’zonlik (baxshi) xususiyatlari mavjud bo’lganligini tasdiqlaydi, o’z navbatida uning sarkarda (polkovodets) bo’lganligiga shubha bildiradi [17].Qozoq-qirg’iz asotirlarida Qo’rqut ota shamon obrazi sifatida talqin qilinadi. Etnograf Ch.Ch.Valixonov Qo’rqut otaning o’limdan qochishi motivini shomonlik bilan bog’laydi. Qirg’iz shomonlaridagi ushbu rivoyatda Qo’rqut ota birinchi shomon sifatida e’tirof etiladi. O’rta Osiyodagi yozma yodgorlik-“Do’st Sulton tarixi” kitobida esa Qo’rqut ota baxshilar piri sifatida tasvirlanadi. Qozoq baxshilari shu sababdan dostonni boshlash oldidan undan yordam so’rashadi, iltijo qilishadi. Qadimgi davrga oid afsonalarda Qo’rqud ota shomon tarzida tasvirlansa, Islom dini ta’sirida yaratilgan so’nggi afsonalarda u avliyo darajasiga ko’tarilgan. A.Divaev bu haqda Qozonli hududidagi Xorxut toponimi bilan aloqador afsona borligini tasdiqlaydi. Uning yozishicha, Xorxutning qabri 1880 yilgacha saqlangan, keyin uni Sirdaryo yuvib ketgan [18]. Abulg’oziy Bahodirxon Qo’rqud otani donishmand vazir sifatida tasvirlasa, Rashididdin asarlarida baxshi, O’zon tarzida beriladi. O’zon atamasi turkmanlarda ham uchraydi. Maxtumqulining bir she’rida shunday misralar bor:

Davlat ela galar bo’lsa,
Boshdan burun o’zon galar.
Davlat eldan getar bo’lsa,
Mulla bilan to’zon galar [19].

O’zon atamasi ilgari Xorazmda ham ishlatilgan.

Qo’rqud otaning lashkarboshi tarzida berilishi Abulg’oziyda ham bor bo’lib, bu ma’lumot ikki shaxsning ismini aralashtirish natijasida kelib chiqqan. Bundan tashqari o’g’uzlarda shu nomdagi urug’ ham uchraydi [20]. Bu ikki shaxs haqidagi fikr K.A.Inostranev ishlarida ham uchraydi. Qolaversa, lashkarboshining ismi Qirqud

tarzida yozilishini A.N.Kononov ham birinchilardan bo’lib, aniqlagan edi.

Xulosa. Folklor asarlarida Qo’rqud-shomon, afsungar, tabib, uning musulmonlikka aloqasi rasmiyatchilik tariqasida qayd qilinadi xolos. Tarixiy asarlarda esa bu shaxs musulmon dinining muqaddas kishilaridan biri sifatida ta’kidlanadi. X.G.Koroglining mazkur maqolasida Qo’rqud ota faoliyatiga doir masalalar keng doirada tahlil etiladi. Yuqorida keltirilgan barcha tafsilotlar Qo’rqud ota obrazining to’laqonli qiyofasini gavdalantira oladi. Maqola oxirida “Kitobi dadam Qo’rqud”ning g’arb o’g’uzlarida tarqalgan yodgorligi xususida so’z yuritiladi. Barcha afsona va rivoyatlarda Qo’rqud-shomon, o’zon, davlat arbobi, hukmdor maslahatchisi, barcha o’g’uz elining donishmand ustozi sifatidagi evolyutsion obraz sifatida gavdalantiriladi. Uning baxshi sifatidagi faoliyati hech qachon yo’qolmagan. O’z navbatida uning tarixiy prototipini izlashga ham asos yo’q.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.Pardaev T. O’zbek dostonchilik maktablarining teran ildizlari ma’naviyatimiz asosi. / Jahon sivilizatsiyasida... –B.117.

2.Tolstov S.P. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. –B.214-215. (380)

3.Бертельс Е.Э. История литературы и культуры Ирана. –М.: Наука, 1988. –С.24. (558)

4.Карриев Б.А. Эпические сказания о Кероглы у тюркоязычных народов. -М.: Восточтая литература,1968. -С.134.

5.Мирзаев Т. Эпос и сказитель .-Т.: Фан, 2008.-С. 66.

6.Жирмунский В.М.. Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос.-М.: ГИХЛ, 1947. -С.294.

7.Oshiqnoma, IIkitob, Urganch, «Xorazm”, 2006, 187-bet.

8.Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. - М.: Наука, 1965, -С. 485.

9.O’zbek milliy ensiklopediyasi, 8-tom. -T.: “O’zbek milliy ensiklopediyasi”, 2004, 184-185- betlar.

10.An-Nasaviy Shixobiddin Muhammad, Sulton Jaloliddin Manguberdi tafsiloti. -T.: “O’zbekiston”, 2006, 30-40-betlar.

11.Oshiq Oydin-94, Dashxovuz, 1994,3-bet.

12. Бартольд В.В. Коркуд, соч. т.v-М.: 1968, С.41.

13. Короглы Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. –М.: Наука, 1983, С.61.

14. Nazarov B. “Qo’rqut ota kitobi” haqida. // “Yoshlik”, 1988, №5, 40-bet.

15. Кононов А.Н. Родословная.туркмен.Сочинение Абу-л-Газы хана хивинского,-М.,-Л.: Изд. Ан, 1958.

16.Mirzaev T. Qahramonlik eposining yuzaga kelishi.// O’zbek folьklorining epik janrlari, -T.: Fan, 1981, 43-bet.

17. Короглы Х.Г. Шаман, полководец, озан (эволюция образи деде –Коркута). // Советская тюркология. –Баку, 1972, №2. –С.48-62.

18.Диваев А. Несколько слов о могиле Хорхут-ата-ЗВО РАО, Т.Х.СП.б. 1896. –С.193-194.

19.Магтымгулы. Ашгабат, «Туркменистан», 1977. –Б.234. (678)

20.Короглы Х.Г. Кўрсатилган мақола, 52-бет.

SHOIR MUHAMMAD ISMOIL SHE'RIYATINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Turdiqulova Kumush,
GulDU, O'zbek tilshunosligi
kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada shoir Muhammad Ismoil lirikasining lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Lingvopoetik tizim til lug'at tarkibining lisoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida va murakkab qatlamidir. Maqolada Muhammad Ismoil lirikasining lingvopoetik xususiyatlari tahlil etiladi. Shoirning asarlaridagi lingvopoetik birliklar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

Tayanch so'z va iboralar. So'z, til, sh'er, misra, tushuncha, birikma, murakkab birikma va b.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЭЗИИ МУХАММАДА ИСМАИЛА

Турдыкулова Кумуш,
ГулГУ, кафедра узбекского языкознания
докторантка базовой докторантуры

Аннотация. В статье рассматриваются лингвопоэтические особенности лирики поэта Мухаммада Исмаила. Лингвопоэтическая система является особым и сложным пластом лексической структуры языка, обладающим характерными языковыми чертами. В статье анализируются лингвопоэтические особенности лирических произведений Мухаммада Исмаила. Лингвопоэтические единицы, встречающиеся в его произведениях, служат иллюстративным материалом.

Ключевые слова. Слово, язык, стих, строка, понятие, словосочетание, сложное словосочетание и др.

LINGUOPOETIC FEATURES OF MUHAMMAD ISMOIL'S POETRY

Turdiqulova Kumush,
GulSU, Department of Uzbek Linguistics
PhD Candidate

Annotation. The article discusses the linguopoetic features of poet Muhammad Ismoil's lyric poetry. The linguopoetic system is a special and complex layer of the language's lexical structure, characterized by unique linguistic properties. The article analyzes the linguopoetic features of Muhammad Ismoil's lyrical works. The linguopoetic units found in his works serve as illustrative material for the study.

Key words. Word, language, poem, line, concept, phrase, complex phrase, etc.

KIRISH. Jahon tilshunosligida keyingi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati badiiy matn poetikasi, lingvopoetikasi, strukturasi, leksikasi va qator nutqiy kommunikativ birliklar doirasidagi masalalar tadqiqiga keng e'tibor qaratilayotganligini kuzatish mumkin. Til birliklariga xos lisoniy-nutqiy imkoniyatlar va ulardan turli nutq tarkibi va vaziyatlarida unumli foydalana olish, til ifodalarining badiiy, pragmatik, lingvomadaniy, lingvopoetik imkoniyat va vazifalari, nutq egasining tildan foydalanish mahorati va iste'dodi yangi-yangi monografik tadqiqotlarning yuzaga kelish omili bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, she'r tabiatidagi lisoniy birliklarning o'rni va vazifasi,

ularning badiiy-estetik ta’sir qilish imkoniyatlari, qofiya, vazn, ma’nodosh va antiteza kabilarning joylashuv segmentlari tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb qilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ferdinand de Sossyurning haqli ravishdagi e’tirofida ham “Har bir matn zamirida til tizimi yashaydi” [4, 122] kabi nazariy qarashlari yuqoridagi muammolarning aniq yechimiga asos ekanligidan dalolat beradi. Demak, lingvopoetikaning mohiyatida tilning tizimli moslashuvchanligi, sun’iy tarzda kirib qolmasdan aniq obraz va g‘oyani tashuvchi formalarga mantiqiy urg‘u berish muhimligi tushuniladi. Inson ongidagi, tafakkuridagi hali yuzaga chiqmagan his va tuyg‘u, kechinma – pafos tarzida namoyon bo‘ladi. She’rdagi ritm, qofiya, turoq, vazn va obrazlilik lingvopoetik unsurlarning sistembutunlikda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Ayniqsa, matn tadrijiy takomilida yuzaga chiqayotgan har qanday tovush (fonema) she’riy misralarning ritmiy intonatsiyasini uyg‘unlashtirib, shoir poetik olamini to‘laqonli “kashf” etishga ikmon beradi. Tilshunos M.Yo‘ldoshev yozishicha: “Tilning estetik vazifasi butun o‘ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifani ham transformatsiya qilgan, badiiyat manfaatlariga to‘lasicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy nutqda namoyon bo‘ladi. Umumxalq tilidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi” [5, 5]. Darhaqiqat, olimning fikrlarini Muhammad Ismoil lirikasiga muqoyasa qilsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Masalan, shoirning she’rlarida sarbast va oq (harora) vazn, barmoq vaznining nisbatan erkin she’rga yaqin takomili yaqqol ko‘rinadi:

She’riyat qasoskor,
Bo‘g‘ziga kelgan
So‘zni gar aytmasa,
o‘ladi shoir.
Zulm chekkanda u,
kurashsa yenggan,
Kurashmasa, qurbon
bo‘ladi shoir.

Haqiqat jarchisi,
u – otashnafas,
Erksiz shoir yomon
behayo qizdan.
Shoirga erk bering,
qorindan emas,
U axir tug‘ilgan yuragingizdan [3, 28].

Muhammad Ismoilning lirik qahramoni o‘ta isyonkor shoir! Uning “90-yillar avlodi” she’rida lirik qahramon “zulm chekkan”, ruhiyatidagi “kurash” tug‘yon uradi, isyonkor shoir kurashmasa “qurbon bo‘ladi”. She’rdagi fonetik, leksik va grammatik birliklar mohiyatida she’r kompozitsiyasi o‘z aksini topgan. Birinchi misradagi kelgan, yenggan va o‘ladi, bo‘ladi so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib, she’riy nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu misradagi qasoskor so‘zi yasalgan. O‘zbek tilida qasoskor so‘zi (-kor shaxs ot yasovchi qo‘shimcha)dan shoir yangi ma’noni kashf qiladi. Qasos so‘zi hozirgi kunda ruhiy va amaliy kurashish tushunchasini anglatadi, ozor chekkan, nohaq qiynalgan, ezilgan odamning o‘ch olishi degan ifodada ayonlashadi. Tuslovchi qo‘shimchalardan biri sanaladigan -di, to‘rtinchi misradagi bo‘ladi so‘zi bilan o‘zaro qofiyalanadi. Demak, Muhammad Ismoilning she’rlaridagi lingvopoetik xususiyatlar semalar (zulm va kurash)ni ifodalovchi birliklarni anglashga keng yo‘l ochadi. Shuni qayd etish joizki, she’r ruhiyatida (syujeti va kompozitsiyasida) kurashni

anglatuvchi qator tashbehlar, obrazlar o‘z tajassumini topganki, sh’erning mazmun-mohiyatida namoyon bo‘ladigan qasoskor, bo‘g‘ziga kelgan so‘zni aytish, aytish uchun qiynalayotgan, kurashni amalga oshirayotgan shoir obrazi qabarib ko‘rinadi. Ana shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, leksik birliklarning tizimiy yaxlitligi inson iroda yo‘nalishini anglashga ham imkon beradi.

Zulm chekkan shoir kurashsa, albatta yengadi. Shoirni zulm kurashga chorlaydi, kurashmasa qurbon bo‘ladi. Yashash uchun kurash g‘oyasi yetakchilik qiladi. Shoir o‘z erki uchun kurashadi. Otashnafas shoir haqiqatni aytmog‘i uchun ham ozod va o‘z erki qo‘lida bo‘lishini tushunadi va erki uchun kurashadi. Atigi birgina parchada shoir ozodlik ulug‘ tuyg‘u, tuyg‘ular erkinlikdan ozuqlanishini tasvirlaydi. Erksiz shoirni behayo qizdan farqi yo‘qligi haqidagi lirik qahramonning monologik nutqi so‘zlarni “tasirchan” ishlatganligi uslubiy birliklarda yanada tiniqlashadi. Qahramonning ruhiy holati “shoirlar qorindan emas, yurakdan tug‘ilishi” haqidagi inja tuyg‘ularida bayon etilgan.

Hozirgi kunda lingvopoetik tadqiqotlarning aksariyatida fonetik, leksik va sintaktik takrorlar bilan birgalikda ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli birliklarning ifodasini alohida-alohida predmet sifatida tadqiq qilishga e’tibor qaratilayotganligini kuzatish mumkin. Unda xoh she’riy, xoh nasriy matn bo‘lsin, ularda yuqoridagi toifadagi birliklar nazariy-ilmiy jihatdan tadqiq obyektiga aylanganligini inkor qilib bo‘lmaydi. Emotsional-hissiy birliklar yig‘indisidan iborat bo‘lgan matnda takrorlar, qofiyalar, iboralar va shu kabi birliklar shoir anglagan olamning tashuvchi vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Ayni paytda, lison va nutqning izchil farqlanishi, shoir tomonidan qo‘llanayotgan so‘z va iboralarning qay maqsadda istifoda etilishi, mavzuiy, ma’noviy, statistik tavsif berish miqyosni kengaytirib, Muhammad Ismoil she’riyati lingvopoetikasini to‘laqonli tasavvur qilishga zamin yaratadi. Shoir leksikasida juda ko‘plab so‘zlar “ijod qilingan”. Ularning she’riy nutq tarkibidagi badiiy-estetik qiymati, o‘rni va vazifalari doirasidagi holat va jarayonlarni tadqiq qilish tadqiqotimizning asosiy maqsad va vazifalari doirasida qayd qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Lingvistika va poetika kesishuvidagi tadqiqotlarda soha masalalariga tegishli bahs-munozaralarga qariyb bir asrdan oshdi. Bu bahslar joriy kunda ham davom etib kelmoqda. Shunday bo‘lsa-da, aniq yo‘l ko‘rsatuvchi yechim deya lingvistika va poetika o‘rtasidagi yechimni tartiblashtiradigan eng maqbul soha – lingvopoetikadir. Biz ayni shu jihatdan masalaning mohiyatini ajratib tadqiq qilish imkoniga egamiz. XX asrning ibtidosida yuzaga kelgan, alohida soha sifatida qaralayotgan lingvopoetika jadid yozuvchi va shoirlari, 90-yillarda Muhammad Ismoil kabi avlodlarning, hozirgi o‘zbek she’riyatida modernizm yoki realizm oqimi namoyondalarining asarlari yuzasidan til va adabiyot aspektida tadqiqotlarni taqozo qilmoqda.

Demak, har qanday til birliklarini nazariy jihatdan asoslashga urinish (statik yoki analitik) sathlarni bir qadar mavhumlashtiradi. She’rdagi ruhoniy borliq bilan shaxsiy kuzatish ijtimoiy dardning salmog‘i bilan tengligini idroklaydi. Shuning uchun ham lingvistik talqin matn pozitsiyasida silliqlanib, ba’zi o‘rinlarda tahrir jarayonida o‘zgarishi mumkin. Fonetik, leksik, grammatik, stilistik birliklarni qo‘llash, ma’no-mazmun mundarijasini izchil tartiblashtirish, qofiya va vazn mutanosibligini ta’minlash, ma’no ko‘chishi va tasviriy ifodalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish kabilar har bir ijodkorning oldidagi mas’uliyat, asosiy vazifa sanalishi tabiiy. Dunyodagi o‘nlab taqiq metodologiyasini “parchalash”ga qaratilgan lingvopoetika alal oqibatda individual uslubning o‘ziga xosligini dalolatlaydi.

Shoir Muhammad Ismoilning she’riy asarlarida ikki jihatga muhim masala sifatida

to‘xtalib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz:

1) tarixiy yondashuv;

2) sotsial-madaniy yondashuv.

Bunday tasniflash Muhammad Ismoil lingvopoetikasidagi she’riy nutq semantikasi hamda ijtimoiy kelib chiqish ijroviyligini aniqlashda qo‘l kelishi tabiiy. Tarixiy yondashuvda shoir folkor asarlari (xalqona she’rlari) timsolida yuzaga kelgan uslubiy-shakliy o‘ziga xoslik tushunilsa, sotsial-madaniy yondashuvda 90-yillardan keyingi mafkura, din va e’tiqodga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi tushuniladi. Chunki folkor asar (xalqona she’r)lar tili, maqol, matal, ibora, kinoya kabi komponentlarga yashiringan “ma’no ko‘chish”lar bo‘lsa, ijtimoiy dard hosilasi o‘laroq yuzaga kelgan xalqning yashash tarzi, yangi-yangi so‘zlarning iste’molga kirib kelishi, fan-texnika inqilobining badiiy asarlarda aks etish prinsiplari (hozirjavob janr) strukturasi namoyon bo‘ladi. Ana shu mezondan turib baholaydigan bo‘lsak, Muhammad Ismoil lingvopoetikasida tarix va bugun mavzusining ba’zan alohida, ba’zida qorishiq tarzda istifoda etilishi yuqoridagi mulohazalarimizni to‘laqonli asoslashga xizmat qiladi. Shoir o‘z davrining komil farzandi bo‘lishi bilan birga yaqin o‘tmish zamoniga ham o‘zining baholash mezoni mavjud. U ko‘rib turgan olamni o‘zicha kashf etishi, insonning ma’naviy qiyofasi, muloqot etiketi, lirik qahramonning o‘jarligi, adolatparvarligi singari jihatlarga urg‘u beriladi. Hayotning qarama-qarshi ziddiyatlarida obdon toblanib kelayotgan shoir o‘zining keskin chiqishlarini namoyon qilar ekan, lingvopoetik (til va adabiy usul) jihatdan masalaga teranroq yondashishni talab qiladi.

O‘zbek she’riyatining taniqli vakillaridan biri Oybekning quyidagi fikrlari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan deyishimizga muayyan asoslarimiz mavjud: “O‘zbek poeziyasida til” nomli maqolasida shunday deb yozgan edi: “Poeziyada so‘z faqatgina tushunarli bo‘lib qolmasin, balki uning ohangi, ifoda kuchi, bo‘yog‘i va boshqa tomonlariga qarash kerak... Qofiya uchun ma’noni qurbon qilish yaramaydi. Har bir so‘z uzukka qo‘yilgan qimmatbaho tosh kabi porlashi lozim” [2, 109-112]. Darhaqiqat, shoir har bir so‘zning qo‘llanilish doirasini va tasvir vaqtini, makon hamda zamonni anglatish kuchini, uyg‘un istifoda qilish zarurligini ta’kidlamoqda. Shoir Muhammad Ismoil she’riyatidagi lingvopoetik talqin ustuvorligi ham tarixiy, ham zamonaviy, ham universal vaqt tushunchasini ifodalaganligini idroklash ishimizning asosiy predmetini qamraydi. Unda Sirdaryo qishloqlari va Toshkent shahari oralig‘ida kechadigan ruhiy jarayon shoirni katta minbarlarda she’r aytishga undagan tuyg‘ular illyuziyasi kontrast asosidagi tasavvurlar birligi ham nazarda tutiladi.

Muhammad Ismoil she’riyatida qofiyaning fonetik tuzilishi ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Lingvopoetik tadqiqotlarda (asosan tilshunoslik) she’riy matn (nutq)ning fonetik strukturasini talqin qilishda fonemalar bilan muqoyasa qilib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Fonetika morfologiyaning tarkibiy qismi emasligini, u alohida mustaqil fan ekanligini jahonning ilg‘or tilshunoslik maktablari asoschilari asoslab berishgan [6, 25]. She’riy matn strukturasida qofiyaning o‘rni va roli xususida so‘z borganda bir tovush bilan so‘zning boshqa ma’no kasb etishi, she’rdagi qofiyaning fonetik tuzilishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi, shoir estetik olamining serqirraligini kashf etishini alohida ta’kidlash lozim. XX asrning 90-yillarida o‘zbek adabiyoti maydoniga “o‘tkir so‘z sohiblari” deb atalgan avlod kirib keldi. Ularning so‘z va so‘z qo‘llash mahorati, ijodkorligi, borliqni badiiy aks ettirish manerasi boshqa salaflaridan tubdan ajralib turdi. Shulardan biri Muhammad Ismoildir. Bugungi istiqlol davrida ham barakali qalam tebratayotgan shoir Muhammad Ismoil badiiy izlanishlarida lingvopoetik xususiyatlarni har tomonlama tadqiq qilish milliy til va adabiyotimiz hodisa hamda masalalari mohiyatini teran anglashga, ularni

xolis va munosib baholash, tavsifini ta’minlashga imkoniyat yaratadi.

Ma’lumki, badiiy (she’riy) matnning tuzilishidan tortib, ma’no qirralarigacha muayyan ohang, ritmik bo‘laklar, bo‘g‘in, turoq va qofiyalar lingvopoetik jihatdan alohida o‘rin egallaydi. Qofiya – she’riy asarlarni baholash, tekshirish, talqin qilishda muhim obyekt hisoblanadi. Ba’zi nazariy ma’lumotlarda qofiyaning o‘ttizga yaqin ko‘rinishi, turi mavjudligi qayd qilinadi. A.Fitrat, Oybek, G‘.G‘ulom, E.Vohidov, A.Oripov kabilar she’riy nutq yuzasidan bildirilgan nazariy qarashlari she’riy nutq tuzilishi, shakli va mazmuni tadqiqi barcha davr uchun dolzarbligini aks ettirgan. Professor T.Boboyev shunday yozadi: “Agar biz jahon poeziyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda rang-barang she’r tizimlari qo‘llanilayotganini payqaymiz. Chunki she’r tizimlari milliy tillarning tabiati bilan bog‘liqdir. Jahon xalqlari tillari esa tabiatan xilma-xil bo‘lib, ular turli tuman oilalarga mansubdir. Turli oilalarga mansub bo‘lgan milliy tillarda shu tillar tabiatiga mos she’riy nutq tizimi, she’r tuzilishi usullari qo‘llanilishi tabiiydir. Har bir she’r tizimida she’r yaratish, ya’ni vazn va ritmni, musiqiylikni vujudga keltirish usullari o‘ziga xos bo‘ladi. She’rshunoslarimizning uqtirishlaricha, she’r to‘qimasida ham milliy, ham baynalmilal jihatlar mavjud. Chunonchi, qofiya milliy til bilan bog‘liq milliy unsur sanalsa, band barcha tillar uchun mushtarak hodisa – baynalmilal unsur hisoblanadi” [1, 17-18]. Binobarin, olimning mulohazalari bugungi tilshunoslikdagi ba’zi masalalarga ham aniqlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni qayd etish joizki, she’rning umumstrukturasida yuzaga keladigan har qanday muammo yoki munozaraning eng qadimgi antik yunon madaniyati, Arastu zamonidan buyon qat’iy, yakdil yechimiga kelgan emas. Chunki har bir shoir o‘z davrining komil fuqarosi sifatida borliqni badiiy in’ikos qilar ekan, uni davrning ilmiy va nazariy tafakkuri miqyoslari fonida tadqiq qilish ishonchi oqlaydi.

NATIJALAR

Lingvopoetik tadqiqotlar bilan monografik yo‘sinda shug‘ullangan M.Yo‘ldoshev, G.Jumanazarova, S.Umirovalar fonografik vositalarni rus va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda o‘rganganligi ma’lum. Ta’kidlash o‘rinliki, qofiyaning fonetik strukturasi ham ma’no ko‘chish, ham o‘xshatish, ham jonlantirishni ta’minlashga qaratilishi mumkin. Muhammad Ismoilning quyidagi she’rga e’tibor beradigan bo‘lsak, shoirning farzandi – qiziga nisbatan otalik mehri botiniy hislari va tilaklari aks etadi:

Durim desam, zebodursan durdan a’lo,
Nurim desam, ziyodursan nurdan a’lo,
Xudoyimning kitobiga oshnodursan,
Hurim desam, odobing bor, hurdan a’lo [3, 10].

Ushbu she’r misralari boshidagi so‘zlar ham hatto qofiyalanib kelayotganini kuzatamiz. Birinchi misra boshidagi durim, ikkinchi misra boshidagi nurim va to‘rtinchi misra boshidagi hurim so‘zlari o‘zaro qofiyadoshlik hosil qilib, she’r tasirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur parchada misralar orasidagi o‘zaro qofiyadosh so‘zlarda bitta tovush, belgi bilan ma’no ottenkalari o‘zgargani, she’rga farzandning eng yaxshi xislatlari va shoir ruhiyatini yuzaga chiqaruvchi dur, nur, hur uzviyligi muqoyasa qilinadi. Ya’ni “durdan a’lo – nurdan a’lo – hurdan a’lo” qofiyadosh birliklarda t-n-h tovushlari bilan farqlanish xususiyati aks etgan. Ushbu nutq tarkibida kitob ham qofiya vazifasiga olib kirilgan, kitob ham, odob ham – axloq tushunchasini o‘zida ifodalaydi, biroq insoniy fazilat

bo‘lgan axloq tushunchasining ta’sirchan ifodasi sifatidagi kitob so‘zi uchun eng maqbul va munosib qofiyadosh sifatida odob so‘zining tanlanishi shoir badiiy maqsadining eng samarali usuli deb bilamiz.

Ey yoronlar, ikki yoshni duo qiling!
Bir-biriga ko‘zu qoshni duo qiling!
Taqdir ekan uchrashibdi Oyu Quyosh,
Qovushgan bu ikki boshni duo qiling [3, 10].

Avvalgi misralarda sodda so‘z birikmasi sifatidagi “durdan a’lo – nurdan a’lo – hurdan a’lo” birikmalar qofiyalanib kelgan bo‘lsa, navbatdagi misralarda uch so‘zdan tashkil topgan birikmalar qofiyalanishi kuzatiladi “yoshni duo qiling – qoshni duo qiling – boshni duo qiling” va ular she’r musiqiyligini ta’minlab, ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Ya’ni “yoshni duo qiling – qoshni duo qiling – boshni duo qiling” qofiyadosh birliklarida y-q-b tovushlari bitta tovush orqali farqlilikni ta’minlab kelgan. Bu shoir Muhammad Ismoilning o‘ziga xos so‘z qo‘llash mahoratidan darak beradi.

Ko‘zlarimning gavharisan,
Yuragimning javharisan,
Avaylagan-asraganim,
Umrimning shoh baytlarisan,
Ona qizim, ona qizim [3, 10].

Gavharisan – javharisan qofiyadosh so‘zlari orqali mutlaq ohangdoshlik ta’minlanishiga erishilgan. Ritmik intonatsiyaga amal qilingan mana shu o‘zaro fonetik jihatdan qofiyalanish shoir ijodidagi so‘zlarning tuyg‘u va kechinmalarni ifodalash jarayonida shaklan, mazmunan mutanosiblikni ta’minlashdagi o‘rni va vazifasiga ham e’tibor qaratilganligi kuzatiladi. She’riy misradagi qofiyadosh so‘zlarning tartibliligi – ohangni kuchaytirish bilan lirik qahramon farzandini jondan ortiq ko‘rishini to‘laqonli dalolatlaydi.

XULOSA VA MUNOZARALAR

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida lingvopoetikaning o‘rganilish va rivojlanish omillari jahon va rus tilshunosligida kuzatilgan an’anaviy hodisalar zamirida taraqqiy etdi. XX asrning 90-yillaridan keyingi avlod badiiy izlanishlarida so‘zga bo‘lgan munosabat ham tubdan o‘zgardi. Erk, ozodlik va yangi bir hayotga tashnalik she’riy nutqning kompozitsiyasini ham modifikatsiya qilib, yangi semalarga yo‘l ochdi. She’rdagi nutq birliklarini ajratib: tovush bilan bog‘liq muhim jihatlarni, qofiya va vazn talablarini talqin qilish oldimizdagi dolzarb masalalardan biri ekanligi ayonlashadi. Zero, ijodkor-uslub-matn birligi lingvopoetik tadqiqotning obyekti va predmetini qamrashi tayin. Shu ma’noda, shoir Muhammad Ismoil she’riyatida so‘zdan mohirlik bilan foydalanishi, so‘zlarga nozik ma’no va estetik ruh olib kirishi, “vaqtning sinalgan” metodlaridan unumli foydalanganligini kuzatishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек. Ўзбек поэзиясида тил / Мукаммал асарлар тўплами. – 20 жилдлик. – 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Муҳаммад Исмоил. Менга сўз беринг. – Тошкент: MASHHUR-PRESS, 2020. – 208 б.
4. Ф. де Соссюр. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 122.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.– Тошкент: Фан, 2006.
6. Шчербак Л.В. https://archive.org/details/scherba-francaise-phonrtique.

BADIIY IJOD TUSHUNCHASINING NAZARIY VA KONTSEPTUAL ASPEKTLARI

Zulfanova Nigina Nuritdinovna
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
o‘qituvchisi, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy ijod fenomenining mohiyatini har tomonlama tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “ijod” va “badiiy ijod” tushunchalarining mazmun-mohiyati turli tarixiy davrlar doirasida bosqichma-bosqich ochib beriladi. Tadqiqot davomida ijodning shakllanishi, uning inson tafakkuri va madaniy taraqqiyotdagi o‘rni, shuningdek, badiiy ijodning o‘ziga xos tabiati umumlashtirilgan holda sharhlanadi. Maqolada qadimgi davr tasavvurlaridan tortib zamonaviy falsafiy, estetik va madaniy-nazariy yondashuvlargacha bo‘lgan ilmiy qarashlar ketma-ketlikda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bugungi globallashuv jarayonlari, madaniy o‘zaro ta’sirlar va kreativ tafakkurning rivojlanishi sharoitida badiiy ijodning o‘rganilishiga doir turli ilmiy maktablar, konseptual yondashuvlar va metodologik mezonlarning rang-barangligi ko‘rsatib beriladi. Asarda badiiy ijodning inson shaxsiyati, ijodkorning dunyoqarashi, madaniy kontekst va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi. Mazkur maqola badiiy ijod fenomenining zamonaviy ilmiy talqinlarini umumlashtirib, uni o‘rganishga doir nazariy va amaliy qarashlarni keng qamrovda yoritadi.

Kalit so‘zlar: ijod, badiiy ijod, ijodkor shaxs, fenomen, kontsept, ijod ontologiyasi, dunyo manzarasi, globallashuv, kreativlik, madaniyat, ijodiy faoliyat, san’at asari.

Kirish. Badiiy ijod fenomenini o‘rganish bugungi ilmiy makonda bir qator sabablar tufayli alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, badiiy ijodning murakkab tabiatga ega bo‘lishi, uning mazmuni va tarkibining ko‘p qatlamliligi uni turli ilmiy yo‘nalishlar uchun qiziqarli obyektga aylantiradi. Mazkur hodisa zamonaviy madaniyat jarayonlarini, inson psixologik holatining ijodiy jihatlarini, shuningdek, san’at falsafasi bilan bog‘liq nazariy masalalarni tahlil qilishda asosiy tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, badiiy ijodning o‘rganilishi pedagogik amaliyot uchun ham muhimdir, chunki san’at sohasi vakillarini, ijodkor shaxslarni, san’atshunos va tanqidchilarni tayyorlash jarayoni ijod fenomenining chuqur ilmiy anglanishini talab qiladi. Shu bois, badiiy ijodning mohiyati, rivojlanish mexanizmlari va uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni haqidagi tadqiqotlar bugungi kunda dolzarbligini yanada oshirmoqda.

San’at mutaxassislarini tayyorlash jarayonida va madaniyatni turli yo‘nalishlarda — xususan, gumanitar hamda texnik fanlar kesimida — o‘rganishda nazariy yondashuvlar bilan amaliy ehtiyojlar o‘rtasida muayyan tafovutlar namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Buning asosiy sababi shundaki, bu sohalar turlicha sotsiokultural tamoyillarga tayangan holda shakllangan. Masalan, an’anaviy badiiy ta’lim tizimi asrlar davomida shakllangan akademik me’yorlarni ustuvor deb biladi: san’atdagi barqaror an’analarga sodiqlik, chizmachilikning mukammalligi, klassik shakllarga amal qilish kabi qadriyatlar haligacha asosiy mezon sifatida qo‘llanadi. Aksincha, zamonaviy san’at amaliyoti butunlay yangi tamoyillar bilan belgilanadi: innovatsion texnologiyalar, noodatiy materiallar, yangicha vizual shakllarni izlash, hatto klassik an’analarni inkor etish va badiiy ifodaning alternativ yo‘llarini shakllantirish bugungi kun san’at bozorining muhim segmentiga aylanmoqda. Bunday o‘zgarishlar badiiy ijodning iqtisodiyot, xizmatlar sohasi va madaniy iste’mol tizimi bilan uzviy bog‘lanib borayotganini ko‘rsatadi. Ijodning o‘zi esa murakkab va ko‘p komponentli fenomen bo‘lib, uni turli fanlar o‘z predmeti va metodologik asoslariga ko‘ra turlicha talqin qiladi. Jamiyat taraqqiyoti, falsafiy konsepsiyalarning yangilanishi, madaniyatshunoslik va psixologiya sohalaridagi ilmiy yutuqlar, shuningdek, pedagogik

fikrning rivojlanishi natijasida “ijod” tushunchasi doim qayta ko‘rib chiqilib, yangicha mazmun bilan boyib bormoqda.

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Kasbiy kompetentlik tushunchasi talabaning o‘z mutaxassislik sohasi bo‘yicha samarali faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning uyg‘unligi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda uzluksiz ta’lim tamoyili, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash, interfaol metodlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda raqamli vositalardan foydalanishning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘quv rejalari va dasturlarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish, startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali talabalarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash masalalari asoslab berilgan. Maqolada kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida shaxsiy fazilatlar – mas’uliyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik, muloqot madaniyati va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Natijada, zamonaviy bozor talablari asosida raqobatbardosh, irodali, halol va fidoyi mutaxassislarni tayyorlash pedagogik jarayonning ustuvor vazifasi ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, pedagogik asoslar, uzluksiz ta’lim, nazariya va amaliyot integratsiyasi, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, raqamli savodxonlik, shaxsiy fazilatlar, bozor talablari, raqobatbardosh mutaxassis.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Абдуллаев Достонбек Ином угли
Старший преподаватель кафедры “музыкальное образование” Каршинского государственного университета

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические основы формирования профессиональной компетентности студентов. Понятие профессиональной компетентности трактуется как совокупность знаний, умений, навыков, квалификации и личностных качеств, необходимых студенту для эффективной работы по специальности. В исследовании освещается роль принципа непрерывного образования, интеграции теоретических знаний с практикой, интерактивных методов, инновационных образовательных технологий и использования цифровых инструментов. Также обосновываются вопросы подготовки студентов к профессиональной компетентности посредством модернизации учебных планов и программ, привлечения к производственной практике, научно-исследовательской деятельности, поддержки стартап-инициатив. В статье подчеркивается значимость личностных качеств – ответственности, креативности, инициативности, культуры общения и духовно-нравственных ценностей – в процессе формирования профессиональной компетентности. В результате делается вывод о том, что подготовка конкурентоспособных, волевых, честных и бескорыстных специалистов с учетом современных требований рынка является приоритетной задачей педагогического процесса.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, педагогические основы, непрерывное образование, интеграция теории и практики, интерактивные методы, инновационные технологии, цифровая грамотность, личностные качества, требования рынка, конкурентоспособный специалист.

PEDAGOGICAL BASIS OF FORMING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Abdullayev Dostonbek Inom ugli
Karshi State University, Senior Lecturer, Department of «Music Education».

Abstract. This article analyzes the pedagogical foundations of the formation of students' professional competence. The concept of professional competence is interpreted as a combination of knowledge, skills, qualifications and personal qualities necessary for a student to effectively work in his field of specialization. The study highlights the role of the principle of continuous education, integration of theoretical knowledge with practice, interactive methods, innovative educational technologies and the use of digital tools. It also substantiates the issues of preparing students for professional competence through the modernization of curricula and programs, involvement in production practice, research activities, and support for startup initiatives. The article emphasizes the importance of personal qualities - responsibility, creativity, initiative, communication culture and spiritual and moral values - in the process of forming professional competence. As a result, it is concluded that the training of competitive, strong-willed, honest and selfless specialists based on modern market requirements is a priority task of the pedagogical process.

Keywords: professional competence, pedagogical foundations, continuing education, integration of theory and practice, interactive methods, innovative technologies, digital literacy, personal qualities, market demands, competitive specialist.

Kirish. Hozirgi xalqaro o‘zaro bog‘liqlik sharoitida ta’lim tizimi zimmasiga yuklatilgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu mehnat bozori ehtiyojlariga moslasha oladigan, raqobatda ustun va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Jamiyatning yuksalishi, fan va texnika taraqqiyotining jadallashuvi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining yangilanishi talabalar oldiga yangi-yangi mas’uliyatlarni qo‘ymoqda. Endilikda oliy ta’lim muassasalari faqat nazariy bilimlarni yetkazib berish bilangina cheklanib qolmay, balki talabalarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishni o‘zining bosh maqsadi sifatida belgilab olgan.

Kasbiy kompetentlik – bu shaxsning o‘z mutaxassisligi doirasida samarali faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish, muammolarni mustaqil hal qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatli bo‘lish qobiliyatidir. Bunday kompetentlikka ega mutaxassis bo‘lish uchun talabalar nafaqat dars jarayonida bilim olishi, balki o‘z ustida muntazam ishlashi, amaliyotda tajriba orttirishi, shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantirishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Shaxsning o‘z mutaxassisligi bo`yicha kasbiy kompetentligini shakllantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O’zbekiston strategiyasi” nomli asarida ta`kidlab o`tgan: “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo’lgan yangi avlodni, ilm-fan va o’z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz” .Ta’lim jarayonida kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari alohida o‘rin tutadi. Chunki har qanday bilim va ko‘nikma samarali pedagogik yondashuv orqali mustahkamlanadi. Bu jarayonda interfaol metodlar, kompetensiyaga asoslangan ta’lim texnologiyalari, amaliy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti va turli loyihalar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining nafaqat maqsadi, balki strategik vazifasi hamdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishdir. Kasbiy kompetentlik deganda shaxsning o‘z mutaxassisligi doirasida samarali faoliyat yurita olish qobiliyati, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, shuningdek, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash, yangiliklarga ochiq bo‘lish kabi sifatlari tushuniladi. Shu bois, ta’lim jarayonida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini chuqur anglash bugungi kunning muhim talabi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kasbiy kompetentligini shakllantirish, avvalo, uzluksiz ta’lim tamoyiliga asoslanadi. Bu jarayon talabani faqat auditoriyada o‘qitish bilangina cheklanmay, balki uning mustaqil ta’lim olish, ilmiy izlanishlar olib borish, amaliy faoliyatda ishtirok etish, turli loyiha va tadbirlarda qatnashishini ham qamrab oladi. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi talabani shaxs sifatida tan olishi, uning individual qobiliyatlarini hisobga olishi, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvga undashi zarur. Shu jihatdan kompetensiyaga asoslangan ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, muammoli o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlar va treninglar alohida o‘rin tutadi.

Talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari uch yo‘nalishda ko‘rinadi: bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va shaxsiy sifatlarni tarbiyalash. Birinchidan, zamonaviy mutaxassis o‘z sohasiga oid fundamental bilimlarni mukammal egallashi zarur. Ikkinchidan, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati, ya’ni amaliy kompetentlik talab etiladi. Uchinchidan, kasbiy faoliyat samaradorligi shaxsiy fazilatlarga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, mas’uliyat, muloqot madaniyati, hamkorlik, stressga bardoshlilik va tashabbuskorlik kabi jihatlar pedagogik jarayonda shakllantiriladi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ta’lim jarayonida talabalarni kasbiy kompetentlikka tayyorlashda o‘quv rejalari va dasturlarini modernizatsiya qilish muhimdir. Bunda nafaqat nazariy fanlar, balki amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy-tadqiqot loyihalariga jalb qilish, startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida samarali hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish talabalarni bozor talablari asosida kasbiy jihatdan tayyorlash imkonini beradi.

Kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik asos sifatida innovatsion ta’lim metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron resurslardan foydalanish, masofaviy ta’lim platformalari ham alohida ahamiyatga ega. Chunki bugungi kun mutaxassisi raqamli savodxonlikka ega bo‘lishi, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi zarur. Shu bilan birga, chet tillarini bilish, xalqaro tajriba va yondashuvlarni o‘rganish, global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun muhim omillardan biridir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kasbiy kompetentlik faqat bilim va malaka bilan chegaralanmaydi, balki shaxsning ijtimoiy faoliyati, ma’naviy barkamolligi, kasbiy etikasiga rioya qilishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Pedagogik jarayonda talabaning nafaqat kasbiy, balki ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, uni halollik, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor O.Musurmonova talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda ularning ichki ma’naviy dunyosi boyitish orqali kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish yanada samarali yo`l ekanligini ta`kidlab: - “Bizning nazarimizda, shaxsning ichki ma’naviy dunyosi ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy qiziqish, ma’naviy faoliyat va ma’naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iboratdir” - degan tushunchalarni keltirib o`tgan. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni doimiy

ravishda yangilanib borishi zarur. Chunki zamonaviy dunyoda fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, mavjud sohalar esa tubdan o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Bunday sharoitda talaba nafaqat o‘z sohasidagi bilimlarni mukammal o‘zlashtirishi, balki hayot davomida o‘qishga, yangiliklarni tezda qabul qilishga va ulardan samarali foydalanishga ham tayyor bo‘lishi kerak. Shu bois uzluksiz o‘qish tamoyili kasbiy kompetentlikning asosi sifatida doimiy ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda shaxsning o‘z ustida ishlashi, mustaqil ta’lim olish va o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhimdir. Bunday ko‘nikmalar talabaning hayotga faol munosabatda bo‘lishini, irodasini mustahkamlashini va kelajakdagi faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Bu esa uni nafaqat kasbiy jihatdan, balki shaxsiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ham barkamol inson sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarning uyg‘unlashtirilishi ham alohida ahamiyatga ega. Mutaxassis nafaqat o‘z ishini puxta bajarishi, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha olishi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi, milliy manfaatlar va insoniyat qadriyatlariga hurmat bilan qarashi zarur. Shu sababli ta’lim jarayonida vatanparvarlik, halollik, bag‘rikenglik va jamoaga sodiqlik kabi sifatlarni shakllantirish ham kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi.

Kasbiy kompetentligini shakllantirishning samaradorligi bevosita o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ularning ilmiy izlanishga bo‘lgan intilishi va yangi metodlarni qo‘llash qobiliyatiga bog‘liq. O‘qituvchining o‘zi ham raqamli texnologiyalarni bilishi, ijodkor bo‘lishi, talabalarni rag‘batlantira olishi zarur. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning malakasini oshirish, pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish va tajriba almashish tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim masala – bu xalqaro tajribadan samarali foydalanishdir. Dunyodagi ilg‘or ta’lim tizimlarida qo‘llanilayotgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar, raqamli ta’lim platformalari, akademik almashinuv dasturlari va qo‘shma loyihalar talabalar kasbiy kompetentligini oshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu orqali talabalar nafaqat nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki turli madaniyatlar bilan muloqot qilishni, global mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishni ham o‘rganadilar.

Natijada kasbiy kompetentligi yuqori darajada shakllangan talaba kelajakda o‘z mutaxassislik faoliyatini samarali olib boradi, yangi vaziyatlarga tez moslashadi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadi hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Shu bois, ta’lim muassasalarida talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirish strategik ahamiyat kasb etib, u nafaqat individual muvaffaqiyat, balki milliy taraqqiyotning barqaror omili sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari zamonaviy ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayon ta’lim, tarbiya va amaliy faoliyatning uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Mutaxassisning kasbiy barkamollikka erishishi uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy fazilatlar va ma’naviy qadriyatlar uyg‘un holda rivojlanishi zarur. Pedagogik jarayon esa talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, yangiliklarga ochiq bo‘lish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilishi lozim.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o‘rtasida samarali hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish, talabalarning ilmiy-tadqiqot, startap va innovatsion loyihalarda faol ishtirokini ta’minlash ularning kasbiy kompetentligini yuksaltirishga

xizmat qiladi. Zero, bugungi kunda raqobatbardosh, malakali va mas’uliyatli mutaxassislarni tayyorlash milliy taraqqiyotning muhim garovi sanaladi. Shu bois, kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvni yanada takomillashtirish va amaliyotga keng tatbiq etish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O’zbekiston, 2021. 230-bet.
2. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -T:. 2012 yil 66-bet.
3. G’ofurova M.R. Talabalarning kasbiy kompetentligini mustaqil ta’lim orqali rivojlantirish. Namangan: NamSPIdagi maqola, 2024.
4. Nosirov B.G’. Kasbiy kompetensiya va pedagogning kasbiy kompetentlig‘i. Professional ta’limni rivojlantirish, 2024.
5. Qalandarova O. Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy kompetentligini shakllantirish. 2024.
6. Ravshanova D. Innovatsion yondashuv asosida talabalar kreativitini rivojlantirishning uslubiy asoslari. 2024.
7. Axmadjonovich M.K. Talabalarni kreativ pedagogik kompetentsiyaga oid bilimlar bilan metodik qurollantirish zarurati. 2024.
8. Tuychievna R.L. Effectiveness of Improving Mental. 2024.
9. Kenjaboyev A.E. Pedagogik Deontologiya va Kompetentlik. 2024.
10. “Today’s Situation and Analysis of the Problem of Developing Professional Competences” – Uzbekistan kontekstida. 2024.

O‘UK: 796.85

XALQARO MUSOBAQALARDA MALAKALI KURASHCHILARNING QARSHI HUJUM USULLARI SAMARADORLIGI TADQIQI

Avazov Bahrom Beknazarovich
Qarshi davlat universiteti,
“Sport faoliyati” kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Kurash yuqori dinamikasi va bellashuvning cheklangan vaqti bilan ajralib turadi, bu sharoitda raqibning hujum usullaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi qarshi hujum usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning muhimligiga qaramay, ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ushbu usullarni halqaro musobaqalarda malakali sportchilarda maqsadli takomillashtirish metodlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Natijalar tajribaviy guruh sportchilarida halqaro musobaqalarda qarshi hujum usullarining samaradorligi oshganini va taktik xatolar soni kamayganini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar malakali kurashchilarni halqaro musobaqalarga tayyorlash jarayonida qarshi hujum texnika va taktikasini rivojlantirishda kompleks yondashuvning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: kurash, malakali kurashchilar, qarshi hujum usullari, halqaro musobaqalar faoliyati, texnik-taktik tayyorgarlik.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОНТРАТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БОРЦОВ НА МЕЖДУНАРОДНЫХ СОРЕВНОВАНИЯХ

Авазов Бахром Бекназарович
Старший преподаватель кафедры «Спорт фаолияти»
Каршинский государственный университет

Аннотация. Кураш характеризуется высокой динамикой и ограниченным временем поединка, поэтому в этих условиях особое значение имеют контратакующие приёмы, позволяющие эффективно использовать действия соперника. Несмотря на их значимость, в научно-методической литературе методы целенаправленного совершенствования этих приёмов у квалифицированных спортсменов на международных соревнованиях недостаточно систематизированы.

Результаты показали, что у спортсменов экспериментальной группы повысилась эффективность контратакующих приёмов на международных соревнованиях и сократилось количество тактических ошибок.

Полученные данные подтверждают целесообразность комплексного подхода к развитию техники и тактики контратак в процессе подготовки квалифицированных борцов к международным соревнованиям.

Ключевые слова: кураш, квалифицированные спортсмены, контратакующие приёмы, международные соревнования, технико-тактическая подготовка.

STUDY OF THE EFFECTIVENESS OF COUNTER-OFFENSIVE ACTIONS OF A SKILLED KURASH WRESTLER IN INTERNATIONAL COMPETITIONS

Avazov Bahrom Beknazarovich
Senior lecturer of the department of «Sports faoliyati»
Karshi State University

Abstract. Kurash is characterized by high dynamics and a limited duration of bouts, which makes counter-offensive techniques—allowing effective use of the opponent’s actions—particularly important. Despite their significance, methods for the targeted improvement of these techniques among skilled athletes in international competitions are insufficiently systematized in scientific and methodological literature.

The findings confirm the feasibility of a comprehensive approach to developing counter-offensive technique and tactics in the preparation of skilled Kurash athletes for international competitions.

Keywords: Kurash, skilled athletes, counter-offensive techniques, international competitions, technical-tactical preparation.

Kirish. Kurash – o‘zbek milliy sport turi bo‘lib, xalqaro miqyosda e’tirof etilgan va zamonaviy sport yakkakurashlari tizimida jadal rivojlanib bormoqda [1]. Kurashda musobaqa faoliyati yuqori intensivlik, qat’iy vaqt chegaralari hamda hujum harakatlarining ustunligi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda sportchilarning bellashulardagi samaradorligi ko‘p jihatdan qarshi hujum usullarini o‘z vaqtida va oqilona qo‘llay olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi [5].

Yondosh kurash turlarida (dzyudo, sambo) olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili qarshi hujum taktikasi texnik-taktik mahoratning muhim elementi sifatida qaralishini ko‘rsatadi. Biroq kurashda mazkur yo‘nalish yetarli darajada o‘rganilmagan bo‘lib, bu holat chuqurroq tadqiqotlar va maxsus tayyorgarlik metodlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi [4].

Zamonaviy kurash sportchida jismoniy, funksional texnik-taktik harakatlarni mukammal bilishni tilab etadi. Bellashuv vaqtining qisqarib borishi kurashchilarning olishuv tezligining oshishiga olib kelmoqda. Har qanday hujumga tayyorlanish vaqti qisqaradi [2].

Kelgusidagi ushbu sport mahoratining usuli uchun kurashchilar tomonidan musobaqalarda muvaffaqiyatli qo‘llaniladigan qarshi hujumning texnik-taktik mahoratini rivojlanishidagi umumiy g‘oyalarni puxta aniqlash va qarshi hujum faoliyatini chuqurroq o‘rganish katta ahamiyatga egadir [5]. Shuningdek g‘oliblikni saqlab qolish uchun raqibga qarshi samarali hujum qilish va qarshi hujum texnik-taktik harakatlarini unumli qo‘llashni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning maqsadi malakali kurashchilarning qarshi hujum usullarini halqaro musobaqalardagi samaradorligi va ularni tajriba yo‘li bilan tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. Kurashda qarshi hujum usullarining texnik-taktik xususiyatlarini tahlil qilish.
2. Musobaqa faoliyatida qo‘llanilayotgan samarali qarshi hujum usullarini aniqlash.
3. Qarshi hujum usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan maxsus mashg‘ulot metodlarini ishlab chiqish.
4. Taklif etilgan metodlarning malakali sportchilarning qarshi hujum usullari

samaradorligiga ta’sirini eksperimental yo‘l bilan aniqlash.

Tadqiqot ob’ekti: Kurashda malakali sportchilarni tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Kurashda qarshi hujum usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan texnik-taktik tayyorgarlik metodlari.

Tadqiqot metodlari:

– ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;

– pedagogik kuzatuv;

– musobaqa faoliyatini tahlil qilish;

– 10 hafta davom etgan pedagogik tajriba;

– matematik statistika metodlari.

Pedagogik tajribani tashkil etish.

Tadqiqotda 18-22 yoshdagi, sport razryadi kamida I razryad bo‘lgan, kurashga ixtisoslashgan 24 nafar sportchi ishtirok etdi. Ishtirokchilar nazorat va tajribaviy guruhlarga bo‘lindi.

Tajribaviy guruh sportchilari qarshi hujum usullarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni o‘z ichiga olgan ishlab chiqilgan dastur asosida mashg‘ulotlar olib bordi, nazorat guruhi esa an’anaviy metodika bo‘yicha shug‘ullandi.

Pedagogik tajriba 10 hafta davom etdi.

Nazorat guruhi (n=12) an’anaviy metodika asosida mashg‘ulotlar olib bordi.

Tajribaviy guruh (n=12) qo‘shimcha ravishda quyidagilardan foydalandi:

– vaziyatli qarshi hujum topshiriqlari;

– oldindan reaksiyani rivojlantirish mashqlari;

– raqibning tipik hujumlarini modellashtirish.

Samaradorlik tajribadan oldin va keyin halqaro musobaqa bellashuvlarini tahlil qilish asosida baholandi. Tajribadan oldin guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (1-jadval).

1-jadval

Tajribadan oldin qarshi hujum usullarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=12)	Tajribaviy guruh (n=12)	t-Styudent	Ahamiyatlilik darajasi
1.	Bir bellashuvda qarshi hujum urinishlarining o‘rtacha soni	4,1±0,6	4,0±0,5	0,44	p>0,05
2.	Muvaffaqiyatli qarshi hujumlar, %	31,4±3,2	32,1±3,1	0,54	p>0,05
3.	Bir bellashuvdagi taktik xatolar soni	3,3±0,4	3,2±0,5	0,69	p>0,05

Tajribadan keyin esa guruhlar o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli bo‘ldi (2-jadval).

Tajribadan keyin esa guruhlar o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli bo‘ldi (2-jadval).

2-jadval

Tajribadan keyin qarshi hujum usullarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=12)	Tajribaviy guruh (n=12)	t-Styudent	Ahamiyatlilik darajasi
1.	Bir bellashuvda qarshi hujum urinishlarining o‘rtacha soni	4,3±0,5	4,7±0,4	2,38	p<0,05
2.	Muvaffaqiyatli qarshi hujumlar, %	32,6±3,2	35,1±3,0	1,97	p<0,05
3.	Bir bellashuvdagi taktik xatolar soni	3,0±0,4	2,7±0,4	1,84	p<0,05

Nazorat guruhidagi izchil qiyosiy ko‘rsatkichlarda statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (3-jadval).

Nazorat guruhidagi izchil qiyosiy ko‘rsatkichlarda statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (3-jadval).

3-jadval

Tajribadan oldin va keyin nazorat guruhidagi ko‘rsatkichlarning qiyosiy o‘zgarishi dinamikasi

№	Ko‘rsatkich	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	t-Styudent	Ahamiyatlilik darajasi
1.	Qarshi hujum usullari soni	4,1±0,6	4,3±0,5	0,89	p>0,05
2.	Qarshi hujumlar samaradorligi	31,4±3,2	32,6±3,2	0,92	p>0,05
3.	Taktik xatolar soni	3,3±0,4	3,0±0,4	0,80	p>0,05

Tajriba guruhidagi izchil qiyosiy ko‘rsatkichlarda statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlandi (4-jadval).

Jadval 4

Tajribadan oldin va keyin tajriba guruhidagi ko‘rsatkichlarning qiyosiy o‘zgarishi dinamikasi

№	Ko‘rsatkich	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	t-Styudent	Ahamiyatlilik darajasi
1.	Qarshi hujum usullari soni	4,0±0,5	4,7±0,4	3,79	p<0,01
2.	Qarshi hujumlar samaradorligi	32,1±3,1	35,1±3,0	2,41	p<0,05
3.	Taktik xatolar soni	3,2±0,5	2,7±0,4	2,71	p<0,05

Natijalarni statistik qayta ishlash matematik statistika metodlari yordamida amalga oshirildi. Nazorat va tajribaviy guruhlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqlarning ishonchliligi Styudentning t-mezoni yordamida aniqlanib, statistik ahamiyatlilik darajasi Person mezoni bo’yicha belgilandi.

Tadqiqot natijalarini muhokamasi.

Tajriba yakunlangach halqaro musobaqa faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajribaviy guruh malakali sportchilarida muvaffaqiyatli qarshi hujum usullari soni o‘rtacha 18-22% ga oshgan. Shu bilan birga, raqib hujumlarini qaytarish jarayonida taktik xatolar sonining kamayishi kuzatildi.

Olingan ma’lumotlar maxsus ishlab chiqilgan metodlarni qo‘llash qarshi hujum usullarining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Qarshi hujum usullarining natijadorligi oshishi taklif etilgan metodikaning kompleks ta’siri – texnik, taktik va psixofiziologik tayyorgarlikning uyg‘unlashuvi bilan izohlanadi. Musobaqa vaziyatlarini modellashtirish va tezkor reaksiyani rivojlantirish sportchilarda barqaror harakat ko‘nikmalarini shakllantirish hamda taktik tafakkurni takomillashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsus tayyorgarlik metodlarini joriy etish qarshi hujum usullarining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Eng katta o‘zgarishlar qarshi hujumlar natijadorligi ko‘rsatkichida qayd etilib, u 20 % dan ortiq oshdi, bu esa musobaqa vaziyatlarini modellashtirish va oldindan reaksiyalarni rivojlantirish samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosalar. Olingan natijalarni boshqa sport kurashi turlaridagi tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslash aniqlangan qonuniyatlarning universalligini va ularning kurash xususiyatlariga mos kelishini ko‘rsatadi.

1. Qarshi hujum usullari kurashda musobaqa faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

2. Ushbu usullarni maqsadli takomillashtirish malakali sportchilarning bellashuvlardagi natija samaradorligini oshirdi.

3. Ishlab chiqilgan metodlar malakali kurashchilarni o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga joriy etish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlar qarshi hujum usullarini shakllantirishning yosh va malaka xususiyatlarini o‘rganishga, shuningdek, ularni bellashuv olib borishning turli uslublariga moslashtirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. «Kurash» milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3306-sonli Qarori (Toshkent sh., 2017 yil 2 oktabr).

2. Kerimov F.A. «Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti» T., 2001 y.

3. Шахмурадов Ю.А. Контратакующие действия в спортивной борьбе // Теория и практика физической культуры. - 2017. - №6. - С. 45–48.

4. Туманян Г.С. Спортивная борьба: теория, методика, практика. М.: Советский спорт, 2010.

5. Taymuratov Sh.A. Kurashchilarni tayyorlash texnologiyasi. Toshkent, 2010 y. 89 b.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK VAZIYATLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ULARNING KONSEPTUAL TALQINI

Bobojonov Ne’matjon Shonazarovich,
Urgench davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida pedagogik vaziyatlardan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari va ularning konseptual talqini ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda pedagogik vaziyat jismoniy tarbiya jarayonining faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxs rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim didaktik vosita sifatida talqin qilinadi. Maqolada o‘quvchi shaxsining motivatsion-irodaviy faolligi, emotsional holati, refleksiv fikrlashi va ijtimoiy kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda pedagogik vaziyatlarning roli ochib berilgan. Shuningdek, ularning psixologik mexanizmlari — idrok, ehtiyoj-motiv tizimi, faoliyatga tayyorgarlik, o‘z-o‘zini boshqarish hamda ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantirish omillari asosida yoritiladi. Maqola doirasida pedagogik vaziyatlarni loyihalash tamoyillari, ularning struktura-komponent modeli hamda jismoniy tarbiya darslarida qo‘llashning samaradorlik omillari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilari faoliyatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish, dars jarayonining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. pedagogik vaziyat, jismoniy tarbiya, pedagogik-psixologik mexanizmlar, motivatsion faollik, refleksiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, emotsional-irodaviy rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, tarbiyaviy ta’sir, dars jarayoni.

Hozirgi davr ta’lim tizimida jismoniy tarbiya darslari nafaqat o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning shaxsiy-irodaviy sifatlari, ijtimoiy faolligi va psixologik barqarorligini shakllantirishda muhim pedagogik makon sifatida talqin etilmoqda. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya jarayonida pedagogik vaziyatlardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarda motivatsiya, mas’uliyatlilik, o‘zini nazorat qilish, ijtimoiy hamkorlik va refleksiv fikrlash kabi muhim psixologik sifatlarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi (D. Hellison, S. Bailey, J. Dyson, B. Kirk va boshqalar). Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, pedagogik vaziyatlar o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga moslashtirish, sport faoliyatida qaror qabul qilish, emotsional boshqaruv va ijtimoiy muloqotni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy pedagogik maktablarda “situatsion yondashuv”, “konseptual sport ta’limi modeli”, “faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlar” tushunchalari jismoniy tarbiya darslarining tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiruvchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Yoshlar — kelajagimiz”, “Sog‘lom avlod” va “Sog‘lom turmush tarzi” tashabbuslari, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim tizimida jismoniy tarbiyani modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat dasturlari mazkur yo‘nalishning strategik ahamiyatini belgilab bermoqda. Normativ-huquqiy hujjatlarda jismoniy tarbiya darslarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, o‘quvchining ijtimoiy-psixologik faolligini qo‘llab-quvvatlash, tarbiyaviy imkoniyatlarni kuchaytirish asosida tashkil etish zarurligi alohida ta’kidlanmoqda. Bu esa dars jarayonida pedagogik vaziyatlardan oqilona foydalanish, ularga psixologik mazmun yuklash hamda ularni shaxs rivojiga yo‘naltirilgan pedagogik mexanizm sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

Mazkur omillar jismoniy tarbiya darslarida pedagogik vaziyatlarning pedagogik-psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda ochib berish, ularning rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va motivatsion ta’sirini aniqlash, shuningdek, ularning konseptual talqinini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot jismoniy tarbiya darslarida pedagogik vaziyatlardan foydalanishning nazariy asoslari, psixologik tarkibiy omillari va ularni samarali tatbiq etish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan.

Pedagogik ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya darslarida pedagogik vaziyatlardan foydalanish masalasi turli ilmiy maktablar doirasida turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotlarda pedagogik vaziyatlar o‘quvchilarni real hayotiy faoliyatga tayyorlash, sport faoliyatida ijtimoiy-psixologik moslashuvni ta’minlash hamda shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida talqin etiladi.

D. Hellison va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan mas’uliyatga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya modelida pedagogik vaziyatlar o‘quvchini ijtimoiy mas’uliyat, liderlik, hamkorlik va o‘zini boshqarish xulq-atvoriga yo‘naltiruvchi tarbiyaviy vosita sifatida baholanadi. J. Dyson, B. Kirk, R. Light va boshqa tadqiqotchilar sport pedagogikasida situatsion yondashuv, tajriba asosida o‘rganish va muammo vaziyatlari orqali faoliyatni tashkil etishning shaxs rivojiga ta’sirini amaliy isbotlab berganlar. Ularning ishlarida pedagogik vaziyatlar nafaqat bilim va ko‘nikma beruvchi metod, balki o‘quvchi shaxsining emotsional-irodaviy holati, kommunikativ tajribasi va refleksiv tafakkurini shakllantiruvchi psixologik mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda (J. Bruner, L. Vygotskiy, A. Bandura, S. Rubinshteyn) ta’lim jarayonida faoliyat va vaziyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik shaxs rivojining muhim omili sifatida yoritilgan. Xususan, ijtimoiy-kognitiv yondashuvda pedagogik vaziyatlar o‘quvchining motivatsiya tizimi, xulqni tartibga solish, o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini faollashtiruvchi omil sifatida talqin etiladi. So‘nggi yillarda xorijiy ilmiy adabiyotlarda emotsional-intellektni rivojlantirish, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘yin va sport faoliyati orqali ijtimoiy iqlim yaratishga doir tadqiqotlar kengayib bormoqda; bunda pedagogik vaziyatlar muhim psixologik texnologiya sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Mahalliy ilmiy manbalarda esa jismoniy tarbiya darslarining tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va ijtimoiy-psixologik funksiyasini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish, sport faoliyatini tarbiyaviy vosita sifatida tashkil etish masalalari yoritilgan. O‘zbekiston olimlari ishlarida jismoniy tarbiya darslarida motivatsion-irodaviy sifatlarni shakllantirish, o‘quvchi faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy muloqot va axloqiy madaniyatni rivojlantirish kabi masalalarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, pedagogik vaziyatlarning psixologik mexanizmlari, ularning struktura-komponent modeli va konseptual talqini yetarli darajada tizimli tadqiq etilmaganini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda pedagogik vaziyatlarning ayrim jihatlari — metodik qo‘llanilishi, tarbiyaviy imkoniyatlari, o‘quv faoliyatini faollashtirishdagi roli yoritilgan bo‘lsa-da, jismoniy tarbiya darslari kontekstida ularning motivatsion-psixologik ta’sir mexanizmlari, o‘quvchi shaxsining emotsional-irodaviy rivojiga ta’siri va konseptual-nazariy asoslarini kompleks tahlil qilish zarurati mavjud.

Shu bois mazkur tadqiqot adabiyotlardagi ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya darslarida pedagogik vaziyatlardan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda aniqlash va ularning konseptual modelini ishlab chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya darslarida pedagogik vaziyatlardan foydalanish samaradorligi, avvalo, ularning pedagogik-psixologik

mexanizmlari qanday ishlashiga bog‘liqdir. Mazkur mexanizmlar o‘quvchi shaxsining ichki holati, motivatsiyasi, ijtimoiy xulqi va emotsional reaktsiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan psixologik jarayonlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda, pedagogik vaziyatlar o‘quvchining ehtiyoj-motiv tizimini faollashtirish mexanizmi sifatida ishlaydi. Muammo vaziyati, tanlov elementi, mas’uliyat yuklangan topshiriq yoki jamoaviy faoliyat orqali o‘quvchida ichki motivatsiya, musobaqaviylik ruhi, o‘zini namoyon etish ehtiyoji kuchayadi. Natijada ta’lim jarayonidagi faoliyat tashqi majburlash emas, balki ichki rag‘bat bilan boshqarilgan xatti-harakatga aylanadi.

Ikkinchi muhim mexanizm — bu emotsional-irodaviy boshqaruvni shakllantirish mexanizmidir. Pedagogik vaziyat davomida o‘quvchi stress, hayajon, muvaffaqiyatsizlik yoki g‘alaba holatlarini boshdan kechiradi va shu jarayonda iroda, sabr, o‘zini tuta bilish, mas’uliyat kabi sifatlar mustahkamlanadi. Vaziyatning maqsadli tashkillashtirilishi o‘quvchini vaziyatga mos ravishda emotsional reaksiyalarini nazorat qilishga o‘rgatadi.

Uchinchi mexanizm sifatida kognitiv-refleksiv faollikni ishga tushirish jarayoni namoyon bo‘ladi. Pedagogik vaziyatlar o‘quvchini qaror qabul qilish, vaziyatni tahlil qilish, xatoni anglash, o‘z faoliyatiga baho berish kabi refleksiya jarayoniga faol jalb etadi. Bu esa jismoniy mashqni mexanik bajarishdan ko‘ra, ongli faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi mexanizm — ijtimoiy-kommunikativ o‘zaro ta’sir mexanizmidir. Jamoaviy o‘yin, guruh mashqi, sport hamkorligi kabi vaziyatlarda o‘quvchilar muloqot, kelishuv, hamkorlik, liderlik va ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunda pedagogik vaziyat ijtimoiy xulq-atvorni tabiiy sharoitda sinovdan o‘tkazuvchi ijtimoiy tajriba maydoni vazifasini bajaradi.

Beshinchi mexanizm sifatida o‘z-o‘zini boshqarish va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish jarayoni kuzatiladi. Pedagogik vaziyatlarda o‘quvchi nafaqat o‘qituvchi ko‘rsatmasi bilan, balki o‘z tashabbusi, ichki qarori asosida harakat qilishga o‘rgatiladi. Natijada shaxsda o‘z xatti-harakatiga nisbatan javobgarlik, ongli intizom, ichki nazorat mexanizmlari rivojlanadi.

Shunday qilib, pedagogik vaziyatlarning pedagogik-psixologik mexanizmlari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- motivatsion faollikni uyg‘otish,
- emotsional-irodaviy boshqaruvni rivojlantirish,
- kognitiv-refleksiv tahlilni faollashtirish,
- ijtimoiy-kommunikativ tajribani shakllantirish,
- o‘z-o‘zini boshqarish va mas’uliyatni kuchaytirish.

Mazkur mexanizmlar jismoniy tarbiya darslarini oddiy mashq bajarish jarayonidan tashqariga olib chiqib, uni shaxs rivojiga yo‘naltirilgan psixologik-tarbiyaviy makon sifatida talqin etish imkonini beradi.

Tadqiqot jismoniy tarbiya darslari jarayonida pedagogik vaziyatlarning pedagogik-psixologik mexanizmlari qanday ishga tushishini aniqlash maqsadida tajriba-sinov faoliyati shaklida amalga oshirildi. Tajribada 5–7-sinf o‘quvchilaridan iborat ikki guruh ishtirok etdi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba darslarida maxsus ishlab chiqilgan situatsion pedagogik vaziyatlar qo‘llanildi, nazorat guruhida esa darslar an’anaviy uslubda olib borildi.

1-misol. Motivatsion faollikni faollashtiruvchi vaziyat

“Jamoaviy reley estafetasi” mashqi jarayonida o‘quvchilarga vaziyatli topshiriq berildi:

“Jamoa strategiyasini tanlang, mas’uliyatni bo‘lishing va har bir a’zo muvaffaqiyati uchun javobgar bo‘ling.”

Natija sifatida quyidagilar kuzatildi:
- o‘quvchilarda ichki raqobat va mas’uliyat hissi kuchaydi;
- faol ishtirokchilar soni oshdi;
- darsga motivatsiya sezilarli darajada ortdi.

Bu holat pedagogik vaziyatning ehtiyoj-motiv tizimini faollashtirish mexanizmi amalda ishga tushganini ko‘rsatdi.

2-misol. Emotsional-irodaviy boshqaruvni shakllantiruvchi vaziyat

“Stress holatida qaror qabul qilish” vaziyatida mashq vaqtida ataylab qiyin shart yaratildi — topshiriq bajarish muddati qisqartirildi. O‘quvchilarga quyidagi yo‘riq berildi:

“Vaziyatdan chiqishning eng oqilona yo‘lini jamoa bilan birgalikda toping.”

Natija:
- ayrim o‘quvchilar hayajonlangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan o‘zini boshqarish, iroda, sabr ko‘nikmalari faollashdi;
- o‘qituvchi tomonidan reflektiv savollar berilgach, o‘quvchilar emotsional nazorat mexanizmini anglagan holda xulosa chiqara boshladi.

3-misol. Kognitiv-refleksiv faollikni ishga tushiruvchi vaziyat

Mashqdan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi savollar berildi:
- Qaysi qaroringiz samarali bo‘ldi?
- Qayerda xato qildingiz va nega?
- Keyingi safar boshqacha qanday yo‘l tutasiz?

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:
- o‘quvchilar o‘z faoliyatini ongli tahlil qila boshladi;
- refleksiya darajasi oshdi;
- bajarilgan harakatlar mexanik emas, mazmunli va ongli faoliyat tusini oldi.

4-misol. Ijtimoiy-kommunikativ mexanizmni faollashtiruvchi vaziyat

“Juftlikda mashq bajarish va sherigini qo‘llab-quvvatlash” vaziyati joriy etildi. Bunda o‘quvchilardan bir-birini ruhlantirish, maslahat berish, xatoni muloyimlik bilan ko‘rsatish talab qilindi.

Natijada:
- muloqot madaniyati, kelishuv, jamoaviylik kuchaydi;
- passiv o‘quvchilar ham faol ishtirok eta boshladi;
- ijtimoiy mas’uliyat va qo‘llab-quvvatlash munosabatlari shakllandi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki:
- pedagogik vaziyatlardan maqsadli foydalanilgan darslarda

motivatsiya, refleksiya, o‘zini boshqarish va ijtimoiy muloqot ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi;
- pedagogik vaziyatlar faqat metod emas, balki

shaxs rivojiga bevosita ta’sir etuvchi psixologik mexanizm sifatida ishlaydi.

O‘tkazilgan nazariy tahlil va tajriba-sinov ishlari jismoniy tarbiya darslarida pedagogik vaziyatlardan foydalanish o‘quvchi shaxsining motivatsion, emotsional-irodaviy, kognitiv-refleksiv va ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik-psixologik mexanizm ekanini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik vaziyatlar o‘quvchining ichki motivatsiyasi va mas’uliyat hissini faollashtiradi.
2. Vaziyatlar jarayonida o‘zini boshqarish, iroda va emotsional barqarorlik shakllanadi.
3. Qaror qabul qilish, xatoni tahlil qilish, refleksiya jarayonlari ongli faoliyatni

kuchaytiradi.

4. Guruhiy mashqlar orqali hamkorlik, liderlik, ijtimoiy mas’uliyat rivojlanadi.

5. Jismoniy tarbiya darsi tarbiyaviy-rivojlantiruvchi psixologik makon sifatida namoyon bo‘ladi.

Olingan natijalar pedagogik amaliyotda jismoniy tarbiya darslarini faqat mashq bajarish jarayoni sifatida emas, balki shaxs kamolotini ta’minlovchi pedagogik-psixologik tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
2. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Harvard University Press.
3. Hellison, D. (2011). Teaching Personal and Social Responsibility Through Physical Activity. Human Kinetics.
4. Dyson, B., & Casey, A. (2016). Cooperative Learning in Physical Education: A Research-Based Approach. Routledge.
5. Kirk, D., & Macdonald, D. (1998). Situated learning in physical education. Journal of Teaching in Physical Education, 17(3), 376–387.
6. Light, R. (2013). Game Sense: Pedagogy for Performance, Participation and Enjoyment. Routledge.
7. Bailey, R. (2006). Physical education and sport in schools: A review of benefits and outcomes. Journal of School Health, 76(8), 397–401.
8. Vygotsky, L. S. (1982). Myshleniye i rech’ (Fikr va nutq). Moskva: Pedagogika.
9. Rubinshteyn, S. L. (2002). Osnovy obshchey psikhologii. Sankt-Peterburg: Piter.
10. Dewey, J. (2004). Experience and Education. New York: Free Press.
11. Karimov, B., & Tursunov, A. (2020). Jismoniy tarbiya darslarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning pedagogik imkoniyatlari. Jismoniy tarbiya va sport, 4(2), 45–52.
12. Egamberganova, N. (2019). Jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish mexanizmlari. Pedagogika masalalari, 3(1), 112–118.
13. Abdurahmonov, Q. (2021). Ta’lim jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning psixologik asoslari. O‘zbekiston pedagogik jurnali, 1(5), 78–84.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-105, PQ-4884, PQ-4611-son qarorlari — jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga oid dasturlar.
15. “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi”. Toshkent: XTV, 2022.
16. Casey, A., Goodyear, V., & Armour, K. (2017). Digital Technologies and Learning in Physical Education. Routledge.
17. Goudas, M., & Giannoudis, G. (2008). A qualitative evaluation of a responsibility-based physical education program. European Physical Education Review, 14(1), 41–60.
18. Ntoumanis, N. (2001). A self-determination approach to motivation in physical education. British Journal of Educational Psychology, 71(2), 225–242.
19. Stolz, S., & Pill, S. (2014). Teaching games and sport pedagogy. European Physical Education Review, 20(1), 36–71.
20. UNESCO (2015). Quality Physical Education: Policy Guidelines. Paris: UNESCO.

6–8 YOSHLI QIZLARNING ГИМНАСТИКА SPORT MUSOBAQALARIGA KOMPLEKS TAYYORLASHDA ULOQTIRISH MASHQLARI ASOSIDAGI AVTOMATLASHTIRILGAN JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

Джураева Махасти Зокир қизи,
Бухоро давлат педагогика институти (DSc) докторанти, педагогика фанлари бўйича PhD

Аннотация. Mazkur maqolada gimnastika tayyorgarligi jarayonida 6–8 yoshli qizlarda uloqtirish–ushlash mashqlari asosida jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash masalasi ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Tadqiqotda mazkur yosh davrining psixofiziologik xususiyatlari, koordinatsion harakatlarni rivojlantirish omillari hamda uloqtirish–ushlash mashqlarining motorik ko‘nikmalarni shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi. Maqolada sinov mashqlari kompleksi, baholash mezonlari va indikatorlari ishlab chiqilib, tajriba-sinov natijalari asosida o‘quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, muvofiqlashtirish, qo‘l-harakat aniqligi va reaksiya tezligi kabi ko‘rsatkichlaridagi dinamik o‘zgarishlar tahlil qilingan. Olingan natijalar uloqtirish–ushlash mashqlaridan gimnastika tayyorgarligida nafaqat harakat malakalarini takomillashtiruvchi vosita, balki jismoniy tayyorgarlikni diagnostika qilish va rivojlanish sur’atlarini monitoring qilish imkonini beruvchi samarali mezon sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: badiiy gimnastika, boshlang’ich bosqich, somatotip, jismoniy tarbiya.

Bugungi kunda bolalarda erta yoshdan boshlab jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish, harakat madaniyatini shakllantirish va sport faoliyatiga ongli munosabatni tarbiyalash zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro pedagogik-sport tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, 6–8 yosh davri harakat ko‘nikmalari, koordinatsion qobiliyatlar va mayda motorika rivojlanishining sezilarli faollashuvi bilan xarakterlanadi hamda aynan shu davrda maxsus mashq komplekslaridan foydalanish jismoniy tayyorgarlikning keyingi bosqichlariga mustahkam poydevor yaratadi (R. Schmidt, K. Gallahue, D. Kirk va boshqalar). Olimlar fikriga ko‘ra, uloqtirish–ushlash tipidagi mashqlar bolalarda fazoviy idrok, reaktsiya tezligi, muvofiqlashtirish, qo‘l-ko‘z uyg‘unligini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi hamda koordinatsion harakatlar kompleksining muhim komponenti sifatida talqin qilinadi.

So‘nggi yillarda jahon sport pedagogikasida baholashga yo‘naltirilgan jismoniy tayyorgarlik modeli, diagnostik mashqlar tizimi, motorik ko‘rsatkichlar dinamikasini monitoring qilish yondashuvlari keng qo‘llanilmoqda. Xususan, bolalar sporti bo‘yicha ilmiy ishlarda baholash jarayonini faqat natija bilan emas, balki harakat sifati, aniqlik, barqarorlik va koordinatsion moslashuv darajasi bilan o‘lchash zarurligi alohida qayd etiladi. Shu bilan birga, yosh sportchilar tayyorgarligini aniqlashda funksional jihatdan mos va yoshga xos test mashqlaridan foydalanish metodik yondashuv sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham jismoniy tarbiya va bolalar sportini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, maktab o‘quvchilarida jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarda umumta’lim maktablarida sport mashg‘ulotlarini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayoniga ilmiy-metodik yondashuvlarni joriy etish, jismoniy tayyorgarlikni muntazam monitoring qilish zaruriyati ta’kidlanmoqda. Bu esa yosh gimnast qizlar tayyorgarligini baholashda ilmiy asoslangan, amaliyotga mos

diagnostik mezonlar va sinov mashqlari tizimini ishlab chiqishni dolzarb vazifa sifatida ilgari suradi.

Shu nuqtai nazardan, 6–8 yoshli qizlarda gimnastika tayyorgarligi jarayonida uloqtirish–ushlash mashqlari asosida jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash, uning indikatorlari va mezonlarini aniqlash, natijalar dinamikasini tahlil qilish mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi. Tadqiqot ushbu mashqlarni nafaqat motorik ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi vosita, balki diagnostik baholashning ishonchli mezoni sifatida qo‘llash imkoniyatlarini asoslab berishga qaratilgan.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 6–8 yoshli bolalarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish jarayonida koordinatsion harakatlar va motorik ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi zamonaviy sport pedagogikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda (K. Gallahue, R. Schmidt, G. Meinel, J. Seefeldt va boshqalar) ushbu yosh davri asosiy harakat malakalari shakllanishi jadallashadigan sensitif bosqich sifatida talqin etilib, aynan shu davrda uloqtirish, ushlash, muvofiqlashtiruvchi mashqlarni maqsadli qo‘llash bolalarning jismoniy rivojlanish sur’atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi.

Ko‘plab sport pedagogikasi tadqiqotlarida uloqtirish–ushlash mashqlari koordinatsion qobiliyat, reaktsiya tezligi, fazoviy idrok, qo‘l-ko‘z uyg‘unligi va chaqqonlikni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholanadi (R. Light, D. Kirk, A. Haywood). Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, ushbu mashqlar nafaqat murakkab harakatlarni bajarishga tayyorlovchi omil, balki sport faoliyatiga psixomotor moslashuvni ta’minlovchi mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tajribamiz jarayonida voleybol darslarida ishtirok etgan o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, o‘ziga ishonchi, jamoada ishlash ko‘nikmasi oshganini ko‘rsatdi.

Umumta’lim maktablarida voleybol darslari o‘quvchilarning sog‘lom fiziologik rivoji bilan birga pedagogik tarbiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Dars jarayonida harakat faoliyatining turli ko‘rinishlari o‘quvchilarni jismonan chiniqtirish, ishchanlik qobiliyatini oshirish, darsdan keyingi charchoqlarni kamaytirish hamda sportga qiziqishini orttirish imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida esa voleybolni fakultativ mashg‘ulotlar, sport to‘garaklari yoki musobaqalar shaklida keng qo‘llash mumkin. Bu yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzining targ‘iboti samaradorligini oshiradi.

Voleybolning universal xususiyatlari uni sport reabilitatsiyasi, profilaktika ishlari va sog‘lomlashtirish dasturlarining muhim qismi sifatida qo‘llash imkonini beradi. Maxsus moslashtirilgan mashqlar umurtqa pog‘onasi muammolari, yengil darajadagi kardiologik kasalliklar, mushak-skelet tizimi funksional zaifliklari kabi holatlarda sog‘lomlashtirishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin.

Sog‘lomlashtirish yo‘nalishida voleybol mashg‘ulotlari quyidagi tamoyillarga asoslanib tashkil etiladi:

bosqichma-bosqichlik – yuklamalarni asta-sekin oshirish;

moslashuvchanlik – individual yosh va jismoniy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish;

davriylilik – mashg‘ulotlarni haftalik va oylik tsikllarda rejalashtirish;

sog‘liq uchun xavfsizlik – ortiqcha yuklanishlardan ehtiyot bo‘lish.

O‘yin davomida yurak urish tezligi ko‘pincha 120–160 ur/min oralig‘ida bo‘ladi, bu sog‘lomlashtiruvchi aerob yuklama hisoblanadi. O‘rtacha 1 soatlik o‘yin davomida 350–600 kkal sarflanishi mumkin. Bu ko‘rsatkichlar voleybolni semirishning oldini olish, yurak faoliyatini mustahkamlash va umumiy jismoniy formani saqlashda juda samarali vosita sifatida namoyon qiladi.

Tadqiqotimizda voleybolning sog‘lomlashtiruvchi roliga bag‘ishlangan quyidagi natijalarni qayd etdik:

1. 12 hafta davomida haftasiga 3 marotaba voleybol o‘ynagan yoshlar guruhida maksimal kislorod iste’moli (VO_2 max) 8–12 % ga oshdi.

2. Muntazam mashg‘ulotlar mushak kuchini 12–18 % ga, chidamlilikni 15–20% ga oshirgan.

3. Psixologik testlar o‘yinchilarda stress darajasining kamayishi, o‘ziga ishonch va muloqotchanlik oshganini ko‘rsatgan.

Bu natijalar voleybolning sog‘lomlashtirish vositasi sifatida ilmiy asoslangan ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. Voleybol o‘yini sog‘lomlashtirish ishlarida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan ommaviy sport turlaridan biri hisoblanadi. O‘yin jarayoni organizmning deyarli barcha tizimlarini birgalikda rivojlantiradi: yurak-qon tomir tizimi mustahkamlanadi, mushaklar kuchayadi, aerob va anaerob imkoniyatlar oshadi, jismoniy sifatlar har tomonlama rivojlanadi. Bundan tashqari, voleybolning jamoaviy tabiatiga ko‘ra psixologik salomatlik, ijtimoiylashuv, muloqot ko‘nikmalari, emotsional barqarorlik ham mustahkamlanadi.

Ta’lim muassasalari, sog‘lomlashtirish markazlari va sport maktablari jarayonida voleybolni keng qo‘llash yosh avlodning jismoniy rivoji, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktika va reabilitatsiya ishlarining samaradorligini oshiradi. Keltirilgan ilmiy dalillar voleybolning sog‘lomlashtiruvchi kuchi yuqoriligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. 2017.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son Qarori (2017 yil 3 iyun).
3. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Prof. R.Salomovning umumiy tahriri ostida. 1 tom. T., “ITA Press” nashr., 2014 y. 78-b.
4. Ayrapetyans L.R., Godik M.A. Sport o‘yinlari, Toshkent., Ibn Sino, 1991.
5. Azimov I.G. Jismoniy tarbiyaning yosh fiziologiyasi. T.: UzDJTI. 1994.
6. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. T., “Zarqalam” nashr., 2004 y..
7. Atoyev A.K. Bolalarni chaqqon epchil va baquvvat qilib tarbiyalash. T., O‘qituvchi, 1990 y., -104 b.

DISKURSIV KOMPETENSIYA — BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ochilova Nilufar Ulmasovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti, (PhD)

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida diskursiv kompetensiyani shakllantirishning pedagogik ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida diskursiv kompetensiyani shakllantirishning samarali didaktik yo‘nalishlari — refleksiv faoliyat, amaliy-kommunikativ mashg‘ulotlar, kuzatuv va tahlil, tajriba-sinov faoliyati hamda ilmiy-tadqiqot elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash kabi mexanizmlar ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: matn, til, muloqot, diskursiv kompetentsiya, chet tili o’qituvchisi, ta’lim, muloqot, nutq, kompetentsiya, til, madaniyatlararo tushunish.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda pedagogning kasbiy va shaxsiy mahoratini shakllantirish muammolari turli jihatdan tadqiq qilinmoqda. Bu esa, bugungi kunda “Homo sensum” (ma’no yaratuvchi inson) tushunchasini shakllantirishga imkon beradi, ya’ni shaxs dunyoni idrok etish bilan bir qatorda ma’no yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shaxs barcha sohalarda semantik kontekst bilan boyigan bo‘lib, voqelikni tushunish jarayoni ong, nutq, muloqot va faoliyatdagi murakkab tafakkur mexanizmlari bilan uyg‘un holda vujudga keladi. Ma’no subyektiv xususiyat kasb etadi va u shaxsning nutqiy tajribasi, fikrlash uslubi hamda ijtimoiy-madaniy kontekst bilan belgilanadi.

Til, matn, muloqot, ong va faoliyatni ko‘p qirrali, o‘zaro ta’sirga ega, ma’no yaratishga yo‘naltirilgan hodisalar sifatida tadqiq etish zarurati E. Benveniste, Boduen De Kurtene, Vilgelm Fon Gumboldt, A.A. Leontyeva, A.A. Potebni, F. De Sossyur, L.V. Shcherba kabi klassik olimlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Ushbu metodologik qarashlar keyinchalik diskurs, matn lingvistikasi, pragmatika va kommunikativ faoliyat nazariyalarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mazkur ilmiy yo‘nalish o‘zbek tilshunosligi va pedagogik lingvistika tadqiqotlarida ham davom ettirilgan. Jumladan, Sh. Safarovning nutq pragmatikasi va diskurs tahliliga oid ishlari, N. Mahmudovning matn va til tizimi masalalariga doir yondashuvlari, A. Nurmonovning kommunikativ-semantik talqin bilan bog‘liq qarashlari diskursni ma’no yaratish jarayoni sifatida o‘rganishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda til birliklari nafaqat strukturaviy, balki kontekst, maqsad, ijtimoiy vaziyat va subyekt pozitsiyasi bilan bog‘liq holda talqin etilishi zarurligi ta’kidlanadi.

Diskursni semantik, kommunikativ va kasbiy faoliyat bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida o‘rganish bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligida ma’no yaratish, vaziyatni tahlil qilish va muloqotni ongli boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Matn va nutq nisbatini xolis tahlil qilish natijasida til hodisasining faqat strukturaviy darajada emas, balki jarayon, faoliyat va muloqot sifatidagi ko‘rinishlari ham tadqiqot markaziga chiqdi. Shu asosda matndan tashqariga chiqadigan, real kommunikativ vaziyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangi ilmiy tushuncha — “diskurs” shakllandi. Diskurs matnning mazmuniy tuzilmasi, uni ishlab chiqish sharoiti, subyektlarning ijtimoiy-psixologik holati va kommunikativ maqsad bilan belgilanadigan dinamik nutqiy faoliyat shakli sifatida talqin qilina boshladi.

Fanlararo tadqiqotlarda diskursning bunday talqini uni til tizimi, nutq amaliyoti

va ijtimoiy-madaniy kontekst o‘rtasidagi vositachi sifatida ko‘rsatadi. Natijada, matn tahlili markazi asta-sekin diskursiv jarayonni anglash, uning semantik qatlamlarini ochish, subyektlararo munosabatlarni aniqlash masalalariga siljidi. Bu esa “matn” tushunchasining chegaralarini kengaytirib, uni ma’no ishlab chiqarish va kommunikativ ta’sir mexanizmi sifatida qayta talqin qilishga olib keldi.

Diskurs nazariyasining shakllanishi gumanitar fanlarda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini vujudga keltirdi: matn pragmatikasi, kommunikativ-semantik tahlil, nutq faoliyati psixologiyasi, ijtimoiy tilshunoslik, kognitiv lingvistika va madaniyatlararo muloqot nazariyasi shular jumlasidandir. Ushbu paradigmalarda inson nutqi tashqi shakl emas, balki ma’no yaratish va tajribani konseptualizatsiya qilish vositasi sifatida o‘rganiladi.

Diskurs til birliklarining oddiy ketma-ketligi emas, balki subyekt pozitsiyasi, kommunikativ niyat, vaziyat talabi, madaniy tajriba va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab semantik tizimdir. Demak, diskursni o‘rganish tilshunoslik doirasidan chiqib, pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan kesishuvchi fanlararo maydonda kechadi.

Mazkur yondashuv bo‘lajak chet tili o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki pedagogik faoliyat mazmunida nutqiy muloqot, kasbiy diskurs, semantik tafakkur va ma’no yaratish jarayoni yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘qituvchi nafaqat tilni o‘rgatuvchi subyekt, balki diskursni tashkil etuvchi, uni boshqaruvchi va talqin qiluvchi kommunikativ shaxs sifatida maydonga chiqadi. Shu sababli diskursiv kompetensiya bo‘lajak mutaxassis tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

“Diskurs” tushunchasining aniq chegaraga ega bo‘lmasligi, avvalo, uning fanlararo tadqiqot maydoniga mansubligi bilan bog‘liqdir. Nutq nazariyasi shakllanib, til birliklari faqat strukturaviy tizim sifatida emas, balki o‘quv-tarbiyaviy muloqot, inson faoliyati va ijtimoiy tajriba bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin etila boshlagach, diskurs masalasi ta’lim sohasida ham alohida ahamiyat kasb etdi. Ilmiy adabiyotlarda diskurs matndan farqli ravishda mazmun yaratish, kommunikativ vaziyatni talqin qilish, subyektning ijtimoiy-pedagogik pozitsiyasini aks ettirish bilan izohlanadi.

Diskursga oid nazariy asoslar dastlab nutq akti, matn lingvistikasi va kommunikativ faoliyat konsepsiyalari doirasida shakllangan (J. Ostin, J. Searl, T. A. van Deyk, J. Habermas va boshqalar). Ushbu qarashlar keyinchalik ta’lim muhitida muloqotning ma’nodarligi, darsdagi nutqiy jarayonlarning mazmuniy tashkiloti, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi diskursiv o‘zaro ta’sirni tahlil qilish uchun metodologik poydevor vazifasini bajardi.

Bugungi kunda diskurs pedagogika nuqtayi nazaridan o‘quv jarayonida shakllanadigan ma’no, muloqot uslubi, didaktik vaziyatni talqin qilish, shaxsning kasbiy-kommunikativ tajribasini ifodalovchi murakkab hodisa sifatida talqin etiladi. Shu bois diskursiv yondashuv bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligida kommunikativ refleksiya, nutqiy-pedagogik pozitsiya, kontekstga mos muloqot qurish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv o‘zbek ilmiy maktabida ham qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, Sh. Safarovning nutq pragmatikasi va diskurs tahliliga oid ishlari, N. Mahmudovning matn va til tizimi haqidagi yondashuvlari, A. Nurmonovning kommunikativ-semantik talqin bo‘yicha qarashlari hamda G. Egamberdieva, D. Qo‘chqorova, M. Jo‘rayevlarning pedagogik muloqot va ta’limiy kommunikatsiya yo‘nalishidagi tadqiqotlari diskursning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ochib beradi.

Diskursni pedagogik kontekstda o‘rganish bo‘lajak chet tili o‘qituvchisida diskursiv kompetensiyani shakllantirish, ya’ni dars jarayonida ma’no yaratish, vaziyatni anglash,

muloqotni maqsadga yo‘naltirish va kasbiy nutqni ongli boshqarish qobiliyatini shakllantirish uchun zarur ilmiy-nazariy asosdir.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining diskursiv kompetentsiyasini shakllantirish ta’lim jarayonini faollashtirish, muloqot sifatini oshirish va kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi turli metodik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Quyida ushbu jarayonda samarali natija beruvchi ba’zi usullarni ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Kommunikativ-faoliyat yondashuvi asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish.

Unda o‘quvchi til birliklarini yodlash bilan cheklanmay, real kommunikativ vaziyatlarda nutq yaratish, dialog va munozarada ishtirok etish, fikr bildirish va uni asoslashga yo‘naltiriladi. Bu jarayon diskursni faqat til materiali emas, balki ijtimoiy-pedagogik muloqot shakli sifatida anglashga yordam beradi.

2. Nutq janrlari asosida o‘qitish. Ma’ruza, intervyu, bahs, rasmiy chiqish, og‘zaki taqdimot, yozma mulohaza, email yoki maqola singari janrlar asosida ishlash o‘quvchi ongida janr-kontekst-auditoriya mosligini shakllantiradi va kasbiy nutqni vaziyatga mos tarzda qurish malakasini rivojlantiradi.

3. Reflektiv mulohaza va tahlil mashqlari. Talaba o‘z nutqini qayta ko‘rib chiqishi, xatolarini tahlil qilishi, ma’no yetkazish darajasi, mantiq, ohang va ta’sirchanlik kabi mezonlar bo‘yicha baholashi diskursiv fikrlashni kuchaytiradi.

4. Rol o‘ynash, ta’limiy simulyatsiya va ssenariyli mashg‘ulotlar. “Ustoz-talaba muloqoti”, “murakkab sinf vaziyati”, “madaniyatlararo kommunikatsiya holati” kabi ssenariylar orqali bo‘lajak o‘qituvchi kontekstga mos qaror qabul qilish, nutq strategiyasini tanlash ko‘nikmalarini egallaydi.

5. Interfaol metodlar va media-diskursdan foydalanish. Videomuloqot, intervyu, podkast, ijtimoiy tarmoq matnlari, ta’limiy bahslar asosida ishlash zamonaviy kommunikatsiya muhiti bilan uyg‘un diskurs tajribasini shakllantiradi.

6. Madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasini shakllantirish. Diskurs madaniy kontekst bilan bog‘liq bo‘lgani sababli o‘quv jarayonida turli xalqlarning nutq uslubi, kommunikativ qadriyatlari, ijtimoiy-muloqot xususiyatlariga e’tibor qaratish muhimdir. Bu yondashuv kelajak o‘qituvchida tolerantlik, madaniy sezgirlik va moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

7. Mustaqil nutqiy faoliyatni rag‘batlantirish. Prezenta¬siya, mini-ma’ruza, tahliliy sharh, dars fragmenti ishlab chiqish kabi topshiriqlar talabaning faol diskurs ishtirokchisi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, diskursiv kompetentsiyani shakllantirish jarayoni bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining nutqiy, metodik, refleksiv, madaniy-kommunikativ qobiliyatlarini uyg‘un tarzda shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv nafaqat dars jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o‘qituvchining kasbiy identiteti va pedagogik pozitsiyasini mustahkamlashga ham xizmat qiladi:

nazariy bilim olish, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, metodika va tilshunoslik fanlarini chuqur o‘rganishi kerak bo‘ladi.

amaliy mashg‘ulotlar, ya’ni bunda darslarni rejalashtirish, o‘tkazish va tahlil qilish bo‘yicha mashg‘ulotlarda ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etadi.

kuzatuv orqali tajribali o‘qituvchilarning darslarini kuzatish va ulardan o‘rnak olish foydadan holi bo‘lmaydi.

o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘z darslarini video yoki audio yozuvga olish va ularni tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish yo‘llarini topishni o‘rganadi.

konferensiyalarda va seminarlarda ishtirok etish - chet tili o‘qitish sohasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish va tajriba almashishda samarali yordam beradi.

ilmiy tadqiqotlar olib borishda bo‘lajak o‘qituvchi o‘z darslarida yangi metodikalarni

sinab ko‘rish va ularning samaradorligini baholashni o‘rganadi.

adabiyot o‘qish, ya’ni chet tilidagi badiiy va ilmiy adabiyotlarni o‘qish orqali so‘z boyligini oshirishda hamda til sezgisini shakllantirishga turtki bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining diskursiv kompetentsiyasining mohiyati ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, ularning kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Bu kompetentsiya faqatgina chet tilini mukammal bilishdan tashqari, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalar bilan muloqot o‘rnatish va ularning ehtiyojlariga moslashish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan diskursiv kompetentsiyaning asosiy jihatlariga nazar tashlaymiz.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining diskursiv kompetensiyasi nafaqat nutq madaniyatining ifodasidir, balki uning kasbiy-pedagogik tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Diskursiv kompetensiya o‘qituvchiga dars jarayonida ma’no yaratish, muloqot strategiyasini ongli tanlash, auditoriyaga mos nutq qurish va ta’limiy vaziyatni samarali boshqarish imkonini beradi. Ushbu kompetensiyaning asosiy tarkibiy jihatlari quyidagicha talqin etiladi:

nutqiy moslashuvchanlik (Adaptability) — o‘qituvchining o‘quv vaziyati, talabalarning til darajasi, qiziqishi va maqsadidan kelib chiqib mos nutq uslubini tanlashi, grammatik qurilmalar, lug‘at boyligi va nutq tezligini vaziyatga moslashtira olishi bilan belgilanadi. Bu jihat o‘qituvchining kommunikativ moslashuvchanligini kuchaytiradi.

tushunarlilik (Clarity) — murakkab g‘oyalarni sodda, ravshan va izohli tarzda ifodalash, misollar, savollar va tahliliy mulohazalar orqali bilimni mustahkamlashni anglatadi. Bunda o‘qituvchi nutqi didaktik yengillik kasb etadi.

izchillik (Coherence) — fikrlarning mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinishi, dars mazmuni yagona g‘oyaga bo‘ysundirilishi, kirish–asosiy qism–xulosa tuzilmasining saqlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu element ta’lim jarayonida semantik yaxlitlikni ta’minlaydi.

qiziqarlilik (Engagement) — o‘qituvchi nutqining talabalarda motivatsiya uyg‘otishi, ularni faol muloqotga jalb qilishi, hikoya, dialog, interaktiv mashq va munozara kabi usullar orqali dars dinamizmini saqlashni nazarda tutadi.

madaniy sezgirlik (Cultural Sensitivity) — chet tili madaniy kontekstini hurmat qilish, madaniy farqlarni to‘g‘ri talqin etish, stereotip va kamsituvchi nutq shakllaridan saqlanishni o‘z ichiga oladi. Bu jihat madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining muhim omilidir.

pedagogik mahorat (Pedagogical Expertise) — diskursiv kompetensiya o‘qituvchining darsni tashkil etish, baholash, motivatsiya berish, kommunikativ muhit yaratish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kasbiy faoliyatining metodik asosini mustahkamlaydi.

o‘zini o‘zi tahlil qilish (Self-Reflection) — o‘qituvchining o‘z nutqiy faoliyatini baholay olishi, kamchiliklarini aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishi, kasbiy refleksiyani rivojlantiradi.

texnologik savodxonlik (Technological Literacy) — interaktiv platformalar, multimedia vositalari va raqamli resurslardan foydalanish orqali zamonaviy ta’limiy diskursni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi.

Bu kabi yondashuv o‘zbek ilmiy maktabi tadqiqotlari bilan hamohangdir. Xususan, Sh. Safarov nutq pragmatikasi va diskurs tahlilida nutqiy muloqotning kontekstual xususiyatlarini asoslaydi; N. Mahmudov va A. Nurmonov ishlarida matn va mazmuniy sintaksisning muloqot jarayonidagi roli ochib beriladi; G. Egamberdieva va D. Qo‘chqorova tadqiqotlarida esa pedagogik muloqot, o‘qituvchi nutqi va ta’limiy interaksiya shaxs rivojiga ta’sir etuvchi kasbiy-kommunikativ omil sifatida talqin etiladi.

Shu tariqa, diskursiv kompetensiya bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy identitetini shakllantirish, dars jarayonini mazmunli tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida, ta’kidlash joizki, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining diskursiv kompetensiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda kommunikativ faollikni shakllantirish, dars mazmunini mazmunan boyitish va o‘qituvchi–talaba o‘zaro munosabatlarida ijobiy pedagogik muhit yaratishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu kompetensiya o‘qituvchiga nutqni vaziyatga mos rejalashtirish, o‘quv materialini mazmunli va tushunarli shaklda yetkazish, madaniyatlararo muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda ta’limiy diskursni ongli boshqarish imkonini beradi.

Shu bois oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari tayyorlash jarayonida diskursiv kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan maxsus fanlar, reflektiv-amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik simulyatsiya va kommunikativ treninglarni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv talabalarning nafaqat til bilimlarini, balki kasbiy-nutqiy tafakkur, pedagogik muloqot madaniyati va kommunikativ mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijada, diskursiv kompetensiyasi rivojlangan bo‘lajak o‘qituvchi zamonaviy ta’lim talablari va ijtimoiy-kasbiy ehtiyojlarga javob beradigan, ta’limiy diskursni samarali tashkil eta oladigan malakali va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Афанасьева О.Ю. Дискурсивная компетенция студентов вузов // Теория и практика профессионального образования: педагогический поиск: сб. науч. трудов. Вып. 9. – Екатеринбург, 2007. – С. 17–24.

2. Бугорская Надежда Васильевна. К вопросу о заимствовании идей в науке о языке. https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zaimstvovanii-idey-v-nauke-o-yazyke-i-a-boduen-de-kurtene-i-f-de-sossyur

3. Гальперин П.Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий // Исследования мышления в советской психологии. – М.: Наука, 1966. – С. 259–276.

4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию / пер. с нем. под ред. Г.В. Рамишвили. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.

5. Дорофеева А.С. Актуальные вопросы формирования дискурсивной компетенции в высшей школе // Диверсификация педагогического образования в условиях развития информационного общества: материалы II Междунар. науч.-практ. конф. – Минск: БГУ, 2023. – С. 165–171.

10. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – 320 б.

11. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тили мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 256 б.

12. Нурмонов А. Тил ва нутқ муносабатида коммуникатив-семантик талқин масалалари. – Тошкент: Фан, 2001. – 212 б.

13. Сафаралиева Г. Педагогик мулоқот ва ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: TDPU нашриёти, 2016. – 188 б.

14. Қўчқорова Д. Таълим жараёнида мулоқот маданиятини шакллантириш омиллари // Педагогика ва психология ривожланишида инновациялар. – 2021. – №3. – Б. 112–118.

15. Эгамбердиева Г. Педагогик дискурс ва маъно яратиш жараёни // Таълим ва инновацион тадқиқотлар журнали. – 2022. – №5. – Б. 45–52.

TA’LIMIY VAZIYATLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA TABIATGA QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Primova Nilufar Bahriyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni rivojlantirishda ta’limiy vaziyatlardan foydalanishning zamonaviy texnologiyalari tadqiq etiladi. Zamonaviy ekologik muammolar sharoitida yosh avlodda tabiatga ongli, mas’uliyatli va ehtiyotkor munosabatni shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Mazkur jarayon bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib, ekologik ta’limning ustuvor ahamiyatini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘quvchisi, ekologik ta’lim, tabiatga qadriyatli munosabat, ekologik tarbiya, ta’limiy vaziyatlar.

Ekologik tarbiyalangan shaxsni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor maqsadlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning tabiatga qadriyatli munosabatining istiqbolli natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday shaxs atrof-muhitga nisbatan qadriyatli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirgan holda, tabiatdan foydalanishga oid huquqiy, axloqiy va ijtimoiy me’yorlarni o‘z xulq-atvori hamda amaliy faoliyatida ongli ravishda tatbiq etishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Bu esa o‘quvchining ekologik ongi, tafakkuri va faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanganligini ifodalaydi.

Ilmiy manbalarda ekologik tarbiya atrof-muhitga hamda tabiatga nisbatan mas’uliyatli, ehtiyotkor va qadriyatli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan maqsadli pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu munosabat o‘quvchining tabiat bilan muloqoti, bilish va amaliy faoliyatining barcha turlarida aks etadi. Xususan, AQShdagi Ekologlar xalqaro kengashi tomonidan 1970 yilda ekologik tarbiyani maktab yoshi va ta’lim bosqichlarini hisobga olgan holda tizimli joriy etish zarurligi ta’kidlangan. Bu yondashuv ta’lim jarayonida ekologik mazmunni izchil va bosqichma-bosqich shakllantirishni taqozo etadi.

Ta’lim amaliyotida ta’limiy vaziyatlardan foydalanish ekologik tarbiya samaradorligini oshirishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ta’limiy vaziyatlar orqali o‘quvchilarda tabiatning yaxlitligi va xilma-xilligi haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi. O‘rta ta’lim bosqichida esa atrof-muhit tabiiy va ijtimoiy komponentlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida anglanib, ekologik muammolarning sabab-oqibatlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan ta’limiy vaziyatlar tashkil etiladi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi o‘quvchilarda inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikka asoslangan qadriyatli munosabatni qaror toptirishdan iborat bo‘lib, ushbu munosabatlarning izdan chiqishi global ekologik muammolar va insoniyat taqdirira tahdid soluvchi falokatlarga olib kelishi haqida ongli tushuncha hosil qilishni nazarda tutadi.

Mazkur maqsad quyidagi ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni hal etish orqali amalga oshiriladi:

ta’limiy vaziyatlar asosida o‘quvchilarda atrof-muhitning zamonaviy ekologik muammolarini anglash va ularning jamiyat hamda tabiat hayoti uchun dolzarbligini tushunishni shakllantirish;

ekologik tafakkur va tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

tabiat go‘zalligini his etish, ekologik me’yor va qoidalarga muvofiq xulq-atvorni qaror toptirish;

Yer sayyorasi taqdiri uchun mas’uliyatni his etuvchi faol fuqarolik sifatlarini shakllantirish;

tabiiy materiallar bilan bog‘liq ta’limiy vaziyatlar orqali badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va tabiat estetikasini ta’lim, mehnat hamda kundalik hayotga integratsiya qilish;

umuminsoniy va milliy madaniyat yutuqlariga tayangan holda tabiatning ko‘p qirrali qadri-qimmatini anglashga yo‘naltirish;

egallangan bilim va qadriyatli yo‘nalishlar asosida o‘quvchilarni tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy faoliyatga jalb etish;

inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka oid xalq an’analari va milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish.

Ekologik tarbiyani samarali tashkil etish va uning natijadorligini ta’minlash muayyan ilmiy-pedagogik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Ilmiy manbalarda ekologik tarbiyaning asosiy tamoyillari sifatida kompleks yondashuv, ekologik tarbiyaning umumiyligi, ona yurt tabiatı bilan ijodiy birlik, hayot bilan bog‘liqlik, ekologik g‘oyalarni jamiyat hayot faoliyatiga integratsiya qilish, ta’lim jarayonida tarbiyalash hamda mehnat jarayonida tabiat bilan muloqot estetikasini shakllantirish kabi omillar alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Mazkur tamoyillar ta’limiy vaziyatlarni loyihalash va amalga oshirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ekologik tarbiya tizimi ta’limiy vaziyatlar asosida nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan tashqari va maktabdan tashqari faoliyat doirasida ham amalga oshiriladi. Ushbu jarayon ekskursiya va sayohatlar, turnir va tanlovlar, gullar va tabiat obrazlariga bag‘ishlangan teatrlashtirilgan tadbirlar, disputlar, to‘garaklar, mavzuli tarbiyaviy soatlar, og‘zaki jurnallar, ekologik kunlar va haftaliklar, individual mashg‘ulotlar, olimpiadalar, ekologik qo‘riqchilar bilan hamkorlik hamda axborot soatlari kabi shakllar orqali boyitiladi. Bu kabi faoliyat turlari o‘quvchilarda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantiruvchi hayotiy va muammoli ta’limiy vaziyatlarni vujudga keltiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda yoshlar orasida tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanganlik darajasi yetarli emas. Bu holat jamiyatda uzoq vaqt davomida tabiatga iste’molchilik munosabatining ustuvor bo‘lgani, inson va tabiat o‘rtasidagi xalq an’analarining susayishi, shuningdek, psixologiya va pedagogika fanlari yutuqlarining ta’lim amaliyotiga to‘liq joriy etilmagani bilan izohlanadi. Holbuki, mazkur fan sohalari ilg‘or ilmiy g‘oyalar orqali ta’lim jarayonida tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishga katta ahamiyat qaratadi.

Shu bois insonda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish va tabiat bilan uyg‘un munosabatlarni qaror toptirish ko‘plab davlatlarda, jumladan, davlat ta’lim standartlari va ekologik tarbiya konsepsiyalarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa ta’limiy vaziyatlar asosida ekologik tarbiyani tizimli tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish muammosini samarali hal etish jamiyat va tabiat, inson va muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlarini chuqur anglashni taqozo etadi. Insonning tabiat bilan o‘zaro munosabat usuli jamiyatning ekologik madaniyat darajasi bilan belgilanadi. Ekologik madaniyat esa umuminsoniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori va faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy manbalarda ekologik madaniyat quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: insonni o‘rab turgan tabiiy muhit haqida chuqur va tizimli bilimga egalik; tabiatga nisbatan dunyoqarashga asoslangan qadriyatli yo‘nalishlarning shakllanganligi; ekologik tafakkur uslubi hamda tabiat va o‘z sog‘lig‘iga nisbatan mas’uliyatli munosabat; tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy faoliyatda faol ishtirok; insonning tabiatga ta’siri

natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni oldindan anglay bilish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishda ta’limiy vaziyatlardan foydalanildi.

Tabiatga nisbatan qadriyatlarga asoslangan munosabatni rivojlantirish metodologiyasi sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar doirasida bir necha yo‘nalishlarni qamrab oldi. Jumladan, zamonaviy ekologik muammolar, tabiiy muhitning antropogen o‘zgarishi, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga oid ta’limiy vaziyatlar yaratildi; ekologik bilimlarni kengaytirish va tabiiy obyektlarga nisbatan axloqiy xulq-atvor munosabatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi; tabiatga mas’uliyatli munosabatning ijtimoiy ahamiyati ochib berildi.

Ushbu yo‘nalishlar asosida aqliy tasvirlarni shakllantirish tamoyiliga tayangan psixologik-pedagogik vazifalar tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tamoyil o‘quvchilarda ekologik g‘oyalar tizimini nafaqat ilmiy ma’lumotlar, balki badiiy asarlar, adabiy manbalar tahlili, falsafiy qarashlar va hayotiy ta’limiy vaziyatlar asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishda ta’limiy vaziyatlarga tayanadigan maxsus pedagogik usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ekologik identifikatsiya usuli o‘quvchining o‘zini muayyan tabiiy obyekt o‘rnida tasavvur qilishi, shu obyekt joylashgan makon, vaziyat va sharoitlarda o‘zini anglashiга yo‘naltirilgan ta’limiy vaziyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Ushbu usul o‘quvchilarda tabiiy obyektlarga nisbatan ijtimoiy-ma’naviy javobgarlikka asoslangan xulq-atvor modellarini shakllantirishga imkon beradi.

Ekologik empatiya usuli tabiiy obyekt holatiga nisbatan hamdardlik va hissiy munosabatni pedagogik yo‘l bilan rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu usul doirasida o‘quvchilarda proyeksiya mexanizmi faollashtirilib, shaxs o‘z his-tuyg‘ularini tabiiy obyekt holati bilan qiyoslaydi; o‘simlik yoki hayvonning holatini his etish (empatiya) hamda unga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish (simpatiya) ta’minlanadi. Natijada tabiiy obyektlar o‘quvchi ongida subyektivlashtirilib, ularga nisbatan axloqiy munosabat qaror topadi.

Tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni rivojlantirishda ekologik mulohaza usuli alohida o‘rin tutadi. Ushbu usul o‘quvchining o‘z harakatlari va xulq-atvorini ularning ekologik ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qilishga yo‘naltirilgan ta’limiy vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Bunda o‘quvchilar o‘z xulq-atvorining tabiiy obyektlar “manfaatlari” nuqtai nazaridan qanday baholanishini anglay boshlaydilar, bu esa mas’uliyatli ekologik pozitsiyani shakllantiradi.

Tabiatga munosabatni rivojlantirish jarayonida assotsiatsiya usulidan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Ushbu usul ta’limiy vaziyatlarda assotsiativ tasvirlardan foydalanish, assotsiativ zanjirlar va krossenslar tuzish orqali o‘quvchilarning tabiiy obyektlarga nisbatan hissiy va ma’naviy munosabatini chuqurlashtiradi.

Tabiiy obyektlarni badiiy tasvirlash usuli tabiat obrazlarining aqliy tasvirlarini san’at vositalari orqali shakllantirishga qaratilgan. Mazkur usulda adabiy asarlar, tasviriy san’at va musiqa vositalari tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirishda muhim pedagogik resurs sifatida qo‘llaniladi. Agar o‘qituvchi ilmiy ma’lumotlar bilan bir qatorda tabiat va landshaftlarni tasvirlovchi klassik hamda zamonaviy adabiy asarlardan foydalansa, o‘quvchilarning tabiiy olamga nisbatan subyektiv va axloqiy munosabati yanada samarali shakllanadi.

Ekologik kutishlar usuli kelgusida tabiiy obyektlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarga nisbatan hissiy jihatdan mazmunli kutishlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu usul tabiiy obyektlar bilan bevosita muloqotga kirishishdan oldin ham

ularning subyektivlashtirilishiga sharoit yaratadi.

Atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish yondashuvi o‘quvchilarni tabiiy obyektlarga amaliy yordam ko‘rsatishga, ularning saqlanishi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan ta’limiy vaziyatlar orqali ekologik faollikni rivojlantiradi. Bu jarayonda o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalar — zarur bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanib, tabiiy obyektlarga samarali yordam berish imkoniyatlari kengayadi.

Yuqorida bayon etilgan metodik usullar asosida ishlab chiqilgan ta’limiy topshiriqlar tizimi biologiya fanining mazmuniga mos keladi. Biroq fanlararo yondashuv asosida gumanitar fanlar sikli imkoniyatlaridan foydalanish ekologik va axloqiy tamoyillarni yanada chuqurroq amalga oshirish imkonini beradi. San’at va adabiyot asarlarida tabiiy obyektlarga nisbatan insonparvarlik g‘oyalari va tabiat go‘zalligini his etish orqali inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar har tomonlama anglanadi. Bu esa o‘quvchilarda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirishning samarali pedagogik yo‘li hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga ehtiyotkor munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar majmuasini ishlab chiqish jarayonida turli metod va vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Og‘zaki metod o‘quvchilarga axborot yetkazish uchun qo‘llanildi. U suhbat, munozara, o‘qish va hikoya shakllarida amalga oshirildi.

Suhbat — o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi dialogik muloqot shaklidir. Munozara — muayyan masalani guruhda muhokama qilish orqali yechim topishga qaratilgan metoddir.

Ko‘rgazmali metodlar predmet va hodisalarni bevosita idrok etishga asoslanib, aniq va ravshan obrazlar yaratish orqali materialni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

Amaliy metodlar o‘quvchilarning faol amaliy faoliyatiga tayanib, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘yin metodlari o‘quvchilar tomonidan me’yor va qoidalarni o‘zlashtirishga qaratilgan vaziyatlarni qayta yaratishni nazarda tutadi.

Trening elementlari mavjud mashq va topshiriqlar faol o‘qitish usuli bo‘lib, o‘quvchilarni taklif etilgan faoliyatga to‘liq jalb etish imkonini beradi.

Rasm chizish predmetni badiiy darajasidan qat’i nazar tasvirlash jarayoni bo‘lib, katta bilish ahamiyatiga ega. Rasm orqali o‘quvchilar tabiat haqidagi tasavvurlarini osonroq ifodalaydilar va olingan axborotni yaxshiroq o‘zlashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, ta’limiy vaziyatlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirish zamonaviy ekologik tarbiyaning samarali pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’limiy vaziyatlar asosida tashkil etilgan o‘quv-tarbiya jarayoni o‘quvchilarning ekologik ongi, axloqiy tafakkuri hamda tabiatga nisbatan mas’uliyatli xulq-atvorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik identifikatsiya, ekologik empatiya, ekologik mulohaza, assotsiatsiya, badiiy tasvirlash, ekologik kutishlar va atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilishga yo‘naltirilgan pedagogik usullar o‘quvchilarning tabiiy obyektlarga nisbatan subyektiv, hissiy va qadriyatli munosabatini qaror toptirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni ta’limiy vaziyatlar bilan uyg‘un qo‘llash natijasida o‘quvchilarda tabiatni anglash, uni asrash va muhofaza qilishga bo‘lgan ichki ehtiyoj shakllanadi.

Shuningdek, fanlararo yondashuv asosida gumanitar fanlar imkoniyatlaridan foydalanish, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari faoliyatni tizimli tashkil etish ekologik tarbiya samaradorligini yanada oshiradi. Bu esa o‘quvchilarda ekologik madaniyat, faol fuqarolik pozitsiyasi va barqaror rivojlanish g‘oyalariga sodiqlikni shakllantirishga zamin yaratadi.

Demak, ta’limiy vaziyatlarga asoslangan ekologik tarbiya boshlang‘ich ta’lim tizimida tabiatga qadriyatli munosabatni shakllantirishning ilmiy-amaliy jihatdan samarali yo‘li bo‘lib, uni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abdullayeva N.A. Ekologik tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 184 b.

Antonov A.V., Yasvin V.A. Ekologik psixologiya va pedagogika: metodologiya va ta’lim amaliyoti. – Moskva: Smysl, 2015. – 392 b.

Ashurova D.Sh. Boshlang‘ich ta’limda ekologik tarbiyani tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 156 b.

Bojovich L.I. Shaxs va uning shakllanishi bolalik davrida. – Moskva: Pedagogika, 2008. – 352 b.

Vernadskiy V.I. Biosfera va noosfera. – Moskva: Nauka, 2004. – 576 b.

Deryabo S.D., Yasvin V.A. Ekologik tarbiya psixologiyasi. – Moskva; Rostov-na-Donu: Feniks, 2006. – 256 b.

Zverev I.D. Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 2010. – 240 b.

Islomov Z.K. Ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. – 168 b

Komilov N.Sh. Ta’limiy vaziyatlar asosida o‘quvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 144 b.

Lixachyov D.S. Ekologiya madaniyati va ma’naviyat. – Sankt-Peterburg: Iskusstvo, 2009. – 312 b.

Mamadaliyeva Sh.R. Ekologik tarbiya tamoyillari va uning ta’lim tizimidagi o‘rni // Pedagogika jurnali. – 2020. – №4. – B. 45–49.

O‘UK: 796.015.572:853.23

YUQORI MALAKALI DZYUDOCHILARNING CHIDAMLILIK SIFATINI ILG‘OR ZAMONAVIY USLUBLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Rahimov Musirmon Berdiyevich,
Qarshi davlat universiteti,
“Sport faoliyati” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada yuqori malakali dzyudochilarning chidamlilik sifatini rivojlantirishda ilg‘or zamonaviy mashg‘ulot uslublaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Dzyudo sport turining musobaqa faoliyati yuqori intensivlik va qisqa muddatli tiklanish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Tadqiqot jarayonida yuqori intensivlikdagi intervalli mashg‘ulotlar (HIIT), funksional tayyorgarlik mashqlari, maxsus dzyudo mashqlari hamda yuklamani monitoring qilishning zamonaviy texnologiyalarining samaradorligi o‘rganildi. Pedagogik tajriba natijalari zamonaviy mashg‘ulot uslublarining sportchilarning umumiy va maxsus chidamliligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: dzyudo, chidamlilik, maxsus chidamlilik, funksional tayyorgarlik, HIIT, sport trenirovkasi.

РАЗВИТИЕ ВЫНОСЛИВОСТИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ДЗЮДОИСТОВ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ

Рахимов Мусирмон Бердиевич,
Преподаватель кафедры «Спорт фаолияти»
Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной научной статье освещены вопросы использования передовых современных методов тренировок высококвалифицированных дзюдоистов для развития качества выносливости. Соревновательная деятельность вида спорта дзюдо характеризуется высокой интенсивностью и кратковременными восстановительными процессами. В ходе исследования изучалась эффективность высокоинтенсивных интервальных тренировок (HIIT), упражнений функциональной подготовки, специальных упражнений по дзюдо, а также современных технологий мониторинга нагрузки. Результаты педагогического эксперимента показали, что современные методы тренировок значительно повышают общую и специальную выносливость спортсменов.

Ключевые слова: дзюдо, выносливость, специальная выносливость, функциональная подготовка, HIIT, спортивная тренировка.

ENDURANCE DEVELOPMENT OF HIGHLY QUALIFIED JUDOISTS USING MODERN METHODS

Rahimov Musirmon Berdiyevich,
Lecturer of the department of «Sports faoliyati»
Karshi State University

Annotation. This scientific article highlights the issues of using advanced modern training methods of highly qualified judoists to develop the quality of endurance. The competitive activity of the sport of judo is characterized by high intensity and short-term recovery processes. The study examined the effectiveness of high-intensity interval training (HIIT), functional training exercises, special judo exercises, as well as modern

load monitoring technologies. The results of the pedagogical experiment showed that modern training methods significantly increase the general and special endurance of athletes.

Keywords: judo, endurance, special endurance, functional training, HIIT, sports training.

Kirish. Dzyudo sport turi musobaqa faoliyatining yuqori intensivligi, janglar hajmi va zichligining ortishi, shuningdek, sportchilarning funksional tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Xalqaro sport maydonida raqobatning doimiy kuchayib borishi sharoitida yuqori malakali dzyudochilarning chidamlilik darajasi musobaqa faoliyatining samaradorligini hamda sport natijalarining barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Dzyudodagi musobaqa faoliyati sportchilardan umumiy va maxsus chidamlilikning yuqori darajada rivojlangan bo‘lishini talab etadi, bu esa bellashuv davomida yuqori sur’atni saqlab qolish, murakkab texnik-taktik harakatlarni bajarish va ortib borayotgan charchoq sharoitida optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, musobaqa reglamenti va bellashuv qoidalaridagi o‘zgarishlar anaerob-aerob energiya ta’minoti mexanizmlarining ahamiyatini yanada oshirmoqda, bu esa mashg‘ulot jarayonini ilmiy asoslangan holda tashkil etishni taqozo etadi.

Dzyudochilarni jismoniy tayyorlash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetarli bo‘lishiga qaramasdan, yuqori malakali dzyudochilarda chidamlilikni zamonaviy mashg‘ulot usullari yordamida rivojlantirish muammosi hanuzgacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, innovatsion mashg‘ulot texnologiyalariga asoslangan, musobaqa faoliyatini modellashtirish hamda sportchilarning funksional holatini obyektiv nazorat qilishni nazarda tutuvchi samarali metodikalarni ishlab chiqish va ularni tajribaviy jihatdan asoslashga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Shu munosabat bilan, yuqori malakali dzyudochilarning chidamliligini zamonaviy usullar yordamida rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan ushbu tadqiqot dolzarb bo‘lib, sportchilarning yuqori darajadagi tayyorgarlik tizimi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi – yuqori malakali dzyudochilarda chidamlilik sifatini rivojlantirishda ilg‘or zamonaviy mashg‘ulot uslublarining samaradorligini ilmiy asosda aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Dzyudo sportida chidamlilik sifatining nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Umumiy va maxsus chidamlilik tushunchalarini ochib berish;
3. Zamonaviy mashg‘ulot uslublarining chidamlilikka ta’sirini aniqlash;
4. Mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari:

ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
pedagogik kuzatuv;
pedagogik tajriba;
funksional testlar;
matematik-statistik tahlil (Student t-testi).

Tadqiqotning tashkil etilishi:

Pedagogik tajriba 12 hafta davomida olib borildi. Tadqiqotda 20 nafar yuqori malakali dzyudochilar ishtirok etdi. Ular teng ikkiga bo‘linib, nazorat va tajriba guruhlarini tashkil etdi.

1-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining umumiy tavsifi

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=10)	Tajriba guruhi (n=10)
1.	O‘rtacha yosh (yil)	21,4 ± 1,2	21,1 ± 1,3
2.	Sport staji (yil)	8,6 ± 1,1	8,8 ± 1,0

Nazorat guruhida an’anaviy mashg‘ulotlar o‘tkazildi, tajriba guruhida esa yuqori intensivlikdagi intervalli mashg‘ulotlar – HIIT (High-Intensity Interval Training), funksional mashqlar va maxsus dzyudo mashqlari qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari:

2-jadval

Chidamlilik ko‘rsatkichlarining tajriba oldi va yakuniy natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Guruh	Tajriba oldi	Tajriba yakuni	t	p
1.	3000 m yugurish (daq)	NG	12,45±0,32	12,30±0,30	1,08	p>0,05
		TG	12,42±0,30	12,05±0,26	2,95	p<0,05
2.	Randori samaradorligi (ball)	NG	68,3±3,1	69,8±3,0	1,10	p>0,05
		TG	67,9±3,0	71,8±2,8	3,01	p<0,05
3.	YUT tiklanish vaqti (sek)	NG	132±8	129±7	0,89	p>0,05
		TG	134±9	123±7	3,05	p<0,05

Natijalar Student t-testi yordamida tahlil qilindi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichlarida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi ($p<0,05$). Nazorat guruhida esa ishonchli o‘zgarishlar qayd etilmadi ($p > 0,05$).

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy mashg‘ulot uslublari yuqori malakali dzyudochilarning chidamlilik sifatini rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlarga nisbatan samaraliroqdir. Ayniqsa, maxsus chidamlilik va tiklanish jarayonlarining yaxshilanishi sport natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori malakali dzyudochilarning chidamlilik sifatini rivojlantirishda HIIT mashg‘ulotlari, funksional tayyorgarlik va maxsus dzyudo mashqlaridan kompleks foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu yondashuv sport trenirovkasini takomillashtirish va barqaror musobaqa natijalariga erishishda tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bektemirov E. U. Dzyudo sport turida mashg’ulotlarini tashkil etish sifat darajasini oshirish. Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali. №4. 2025.

2. Брюэр, К. Управление двигательными навыками в подготовке спортсменов. Настольная книга тренера: монография. - Москва: ООО «Принтлето», 2023. - 448с.

3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Darslik. Qayta nashr. T., 2018 y.

4. Rustamov E. Dzyudochilarning kuch va tezkorlik sifatlari va ularni rivojlantirish imkoniyatlari. Interpretation and Researches. 01, 2025.

5. Тимофеев В. Д., Брайнин А. А. Современные системы периодизации и планирование подготовки высококвалифицированных спортсменов в единоборствах (на примере дзюдо). - Санкт-Петербург : ООО «Квадро», 2022. - 136 с.

6. Платонов, В. Н. Основы подготовки спортсмена. Настольная книга тренера : в 2х томах / В. Н. Платонов. – Москва : ООО «Принтлето», 2021.
7. Фраде Клод. Дзюдо для нас. (Перевод Н. Дьячковой) //Журнал «Дзюдо». – М., 2002, № 3–4. – С. 94–97.
8. Фраде Клод. Дзюдо для нас. (Перевод Н. Дьячковой) //Журнал «Дзюдо». – М., 2003, № 8—10. – С. 79–81.
9. Хорунжий, А.А. Структурно-функциональная модель подготовки дзюдоистов 11-13 лет на основе применения комплекса специальных упражнений: автореф. дис. канд. пед. наук. Москва, 2022. - 24 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATI JARAYONIDA RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK IMKONIYATLARI

Raximova Madina Xasanovna,
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning akmeologik imkoniyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta’lim muhitida ilmiy izlanish olib borish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda refleksiv-tahliliy faoliyatni rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kamolotga erishish omillari yoritiladi.

Maqolada oliy ta’lim muassasasida yaratilgan akmeologik ta’lim muhiti sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirilgan raqamli texnologiyalar, loyihaviy va tadqiqotga asoslangan metodlar, shuningdek, akmeologik interaktiv texnologiyalarning raqamli kompetensiyani shakllantirishdagi roli asoslab beriladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik shart-sharoitlar, tashkiliy-texnologik omillar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar aniqlanadi.

Maqola natijalari uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy yetukligini ta’minlashda raqamli kompetensiyani akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: akmeologik yondashuv, raqamli kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, raqamli ta’lim muhiti, akmeologik muhit, interaktiv texnologiyalar, uzluksiz ta’lim.

Bugungi kunda dunyo miqyosida texnologik taraqqiyotning jadallashuvi jamiyatning barcha sohalarida, xususan, ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni talab etmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi umrbod ta’lim konsepsiyasini ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirib, o‘qituvchining kasbiy faoliyati, kompetensiyalari va shaxsiy rivojlanishiga bo‘lgan talablarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim strategik omili sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ta’lim islohotlari, xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, raqamli iqtisodiyot va raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, shuningdek, umumta’lim va oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bo‘lajak o‘qituvchilardan zamonaviy raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishni talab etmoqda. Bugungi kunda umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’lim jarayonini raqamlashtirish, raqamli ta’lim muhitlarini shakllantirish hamda pedagog kadrlarning raqamli salohiyatini oshirish hisoblanadi.

Hozirgi ta’lim amaliyotida o‘qituvchilar turli raqamli ta’lim platformalari, elektron resurslar va interaktiv vositalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, bu holat ularning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muammosini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida raqamli vositalardan foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish ko‘nikmalarining rivojlanganligi ularning kasbiy yetukligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish masalasi

nafaqat texnologik, balki akmeologik yondashuv nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Akmeologik yondashuv shaxsning kasbiy kamolotga erishish jarayonini, uning intellektual, refleksiv va innovatsion salohiyatini rivojlantirishni ta'minlab, ilmiy-tadqiqot faoliyatini pedagogning professional "akme"ga chiqishidagi muhim vosita sifatida talqin etadi.

Zamonaviy ta'limda shaxsiylashtirilgan o'qitish, moslashuvchan ta'lim yo'llarini loyihalash va raqamli ta'lim kontentini mustaqil ishlab chiqish tendensiyalarining kuchayishi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishni ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Aynan ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida raqamli texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy refleksiyasi, ijodiy fikrlashi va innovatsion faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq bo'lajak o'qituvchilarning raqamli ta'lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini rivojlantirish faqat texnologiyalarni bilish bilangina cheklanmay, balki ularni pedagogik maqsadlarga muvofiq holda loyihalash, didaktik jihatdan asoslash va shaxsiylashtirilgan ta'lim jarayoniga moslashtirish qobiliyatini ham talab etadigan murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim sohasida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning o'z raqamli ta'lim kontentini ishlab chiqish, uni muayyan o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish hamda shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini loyihalashga qodir bo'lishi zamonaviy pedagogning muhim kasbiy ko'nikmalaridan biri hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlash maqsadida oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli muhitda ishlashga yo'naltirilgan kompleks tayyorlash tizimlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu tizimlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarning raqamli ta'lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini shakllantirishdan iborat.

Shu билан бирга, ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning raqamli ta'lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini rivojlantirishning yaxlit, tizimli va metodologik jihatdan asoslangan modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur jarayonning tarkibiy komponentlari, ularning o'zaro bog'liqligi va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan integratsiyasi masalalari chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Bu esa mazkur yo'nalishda maxsus pedagogik tadqiqotlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida raqamli ta'lim kontentini ishlab chiqishga tayyorlash imkoniyatlarini akmeologik yondashuv asosida aniqlash va ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga muvofiq quyidagi tadqiqot savollari belgilandi:

pedagogik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr talabalarda raqamli ta'lim kontentini ishlab chiqish kompetensiyasini rivojlantirishni ta'minlaydigan metodologik tizim qanday bo'lishi lozim?

bo'lajak o'qituvchilarda raqamli ta'lim kontentini ishlab chiqish kompetensiyasini shakllantirish uchun metodologik tizimni samarali joriy etishning pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlari nimalardan iborat?

Tadqiqotning ishchi gipotezasi shundan iboratki, agar bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorlash jarayoni akmeologik yondashuv asosida, moslashuvchan o‘qitish konsepsiyasini qo‘llagan holda, aqlli kurslar arxitekturasiga tayangan kompleks o‘quv tizimi orqali tashkil etilsa, u holda ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish muammosiga oid ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar va metodik ishlanmalar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida raqamli ta’lim terminologiyasining rivojlanish dinamikasi, raqamli ta’lim kontentini loyihalashga tayyorlash masalalari, shuningdek, moslashuvchan o‘qitish konsepsiyasiga asoslangan pedagogik yondashuvlar o‘rganildi.

Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, modellashtirish, pedagogik kuzatish hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini baholash mezonlari va darajalari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida strukturaviy-funksional model yaratilib, unda raqamli kompetensiyaning tarkibiy komponentlari va ularning o‘zaro aloqalari aks ettirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda yetarli tajribaga ega bo‘lsalar-da, o‘z raqamli ta’lim kontentini mustaqil ishlab chiqishga tayyorlik darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holat raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularni pedagogik jihatdan asoslangan holda loyihalash o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur muammoni hal etishda moslashuvchan o‘qitish texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonida faol ijtimoiy o‘zaro ta’sirni, jamoaviy hamkorlikni va talabalar mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Moslashuvchan o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quv strategiyalarini mustaqil tanlash, ta’lim maqsadlarini belgilash va raqamli kontentni ijodiy yondashuv asosida ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida moslashuvchan o‘qitish aqlli kurslar arxitekturasi asosida talqin qilindi. Bunday kurslar an’anaviy ma’ruza uzatishga emas, balki talabalar va o‘qituvchi o‘rtasida faol o‘zaro hamkorlikni tashkil etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, raqamli platformalar, interaktiv topshiriqlar, loyiha faoliyati, o‘zaro baholash va refleksiv tahlil orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtirib, ularning raqamli kompetensiyasini akmeologik rivojlanish nuqtai nazaridan ta’minlashga xizmat qiladi.

Umumiy ma’noda tavsiflangan kurs arxitekturasi bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Moslashuvchan o‘qitish ko‘plab axborot resurslarini birlashtiruvchi, multimodal va interaktiv raqamli ta’lim muhitida amalga oshiriladi. Bunday muhit har bir talabaning individual tayyorgarlik darajasi, o‘quv ehtiyojlari va kasbiy yo‘nalishiga moslashish imkoniyatiga ega bo‘lib, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvda ta’lim jarayonining markazida talaba turadi. U o‘quv faoliyatini rejalashtirish, kurs mazmunini o‘zlashtirish va texnologik yechimlarni tanlash jarayonida faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli ta’lim muhiti talabalarga istalgan vaqtda hamda istalgan joyda o‘qish, turli manbalardan kontentga erkin kirish, ilmiy axborotni izlash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu holat bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtirib, ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda muhim akmeologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Moslashuvchan o‘qitish sharoitida o‘qituvchi murakkab va talabalarda qiyinchilik tug‘diradigan tushunchalarni interaktiv formatda tushuntirish, tuzatish mashg‘ulotlari va muhokamalar orqali izohlash vazifasini bajaradi. Mashg‘ulotlar jarayonida

talabalar munozaralarda ishtirok etish, o‘z pozitsiyasini asoslash, raqamli resurslardan foydalanish va jamoaviy fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. An’anaviy o‘qitish yondashuvlaridan фарқли равишда, ушбу model talabalar faolligini rag‘batlantiradi, tanqidiy fikrlash, savollar qo‘yish, dalillash va boshqalarni ishontirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim forumlari, chatlar, viki-muhitlar va boshqa raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish talabalar o‘rtasidagi dastlabki muloqotni faollashtirib, ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Forumlar orqali har bir talabaning mavzuni tushunish darajasi, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish sifati va ilmiy mulohaza yuritish qobiliyatini baholash imkoniyati yaratiladi.

Zamonaviy oliy ta’lim jarayonida fikr-mulohaza muvaffaqiyatli o‘qishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli muhitda tashkil etilgan fikr-mulohaza mexanizmlari bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot va amaliy ish natijalarini baholash imkonini beradi. Har bir o‘quv topshirig‘idan so‘ng refleksiv hisobotlar, o‘z-o‘zini tahlil qilish anketalari va elektron topshiriqlarni topshirish amaliyoti talabalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ushbu jarayon o‘qituvchiga nafaqat talabalar bilimini baholash, balki natijalarni tahlil qilish, keyingi faoliyat uchun maqsadlar belgilash va ta’lim jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘rganishga tayyorgarlik, jamoada ishlash, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tanqidiy baholash va ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi. Шу билан бирга, ушбу имкониятлар bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini shakllantirishga qanday hissa qo‘shishini ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini baholashda kasbiy tayyorgarlik va professional kompetensiya o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar sifatida qaraladi. Kasbiy tayyorgarlik pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning yaxlit majmuasini ifodalaydi. Ushbu tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi refleksiv fikrlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlik va raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqish orqali kasbiy o‘sishga intilish bilan tavsiflanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligi quyidagi tarkibiy komponentlar asosida izohlanadi:

motivatsion komponent – raqamli ta’lim kontentini yaratishga bo‘lgan qiziqish, innovatsiyalarga ochiqlik va tadqiqotchi fikrlash;

refleksiv komponent – o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va o‘zini rivojlantirish qobiliyati;

kognitiv komponent – raqamli ta’lim kontentini loyihalash, didaktik va texnologik asoslarni bilish;

ijodiy komponent – original pedagogik yechimlar topish, tashabbuskorlik va ijodkorlik;

baholovchi komponent – yaratilgan raqamli kontent va uning ta’lim natijalariga ta’sirini tahlil qilish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini samarali rivojlantirish uchun aniq mezonlar tizimi zarur. Mazkur tadqiqot doirasida quyidagi mezonlar belgilandi:

raqamli ta’lim kontentini yaratishning metodologik va texnologik asoslarini o‘zlashtirish (K1.1);

interaktiv va multimodal raqamli kontent yaratishda turli vositalardan foydalanish

qobiliyati (K1.2);

raqamli kontent yaratishga barqaror qiziqish, ijodiy yondashuv va yuqori natijalarga intilish (K3);

o‘z faoliyatini tahlil qilish, tanqidiy baholash va kasbiy rivojlanish yo‘llarini aniqlash qobiliyati (K4);

tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash va ijodiy faollik (K5);

yaratilgan raqamli ta’lim kontenti va uning ta’lim jarayonidagi samaradorligini baholash qobiliyati (K6).

Yuqori daraja (K6–3). O‘qituvchi yaratilgan raqamli ta’lim kontentini ham, undan foydalangan holda erishilgan o‘quv natijalarini ham tanqidiy baholaydi, samaradorlikni tizimli tahlil qiladi, dalillarga tayangan holda takomillashtirish choralarini rejalashtiradi va amalga oshiradi.

O‘rta daraja (K6–2). O‘qituvchi raqamli kontent va o‘quv natijalarini baholay oladi, biroq tahlil har doim chuqur va muntazam bo‘lmaydi; takomillashtirish bo‘yicha choralar epizodik yoki metodik jihatdan yetarli darajada asoslanmagan bo‘lishi mumkin.

Past daraja (K6–1). O‘qituvchi raqamli kontent va o‘quv natijalarini baholashda cheklangan ko‘nikmalarga ega; samaradorlik mezonlarini to‘liq anglamaydi, tahlil parchalanib qoladi va takomillashtirish bo‘yicha aniq amaliy choralar ko‘rishga qiynaladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda moslashuvchan ta’lim muhitining akmeologik imkoniyatlari Moslashuvchan ta’lim konsepsiyasi interaktiv, multimodal va ko‘p manbali raqamli ta’lim muhitida amalga oshiriladi. Bunday muhit talabaning individual tayyorgarligi, ehtiyojlari va kasbiy yo‘nalishiga moslashib, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkonini kuchaytiradi. O‘zbekiston oliy pedagogik ta’limida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgani sayin, moslashuvchan ta’lim muhitlari bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini faollashtirish, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish va raqamli kompetensiyani akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Mazkur yondashuvda ta’lim jarayonining markazida talaba turadi: u o‘quv faoliyatini rejalashtirish, texnologik yechimlarni tanlash, raqamli resurslardan foydalanish va o‘z ta’lim trayektoriyasini boshqarish jarayonida faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi esa murakkab tushunchalarni interaktiv форматда izohlash, “tuzatish” mashg‘ulotlari, muhokamalar va refleksiv tahlil орқали talabalarning faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu jarayon:

savol qo‘yish va muammo qo‘yish,

pozitsiyani asoslash,

muloqot va hamkorlik,

tanqidiy fikrlash hamда dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Forum, chat, viki, elektron portfel ва boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari orqali tashkil etiladigan muhokamalar talabalar bilimini diagnostika qilish, ularning ilmiy mulohaza yuritish darajasini baholash va kursning nazariy qismidagi o‘zlashtirish sifati haqida dalillarga tayangan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Fikr-mulohaza va refleksiya: raqamli kompetensiyaning akmeologik mexanizmi Raqamli muhitda fikr-mulohaza (feedback) va refleksiya muvaffaqiyatli o‘qishning ajralmas sharti bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarda metakognitiv ko‘nikmalar (o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash, xatolar sababini aniqlash, keyingi maqsadlarni belgilash)ni shakllantiradi. Har bir topshiriq yakunida refleksiv hisobotlar, o‘z-o‘zini tahlil anketalari, elektron topshiriqlarni taqdim etish amaliyoti o‘quv jarayonini muntazam sozlash va shaxsiylashtirishga xizmat qiladi. Akmeologik nuqtai nazardan, aynan refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining “kasbiy o‘sish nuqtalari”ni aniqlash ва mustahkamlashga yordam beradigan bosh mexanizmlardan biridir.

Raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorlikning strukturaviy-funksional modeli Moslashuvchan ta’lim konsepsiyasi, raqamli ta’lim tamoyillari, ijtimoiy konstruktiv yondashuv g‘oyalari hamda raqamli kontent yaratish jarayonidagi pedagogik faoliyat tahliliga tayangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini rivojlantirish jarayonining strukturaviy-funksional modeli taklif etiladi. Mazkur model pedagogik ta’lim bakalavrlarini tayyorlash tizimida o‘quv jarayonining mazmuni va shartlarini belgilaydi, shuningdek:

tayyorgarlik darajalarini aniqlash,

samaradorlik shart-sharoitlarini yaratish imkonini beradigan mezonlar tizimiga tayanadi.

Modelning asosiy funksional bloklari:

Maqsadli blok

Tarkibiy blok

Tashkiliy blok

Mazmunli blok

Baholash bloki

Maqsadli blok: vazifalar va kutiladigan natijalar Maqsadli blok jamiyat va davlat ehtiyojlari, zamonaviy kasbiy talablar hamда o‘qituvchining shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini uyg‘unlashtirishga qaratiladi. U quyidagi maqsad va vazifalarni belgilaydi:

Motivatsiyani shakllantirish: bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ta’lim kontentini yaratish, o‘z raqamli resurslarini ishlab chiqish vositalarini o‘zlashtirishga barqaror ichki ehtiyoj va qiziqishni rivojlantirish.

Nazariy asoslarni berish: raqamli kontent yaratish texnologiyalari, raqamli resurslarga qo‘yiladigan didaktik-texnik talablar, turlar va tuzilma, samaradorlikni sinash yondashuvlari bo‘yicha zarur bilimlarni shakllantirish.

Operatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish: raqamli kontent ishlab chiqish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar, ijodiy tajriba va o‘zini ifoda etish strategiyalarini ongli tanlashni rag‘batlantirish.

Amaliy qo‘llash va tahlil: yaratilgan kontentdan ta’lim jarayonida foydalanish, afzallik-kamchiliklarni tahlil qilish, natijalarni tanqidiy baholash va takomillashtirish bo‘yicha amaliy harakatlarni shakllantirish.

Shu билан бирга, maqsadli blok modelning nazariy-metodologik tayanchlariga (tizimli-faoliyat, aksiologik, akmeologik, shaxsga yo‘naltirilgan va ekologik yondashuvlar) yo‘nalish beradi.

Ijtimoiy konstruktiv yondashuv: raqamli kontent yaratishdagi ta’lim tamoyillari Raqamli muhitda ijtimoiy konstruktiv yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kontent yaratishga tayyorligini kuchaytiradigan quyidagi didaktik tamoyillar bilan izohlanadi:

Hamkorlik va “tengdoshdan-tengdoshga o‘qitish”: barcha ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi sifatida maydonga chiqadi (masalan, talabalar tomonidan master-klass/seminar o‘tkazish).

“Yaratish orqali o‘rganish”: talaba maqsadli auditoriyaga mos raqamli resurs yaratadi va uni taqdim etadi; texnik topshiriq, didaktik maqsad va o‘lchash mezonlari kelishiladi.

Kuzatish va tahlil: boshqalarning ishlari tahlili orqali o‘rganish chuqurlashadi; dars yakunida refleksiya va muhokama forumlari orqali xatolar sababi, kuchli tomonlar va takomillashtirish yo‘llari aniqlanadi.

Shaxsiylashtirish: o‘quv ehtiyojlarini tushunish va hisobga olish o‘quv trayektoriyasini individuallashtiradi; talaba vosita va auditoriyani kasbiy qiziqishiga ko‘ra tanlaydi.

Moslashuvchan muhit va qulay vositalar: raqamli muhit oddiy, tushunarli va

moslashuvchan vositalar bilan ta’minlanadi; bu talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etib, raqamli kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining kasbiy yetukligi nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanish, balki raqamli ta’lim kontentini pedagogik maqsadlarga muvofiq holda loyihalash, tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, akmeologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv shaxsning kasbiy kamolotga erishishini, refleksiv fikrlashni, ijodiy faollikni va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ongli munosabatni ta’minlaydi. Moslashuvchan ta’lim konsepsiyasi, ijtimoiy konstruktiv yondashuv hamda raqamli ta’lim tamoyillari asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini ishlab chiqishga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional model bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim kontentini yaratishga tayyorligini shakllantirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etish imkonini beradi. Modelning maqsadli, mazmunli, tashkiliy va baholash bloklari o‘zaro uzviy bog‘langan holda raqamli kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, ijodiy, refleksiv va baholovchi komponentlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida raqamli kompetensiyasini rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida tashkil etilganda, ularning kasbiy tayyorgarligi, innovatsion fikrlashi va raqamli ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritish salohiyati sezilarli darajada oshadi. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim tizimida raqamli ta’lim kontentini yaratishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2023.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim tizimida raqamli transformatsiyani rivojlantirishga oid me’yoriy hujjatlar. – Toshkent, 2021–2024.

Dugiamas M. Social Constructionism and Learning in Online Environments. – Perth, 2018.

Weinert F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification. – New York, 2017.

Zimnyaya I.A. Pedagogik kompetentlik nazariyasi. – Moskva, 2016.

Kraevskiy V.V. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Moskva, 2015.

Egamberdiyeva N.M. Pedagogik innovatsiyalar va raqamli ta’lim. – Toshkent, 2020.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI (TEXNOLOGIYA DARSLARI MISOLIDA)

Raxmatova Nazokat Ibrohimovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslari texnologiya fanini o‘qitish misolida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilish jarayonlari — diqqat, tafakkur, xotira, idrok va ijodiy fikrlashni faollashtirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi. So‘nggi yillarda psixologik-pedagogik tadqiqotlar hamda amaliy tajribalar tahlili raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan texnologiya darslari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari va amaliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirishini ko‘rsatmoqda. Maqolada raqamli platformalar, interaktiv dasturlar, modellashtirish va loyihaviy faoliyat elementlaridan foydalanish orqali kognitiv faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyotida raqamli ta’lim muhitini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, boshlang‘ich ta’lim, kognitiv faoliyat, texnologiya darslari, bilish jarayonlari, interaktiv metodlar, raqamli ta’lim vositalari, ijodiy fikrlash.

Boshlang‘ich maktab yoshi bolalik davrining muhim va mas’uliyatli bosqichi bo‘lib, shaxsning intellektual, kognitiv hamda ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aqliy rivojlanishning zamonaviy psixologik-pedagogik tasniflariga ko‘ra, ushbu davr 6–7 yoshdan 9–11 yoshgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini qamrab oladi. Mazkur bosqichda bolaning turmush tarzi tubdan o‘zgaradi: u yangi ijtimoiy maqom — o‘quvchi rolini egallaydi, ta’lim faoliyati esa yetakchi faoliyat turi sifatida shakllanadi. Aynan shu jarayonda bolalarda bilish ehtiyojlari kuchayib, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va ijodiy fikrlash kabi kognitiv jarayonlar jadal rivojlanadi.

So‘nggi yillarda boshlang‘ich ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish hamda raqamli ta’lim muhitini keng joriy etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishga doir davlat dasturlarida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich maktab butun uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, aynan ushbu bosqichda o‘quvchilarning keyingi ta’lim faoliyatiga tayanch bo‘ladigan bilish asoslari shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga o‘quvchilarda o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish, raqamli axborot bilan ishlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, samarali muloqot

qilish hamda kognitiv faoliyatni ongli ravishda boshqarishga qodir shaxsni tarbiyalash vazifasi qo‘yilmoqda. Bu jarayonda texnologiya fanining imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur fan amaliy faoliyat, modellashtirish, loyihalash va konstruktiv fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

Jahon ta’lim amaliyotida ham boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirishga qaratilgan qator muhim loyiha va dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan “ICT in Education” tashabbuslari, OECD doirasidagi PISA va Education 2030 dasturlari, Yevropa Ittifoqining “Digital Education Action Plan” loyihasi boshlang‘ich ta’limda kognitiv kompetensiyalarni raqamli vositalar orqali rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Mazkur xalqaro tajribalar raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil ta’lim olishga tayyorlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu bois, raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat milliy ta’lim tizimi, balki jahon pedagogik hamjamiyati uchun ham dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya darslari jarayonida raqamli vositalardan foydalanishga asoslangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bola maktabga qadam qo‘yishi bilan uning ijtimoiy rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanadi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi bolaning ijtimoiy muhitidagi markaziy shaxsga aylanadi, ta’lim faoliyati esa yetakchi faoliyat turi sifatida shakllanadi. Boshlang‘ich maktab yoshida o‘rganish faoliyati bolaning o‘zini bilish sub’ekti sifatida anglashiga, o‘z imkoniyatlarini baholashiga va ongli ravishda rivojlantirishiga xizmat qiluvchi maxsus faoliyat shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu davrda fikrlash kognitiv rivojlanishning dominant funksiyasiga aylanadi.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, boshlang‘ich maktab yoshida maktabgacha davrda ustuvor bo‘lgan vizual-majoziy fikrlashdan og‘zaki-mantiqiy fikrlashga o‘tish jarayoni yakunlanadi. Ta’lim mazmunining tobora murakkablashuvi, tushunchalar tizimining kengayishi va ilmiy bilimlarning joriy etilishi boladan mantiqiy tahlil, umumlashtirish va sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni talab etadi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli ta’lim muhiti sharoitida vizual, interaktiv va modellashtirishga asoslangan vositalar og‘zaki-mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim omilga aylanmoqda.

Maktab ta’limi an’anaviy ravishda og‘zaki va mantiqiy fikrlashning ustuvor rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi kognitiv rivojlanishning ko‘pkanalli modelini shakllantirishga imkon bermoqda. Dastlabki ikki sinfda ko‘rgazmali vositalar va amaliy faoliyat ustun bo‘lsa, yuqori sinflarga o‘tish jarayonida ularning ulushi kamayadi. Biroq, raqamli ta’lim muhitida texnologiya darslarida interaktiv modellar, raqamli konstruktorlar, virtual laboratoriyalar va loyihaviy faoliyatdan foydalanish majoziy va mantiqiy fikrlash o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini izchil va tizimli ta’minlash imkonini beradi.

Kognitiv rivojlanish idrok, xotira, tasavvur, tushunchalarni shakllantirish, muammolarni hal qilish hamda mantiqiy fikrlash kabi bilish jarayonlarining kompleks rivojlanishini ifodalaydi. Ushbu tushuncha ilmiy jihatdan shveytsariyalik psixolog va

faylasuf Jan Piaje tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bola aqliy rivojlanish jarayonida ketma-ket bosqichlardan o‘tadi va har bir bosqich o‘ziga xos bilish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

Boshlang‘ich maktab yoshida kognitiv funksiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan bolaning qaysi rivojlanish bosqichida ekanligini aniqlash ta’lim metodlari, raqamli vositalar va pedagogik yondashuvlarni tanlashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, raqamli ta’lim muhitida individual yondashuvni ta’minlash, o‘quvchilarning kognitiv ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish metodik jihatdan muhim hisoblanadi.

Kognitiv rivojlanish bolaning aql-zakovatining bosqichma-bosqich shakllanishi bo‘lib, unga biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Asab tizimining perinatal shikastlanishi, erta bolalik davrida o‘tkazilgan kasalliklar, psixososial muhit va ta’lim sharoitlari kognitiv rivojlanish darajasida individual farqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu farqlar ayniqsa boshlang‘ich maktab yoshining oxiriga kelib yaqqol namoyon bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlarda o‘quvchilar fikrlash uslubiga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratiladi: og‘zaki-mantiqiy o‘rganishga moyil bo‘lgan “nazariyotchilar”, vizual vositalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali samarali o‘rganadigan “amaliyotchilar” hamda yorqin tasavvur va ijodiy fikrlashga ega bo‘lgan “ijodkorlar”. Raqamli ta’lim muhiti ushbu fikrlash turlarining barchasini uyg‘un rivojlantirish imkonini beradi, chunki texnologiya darslarida raqamli modellar, grafik muharrirlar, dizayn va konstruksiya elementlari birgalikda qo‘llaniladi.

Nazariy fikrlashni rivojlantirishning asosiy sharti ilmiy tushunchalarni ongli ravishda egallashdir. Nazariy fikrlash o‘quvchilarga predmet va hodisalarning tashqi belgilariga emas, balki ularning ichki, muhim xususiyatlari va o‘zaro bog‘liqligiga tayanib muammolarni hal etish imkonini beradi. Texnologiya darslarida raqamli vositalar asosida tashkil etilgan loyihaviy va muammoli topshiriqlar aynan ushbu fikrlash turini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich maktab yoshining dastlabki bosqichlarida idrok yetarlicha differensiallashmagan bo‘lib, bolalar ba’zan grafik jihatdan o‘xshash belgilarni chalkashtirib yuborishlari mumkin. Shu bois, raqamli vizual vositalar, animatsiyalar va interaktiv mashqlar idrokni aniqlashtirish va mustahkamlashda samarali metodik vosita hisoblanadi. Ta’lim jarayonida idrokning yoshga xos xususiyatlarini hisobga olish, ayniqsa raqamli muhitda o‘qitishni loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Idrokning yoshga oid bosqichlari quyidagicha tavsiflanadi:

2–5 yoshda — obyektlarni sanab o‘tish bosqichi;

6–9 yoshda — tasvirni tavsiflash bosqichi;

9 yoshdan keyin — ko‘rilgan obyektni talqin qilish bosqichi.

Mazkur bosqichlarni hisobga olgan holda, raqamli ta’lim muhitida texnologiya darslarini tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini izchil va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich maktab yoshida xotiraning rivojlanishi ikki asosiy yo‘nalishda — ixtiyoriy va mazmunli xotira sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yosh davrida bolalar qiziqish uyg‘otadigan, o‘yin elementlari bilan boyitilgan, rangli vizual vositalar va interaktiv materiallar asosida taqdim etilgan axborotni ixtiyorsiz ravishda tez va oson eslab qoladilar. Shu bilan birga, maktabgacha yosh davriga nisbatan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maqsadli va ixtiyoriy ravishda, ya’ni maxsus topshiriq asosida, o‘zlari

uchun unchalik qiziqarli bo‘lmagan materialni ham yodlash qobiliyatiga ega bo‘la boshlaydilar. Har bir o‘quv yili o‘tishi bilan ta’lim jarayonida ixtiyoriy xotiraning roli ortib boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mexanik xotiraning nisbatan yaxshi rivojlanganligi xos bo‘lib, ular ko‘pincha o‘quv materialini mazmuniga chuqur kirib bormasdan, so‘zma-so‘z yodlashga moyil bo‘ladilar. Biroq, bu holat o‘rta bo‘g‘in ta’limida materialning murakkablashuvi bilan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Zamonaviy ta’lim talablari esa faqat eslab qolish emas, balki axborotni tahlil qilish, qayta ishlash va amaliy faoliyatda qo‘llashni talab etadi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq semantik xotirani rivojlantirish muhim metodik vazifa hisoblanadi. Raqamli ta’lim muhitida texnologiya darslarida matnni qismlarga ajratish, reja tuzish, vizual sxema va algoritmlar asosida ishlash kabi mnemonik usullardan foydalanish mazmunli yodlashni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich maktab yoshida diqqatning rivojlanishi ham muhim kognitiv jarayonlardan biridir. Diqqat bo‘lmasdan samarali o‘rganish jarayonini tasavvur etib bo‘lmaydi. Dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini o‘quv materialiga yo‘naltiradi va uni ma’lum vaqt davomida barqaror saqlashga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bitta vazifaga o‘rtacha 10–20 daqiqa davomida diqqatini jamlay oladilar. Ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi natijasida diqqatning davomiyligi, barqarorligi, o‘zgaruvchanligi va taqsimlanishi bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Raqamli ta’lim muhitida interaktiv topshiriqlar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va loyihaviy faoliyat elementlari diqqatni jalb qilish va uni uzoq vaqt davomida saqlab turishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya darslarida raqamli konstruktorlar, virtual modellashtirish va dizayn topshiriqlari o‘quvchilarning diqqatini tabiiy ravishda faollashtiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishda o‘rganish motivlari alohida o‘rin tutadi. Motivlar o‘quvchini faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar bo‘lib, ular muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liqdir. Yosh o‘quvchilar uchun o‘rganish motivlari ko‘pincha ota-onalar va o‘qituvchilarning ma’qullashi, ijobiy baho olish, tengdoshlar orasida obro‘ qozonish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, fan mazmuniga bo‘lgan qiziqish ham kuchli motivatsion omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim motivlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: o‘rganish jarayonining o‘zi bilan bog‘liq ichki motivlar va o‘rganishdan tashqarida joylashgan tashqi motivlar. Ichki motivlarga bilim olishga qiziqish, mustaqil o‘rganish usullarini egallash istagi, muammolarni hal qilishdan qoniqish hissi kiradi. Tashqi motivlar esa yuqori baho olish, moddiy yoki ijtimoiy rag‘bat, ota-onalar va o‘qituvchilarning maqtoviga sazovor bo‘lish bilan bog‘liqdir.

Boshlang‘ich maktab yoshida yutuqqa erishish motivatsiyasi ko‘pincha ustunlik qiladi. Akademik muvaffaqiyatga erishgan o‘quvchilarda vazifani sifatli bajarish, belgilangan natijaga erishish istagi kuchli bo‘ladi. Aksincha, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda ko‘proq uchrab, ular salbiy baholardan, tanbeh va jazolardan qochishga intiladilar. Ushbu holat o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va kognitiv faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Baholash tizimi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining akademik motivatsiyasi va o‘z-o‘zini baholashiga bevosita ta’sir etadi. Dastlabki sinflarda baholar ko‘pincha bolaning

shaxsiy imkoniyatlarini umumiy baholash sifatida qabul qilinadi va uning sinfdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Shu sababli, raqamli ta’lim muhitida formatif baholash, o‘zini-o‘zi baholash va raqamli portfellar kabi zamonaviy baholash usullaridan foydalanish o‘quvchilarning psixologik holatini muvozanatda saqlashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida xavf guruhiga mansub bo‘lgan bolalarga alohida e’tibor qaratish zarur. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik buzilishiga ega bo‘lgan bolalarda diqqatni rivojlantirish uchun aniq jadval asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar, qisqa va tushunarli topshiriqlar, raqamli interaktiv vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Chap qo‘lli bolalar, shuningdek, emotsional-irodaviy buzilishlarga ega o‘quvchilar uchun moslashtirilgan ta’lim sharoitlarini yaratish kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning muhim shartidir.

Zamonaviy ta’lim sharoitida axborot hajmining keskin ortishi o‘quvchilardan mustaqil fikrlash, tez va aniq qaror qabul qilish, ijodiy va tanqidiy yondashuvni talab etmoqda. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda raqamli ta’lim muhitini samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Texnologiya darslari mazkur jarayonda o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni kelajakdagi ta’lim va hayotiy faoliyatga tayyorlashda muhim metodik imkoniyatlarga ega.

Har bir aniq darsda ta’lim jarayonining maqsadlari (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) belgilab olinadi va izchil amalga oshiriladi. Ya’ni, bir darsda o‘quvchilarda muayyan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadi ustuvor bo‘lsa, keyingi darsda boshqa mazmuniy yo‘nalishdagi maqsadlar (masalan, modellashtirish, loyihalash, muammoli vaziyatni hal etish, refleksiya) ilgari suriladi. Shu tariqa maqsadlar tizimi o‘qituvchining ta’lim jarayonini boshqarishdagi konseptual faoliyatini ifodalaydi va darslarni rejalashtirish hamda natijalarni baholash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’limiy funksiya: bilim–ko‘nikma–malaka integratsiyasi

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, o‘qitishning ta’limiy funksiyasi nafaqat bilim berish, balki berilgan bilimlar asosida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham qamrab oladi. Bilimning tabiati va mazmuni mos ravishda shakllanadigan ko‘nikmalar turini belgilaydi. Masalan, boshlang‘ich ta’limda texnologiya darslari misolida:

- nazariy bilimlar (materiallar xossalari, xavfsizlik qoidalari, buyumning qismlari va ularning vazifasi, ketma-ketlik/algoritm tushunchasi);
- amaliy ko‘nikmalar (oddiy konstruktsiya yaratish, detallarni biriktirish, shablon asosida ishlash, o‘lchash, belgilash, bezash);
- raqamli ko‘nikmalar (oddiy raqamli chizmalar, vizual algoritm, interaktiv yo‘riqnoma, raqamli portfel, foto/video hisobot, onlayn savol-javob) kabi tarkibiy qismlar uyg‘un holda rivojlantiriladi.

Shuningdek, faktik materiallarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ko‘nikmalar ham muhim: bola mavjud ma’lumotlarni tartibga solish, turli misollar keltirish, qoidalar va ta’riflarni tushuntirish, “nima uchun?” va “qanday?” savollariga asosli javob berishga o‘rganadi. Raqamli ta’lim muhitida bu jarayon jadval, sxema, infografika, interaktiv kartochkalar orqali qulayroq tashkil etiladi.

Xotira bilan ishlash ko‘nikmalari: raqamli mnemonika

Boshlang‘ich ta’limning ta’limiy funksiyasi xotira bilan ishlash ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi: o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra va o‘quvchining o‘z tashabbusi bilan

maqsadli yodlash, keyin esga tushirish va qo‘llash. Raqamli muhitda bu ko‘nikmalar:

- matnni qismlarga bo‘lish,
- reja tuzish,
- “qadam-baqadam” yo‘riqnoma,
- “check-list”,
- vizual algoritmlar,
- qisqa video yo‘riqnomalar

kabi vositalar orqali semantik yodlashni kuchaytiradi.

Ta’limiy funksiyaning samarali amalga oshishi, bizning fikrimizcha, o‘qituvchining o‘rganilayotgan bilimlarning xususiyatlarini va shakllantirilayotgan ko‘nikmalarni oldindan aniq “ko‘ra bilishi”, ya’ni dars natijalarini operatsion (o‘lchanadigan) ko‘rsatkichlarga aylantira olishi bilan bog‘liq.

O‘qitishning tarbiyaviy funksiyasi qarashlar va e’tiqodlarni shakllantirish, axloqiy me’yorlar, iroda, his-tuyg‘ular va emotsional-munosabatlar doirasini boyitishni ham qamrab oladi. Texnologiya darslarida tarbiyaviy yo‘nalish quyidagilar orqali tabiiy ravishda amalga oshiriladi:

- jamoada ishlash (hamkorlik, mas’uliyat, o‘zaro yordam),
- mehnat madaniyati (tartib, aniqlik, xavfsizlik),
- natijaga yo‘naltirilganlik (boshlagan ishni yakunlash),
- ekologik ong (materialni tejash, qayta ishlash g‘oyasi),
- estetik did (dizayn va bezak) kabi kompetensiyalar.

Raqamli ta’lim muhiti buni kuchaytiradi: masalan, o‘quvchi o‘z ishini raqamli portfelga joylaydi, refleksiya yozadi, sinfdoshlarining ishiga madaniyatli fikr bildiradi. Bu jarayon tarbiyaviy natijalarni ko‘rinadigan qiladi.

_Boshlang‘ich ta’limning rivojlantiruvchi funksiyasi bilish jarayonlarini faollashtirish, fikrlash mantig‘i va mantiqiy operatsiyalarni (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash) o‘zlashtirishdan iborat. Shuningdek, atrof-muhitni o‘rganishga qiziqishni shakllantirish, o‘qishga ijobiy motivlarni rivojlantirish va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish ham mazkur funksiyaning muhim tarkibiy qismlaridir.

Amaliyotda, odatda, dars davomida o‘qituvchi rivojlantiruvchi mazmunning bitta yoki ikkita jihatini maqsadli kuchaytiradi. Masalan, texnologiya darslarida raqamli muhitdan foydalangan holda:

- ixtirochilik va topqirlikni rag‘batlantiruvchi muammoli topshiriqlar (“Berilgan materialdan eng mustahkam konstruktsiyani yarat”);
- modellashtirish va algoritmik fikrlash (ketma-ketlikni tuzish, xatoni topish, “debug”);
- analitik va sintez faoliyati (detallarni ajratish, qayta birlashtirish, variantlarni solishtirish);
- ijobiy motivatsiya (gamifikatsiya, daraja/medal, tezkor fikr-mulohaza)

kabi yondashuvlar qo‘llanadi.

Bu yondashuvlar O‘zbekistonda ta’limni modernizatsiya qilish va raqamlashtirishga oid ustuvor yo‘nalishlar bilan hamohang bo‘lib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-637, 23.09.2020) hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi (PF-158, 11.09.2023) doirasida belgilangan vazifalarga mos keladi.

Xulosalar

1. 6–8 yoshdan boshlab o‘quvchilar tushunchalar bilan ongli ishlash, tasniflash,

ierarxiya tuzish va axborotni tizimlashtirish kabi kognitiv amallarni bajarishga qodir bo‘la boshlaydi. Bu ko‘nikmalar maktab ta’limida muvaffaqiyat uchun tayanch hisoblanadi.

2. Darsning rivojlantiruvchi maqsadi qanchalik aniq belgilansa, o‘quvchining kognitiv rivojlanishi shunchalik boshqariladigan va natijador bo‘ladi. Rivojlantiruvchi maqsadlar noaniq bo‘lsa, kognitiv o‘sish ko‘proq spontan tus oladi va natija barqaror bo‘lmaydi.

3. Raqamli ta’lim muhitida texnologiya darslarini metodik jihatdan to‘g‘ri loyihalash (interaktiv ko‘rsatmalar, modellashtirish, loyihaviy faoliyat, raqamli portfel va formatif baholash) o‘quvchilarning kognitiv faolligini, mustaqil fikrlashini va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

4. Ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bir dars doirasida uyg‘unlashtirish boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishning muhim sharti bo‘lib, o‘qituvchidan maqsadlarni aniq qo‘yish, raqamli vositalarni didaktik maqsadga muvofiq tanlash va natijani mezonlar asosida baholashni talab etadi.

5. Jahon miqyosida raqamli ta’limni sifatli va inklyuziv rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar (masalan, Yevropa Ittifoqining Digital Education Action Plan 2021–2027 hamda UNESCOning raqamli kompetensiyalar bo‘yicha yo‘riqnomalari) ta’limda raqamli vositalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi ва миллий методик изланишлар учун тажриба манбаи бўла олади.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida (O‘RQ-637), 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida (PF-158), 11.09.2023.
3. European Commission. Digital Education Action Plan (2021–2027).
4. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers (ICT-CFT).
5. Piaget, J. Tanlangan psixologik asarlar. Moskva, 1994.
6. Vygotskiy, L.S. Tafakkur va nutq. (klassik manbalar to‘plami).
7. Leontyev, A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. (klassik nazariy manba).
8. Mayer, R.E. Multimedia Learning. Cambridge University Press.

RUS TILINI O‘ZGA TILLI AUDITORIYADA O‘QITISHDA TALABADA NOVERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING METODIK YONDASHUVLARI

Rustamova Nigina Shuxratovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mutaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish jarayonida talabalarda noverbal (og‘zaki bo‘lmagan) kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning metodik yondashuvlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda masofaviy va raqamli ta’lim muhiti sharoitida muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, jest, mimika, vizual kontakt, harakat va intonatsiya kabi noverbal vositalarning o‘quv muloqotidagi o‘rni yoritiladi. Raqamli ta’lim muhitida noverbal signallarni idrok etish va uzatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar talabalarning psixo-emotsional holati hamda diqqatni jamlash xususiyatlari bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Shuningdek, rus tilini o‘qitishda noverbal kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar, onlayn platformalar va raqamli servislar imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Maqolada masofaviy ta’lim sharoitida kommunikativ samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish, noverbal kommunikatsiya, noverbal kommunikativ kompetensiya, raqamli ta’lim muhiti, masofaviy ta’lim, interaktiv metodlar, onlayn ta’lim texnologiyalari.

Muloqot insoniyat jamiyatining mavjudligi va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy ijtimoiy-pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Inson taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab muloqot shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy tajribani uzatish hamda madaniy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Shu bois muloqotning jamiyat hayotidagi o‘rni va funksional ahamiyati masalasi jahon va mahalliy olimlar tomonidan izchil o‘rganib kelinmoqda.

Xususan, kommunikatsiya nazariyasi asoschilaridan biri bo‘lgan U. Shramm muloqotni jamiyatni birlashtiruvchi va ijtimoiy tizimni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qilgan bo‘lsa, E. Sapir muloqotni madaniy shakllar va ijtimoiy xulq-atvorning ajralmas tarkibiy qismi deb e’tirof etgan. Mazkur yondashuvlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ayniqsa ta’lim jarayonida, jumladan, xorijiy tillarni o‘qitishda muloqot fenomenini chuqur anglashni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari doirasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayonda rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarning nafaqat lingvistik, balki kommunikativ va noverbal kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda muloqot, odatda, axborot almashish, ijtimoiy tajribani uzatish va shaxslararo munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi ijtimoiy faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Biroq amaliy ta’lim jarayonida, ayniqsa til o‘rganishda, muloqot faqat og‘zaki nutq bilan chegaralanib qolmaydi. Real kommunikativ vaziyatlarda shaxslar o‘z fikr-mulohazalari, hissiy holati va niyatlarini yetkazishda jest, mimika,

tana holati, intonatsiya, vizual aloqa va fazoviy masofa kabi noverbal vositalardan keng foydalanadilar.

Ayniqsa, rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish jarayonida noverbal kommunikatsiyaning ahamiyati yanada ortadi. Chunki tilni o‘rganayotgan talaba uchun nutqiy birliklarni to‘g‘ri qo‘llash bilan bir qatorda, madaniy jihatdan mos bo‘lgan noverbal xatti-harakatlarni anglash va ulardan o‘rinli foydalanish muhim hisoblanadi. Raqamli va masofaviy ta’lim sharoitida esa bu jarayon yanada murakkablashib, noverbal signallarning cheklanganligi, vizual aloqaning sustligi va talabalarning psixo-emotsional holatiga ta’siri bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi.

Shu bois mazkur maqolada rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitishda noverbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ilmiy asoslash, ularni O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash hamda raqamli ta’lim muhiti doirasida samarali pedagogik yechimlarni taklif etish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, noverbal muloqot vositalari og‘zaki nutqni to‘ldiruvchi ikkilamchi element emas, balki kommunikativ jarayonning mazmuniy va funksional jihatdan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir holatda imo-ishora, mimika yoki tana harakati nutq mazmunini aniqlashtirish, kuchaytirish yoki hatto to‘liq almashtirish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, shaxslararo muloqot jarayonida noverbal signallar suhbatdoshlarning munosabati, hissiy holati va kommunikativ niyatini tez va aniq anglash imkonini beradi.

Til o‘rganish jarayonida, xususan, rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitishda ushbu holat alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar ko‘pincha leksik va grammatik bilimlari yetarli bo‘lmagan sharoitda aynan noverbal vositalar yordamida muloqotni davom ettiradilar, suhbat mazmunini tushunishga yoki o‘z fikrlarini ifodalashga intiladilar. Shu bois noverbal kommunikativ kompetensiya xorijiy til kommunikativ kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni, jumladan, rus tilini o‘qitishda kommunikativ-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida talabalarning faqat nutqiy ko‘nikmalari emas, balki ularning muloqot jarayonidagi xatti-harakatlari, vizual aloqa madaniyati, mimika va jestlardan foydalanish qobiliyatlari ham rivojlantirilishi talab etiladi. Bu ayniqsa raqamli va masofaviy ta’lim sharoitida dolzarb bo‘lib, onlayn darslarda noverbal signallarning cheklanganligi sababli kommunikativ samaradorlik pasayishi mumkin.

Masofaviy ta’lim jarayonida kameradan foydalanish, yuz ifodalarini anglash, ovoz ohangi va pauzalarning to‘g‘ri talqini talabalarning psixo-emotsional holati va darsdagi faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘qituvchi noverbal muloqot elementlaridan ongli va metodik jihatdan to‘g‘ri foydalansa, talabalarda ishtirokchanlik, muloqotga kirishuvchanlik va nutqiy ishonch sezilarli darajada oshadi. Aksincha, noverbal signallarning e’tibordan chetda qolishi dars jarayonida sovuqlik, tushunmovchilik va kommunikativ uzilishlarga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitishda noverbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan metodik ishlar tizimli, bosqichma-bosqich va madaniy kontekstni hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Talabalarga rus tiliga xos bo‘lgan noverbal xatti-harakatlar, ularning pragmatik ma’nosi va kommunikativ vazifalari tushuntirilishi, mashqlar va interaktiv vaziyatlar orqali

mustahkamlanishi lozim.

Natijada, noverbal muloqot vositalarini ongli ravishda idrok etish va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan talaba real va virtual kommunikativ vaziyatlarda o‘zini erkin tutadi, nutqiy faoliyatida ishonch va tabiiylik namoyon etadi hamda xorijiy tilni egallash jarayoni samaradorligi oshadi.

Shunga o‘xshash holat O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kuzatiladi. Oliy ta’lim muassasalarida rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish jarayonida asosiy e’tibor, asosan, talabalarning leksik-grammatik bilimlarini mustahkamlash, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Bunda rus tiliga xos bo‘lgan madaniyatlararo noverbal kommunikatsiya vositalari ko‘pincha ikkilamchi yoki yordamchi unsur sifatida qaraladi. Natijada talabalar til birliklarini nisbatan yaxshi egallagan bo‘lsalarda, real kommunikativ vaziyatlarda, ayniqsa jonli muloqot jarayonida, noverbal xatti-harakatlarning noo‘rin yoki noto‘g‘ri qo‘llanishi tufayli qiyinchiliklarga duch keladilar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishga doir davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda madaniyatlararo noverbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yetarli metodik e’tibor qaratilmayapti. Ko‘plab o‘quv dasturlarida noverbal muloqot unsurlari tizimli ravishda yoritilmaydi, ular alohida mavzu yoki maxsus mashg‘ulotlar sifatida emas, balki epizodik tarzda tilga olinadi.

Bundan tashqari, respublikada rus tilini o‘rganayotgan talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash tizimi ham, asosan, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kabi klassik nutqiy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan. Test topshiriqlari va yakuniy baholash jarayonida noverbal muloqotga oid bilimlar, madaniy moslik, jest va mimikaning pragmatik talqini deyarli hisobga olinmaydi. Bu esa o‘qituvchilar va talabalar ongida noverbal kommunikatsiyaning ikkinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi haqidagi noto‘g‘ri tasavvurni mustahkamlaydi.

Holbuki, amaliy kommunikativ tajriba shuni ko‘rsatadiki, rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitishda madaniyatlararo noverbal xatti-harakatlarni bilish va to‘g‘ri qo‘llash talabalarning kommunikativ muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Noverbal signallarning noto‘g‘ri talqini ko‘pincha nutqiy xatolarga qaraganda jiddiyroq tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi, chunki bunday holatlar suhbatdosh tomonidan shaxsiy munosabat yoki hissiy baho sifatida qabul qilinadi.

Shu sababli, rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayonida madaniyatlararo noverbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni mustaqil va muhim pedagogik vazifa sifatida belgilash zarur. Bu jarayon o‘quv dasturlariga noverbal muloqot elementlarini tizimli ravishda kiritish, madaniy vaziyatlarga asoslangan mashqlar ishlab chiqish, shuningdek, talabalarning noverbal xatti-harakatlarini baholash mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Natijada, rus tilini o‘rganayotgan talabalar nafaqat til tizimini, balki rus tiliga xos bo‘lgan madaniy va noverbal muloqot me’yorlarini ham chuqur egallaydi. Bu esa ularning real va virtual madaniyatlararo muloqot jarayonlarida erkin, ishonchli va samarali ishtirok etishlariga imkon yaratadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, shuni ta’kidlash joizki, universitetlarni rus tili yo‘nalishi bo‘yicha tamomlagan talabalarning salmoqli qismi og‘zaki bo‘lmagan muloqot tushunchasi, noverbal kodlarning tabiiy til bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda rus tilidagi og‘zaki bo‘lmagan muloqotning madaniy o‘ziga xos jihatlari haqida yetarli

tasavvurga ega emas. Natijada, madaniyatlararo muloqot jarayonida turli kommunikativ to‘siqlar, noto‘g‘ri talqinlar va psixologik noqulayliklar yuzaga keladi. Bu esa rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish jarayonida og‘zaki bo‘lmagan kommunikativ xatti-harakatlarni maqsadli o‘rganish zarurligini yaqqol ko‘rsatadi.

Masalan, “bosh chayqash” kabi keng tarqalgan noverbal ishora turli madaniyatlarda turlicha ma’no kasb etadi. O‘zbek madaniyatida boshni chayqash, asosan, inkor yoki rozi emaslik ma’nosini anglatadi, rus tilida esa ushbu ishora kontekstga bog‘liq holda nafaqat rad etish, balki tasdiqlash ma’nosini ham ifodalashi mumkin. Bu holat rus adabiy matnlarida, xususan, badiiy asarlarda tez-tez uchraydi. Mazkur farqni hisobga olmaslik rus tilini o‘rganayotgan talabalarda matnni noto‘g‘ri tushunish, tarjima jarayonida esa mazmunni buzib talqin qilishga olib kelishi mumkin.

Masalan, I.S. Turgenev asarida keltirilgan quyidagi parcha bunga yorqin misol bo‘la oladi:

Men unga Gegel haqida gapira boshladim. U boshini tasdiqlovchi ohangda qimirlatdi, qoshlarini ko‘tardi, jilmayib pichirladi: “Tushundim, tushundim!..”

Bu yerda “tasdiqlovchi” ravishi, shuningdek, qosh ko‘tarish va tabassum kabi qo‘shimcha noverbal harakatlar hamda “Tushundim” leksik birligi harakatning ijobiy semantikada ekanligini aniq belgilab beradi. Demak, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vositalarning birligi kommunikativ ma’noni to‘liq ochishga xizmat qiladi.

Mazkur holatlar rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish jarayonida talabalarda madaniyatlararo noverbal kommunikativ ongni shakllantirish qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, avvalo, madaniyatlararo kommunikativ ongni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, rus tili talabalarida noverbal muloqotga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish ularning madaniyatlararo muloqotga tayyorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Bu jarayonda rus tili o‘qituvchisining roli alohida ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasasida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonining tashkilotchisi va madaniy vositachi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois, u noverbal muloqotning mohiyati, tarixi, turlari va funksional xususiyatlari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi hamda ularni o‘quv jarayoniga maqsadli va tizimli ravishda integratsiya qilishi zarur.

Amaliy rus tili darslarida noverbal muloqot vositalarini joriy etish uchun o‘yinga asoslangan metodlar, rolli o‘yinlar, vaziyatli mashqlar va interaktiv strategiyalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, talabalarni “tabassum”, “qiyshiq qarash”, “yelkani qisish”, “peshonadan o‘pish” kabi rus madaniyatiga xos bo‘lgan noverbal harakatlar bilan tanishtirish, ularning pragmatik ma’nosini tahlil qilish va madaniy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish mumkin. Shuningdek, filmlar, videolar, badiiy asarlar va sahna ko‘rinishlari orqali talabalarga noverbal xulq-atvorni vizual ravishda kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, noverbal kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Bu talabalarni rus tiliga xos noverbal me’yorlar bilan tizimli ravishda tanishtirishni, o‘quv dasturlariga maxsus mavzular va fanlarni kiritishni taqozo etadi. Masalan, “Madaniyatlararo noverbal kommunikatsiya” kabi maxsus kurslarni joriy etish, ular uchun aniq o‘quv maqsadlari, mazmun va baholash mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish jarayonida noverbal

kommunikativ kompetensiyani shakllantirish talabalarining nafaqat til bilimini, balki ularning madaniyatlararo muloqotda erkin, ishonchli va samarali ishtirok etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Schramm W. The Process and Effects of Mass Communication. – Urbana: University of Illinois Press, 1960.
2. Mehrabian A. Silent Messages. – Belmont, CA: Wadsworth Publishing Company, 1971.
3. Smirnov O.P. Proshchanie. – Moskva: Khudozhestvennaya literatura, 1985.
4. Bi Jiwan. Intercultural Communication Studies. – Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 2013.
5. Kapinova E.S. Mezhkulturnaya kommunikatsiya v obuchenii inostrannym yazykam. – Moskva: Akademiya, 2015.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Rus tilini o‘zga tilli auditoriyada o‘qitish bo‘yicha o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
7. Russkiy yazyk: Tolkovyy slovar’. – Moskva: Russkiy yazyk, 1999.
8. Zhao Aiguo. Intercultural Communicative Competence. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2011.
9. Pugachev I.A. Obuchenie neverbalnomu povedeniyu v kontekste RKI. – Sankt-Peterburg: Herzen University Press, 2018.
10. Turgenev I.S. Izbrannye proizvedeniya. – Moskva: Nauka, 1987.

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHDA MAKTAB BILAN HAMKORLIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Сафаров Эркин Насиллоевич,
Buxoro viloyati IIB boshlig’ining 1-o’rinbosari podpolkovnik

Annotatsiya. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar o‘rtasida ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olishda maktab va jamoat institutlari hamkorligining pedagogik-ijtimoiy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Turli mamlakatlar tajribasi asosida yoshlar muhitida ekstremizm profilaktikasiga qaratilgan dastur va loyihalarning mazmuni o‘rganilib, ularning samarali yo‘nalishlari aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida profilaktik faoliyatning kompleks xarakterga egaligi, ta’lim muassasalari, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi muhim shart sifatida asoslanadi. Maqolada maktabning tarbiyaviy salohiyatini jamoat institutlari imkoniyatlari bilan integratsiyalash orqali voyaga yetmaganlarda huquqiy ong, ijtimoiy mas’uliyat va ekstremistik ta’sirlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo‘llari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar; ekstremizmga qarshi kurash; profilaktika; maktab va jamoat institutlari hamkorligi; ijtimoiy sheriklik; mafkuraviy immunitet; yoshlar siyosati.

Yoshlar, xususan voyaga yetmaganlar o‘rtasida ekstremizm muammosi bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun dolzarb ijtimoiy-siyosiy xavf sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur hodisaning oldini olish nafaqat yoshlar muhitida ekstremistik g‘oyalar va zo‘ravonlikka moyillik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi, balki jamiyatda etnik va konfessional munosabatlarning barqarorligi, ijtimoiy totuvlik va fuqarolik birdamligini mustahkamlashga ham muhim hissa qo‘shadi. Shu bois ekstremizmga qarshi kurash masalasi ko‘plab davlatlarda milliy xavfsizlik, ta’lim va yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi etnik-konfessional keskinlikni kamaytirish va voyaga yetmaganlarni radikal ta’sirlardan himoya qilish bo‘yicha yondashuvlar rang-barang bo‘lib, ular har bir mamlakatning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sharoitlaridan kelib chiqadi. Biroq umumiy jihat shundan iboratki, ushbu jarayonda ta’lim muassasalari, mahalliy hokimiyat organlari, jamoat institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar o‘rtasidagi tizimli hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida ekstremizmning oldini olishning ikki asosiy strategik yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin:

— birinchidan, ekstremizmning namoyon bo‘lishiga olib keluvchi tashqi omillar va ijtimoiy sharoitlarning salbiy ta’sirini kamaytirish (ijtimoiy tengsizlik, marginalizatsiya, axborot xavfsizligi tahdidlari, radikal targ‘ibot va boshqalar);

— ikkinchidan, ekstremistik g‘oyalarga moyil bo‘lishi mumkin bo‘lgan voyaga yetmaganlarning ichki psixologik, ijtimoiy va ma’naviy omillariga ta’sir ko‘rsatish, ularda tanqidiy fikrlash, huquqiy ong, fuqarolik mas’uliyati va mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Mazkur yondashuvlar O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga oid normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, maktab, oila va mahalla

hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan davlat dasturlarining maqsad va vazifalari bilan uyg‘unlashadi. Shu nuqtayi nazardan, maktab va jamoat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish voyaga yetmaganlar o‘rtasida ekstremizmning oldini olishda muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlarning ekstremizmga chidamliligi uchun qulay ijtimoiy muhitni shakllantirish yoshlarning ekstremistik faoliyatda potensial yoki real ishtirokini erta bosqichda aniqlash, bunday holatlarning oldini olish hamda ularga nisbatan konstruktiv va qonuniy choralar ko‘rish imkonini beruvchi kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu yo‘nalish bevosita yoshlarning shaxsiy rivoji, ijtimoiy moslashuvi va fuqarolik ongining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, avvalo ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mazkur maqsadga erishishda yoshlarning umumiy madaniy, huquqiy va axborot savodxonligini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, turli axborot manbalarini ongli baholash, radikal va noqonuniy mazmundagi g‘oyalarni konstruktiv ijtimoiy qarashlardan farqlay olish qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda ekstremistik mazmundagi axborotni targ‘ib qilmasdan, balki huquqiy-me’yoriy asosda tushuntirish va ogohlantirish usullaridan foydalanish zarur.

Maktab muhitida mazkur vazifalarni amalga oshirish fuqarolik tarbiyasi, huquqiy ta’lim, madaniyatlararo muloqot va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari, tarbiyaviy suhbatlar va interaktiv faoliyat shakllari orqali ta’minlanadi. Bunda pedagogik jarayon qat’iy nazorat qilinadigan, ideologik bosimdan holi va yoshlarning erkin fikrlash huquqini hurmat qiluvchi yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Shu bilan birga, yoshlar bilan ishlovchi pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning vazifasi ekstremistik xatti-harakatlarni “yorliqlash” emas, balki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, muloqot muammolari yoki psixologik zo‘riqish kabi xavf omillarini erta aniqlash va tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda profilaktik yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi kerak.

Yoshlarning umumiy madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish doirasida ularni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi. Volontyorlik, sport, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, jamoatchilik tashabbuslari va ijodiy loyihalarda ishtirok etish yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, jamiyatga daxldorlik hissini mustahkamlaydi va noqonuniy hamda radikal g‘oyalarga muqobil ijtimoiy o‘zini namoyon etish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur jarayonda maktab va jamoat institutlari, jumladan, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar birlashmalari va ota-onalar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik o‘zaro axborot almashinuvi, profilaktik tadbirlarni muvofiqlashtirish va yoshlar bilan ishlashda yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ota-onalarning farzandlarining ijtimoiy muhitdagi faolligi va axborot makonidagi xulq-atvoriga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatini qo‘llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

Yoshlarning ekstremizmga chidamliligini oshirishga qaratilgan ushbu yo‘nalish maktab va jamoat institutlari o‘rtasidagi uzviy, tizimli va qonuniy hamkorlikni talab etadi. Ushbu yondashuv ekstremizmga qarshi kurashni repressiv choralar orqali emas, balki ijtimoiy barqarorlik, huquqiy ong va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlash orqali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yoshlar bilan bevosita ishlovchi muassasalar, jumladan voyaga yetmaganlar bilan ishlashga ixtisoslashgan tarbiyaviy muassasalar, umumta’lim va oliy ta’lim tashkilotlari, ijtimoiy xizmatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, diniy tashkilotlar

hamda boshqa tegishli subyektlar xodimlari uchun ixtisoslashtirilgan treninglar tashkil etish yoshlar o‘rtasida ekstremizmning oldini olish tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur treninglar xodimlarda yoshlarning noqonuniy va radikal faoliyatga jalb qilinishiga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik omillar, ushbu jarayonning ehtimoliy belgilari va bosqichlari to‘g‘risida ilmiy asoslangan tushunchani shakllantirishga qaratiladi.

Bunday tayyorgarlik doirasida mutaxassislar yoshlar muhitida ekstremistik g‘oyalarning tarqalishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, pedagogik va ijtimoiy-profilaktik usullarni o‘zlashtiradi, shuningdek, yoshlarning umumiy madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari bilan tanishadi. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyat targ‘ibot-tushuntirish ishlari, trening va malaka oshirish kurslari, metodik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash, shuningdek, tajriba almashish maqsadida professional hamkorlik tarmoqlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Yoshlar orasida ekstremizmning oldini olish tizimida muhim o‘rinlardan birini ekstremistik faoliyatga jalb qilinish xavfi mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bilan ishlash tashkil etadi. Ushbu faoliyat ota-onalarni yoshlar o‘rtasida ekstremizmning ijtimoiy-psixologik sabablari va omillari, uning ehtimoliy ko‘rinishlari to‘g‘risida xabardor qilishga, shuningdek, ularning farzandlari bilan samarali muloqot olib borish va profilaktik choralarni ko‘rish bo‘yicha mas’uliyatini anglashiga qaratiladi.

Mazkur yo‘nalishda individual maslahatlar, psixologik yordam, tajriba almashishga qaratilgan uchrashuvlar, muhokamalar, ota-onalar uchun axborot-tushuntirish materiallari va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash, shuningdek, zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurs va treninglar tashkil etilishi mumkin. Ayrim mamlakatlar tajribasida ota-onalar uchun mo‘ljallangan bunday treninglar voyaga yetmaganlarning xulq-atvori uchun ota-onalarning qonuniy mas’uliyati to‘g‘risidagi tushunchalarni mustahkamlash bilan uyg‘unlashtiriladi, biroq bu yondashuv doimo milliy qonunchilik doirasida va inson huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yoshlar ekstremizmining oldini olishga qaratilgan qator dasturlar yoshlarning ijtimoiy muhitidagi asosiy manfaatdor tomonlar — oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishni ham nazarda tutadi. Bunday hamkorlik ota-onalarni maktab va boshqa ta’lim muassasalari faoliyatiga jalb etish, shuningdek, yoshlar orasida ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq muammolarni erta aniqlash maqsadida tegishli subyektlar o‘rtasida qonuniy asosda axborot almashuvini yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv ekstremizmning oldini olishni boshqa deviant xulq-atvor shakllari profilaktikasi bilan uzviy bog‘liq holda olib borishga imkon yaratadi.

Yoshlar ijtimoiy doiralari uchun ekstremizm va uning oldini olish masalalari bo‘yicha axborot-maslahat tizimini shakllantirish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda faoliyat yurituvchi ko‘p funksiyali maslahat markazlarini tashkil etish samarali amaliyot sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu markazlar yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar, ta’lim va kasbga yo‘naltirish xizmatlari vakillari uchun maslahat maydoni bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek, profilaktik tadbirlar, munozaralar va axborot-ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazish imkonini berishi mumkin.

Bundan tashqari, ekstremizmning turli ko‘rinishlari, uning ijtimoiy xavflari va oldini olishning qonuniy usullari to‘g‘risida xolis va ilmiy asoslangan axborot materiallarini tayyorlash va tarqatish muhim ahamiyatga ega. Bunday materiallar bosma va elektron

nashrlar, hujjatli filmlar, uslubiy qo‘llanmalar va onlayn resurslar ko‘rinishida ishlab chiqilib, ta’lim muassasalari, jamoat va diniy tashkilotlar faoliyatida, shuningdek, ota-onalarni xabardor qilish jarayonida foydalanilishi mumkin. Ushbu yondashuv yoshlar va kattalar orasida ekstremizm masalasiga nisbatan ongli, huquqiy va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur profilaktik yondashuvning muhim xususiyati u yoki bu jamiyat sharoitida obyektiv omillar ta’sirida ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo‘lgan yoshlar guruhlariga nisbatan differensial va ehtiyotkor choralarni qo‘llashdan iboratdir. Gap muayyan yoshlarni “xavf manbai” sifatida belgilash haqida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik yoki institutsional omillar tufayli ekstremistik ta’sirlarga nisbatan nisbatan zaifroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan guruhlar bilan individual va ijtimoiy yo‘naltirilgan profilaktik ishlarni tashkil etish haqida bormoqda.

Yoshlar ekstremizmining oldini olishning yana bir yo‘nalishi yoshlarning ongiga, xulq-atvoriga va turmush tarziga ta’sir etuvchi, ekstremistik qarashlar va zo‘ravonlikni oqlovchi g‘oyalarni qabul qilish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan pedagogik, ijtimoiy va ma’rifiy choralarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalishning asosiy maqsadi yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy mas’uliyatini va fuqarolik ongini rivojlantirish orqali ekstremistik ta’sirlarga nisbatan barqarorlikni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadga, avvalo, yoshlar ongida quyidagi sifat va ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali erishiladi:

turli madaniyatlar, dinlar va etnik guruhlarning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, ichki va tashqi siyosat hamda xalqaro munosabatlarning dolzarb va tarixiy masalalari to‘g‘risida xolis va faktlarga asoslangan bilimlar;

o‘zidan farq qiluvchi qarashlar va madaniy an’analarga nisbatan bag‘rikeng va hurmatga asoslangan munosabat;

ekstremistik mafkuralarning mohiyati, ularning manipulyativ xususiyatlari va ijtimoiy xavflari to‘g‘risida umumiy, lekin yetarli darajadagi tushuncha;

o‘zini jamiyat va davlatning mas’uliyatli fuqarosi sifatida anglash, fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini bilish;

shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyaning barqaror shakllanishi, bunda milliy yoki diniy mansublik kamsitish, zo‘ravonlik yoki radikal qarashlar bilan bog‘lanmasligi;

shaxslararo nizolarni zo‘ravonliksiz hal etish va konstruktiv muloqot olib borish ko‘nikmalari;

axborotni, ayniqsa ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali tarqatilayotgan materiallarni tanqidiy tahlil qilish va baholash qobiliyati.

Ushbu yo‘nalish yoshlarning dunyo haqidagi tasavvurlarini xolis, muvozanatli va ilmiy asoslangan tarzda shakllantirishga, shuningdek, ularning tanqidiy fikrlash va ongli qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Bu jarayonda yoshlarning turli manbalardan kelayotgan axborotni tahlil qilish, ekstremistik mafkuralarning shaxsiy va ijtimoiy ongga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunish qobiliyatini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, axborotli va xabardor yoshlar radikal va noqonuniy g‘oyalarga nisbatan ancha barqaror bo‘ladi.

Mazkur maqsadlarga quyidagi asosiy faoliyat shakllari va usullari orqali erishish mumkin.

Birinchidan, yoshlar uchun multikulturalizm, fuqarolik huquqlari va erkinliklari, demokratik qadriyatlar, dinlar tarixi, ekstremistik mafkuralarning ijtimoiy xavflari, shuningdek, dolzarb siyosiy va ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan ta’lim va xabardorlik dasturlarini tashkil etish muhimdir. Bunday faoliyat ta’lim muassasalari

o‘quv dasturlariga maxsus tematik bloklarni kiritish, ochiq ma’ruzalar, seminarlar, munozaralar o‘tkazish, axborot-ma’rifiy materiallarni tayyorlash va tarqatish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchidan, yoshlarni madaniyatlararo muloqot jarayonlariga jalb etish ekstremizmning oldini olishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv turli yoshlar guruhlari o‘rtasidagi ijtimoiy masofani qisqartirish, stereotiplarning oldini olish va o‘zaro hamkorlik tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy shakllar sifatida qo‘shma sport va madaniy tadbirlar, ijodiy loyihalar, ekskursiyalar, yozgi maktablar va lagerlar tashkil etilishi mumkin. Bevosita muloqot imkoniyati cheklangan hollarda esa bilvosita muloqot shakllaridan, masalan, muhokamalar va videomateriallar almashinuvidan foydalanish mumkin.

Uchinchidan, yoshlar uchun individual maslahat va psixologik yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalish shaxsiy muammolarni yengib o‘tish, ekstremistik faoliyatga aloqador bo‘lish oqibatlarini tushuntirish va ijtimoiy jihatdan maqbul hayot strategiyalarini ishlab chiqishda ko‘maklashishga qaratiladi. Bunday yordam psixologlar, ijtimoiy xizmatlar vakillari va maxsus tayyorlangan mutaxassislar tomonidan individual suhbatlar, murabbiylik dasturlari va ishonch xizmatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

To‘rtinchidan, yoshlar uchun ijobiy ijtimoiy namuna bo‘la oladigan, ekstremizm va zo‘ravonlikka qarshi ochiq pozitsiyani egallagan shaxslarning faoliyatini yoritish muhim profilaktik ahamiyatga ega. Sport, madaniyat, tadbirkorlik va diniy-ma’rifiy sohalarda muvaffaqiyatga erishgan bunday shaxslarning yoshlar bilan uchrashuvlari, seminar va munozaralarda ishtiroki ekstremistik g‘oyalarga muqobil ijtimoiy yo‘nalishlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, yoshlarni ijtimoiy, fuqarolik va jamoatchilik faoliyatiga jalb etish orqali ularning o‘z fikrini qonuniy va konstruktiv shaklda ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu yondashuv yoshlarning jamiyat hayotida ishtirok etish ehtiyojini qondirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va ekstremistik faoliyatga muqobil ijtimoiy platformalarni yaratishga xizmat qiladi.

Nihoyat, yoshlar uchun ekstremizm bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishga mo‘ljallangan huquqiy va ochiq muloqot maydonlarini yaratish muhim hisoblanadi. Bunday platformalar veb-resurslar, radio va media loyihalar, ijodiy tanlovlar shaklida tashkil etilib, yoshlarning dolzarb masalalar yuzasidan fikr bildirishiga va axborot savodxonligini oshirishiga xizmat qilishi mumkin.

Yoshlar orasida ekstremizmning oldini olishda muhim omillardan yana biri ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur sharoitlarni yaratishdir. Bu, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan nisbatan kam rivojlangan hududlarda yoshlar markazlari, kutubxonalar, o‘quv va madaniy markazlar, sport inshootlari, shuningdek, ta’lim va kasbiy rivojlanishga qaratilgan kurslar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bunday infratuzilma yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ijobiy muloqot muhitini yaratish va salbiy ta’sirlardan himoyalanishiga xizmat qiladi.

Ko‘rib chiqilgan dasturlar va loyihalar tahlilini umumlashtirar ekan, ularning bir qator umumiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, mazkur dasturlarning aksariyati kompleks xarakterga ega bo‘lib, yoshlar orasida ekstremizmning tashqi va ichki sabablari hamda manbalariga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan choralar tizimini o‘z ichiga oladi. Faqat ayrim hollarda tor yo‘nalishli, mahalliy miqyosdagi loyihalar istisno tariqasida uchraydi.

Ikkinchidan, ushbu loyihalar doirasida amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar subyektlarining keng doirasi bilan tavsiflanadi. Ular ta’lim muassasalari, huquqni

muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimiyat tuzilmalari bilan bir qatorda jamoat va diniy tashkilotlar, norasmiy yoshlar birlashmalari, qo‘shimcha ta’lim muassasalari, mahalliy aholi guruhlari va ayrim hollarda xususiy sektor vakillarini ham o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, profilaktika tadbirlarini strategik rejalashtirish, ularning maqsad va vazifalarini belgilash hamda moliyalashtirish masalalari, odatda, davlat organlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda yoshlar bilan ishlash, migratsiya, ijtimoiy rivojlanish va ichki xavfsizlik sohalariga mas’ul vazirlik va idoralar muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, rejalashtirilgan chora-tadbirlarni bevosita amalga oshirish davlat dasturlari doirasida asosan mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy jamoalar, jamoat va diniy tashkilotlar zimmasiga yuklatiladi.

Alohida ta’kidlash joizki, ko‘rib chiqilgan dasturlarda yoshlar ekstremizmning oldini olish jarayonida nafaqat ta’sir obyekti, balki faol subyekt sifatida ham namoyon bo‘ladi. Profilaktika chora-tadbirlarining ayrim funksiyalarini bevosita yoshlar muhitidagi guruhlarga topshirish (“ichki ta’sir” strategiyasi) tengdoshlar o‘rtasida ishonch darajasi yuqoriroq bo‘lgani sababli yuqori samaradorlikni ta’minlashi mumkin. Bunday yondashuv yoshlarning o‘z muhitida ijobiy ijtimoiy normalarni mustahkamlashga va ekstremistik g‘oyalarga nisbatan barqaror muqobil pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”. — Toshkent, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”. — Toshkent, 2000.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”. — Toshkent, 2016.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF–60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. — Toshkent, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF–158-son “Yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. — Toshkent, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”. — Toshkent.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va ekstremizmning oldini olish bo‘yicha metodik tavsiyalar. — Toshkent.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma. — Toshkent.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Talaba-yoshlar o‘rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish konsepsiyasi. — Toshkent.
11. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi. Mahalla instituti orqali yoshlar bilan ishlash mexanizmlari. — Toshkent.
12. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
13. Egamberdiyev A. A. Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. — Toshkent: Fan, 2019.

O‘UK: 796.323:796.012:796.015.2

GANDBOL O‘YINIDA DARVOZABONLARNING ZAHIRA IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Salaydinov Botir Meyliyevich,
Qarshi davlat universiteti, “Sport faoliyati” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada gandbol o‘yinida darvozabonlarning zahira imkoniyatlarini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida jismoniy, texnik va psixologik ko‘rsatkichlarni yaxshilashning samarali metodlarini tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik tajriba orqali maxsus trening dasturining samaradorligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: gandbol, darvozabon, zahira imkoniyatlar, rivojlantirish, pedagogik eksperiment.

«РАЗВИТИЕ РЕЗЕРВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ВРАТАРЕЙ В ГАНДБОЛЕ»

Салайдинов Ботир Мейлиевич,
Доцент кафедры «Спорт фаолияти»
Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития резервных возможностей вратарей в гандболе. Исследование анализирует эффективные методы улучшения физических, технических и психологических показателей. Кроме того, посредством педагогического эксперимента определяется эффективность специальной тренировочной программы.

Ключевые слова: гандбол, вратарь, резервные возможности, развитие, педагогический эксперимент.

DEVELOPMENT OF RESERVE CAPACITIES OF GOALKEEPERS IN HANDBALL

Salaydinov Botir Meyliyevich,
Associate Professor of the department of «Sports faoliyati»
Karshi State University

Annotation.This article examines the development of reserve capacities of goalkeepers in handball. The study analyzes effective methods for improving physical, technical, and psychological indicators. Additionally, the effectiveness of a special training program is determined through a pedagogical experiment.

Keywords: handball, goalkeeper, reserve capacities, development, pedagogical experiment.

Kirish. Gandbol tezkor va strategik sport turi bo‘lib, unda darvozabonning roli jamoaning muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi. “Zahira imkoniyatlari” tushunchasi darvozabonning turli o‘yin vaziyatlarida turli texnik harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Bu imkoniyatlarni rivojlantirish jamoaning himoya samaradorligini oshirishda muhimdir.

Ibragimov va hamkasblarning tadqiqotida [1] sport o‘yinlarida darvozabonning psixologik tayyorgarligi asosiy ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Ularning ishlari

darvozabonning e’tiborini jamlash, stressga chidamlilik va qaror qabul qilish jarayonlarini chuqur o‘rganadi.

Baxtiyorovning (2025) tadqiqotida [2] yosh darvozabonlar uchun maxsus texnik mashqlar – to‘g‘ri harakatlarni shakllantirishdan tortib, zarbalarni qaytarishning samaradorligigacha bo‘lgan jarayonlarda samarali natijalar beradi.

Antonio Antunez Medina va hamkasblari tomonidan [3] joriy etilgan “perceptiv-motor trening” dasturi darvozabonning real o‘yin sharoitida samaradorligini oshirishini ko‘rsatgan.

Gandbol darvozabonlarining jarima zarbalarga bo‘lgan qarash strategiyalari bilan bog‘liq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki [4], e’tibor strategiyalari samarali saqlansa, muvaffaqiyat darajasi oshadi.

Angulo va hamkasblari tomonidan [5] olib borilgan tadqiqotlarda darvozabonlarni baholashda turli statistik va ”soft computing” metodlarining qo‘llanilishi tavsiflangan.

O‘zbekistonlik va xorijiy olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, darvozabonlarning zahira imkoniyatlarini rivojlantirish faqat jismoniy kuch yoki texnik harakat bilan cheklanmaydi. Psixologik tayyorgarlik, qaror qabul qilish, perkeptual ko‘nikmalar va statistik tahlil ham juda muhimdir.

Darvozabonning zahira imkoniyatlarini rivojlantirish jismoniy tayyorgarlik, texnik va psixologik ko‘rsatkichlarni birlashtirilgan tarzda rivojlantirishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Gandbol darvozabonlarining zahira imkoniyatlarini rivojlantirishda samarali metodlarni aniqlash va amaliyotga tadbiq etish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Darvozabonlarning jismoniy, texnik ko‘rsatkichlarini aniqlash.
2. Maxsus trening dasturini ishlab chiqish va uni pedagogik tajribada qo‘llash.
3. Tajriba natijalarini tahlil qilish va samaradorlikni baholash.
4. Zahira imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Gandbol o‘yinida darvozabonlarning faoliyati va ularning zahira imkoniyatlarini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Darvozabonlarning jismoniy, texnik va psixologik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan maxsus trening metodikalari va pedagogik eksperiment natijalari.

Tadqiqotning uslublari: ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat testlari, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarining matematik-statistik tahlili.

Tadqiqiot natijalari va muhokamasi.

Tadqiqot 16-18 yoshdagi professional darvozabonlar bilan o‘tkazildi. Maxsus trening dasturi quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

1. Jismoniy mashqlar: tezkorlik, chidamlilik, kuchlilik, egiluvchanlik.
2. Texnik mashqlar: turli burchaklardan zarbalarni qaytarish, pozitsiyani tez o‘zgartirish, qo‘l-ko‘zni muvofiqlashtirish.

Tadqiqotdan oldin va keyin barcha ko‘rsatkichlar o‘lchandi, video tahlil asosida texnik va taktika harakatlari baholandi.

1-jadval

Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	Tajribadan oldin (%)	Tajribadan keyin (%)	O‘sish (%)
1.	Tezkorlik	85	98	15
2.	Chidamlilik	80	92	15
3.	Kuch	78	90	15
4.	Egiluvchanlik	82	94	15

2-jadval

Texnik harakatlar samaradorligi

№	Mashq turi	Aniqlik (%)	Tezkorlik (%)	O‘sish (%)
1.	Zarbalarni qaytarish	70	75	20
2.	Pozitsiyani o‘zgartirish	72	77	20
3.	Qo‘l-ko‘zni muvofiqlashtirish	74	79	20

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdi, ya’ni:

1. Jismoniy tayyorgarlik o‘rtacha 15% ga oshdi.
2. Texnik harakatlarning aniqlik va tezkorligi 20% ga yaxshilandi.

Shunday qilib, pedagogik tajriba maxsus mashqlar dasturining samaradorligini tasdiqladi.

Olingan natijalar zamonaviy tadqiqotlar bilan mos keladi. Darvozabonlarning texnik va psixologik tayyorgarligi ularning zahira imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omildir. Maxsus mashqlar ularni turli o‘yin vaziyatlariga moslashishga, stressga chidamliligini oshirishga va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Darvozabonning zahira imkoniyatlarini rivojlantirish jamoaning umumiy himoya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosalar. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, gandbol darvozabonining zahira imkoniyatlari jamoaning umumiy himoya samaradorligi uchun asosiy omil hisoblanadi. Zahira imkoniyatlari kengaytirilgan darvozabonlar o‘yindagi noaniq vaziyatlarga tezkor va chaqqon javob bera oladi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, maxsus jismoniy mashqlar dasturi darvozabonlarning jismoniy ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 15% ga yaxshiladi. Shu bilan birga, ularning umumiy o‘yindagi harakat samaradorligi ham sezilarli darajada oshdi.

Turli burchaklardan zarbalarni qaytarish, pozitsiyani tez o‘zgartirish va qo‘l-ko‘zni muvofiqlashtirish bo‘yicha mashqlar darvozabonlarning texnik tayyorgarligini o‘rtacha 20% ga oshirdi. Bu esa ularning o‘yindagi tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshiladi.

12 haftalik maxsus trening dasturi pedagogik tajriba orqali sinovdan o‘tkazildi va uning samaradorligi tasdiqlandi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan metodika (jismoniy + texnik + psixologik mashqlar) darvozabonlarning zahira imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov O., et al. Psychological preparation of goalkeepers in team sports. World of Science Journal, 2023. 15(3), 45–56.

2. Baxtiyorov M. Technical training of young handball goalkeepers. GRN Journal of Sports Science, (2025). 12(1), 22–34.

3. Antunez Medina, A., et al. Perceptual-motor training in handball goalkeepers. RPD Archives, 2022. 8(4), 11–20.

4. Faubert J., Sidebottom L. Perceptual-cognitive strategies in handball penalty defense. Brain Sciences, 2023. 15(3), 312.

5. Angulo, F., et al. Soft computing methods for goalkeeper performance analysis. Soft Computing, 2021. 25, 4567–4582.

INTEGRATSIYALASHGAN AXBOROT TA’LIM MUHITIDA TALABALARGA AXBOROTNI TEXNIK HIMOYALASHNI O‘RGATISHNING NAZARIY ASPEKTLARI

Sattorov Sardorbek Shovkat o‘g‘li,
Qarshi davlat texnika universteti katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Bugungi kunda integratsiyalashgan axborot ta’lim muhitida talabalarga axborotni texnik himoyalashni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron ta’lim resurslari va innovatsion o‘qitish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni real axborot xavfsizligi vazifalarida qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishning samarali metodik yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan ta’lim tizimida axborotni texnik himoya bo‘yicha kompetensiyani oshirishning amaliy tavsiyalarini taqdim etadi.

Kalit so‘z: Integratsiyalashgan ta’lim muhiti, Axborot ta’limi, Talabalar, Axborotni texnik himoya qilish, Axborot xavfsizligi, Ta’lim metodikasi, Raqamli ta’lim texnologiyalari, Amaliy ko‘nikmalar, Innovatsion o‘qitish usullari, Elektron ta’lim resurslari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЗАЩИТЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ В ИНТЕГРИРОВАННОЙ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Сатторов Сардорбек Шовкатович,
Старший преподаватель, Каркский государственный технический университет

Аннотация: В настоящее время статья посвящена вопросам совершенствования методики обучения студентов технической защите информatsii в интегрированной информatsionно-образовательной среде. В статье анализируются современные цифровые технологии, электронные образовательные ресурсы и инноватsionные методы обучения, направленные на обеспечение информatsionной безопасности. Также рассматриваются эффективные методические подходы к формированию практических навыков студентов и развитию их способности применять их в реальных задачах информatsionной безопасности. Результаты исследования предоставляют практические рекомендatsii по повышению компетентности в области технической защиты информatsii в интегрированной образовательной системе.

Ключевые слова: интегрированная образовательная среда, информatsionное образование, студенты, техническая защита информatsii, информatsionная безопасность, методика обучения, цифровые образовательные технологии, практические навыки, инноватsionные методы обучения, электронные образовательные ресурсы.

THEORETICAL ASPECTS OF TEACHING STUDENTS IN TECHNICAL INFORMATION PROTECTION IN AN INTEGRATED INFORMATION EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Sattorov Sardorbek Shovkatovich,
Senior Lecturer, Karshi State Technical University

Abstract: This article is devoted to the issues of improving the methodology of teaching students technical information protection in an integrated information-educational environment. The article analyzes modern digital technologies, electronic educational resources, and innovative teaching methods aimed at ensuring information security. Effective methodological approaches to the development of students’ practical skills and their ability to apply them in real information security tasks are also considered. The research results provide practical recommendations for enhancing competencies in technical information protection within the integrated educational system.

Keywords: integrated educational environment, information education, students, technical information protection, information security, teaching methodology, digital educational technologies, practical skills, innovative teaching methods, electronic educational resources.

Kirish. Zamonaviy jamiyat rivojining eng muhim yo‘nalishlaridan biri uning global informatizatsiyasidir. Informatizatsiya — bu axborotni yig‘ish, saqlash va tarqatish usullari va vositalarini keng ko‘lamda qo‘llashdir. U mavjud va yangi bilimlarni tizimlashtirishni va jamiyat tomonidan ularni joriy boshqaruv va keyingi takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida foydalanishni ta’minlaydi. Jamiyatning so‘nggi yutuqlari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bosqichga o‘tishda arzon va samarali vosita hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining tezkor rivojlanishi bilan bog‘liq holda, axborotni himoya qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Talabalar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishlari lozim. Shu maqsadda, integratsiyalashgan axborot ta’lim muhiti samarali vosita sifatida e’tiborga loyiqdir.

Integratsiyalashgan ta’lim muhiti turli raqamli ta’lim texnologiyalari, elektron resurslar va innovatsion o‘qitish usullarini o‘z ichiga oladi. Bu muhitda talabalar interaktiv mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlar, virtual simulyatsiyalar va real hayotiy vaziyatlar orqali axborotni texnik himoya qilishning asosiy printsiplari va metodlarini o‘rganadilar.

Informatizatsiya ta’lim sohasida alohida ahamiyatga ega, chunki ta’lim materiallariga tez va qulay kirish talabalar va o‘qituvchilarga vaqtni samarali ishlatish, materialni tezroq o‘zlashtirish va o‘qishga qo‘shimcha qiziqishni rag‘batlantirish imkonini beradi. Shuningdek, u talabalar o‘z joylashuvidan qat’i nazar, ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda axborot texnik xavfsizligida bajariladigan vazifalar tobora kengayib bormoqda, bu axborotni qayta ishlash tizimlari va vositalari rivojlanishining jadal sur’atlari, axborotni ajratib olishning yangi usullarining paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashga asosiy talablar axborot xavfsizligi kompetentligini shakllantirish, uning mohiyati va tuzilmasini belgilash zaruratini dolzarblashtiradi.

Zamonaviy muvaffaqiyatli — bu turli ta’lim texnologiyalaridan, jumladan elektron ta’lim, telekommunikatsiya va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib, sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etishga imkon beruvchi ta’lim markazidir. Turli uskuna, dasturiy ilovalar va Internetga ulanishning paydo bo‘lishi ta’lim jarayonida texnik yutuqlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Axborotning texnik xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash masalalari ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan, V.K. Jeleznyak, Yu.K. Menshakov, A.A. Torokin, A.A. Xorev va boshq. tomonidan o‘rganilgan. Biroq, ushbu mavzu bo‘yicha ishlarning aksariyati axborot xavfsizligining texnik asoslariga qaratilgan bo‘lib, mazkur sohadagi bo‘lajak mutaxassislar javob berishi kerak bo‘lgan talablar, shuningdek, ta’lim faoliyati davomida ularni tayyorlashning uslubiy yondashuvlari esa yetarlicha aks ettirilmagan.

Axborotning texnik xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash masalalari ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan, V.K. Jeleznyak, Yu.K. Menshakov, A.A. Torokin, A.A. Xorev va boshq. tomonidan o‘rganilgan. Biroq, ushbu mavzu bo‘yicha ishlarning aksariyati axborot xavfsizligining texnik asoslariga qaratilgan bo‘lib, mazkur sohadagi bo‘lajak mutaxassislar javob berishi kerak bo‘lgan talablar, shuningdek, ta’lim faoliyati davomida ularni tayyorlashning uslubiy yondashuvlari esa yetarlicha aks ettirilmagan.

Muammoning ayrim jihatlarining o‘rganilganligiga qaramay, psixologik-pedagogik adabiyotlarda axborot texnik xavfsizligi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligi mohiyati va tuzilishi bo‘yicha hali ham yagona fikr mavjud emas, harbiy OTM ning integratsiyalashgan axborot muhitida kasbiy kompetentlikni shakllantirish modeli ishlab chiqilmagan, mazkur jarayon samarali borishini ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar aniqlanmagan.

Ilmiy adabiyotlar va real pedagogik amaliyot tahlili bo‘lajak mutaxassislarni axborot texnik xavfsizligi bo‘yicha tayyorlash tizimida mavjud bir qator ziddiyatlarni aniqladi:

- axborot texnik xavfsizligi mutaxassislarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish zarurati va mazkur jarayonning nazariy va amaliy asoslari keng qamrovli tadqiqotlari, shuningdek, uni shakllantirishga qaratilgan kasbiy vaizfalarni hal qilish ssenariylari yo‘qligi o‘rtasida;
- Oliy ta’lim muassasalarida integratsiyalashgan axborot muhitining potensial imkoniyatlari va undan ta’lim jarayoni real amaliyotida yetarlicha foydalanilmasligi o‘rtasida;
- axborot texnik xavfsizligi mutaxassislarida kasbiy kompetentlik shakllanganligi darajasini baholash zarurati va uning shakllanganligi darajasini baholash uchun mezonlar va ko‘rsatkichlarning yo‘qligi o‘rtasida.
- Axborot jamiyatining eng muhim xususiyati — global internetda axborot resurslarining to‘liq mavjudligidir. Ammo, bu mavjudlikning boshqa tomoni — talabalarning axborot xavfsizligiga tahdid va xavf omillarining kengayishidir.

Ta’lim sifatini oshirish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi, chunki hayotning ko‘plab sohalari yildan-yilga ko‘proq bilim talab qiladigan va yuqori texnologik bo‘lib bormoqda, binobarin, mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan talablar ham shunga mos ravishda ortib bormoqda. Bu muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, ta’limning maqsadlari va natijalarini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash va ta’lim jarayonini tashkil qilish usullari va texnologiyalarini optimallashtirish zarur.

Tadqiqotimizda asosiy toifalardan biri bo‘lib “shakllantirish” toifasi hisoblanadi. Mazkur umumilmiy tushuncha “ma’lum bir shakl berish” degan ma’noni anglatadi [1].

Pedagogikada “shakllanish” (lot “formo” - shakllantiraman) “insonning shaxs sifatida vujudga kelishi, ta’lim va tarbiya natijasida yuzaga keladi va ma’lum bir yakunlanish belgilariga ega bo‘lishi” deb tushuniladi.

A.M. Novikov shakllantirish jarayonida uyushgan pedagogik ta’sir zarurligini ta’kidlaydi: “Shakllanish – pedagogik ma’noda: tahsil oluvchiga unda ma’lum shaxsiy fazilatlarni – dunyoqarash, bilim, ko‘nikma, e’tibor, qadriyat yo‘nalishlari va boshq. rivojlantirish maqsadida pedagogik ta’sir ko‘rsatish jarayoni” [1].

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidaги PF–6108-son Farmon.

2. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). **“Ta’lim to‘g‘risida”**gi Qonun (yangi tahrir).

3. Rahimov M.U. (2021). Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish. O‘zbekistonda pedagogik innovatsiyalar, 1(1), 33–38.

4. Slastenin V.A., Kuzmina N.V. (2004). Pedagogika i pedagogicheskaya psixologiya. Moskva: Akademiya.

RAQAMLI MUHITDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TADQIQOTCHILIKKA DOIR FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING INTERFAOL USULLARI

Xo‘jjiyev Ma’murjon Yangiboyevich,
Buxoro davlat texnika unversiteti (DSc) mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli muhitda bo‘lajak muhandislarning tadqiqotchilikka doir fikrlashini shakllantirishning interfaol usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli pedagogik vositalar, loyihaviy o‘qitish, hamkorlikdagi o‘rganish, virtual tadqiqot laboratoriyalari, raqamli portfellik baholash, invertorlik faolligi hamda tanqidiy fikrlash kabi zamonaviy yondashuvlar tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vositalar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida muhandislik ta’limida raqamli-integrativ yondashuv asosida tadqiqotchilik fikrlashini shakllantirishning pedagogik modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli muhit, tadqiqotchilik fikrlash, interfaol usullar, muhandislik ta’limi, virtual laboratoriya, loyihaviy o‘qitish, hamkorlikdagi o‘rganish, raqamli portfellik baholash, tanqidiy fikrlash, invertorlik, pedagogik model, raqamli-integrativ yondashuv.

Аннотация: В статье проводится научный анализ интерактивных методов формирования исследовательского мышления будущих инженеров в цифровой среде. Современные подходы - такие как цифровые педагогические инструменты, проектное обучение, коллаборативное обучение, виртуальные исследовательские лаборатории, цифровое портфолио, инновационная активность и критическое мышление - рассматриваются как эффективные средства развития исследовательской компетентности. В результате исследования предложена педагогическая модель формирования исследовательского мышления на основе цифрово-интегративного подхода в инженерном образовании.

Ключевые слова: цифровая среда, исследовательское мышление, интерактивные методы, инженерное образование, виртуальная лаборатория, проектное обучение, коллаборативное обучение, цифровое портфолио, критическое мышление, инновационная активность, педагогическая модель, цифрово-интегративный подход.

Abstract: The article provides a scientific analysis of interactive methods for developing research-oriented thinking among future engineers in a digital environment. Contemporary approaches—such as digital pedagogical tools, project-based learning, collaborative learning, virtual research laboratories, e-portfolios, innovative activity, and critical thinking—are examined as effective means for fostering research competencies. The study proposes a pedagogical model for cultivating research-oriented thinking in engineering education based on a digital-integrative approach.

Keywords: digital environment, research-oriented thinking, interactive methods, engineering education, virtual laboratory, project-based learning, collaborative learning, e-portfolio assessment, critical thinking, innovativeness, pedagogical model, digital-integrative approach.

Kirish

Zamonaviy muhandislik faqatgina texnik bilimlar, standartlar yoki kasbiy ko‘nikmalar tizimiga cheklangan emas - u ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik hamda texnologik

jihatdan murakkab muammolarni ilmiy asoslangan, innovatsion va barqaror yechimlar orqali hal qilish qobiliyatini talab qiladi. Ayniqsa, sanoatda raqamlashtirish, sun’iy intellekt, “aqlli” tizimlar va barqaror rivojlanish kabi global tendensiyalar muhandislik faoliyatining mohiyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu sababli, zamonaviy muhandis - faqat amaliyotchi emas, balki tadqiqotchidir ham. U - muammoni tahlil qiluvchi, ilmiy savol qo‘yuvchi, eksperimental yondashuvlarni ishlab chiquvchi va natijalarni tanqidiy baholay oladigan mutaxassisdur. Shu kontekstda tadqiqotchilikka doir fikrlash (research-oriented thinking) - bo‘lajak muhandisning asosiy intellektual va professional kompetensiyasiga aylanib ketmoqda. Bu fikrlash turi faqat ilmiy usullarni bilishni emas, balki ularni amaliy muhandislik vaziyatlariga moslab qo‘llash, gipotezalar ishlab chiqish, ma’lumotlarni tizimli yig‘ish va tahlil qilish, xulosalarni asoslash hamda yangi bilim yaratish jarayoniga faol qatnashish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda raqamli obrazovatel muhit tadqiqotchilik fikrlashni shakllantirish uchun noyob pedagogik maydon sifatida rivojlanmoqda. Raqamli platformalar, simulyatsiyalar, interfaol dasturlar, virtual hamda kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) vositalari, bulutli laboratoriyalar, hamkorlikdagi loyihaviy muhitlar (masalan, GitHub, Miro, Padlet) talabalarga real tadqiqot jarayonlarini modellashtirish, eksperiment o‘tkazish, xalqaro standartlarga mos ma’lumotlarni tahlil qilish hamda o‘z natijalarini digital portfellik formatda namoyish etish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli muhit interfaollik, shaxsiylashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish hamda qayta fikrlash (refleksiya) kabi o‘qitishning zamonaviy tamoyillarini amalga oshirish imkonini yaratadi.

Biroq, texnologik vositalarni faqat joriy qilish tadqiqotchilik fikrlashni avtomatik rivojlantirmaydi. Muhim bo‘lgani - ushbu vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq, tizimli va interfaol usullar orqali integratsiyalashdir. Masalan, oddiy video dars yoki elektron darslik emas, balki talaba tomonidan boshqariladigan virtual tadqiqot loyihasi, guruhdagi hamkorlikdagi ma’lumotlar tahlili yoki raqamli portfellik orqali o‘z-o‘zini baholash kabi faol usullar tadqiqotchilik fikrlashni rivojlantirishda samaraliroq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli obrazovatel muhitda muhandislik talabalari uchun tadqiqotchilikka doir fikrlashni shakllantirishning interfaol usullarini ilmiy jihatdan asoslab, ularni amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqish - nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki milliy innovatsion tizim va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shish jihatidan ham dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir. Ushbu maqola shu muammoni yechishga qaratilgan bo‘lib, nazariy tahlil, xalqaro tajriba hamda o‘tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalariga tayanadi.

Adabiyotlarning tahlili:

So‘nggi o‘n yillikda xalqaro ta’lim sohasida tadqiqotchilikka doir fikrlash (research-oriented thinking) tushunchasi nafaqat oliy ta’limda, balki muhandislik, tabiiy fanlar hamda ijtimoiy fanlar sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashning markaziy komponentiga aylangan. Xususan, raqamli transformatsiya ta’sirida “research-based learning” - ya’ni tadqiqotga asoslangan o‘qitish yondashuvi butun dunyo bo‘ylab keng joriy etilmoqda. UNESCO [6] tadqiqotchilik fikrlashni rivojlantirishni barqaror rivojlanish hamda raqamli barqarorlik (digital sustainability) kontekstida muhim ta’limiy strategiya sifatida ta’kidlab, xalqaro hamkorlikdagi raqamli ta’lim ekotizimlarini rivojlantirishga chaqiradi. Shu kabi, OECD [7] “Education 2030” doirasida raqamli muhitda tizimli, tanqidiy va tadqiqotchilik asosidagi fikrlashni kelajakdagi kompetensiyalarning asosi deb e’lon qilgan. Ushbu hujjatlarda alohida ta’kidlanganidek, zamonaviy mutaxassis - faqat bilim egasi emas, balki yangi bilim yaratuvchi ham bo‘lishi kerak.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda RBL yondashuvini amalga oshirishning samarali vositalari sifatida loyihaviy o‘qitish (project-based learning), hamkorlikdagi o‘rganish (collaborative inquiry), problema asosidagi o‘qitish (problem-based learning) hamda

virtual tadqiqot laboratoriyalari kabi interfaol usullar keng qamrab olingan. Masalan, Hmelo-Silver [8] tadqiqotida loyihaviy o‘qitish orqali talabalarning murakkab muammolarni ilmiy usullar bilan hal qilish, gipotezalar ishlab chiqish hamda natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ilmiy asoslangan. Shuningdek, Willison va O’Regan [9] tomonidan ishlab chiqilgan “Research Skill Development (RSD) Framework” tadqiqotchilik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich - ya’ni qo‘llab-quvvatlangan (emulating) dan boshlab, mustaqil tadqiqotchilik (innovating) darajasigacha rivojlantirish modelini taklif qiladi. Bu model ayniqsa muhandislik talabalari uchun qimmatli, chunki ular real loyihalarda qatnashayotganda ilmiy fikrlash va amaliyotni integratsiyalash qobiliyatini talab qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhit faqat bilim yetkazish vositasi emas, balki tadqiqotchilik faoliyatini modellashtirish, eksperimental o‘ylashni rag‘batlantirish hamda xalqaro standartlarga mos ilmiy madaniyatni shakllantirish maydonidir. Bunga PhET, Labster, MATLAB Online, Tinkercad kabi simsiz laboratoriyalar, GitHub kabi ilmiy hamkorlik platformalari, shuningdek Miro, Padlet kabi vizual hamkorlik vositalari hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham ta’lim sohasida raqamlashtirish jarayoni keng joriy etilayotgan bo‘lib, tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish milliy ta’lim strategiyalarida alohida e’tiborga ega. Bu sohada Xo‘jjiyev M.Y. yetakchi o‘zbek olimlaridan bo‘lib, u raqamli-integrativ yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarning intellektual tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish borasida chuqur nazariy hamda amaliy ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, [1] asarida u raqamli muhitda tadqiqotchilik faolligini rag‘batlantirish uchun kompleks pedagogik modelni taklif qiladi, bu model interfaol usullar, raqamli resurslar va baholash mexanizmlarini birlashtiradi. [2] ishida esa raqamli resurslar asosida tizimli fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan, bu esa tadqiqotchilik fikrlashning asosiy tarkibiy qismidir. [3] va [4] ilmiy ishlarda muallif virtual laboratoriyalar, interfaol onlayn platformalar, hamkorlikdagi loyihalar hamda raqamli portfellik baholash kabi vositalarning tadqiqotchilik fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyatini amaliy tajriba asosida ko‘rsatadi. Nihoyat, [5] asarida raqamli-integrativ yondashuv kontekstida tadqiqotchilik fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari - o‘qituvchining roli, ta’lim dasturlarining mosligi, talabalarning raqamli madaniyati hamda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimi - to‘liq bayon etilgan.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli obrazovatel muhitda interfaol usullarni tadqiqotchilik fikrlashni shakllantirishga tizimli va integratsiyalashgan holda qo‘llash hali yetarlicha o‘rganilmagan. Ayniqsa quyidagi bo‘shliqlar ajralib turadi:

Xalqaro standartlar (masalan, IEEE, UNESCO, OECD) bilan milliy ta’lim dasturlarini metodologik jihatdan moslashtirish yetarlicha amalga oshirilmagan;

Tadqiqotchilik fikrlashni o‘lchash va baholashning standartlashtirilgan vositalari kam rivojlangan;

O‘qituvchilarning raqamli tadqiqotchilik pedagogikasiga tayyorgarligi yetarli darajada o‘rganilmagan;

Interfaol usullarning samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlovchi eksperimental tadqiqotlar hajmi cheklangan.

Shu jihatdan, raqamli muhitda muhandislik talabalari uchun tadqiqotchilik fikrlashni shakllantirishning interfaol usullarini xalqaro tajriba, milliy sharoit hamda zamonaviy pedagogik nazariyalarni integratsiyalashgan holda ilmiy jihatdan ishlab chiqish - dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, nazariy tahlil hamda o‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalariga

asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tizimli tahlil - tadqiqotchilik fikrlash tushunchasini raqamli ta’lim kontekstida aniqlash;

Solishtirma tahlil - xalqaro va milliy yondashuvlarni taqqoslash;

Kontseptual tahlil - pedagogik model yaratish.

Amaliy metodlar:

Pedagogik eksperiment (2024–2025 yillar);

Namuna: Bukhara davlat texnika universiteti “Metrologiya va standartlashtirish” kafedrasining 3-kurs talabalari (n = 60);

Dizayn: boshlang‘ich (pre-test) va yakuniy (post-test) baholash;

Intervensiya: 12 hafta davomida quyidagi interfaol usullar qo‘llangan:

Virtual tadqiqot loyihalari (Miro, Padlet);

Simsiz laboratoriyalar (PhET, Labster);

GitHub orqali ilmiy hamkorlik;

Raqamli portfellik baholash (e-portfolio);

Refleksiya bloglari va raqamli kundaliklar.

Tahlil va natijalar:

Eksperiment natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

Boshlang‘ich bahoda tadqiqotchilik fikrlash o‘rtacha ko‘rsatkichi - 2.3 (5 ballik tizimda);

Yakuniy bahoda - 4.2 ($p < 0.01$);

Virtual laboratoriyalar foydalanuvchilarda eksperimental o‘ylashni 40% ga oshirgan;

GitHub orqali hamkorlik - ilmiy hamkorlik ko‘nikmalarini 45% oshirgan;

E-portfellik baholash - o‘z-o‘zini baholash va refleksiv fikrlashni rag‘batlantirgan;

92% talaba interfaol raqamli usullar orqali tadqiqotga qiziqishini mustahkamlagan deb ta’kidladi.

Shu bilan birga, 18% talaba dastlabki bosqichda raqamli vositalarga moslashishda qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lgan, bu esa dastlabki malaka darajasini hisobga oluvchi differentsiatsiyalashgan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar: Raqamli muhit interfaol usullar orqali bo‘lajak muhandislarning tadqiqotchilik fikrlashini samarali shakllantirish imkonini beradi. Biroq, texnologiyalarni faqat joriy qilish yetarli emas - ularni pedagogik mazmun, dasturiy ta’minot hamda xalqaro standartlar bilan integratsiyalash kerak.

Takliflar:

Raqamli-integrativ yondashuv asosida tadqiqotchilik fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha milliy pedagogik model ishlab chiqish;

Virtual laboratoriyalar, loyihaviy o‘qitish hamda e-portfellik baholashni muhandislik ta’lim dasturlariga integratsiya qilish;

Talabalarga raqamli vositalar bilan ishlash bo‘yicha dastlabki trening darslarini taqdim etish;

O‘qituvchilarni raqamli tadqiqotchilik pedagogikasi bo‘yicha malakasini oshirish;

Baholash tizimini xalqaro standartlar (UNESCO, IEEE, OECD) asosida yangilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] Xo‘jjiyev, M. Y. (2022). Raqamli ta’lim muhitida tadqiqotchilik faolligini rag‘batlantirishning pedagogik modellari. Pedagogika va psixologiya, 3, 45–52.

[2] Xo‘jjiyev, M. Y. (2021). Raqamli resurslar asosida bo‘lajak muhandislarning intellektual tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish. Ilmiy axborotnoma, 4, 67–74.

[3] Xo‘jjiyev, M. Y. (2023). Raqamli-integrativ yondashuv kontekstida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari. Universitet axborotnomasi, 1, 33–40.

[4] Xo‘jjiyev, M. Y. (2022). Virtual laboratoriyalarning muhandislik ta’limidagi o‘quv samaradorligi. Innovatsion ta’lim, 2, 56–63.

[5] Xo‘jjiyev, M. Y. (2023). Raqamli muhitda interfaol usullar orqali tadqiqotchilik fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Ta’limning zamonaviy muammolari, 4, 28–36.

[6] UNESCO. (2022). Guidelines for digital learning environments in higher education. Paris: Author.

[7] Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). The future of education and skills: Education 2030. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264292118-en

[8] Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235–266. https://doi.org/10.1023/B:EDPR.0000034022.16470.f3

[9] Willison, J., & O’Regan, K. (2007). Commonly known, commonly not known, commonly misunderstood: Research skill development in higher education. Higher Education Research & Development, 26(4), 393–409. https://doi.org/10.1080/07294360701658863

[10] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2023-yil 17-son, 341-modda). O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xodiyeva Zulfiya O’ktamovna,
Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti dotsenti, Phd
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti
Muxammedova Malika Avazovna

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari hamda pedagogik yondashuvlari yoritilgan. Nutq madaniyati bolaning muloqotga kirishish qobiliyati, fikrni to‘g‘ri va ravon ifoda etish, shuningdek, madaniyatli muomala yuritish asoslarini o‘zlashtirishida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish usullari, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va axborot vositalarining roli keng tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, boshlang‘ich ta’lim, og‘zaki nutq, yozma nutq, muloqot, o‘yin texnologiyalari, metodika.

АННОТАЦИЯ. В данной статье раскрываются основные принципы формирования речевой культуры у учеников начальных классов, а также методические подходы и современные технологии, способствующие эффективному развитию речевой деятельности. В процессе формирования речевой культуры важное место занимает развитие устной и письменной речи, навыков общения и коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: речевая культура, начальные классы, устная речь, письменная речь, культура общения, коммуникативная компетенция, образовательные технологии, игровые методы, детская речь

ANNOTATION. This article discusses the fundamental principles of developing speech culture among primary school students, with a focus on methodological approaches and the effective use of modern technologies. Special attention is given to the development of both oral and written speech, communicative skills, and the formation of proper speech etiquette.

Keywords: speech culture, primary school, oral speech, written speech, communication skills, communicative competence, educational technologies, game-based methods, children’s speech.

Ta’lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri bu — boshlang‘ich ta’lim davridir. Aynan shu bosqichda o‘quvchining shaxsiyati, tafakkuri, til madaniyati, ijtimoiy faolligi va axloqiy qarashlari shakllanadi. Boshlang‘ich ta’limda bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish muhim didaktik va pedagogik vazifa bo‘lib, u nafaqat til darslari, balki barcha fanlar orqali amalga oshiriladi. Chunki nutq madaniyati – bu bolada muloqot qilish, fikr bildirish, tushunish va o‘z fikrini odob doirasida bayon etish qobiliyatidir.

Nutq madaniyati tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, u og‘zaki va yozma nutqning grammatik, fonetik, uslubiy, etik va estetik me’yorlarga muvofiq shakllanishini anglatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ushbu jihatlarni shakllantirish uchun pedagogik faoliyatda maxsus metodik yondashuv va samarali vositalar talab etiladi. Jumladan, o‘yin texnologiyalari, rolli mashg‘ulotlar, guruhli topshiriqlar, interfaol metodlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bu borada muhim rol o‘ynaydi. Bola nutqining rivoji nafaqat til darslariga, balki oiladagi tarbiya, muhit, o‘qituvchi bilan muloqot va tengdoshlar bilan bo‘ladigan ijtimoiy aloqalarga ham chambarchas bog‘liq. Shu sababli, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki muloqot madaniyatining namunasi

sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchining nutqi orqali uning tafakkuri, madaniyati, axloqiy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich bosqichdayoq to‘g‘ri nutq, mazmunli va mantiqli ifoda, madaniy muomala kabi ko‘nikmalarni shakllantirish kelajakda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojiga bevosita ta’sir etadi. Shuningdek, davlat ta’lim standartlarida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa nutq madaniyatini rivojlantirishni zamonaviy ta’limning ajralmas tarkibiy qismiga aylantiradi.

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishga oid nazariy va amaliy jihatlar, o‘qituvchi faoliyatida qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, shuningdek, innovatsion texnologiyalar orqali bu jarayonni samarali tashkil etish yo‘llari yoritiladi.

Nutq madaniyati — bu insonning o‘z fikrini grammatik, fonetik, stilistik va axloqiy me’yorlarga mos ravishda anig‘, ravon, lo‘nda va madaniyatli tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir. Bu atama shunchaki grammatik to‘g‘rilik bilan cheklanib qolmaydi, balki nutqning mazmuni, ohangi, talaffuzi, uslubi va muloqotdagi odob me’yorlari bilan uyg‘unlashgan bo‘lishini nazarda tutadi.

Nutq madaniyatini quyidagi yo‘nalishlar orqali kengroq tushunish mumkin:

1. Mazmun – fikrning aniqligi va mantiqliligi. Nutq mazmunli bo‘lishi uchun fikr izchil, asosli va mavzuga doir bo‘lishi kerak. O‘quvchining aytgan gapi eshituvchiga ochiq va tushunarli bo‘lishi, muhim g‘oyani aniq etkazishi lozim.

2. Grammatik to‘g‘rilik. Nutqda so‘zlar to‘g‘ri qo‘llanishi, gaplar grammatik qoidalarga muvofiq tuzilishi kerak. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bu ko‘nikma asosiy til o‘rganish bosqichi sifatida shakllanadi.

3. Talaffuz va ohang. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va ohangni vaziyatga mos tanlash madaniyatli nutqning muhim qismlaridan biridir. Bola so‘zlarni buzmay talaffuz qilsa, bu uning eshitish madaniyati va fonetik bilim darajasini bildiradi.

4. Uslubiy moslik. Nutq vaziyatga mos uslubda bo‘lishi lozim. Masalan, rasmiy, norasmiy, ilmiy, badiiy yoki og‘zaki uslublarning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi. Bolaning har qanday vaziyatda qanday gapirish kerakligini bilishi — bu uslubiy savodxonlikdir.

5. Muomala etikasiga rioya qilish. Tinglovchiga hurmat ko‘rsatish, begona so‘zlar va nomaqbul ifodalardan saqlanish, suhbatdosh fikriga quloq tutish va javobni odob bilan bayon qilish — nutq madaniyatining axloqiy poydevoridir.

Boshlang‘ich sinf davrida bolalarning nutqiy faoliyati hali shakllanish bosqichida bo‘ladi. Ular so‘z boyligini kengaytirish, gap tuzish, to‘g‘ri talaffuz qilish, fikrni izchil ifoda etish kabi ko‘nikmalarni asta-sekin egallab boradilar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, tilga bo‘lgan munosabati va uslubiy mahoratiga bevosita bog‘liq.

Misol uchun, dars jarayonida o‘qituvchining o‘zi madaniyatli, aniqlik va mazmunli nutq namunasini ko‘rsata olsa, o‘quvchilar ham unga ergashadi. O‘qituvchi:

- har bir yangi so‘zni to‘g‘ri talaffuz bilan tushuntirsa,
- bolalarga o‘z fikrlarini bayon qilishga imkon bersa,
- o‘yin, suhbat, hikoya, dialog kabi shakllarda ishlasa,
- nutqdagi xatolarni muloyimlik bilan to‘g‘rilab borsa, bu bolalarning nutq madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar

	Munozara, savol-javob, guruhlarda ishlash orqali faol fikrlashni shakllantirish.
O‘yin texnologiyalari	Rolli o‘yinlar, so‘z boyligini oshiruvchi o‘yinlar orqali nutq faoliyatini faollashtirish.
	Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, fonetik mashqlar orqali aniq nutqga o‘rgatish.
Ko‘rgazmali vositalar	Rasmlar, kartochkalar, animatsiyalar yordamida so‘z boyligini oshirish.

Boshlang‘ich ta’lim davri — bu bolaning nutqiy, aqliy va ijtimoiy kompetensiyalari shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Aynan shu davrda o‘quvchi so‘z bilan fikr bildiradi, muloqot qiladi, savol beradi va javob oladi. Bu jarayonning markazida esa o‘qituvchi turadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki nutqiy faoliyatni boshqaruvchi, modellashtiruvchi va yo‘naltiruvchi asosiy shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nutq madaniyatini rivojlantirishdagi vazifalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rinadi:

1. Nutqiy namuna ko‘rsatuvchi shaxs. O‘quvchi uchun o‘qituvchi — bu birinchi til namunasidir. U qanday gapirsa, o‘quvchilar shunday gapirishga intiladi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z nutqini:
   - grammatik jihatdan to‘g‘ri,
   - aniq va ravon,
   - madaniyatli,
   - ohangdor va talaffuzi to‘g‘ri tarzda qurishi zarur. O‘qituvchining har bir gapida, savolida, tushuntirishida nutqiy madaniyat aks etishi kerak.

2. Faollashtiruvchi va rag‘batlantiruvchi. O‘quvchining nutqini rivojlantirishda eng muhim jihatlardan biri — uni faol gapirishga, fikrlashga, mulohaza yuritishga undashdir. O‘qituvchi har bir bolaga:
   - fikrini erkin ifoda qilish imkonini berishi,
   - noto‘g‘ri gapirganda muloyimlik bilan tuzatishi,
   - to‘g‘ri javoblar uchun rag‘bat (maqtov, baho, ishora) berishi kerak.

Bu esa bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, nutqiy faolligini oshiradi.

3. Metodik tashkilotchi. Nutq madaniyatini rivojlantirish rejasiz bo‘lmaydi. O‘qituvchi har bir darsda:
   - yangi so‘zlar bilan ishlash,
   - matn tuzish va qayta hikoyalash,
   - savol-javob mashqlari,
   - rolli o‘yinlar,
   - dialog tuzish kabi usullarni metodik asosda yo‘lga qo‘yishi lozim. Bu faoliyatlar

turli yoshdagi bolalar psixologiyasiga mos bo‘lishi zarur.

4. Ijtimoiy-psixologik rahbar. Bola nutqi ko‘pincha psixologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi shuni inobatga olib:

- tortinchoq bolani muloyimlik bilan faol suhbatga jalb qilishi,
- haddan tashqari faol bolani muloqot odobiga o‘rgatishi,
- sinfda sog‘lom nutqiy muhit yaratishi zarur. Chunki ijobiy ijtimoiy muhit nutq faolligining eng muhim omillaridan biridir.

Bugungi ta’lim sohasida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki kommunikator, innovator, texnolog, muhit yaratuvchi va shaxs tarbiyachisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. U quyidagilarni bajarishi zarur:

- raqamli vositalar (taqdimot, audio-matnlar, interaktiv doska) orqali nutqni boyitish,
- multimodal darslar orqali o‘quvchining ko‘rish, eshitish va ifodalash kompetensiyalarini uyg‘unlashtirish,
- individual yondashuv orqali har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasini aniqlab, mos uslubda ish yuritish.

O‘qituvchining nutqi — bu uning pedagogik madaniyatining ko‘zgusidir. Agar o‘qituvchining nutqi:

- muloyim,
- lo‘nda,
- to‘g‘ri urg‘u va ohangga ega,
- bolani tinglay oladigan bo‘lsa, u holda bolalar undan madaniyatli muloqot, to‘g‘ri talaffuz va nutqiy intizomni o‘rganadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish yo‘lida ham samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchilar ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va raqamli resurslardan foydalanish orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini faol shakllantirmoqda.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda foydalaniladigan texnologiyalar quyidagi afzalliklarni beradi:

Ko‘rgazmalilik – audiovizual vositalar orqali bolalarning e’tibori jalb qilinadi, eshitish va ko‘rish orqali nutqiy sezuvchanlik ortadi;

Faollik va ishtirokchanlik – interaktiv metodlar orqali o‘quvchi darsda faol qatnashadi, bu esa nutqiy faollikni oshiradi;

Individual yondashuv – texnologiyalar har bir bola uchun alohida topshiriqlar, tezlik, matn yoki mashqlarni tanlash imkonini beradi;

Qiziqarli va motivatsion – raqamli o‘yinlar, videodarslar va animatsiyalar orqali o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortadi;

Tinglab tushunish va takrorlash imkoniyati – video yoki audio matnlar orqali nutqni eshitib, tahlil qilish va qayta ishlash imkoniyati yaratiladi.

Quyida boshlang‘ich sinfda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali texnologiyalarning ayrim turlari keltirilgan:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

Audio matnlar: to‘g‘ri talaffuz, urg‘u va ohangni shakllantirish uchun foydalaniladi;

Video darslar: og‘zaki nutq namunalarini vizual ko‘rinishda taqdim etadi;

Interaktiv taqdimotlar: mavzuni tushunishga va faol muloqotga rag‘batlantiradi;

Multimedia lug‘atlar: yangi so‘zlar talaffuzi va ma’nosini vizual va eshitish orqali o‘rgatadi.

2. O‘yinli texnologiyalar

So‘z topish o‘yinlari, “so‘z zanjiri”, “kim tez gapiradi?”, “rolga kirish” kabi faoliyatlar bolalarda so‘z boyligi va erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

3. Kommunikativ texnologiyalar

Dialoglar, rolli o‘yinlar, intervyu mashqlari, “fikr bildir” yoki “bahs yurit” kabi usullar bolani erkin muloqot qilishga undaydi.

4. Konstruktiv texnologiyalar

“Matn tuzish”, “hikoya yozish”, “gapni davom ettir”, “sahnalashtirish” kabi usullar orqali yozma nutq, mantiqiy tafakkur va ifoda madaniyati rivojlanadi.

Hozirgi kunda bir qator raqamli platformalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nutq rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar, interaktiv matnlar, savol-javob testlari va bolalar uchun mo‘ljallangan audio/video materiallarni taklif etmoqda. Masalan:

LearningApps, Kahoot, Quizlet – so‘z boyligini oshirishda;

StoryJumper, Book Creator – yozma nutq va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda;

YouTube Kids, British Council Kids – eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini mustahkamlashda qo‘llaniladi.

Texnologiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining raqamli kompetentligiga bog‘liq. O‘qituvchi:

- texnologiyalarni maqsadga muvofiq tanlashi,
- dars mazmuniga moslashtirishi,
- o‘quvchi yosh xususiyatini inobatga olgan holda ishlatishi,
- texnologiyalarning tarbiyaviy jihatiga e’tibor qaratishi zarur.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar — bu samarali vosita va zaruriy pedagogik resursdir. Ular bolalarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, mustaqil fikr bildirishga rag‘batlantiradi. Eng muhimi, texnologiyalar orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual rivojlanish sur’atiga mos yondashuvni amalga oshira oladi. Shunday ekan, texnologiyalarni nutq madaniyatini rivojlantirishda to‘g‘ri, maqsadli va tizimli qo‘llash bugungi pedagogning ustuvor vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish — bu ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratishdir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil qilish uchun quyidagilar zarur:

- O‘yin va interfaol metodlarga tayangan darslarni tashkil etish;
- O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish;
- O‘qituvchining nutqiy namunadorligini ta’minlash;
- Raqamli va ko‘rgazmali vositalarni faol qo‘llash;
- Til madaniyati va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish.

Nutq madaniyati bolaning hayotida faqat o‘qish bilan cheklanmaydi — bu uning butun ijtimoiy hayotidagi muloqot va o‘z ifodasining poydevoridir. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda bu masalaga alohida e’tibor qaratish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova, Z. (2021). Nutq madaniyati va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari. – Toshkent: Ilm Ziyo.

2. Egamberdiyeva, S. (2020). Boshlang‘ich ta’limda nutqni rivojlantirish texnologiyalari. // Ta’limda innovatsiyalar, №3, B. 22–27.

3. Sharipova, N. (2019). Nutq madaniyatining psixopedagogik asoslari. // Pedagogika va psixologiya, №2.

4. Vygotsky, L.S. (1986). Thought and Language. – Cambridge: MIT Press.

5. Nurullayeva, G. (2023). O‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirish metodikasi. // Boshlang‘ich ta’lim, №1, B. 30–35.

KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIM VA AMALIYOTNING UYG'UNLASHUVI

Xudoyberdiyev Erkin Umedovich,
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda oliy ta'lim va amaliyotning uyg'unlashuvining ahamiyati, vazifalari va muhim metodlari tahlil qilinib, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar, metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning zaruriyati ko'rsatilgan, shuningdek, talabalarning mehnat bozoriga tayyorlanishida o'quv dasturlari va amaliyotning bir-biriga moslashuvi, amaliyot va ta'lim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiyalar, oliy ta'lim, amaliyot, innovatsion pedagogika, ta'lim metodlari, mehnat bozoriga tayyorgarlik, o'quv dasturlari, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi, pedagogik metodlar.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАЦИЮ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

Худойбердиев Эркин Умедович,
независимый исследователь Бухарского государственного технического университета

Аннотация. В данной статье анализируются важность, задачи и ключевые методы согласования высшего образования и практической подготовки в процессе формирования профессиональных компетенций. Также рассматривается необходимость применения инновационных педагогических подходов, методов и современных технологий в процессе формирования профессиональных компетенций. В статье подчеркивается важность интеграции учебных программ и практической подготовки с учетом требований рынка труда, а также укрепления взаимосвязи между обучением и практикой.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, высшее образование, практика, инновационная педагогика, методы обучения, подготовка к рынку труда, учебные программы, современные технологии, интеграция обучения и практики, педагогические методы.

FORMING PROFESSIONAL COMPETENCIES THROUGH THE INTEGRATION OF HIGHER EDUCATION AND PRACTICAL TRAINING

Erkin Umedovich Khudoyberdiev,
Independent Researcher at Bukhara State Technical University

Abstract. This article analyzes the importance, objectives, and key methods of the integration of higher education and practical training in the development of professional competencies. It highlights the necessity of applying innovative pedagogical approaches, methods, and modern technologies in the process of developing professional competencies. The article emphasizes the importance of aligning educational programs and practical training with the labor market demands, as well as strengthening the interconnection between education and practice.

Keywords: professional competencies, higher education, practical training,

innovative pedagogy, teaching methods, labor market preparation, curricula, modern technologies, integration of education and practice, pedagogical methods.

Kirish. Oliy ta’lim tizimi va mehnat bozorining o‘zaro bog‘liqligi kun sayin kuchayib bormoqda. Shunday qilib, ta’limning asosiy vazifasi nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki talabalarni kasbiy kompetensiyalar bilan ta’minlashdir. Bugungi kunda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni, xususan, oliy ta’limda amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim tizimi va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan mutaxassislar tayyorlashning eng muhim shakli hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiya - bu faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy qobiliyatlar va ishga tayyorlikni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Bu maqolada oliy ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlashuvning ahamiyati, hamda amaliyot va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishning zamonaviy metodlari ko‘rib chiqiladi.

Kasbiy kompetensiya – bu ma’lum bir soha yoki kasbda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir. Ta’lim tizimi bu kompetensiyalarni shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi, ammo uni faqat nazariy bilimlar orqali shakllantirish yetarli emas. Bugungi kunda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni mehnat bozorining talablariga moslashtirish zarurati mavjud [1].

Metodlar. Kasbiy kompetensiya o‘zida quyidagi asosiy komponentlarni mujassam etadi:

- bilimlar – o‘z kasbiga oid ilmiy-nazariy bilimlar, texnik bilimlar, metodologiyalar va qonunlar;
- ko‘nikmalar – talabalarning o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyati, texnologiyalarni ishlatish, muammolarni hal qilish;
- malakalar – kasbiy faoliyatni bajarishda kerak bo‘lgan tajriba va yuqori samaradorlikka ega bo‘lish qobiliyatlari.

Oliy ta’lim tizimi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy platforma hisoblanadi, chunki oliy ta’lim talabalarni ilmiy va amaliy jihatdan tayyorlash, ularni mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirishlari uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi [5].

Oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri talabalarni kasbiy kompetensiyalar bilan ta’minlashdir. Bunda ta’limning amaliyoti bilan uzviy bog‘liqligi zarur. Amaliyot – bu talabaning o‘qish jarayonida o‘rgangan bilimlarini real ish sharoitlarida sinovdan o‘tkazish va ularni yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Oliy ta’limning samaradorligini oshirish uchun amaliyot bilan yaqindan ishlash zarur. Amaliyotlar talabalarni mehnat bozorining talablari bilan tanishtiradi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradi. Shuningdek, amaliyot orqali talabalar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazib, real ish sharoitlarida qanday muammolar yuzaga kelishini va ularga qanday yechimlar topish mumkinligini o‘rganadilar.

Oliy ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada kuchaytirish uchun o‘qituvchilar va ish beruvchilar o‘rtasida muntazam hamkorlikni tashkil etish zarur. Bu hamkorlik orqali o‘quv dasturlari va ta’lim metodlari ish bozorining talablariga moslashtirilishi mumkin [3].

Zamonaviy ta’limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar va metodlar asosiy rol o‘ynaydi. Talabalarning nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishini, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Innovatsion metodlar orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va problemalarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi [8]. Quyida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan

metodlardan ba’zilari keltirilgan:

Simulyatsiya va virtual amaliyotlar talabalarga real hayotdagi ish sharoitlarini yaratish imkoniyatini beradi. Bu metod talabalarga xavfsiz muhitda, real ish sharoitlariga yaqin sharoitda o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Simulyatsiya va virtual amaliyotlar quyidagi afzalliklarga ega:

- real sharoitlarda tajriba olish, ya’ni talabalar amaliyotlarni kompyuter yoki boshqa simulyatorlar yordamida bajaradilar, bu esa ularni real ish sharoitlariga tayyorlashga yordam beradi;
- virtual amaliyotlar yordamida talabalar xatolarni qilishi mumkin, ammo bu xatolar real hayotda muammolarga olib kelmaydi;
- innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, jumladan simulyatsiyalar talabalarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishga va ularni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.

Simulyatsiyalar va virtual amaliyotlar talabalarga ish sharoitlarida qanday muammolar yuzaga kelishi mumkinligini tushunishga yordam beradi va ularga bu muammolarni qanday hal qilishni o‘rgatadi.

Individual o‘rganish – talabalarga o‘z bilimlarini mustahkamlash va o‘ziga xos kasbiy yo‘nalishlarda rivojlanish imkoniyatini yaratadi. Mentorlar talabalarga o‘zlarining tajribalari bilan yordam berishadi, yo‘naltirishadi va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashishadi.

Individual o‘rganish va mentorlikning asosiy afzalliklari:

- shaxsiy rivojlanish – talabalar o‘zining qiziqishlari va kuchli tomonlari bo‘yicha yo‘nalishni tanlashlari mumkin;
- tajriba almashish – mentorlar talabalarga o‘z tajribalari va bilimlari bilan yordam berishadi, bu esa talabalarning o‘z kasbiy faoliyatiga tayyorlanishiga yordam beradi;
- motivatsiya – mentorlar talabalarga o‘z maqsadlariga erishishda yordam berishadi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

Yuqoridagi metodlar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi [6]. Har bir metod talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda va mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijalar. Zamonaviy ta’limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhimdir. Bu yondashuvlar talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Innovatsion metodlar va texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi, talabalarning motivatsiyasini oshiradi va ularni real ish sharoitlariga tayyorlaydi.

Ba’zi innovatsion pedagogik yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Loyiha asosida o‘rganish (Project-Based Learning). Bu metodda talaba o‘rganilgan bilimlarni real hayotdagi muammolarni hal qilishda qo‘llaydi. Loyiha asosida o‘rganish talabalarga o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Muammoli o‘rganish (Problem-Based Learning). Talabalar muammolarni hal qilish jarayonida bilimlarini rivojlantiradilar va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Blended Learning (Aralash ta’lim). Onlayn va an’anaviy ta’lim shakllarini birlashtirish orqali ta’limni yanada samarali qilish mumkin. Bu yondashuv talabalarga o‘z vaqtida o‘qish imkoniyatini yaratadi va ularning ta’lim jarayonini mustaqil boshqarishiga yordam beradi.

Amaliyotlar va ta’lim dasturlarining integratsiyasi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oliy ta’limning samaradorligini oshirish uchun

ta’lim dasturlari mehnat bozorining talablariga mos bo‘lishi kerak. O‘quv dasturlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor berilishi kerak.

Ta’lim dasturlarining amaliyot bilan integratsiyasini ta’minlash uchun quyidagi qadamlar amalga oshirilishi zarur:

- ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish;
- amaliyotlarni mustahkamlash va talabalarga real ish sharoitlarida bilimlarni qo‘llash imkoniyatini yaratish;
- talabalarga stajirovkalar, amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini taqdim etish.

Muhokama. Oliy ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda o‘qituvchilarning roli beqiyosdir. O‘qituvchilar nafaqat bilim berish, balki talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy o‘qituvchi va yo‘naltiruvchi hisoblanadilar. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari zarur.

O‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion pedagogik metodlarni o‘rgatish, ular uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni ta’minlash va o‘qitishning yangi usullarini o‘rgatish muhimdir.

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda oliy ta’lim va amaliyotning uyg‘unlashuvi bugungi kunda ta’lim tizimi uchun dolzarb va muhim masala hisoblanadi. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ta’limning samarali va real hayotga mos ravishda o‘tkazilishi, ayniqsa amaliyotning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarning kelajakdagi professional faoliyatiga tayyorlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar va yangi metodlar, masalan, loyiha asosida o‘rganish, muammoli o‘rganish, blended learning kabi metodlar yordamida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini yanada samarali ravishda rivojlantirish mumkin. Bu metodlar nafaqat talabalarga bilimlarni to‘g‘ri o‘zlashtirishda yordam beradi, balki ularga kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham berish imkonini yaratadi.

Xulosa. Amaliyotlar va ta’lim dasturlarining integratsiyasi ham talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Talabalarga real ish sharoitlarida bilimlarini qo‘llash imkoniyatini yaratish, ularning mehnat bozoriga tayyorligini ta’minlash uchun amaliyotlar va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish zarur. Bu integratsiya talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi, ularni ish joylarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun tayyorlaydi.

Shuningdek, o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar bilan tanishtirish va ularning malakasini doimiy ravishda oshirish ta’lim tizimining samaradorligini oshiradi. O‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish, ularga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashda yordam berish, talabalarning shaxsiy rivojlanishiga yanada katta hissa qo‘shadi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkin: kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda oliy ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlik nafaqat talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki ularni real ish sharoitlariga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu jarayonni zamonaviy metodlar, pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar orqali amalga oshirish talabalarning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga kirishishlariga yordam beradi va ta’lim tizimining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Billett, S. (2001). «Learning through Work: Workplace Affordances and Individual Engagement». Journal of Workplace Learning, 13(5), 209-216.
2. Dewey, J. (1938). “Experience and Education”. Macmillan. – 25-29 p.
3. Eraut, M. (2004). «Informal Learning in the Workplace». Studies in Continuing Education, 26(2), 247-273.
4. Kolb, D. A. (1984). «Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development». Prentice-Hall.
5. Schön, D. A. (1983). «The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action». Basic Books.
6. To‘xtayeva, Z.S., Saparbayeva, N.K., & Mamatova, S.S. (2023). Bilimning empirik usullarini tikuv buyumlariga ishlov berish jarayonida qo ‘llash. Ilmiy tadqiqot va ınnovatsiya, 2(4), 54-57.
7. Tukhtaeva, Z., Abulova, P., Hamidova, L., & Imomova, D. (2023). Methodological analysis of providing the integration of sciences in the field of sewing. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(3), 107-112.
8. Tukhtaeva, Z., Abulova, P., Hamidova, L., & Imomova, D. (2023). Methodological analysis of providing the integration of sciences in the field of sewing. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(3), 107-112.
9. Zebo, T. X., & Barnogul, R. (2023). Talabalarni ijodiy yondashuv asosida innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari. Innovations in Technology and Science Education, 2(17), 497-503.

IQTISOD YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TARKIBIY KOMPONENTLARI

Kho‘jaqulova Hulkar Oltiboy qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Kasbiy ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning joriy etilishi munosabati bilan iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va baholash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarining mazmuni, ularning tarkibiy komponentlari hamda shakllanish va rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Iqtisodchi mutaxassisning kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integrativ tizimi sifatida kasbiy kompetensiyaning mohiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida iqtisod yo‘nalishi talabalari kompetensiyalarini obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqishda foydalanish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, iqtisod yo‘nalishi talabalari, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy faoliyat, iqtisodchi mutaxassis.

Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri oliy ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etishdan iborat. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini bitiruvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali ishlashini ta’minlovchi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Shu ma’noda, “kasbiy kompetensiya” iqtisod yo‘nalishi talabasining kasbiy yetukligini belgilovchi integrativ sifat sifatida qaraladi.

Zamonaviy mehnat bozori iqtisodchi mutaxassislardan nafaqat puxta nazariy bilim, balki analitik fikrlash, iqtisodiy qarorlar qabul qilish, axborot bilan ishlash, mas’uliyat, tashabbuskorlik va uzluksiz o‘zini rivojlantirishga tayyorlikni talab etadi. Bu talablar iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli shakllantirish zaruratini kuchaytiradi.

Ko‘plab tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, kompetensiya shaxsning integrativ xususiyati bo‘lib, u muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, tajriba, shaxsiy va ijtimoiy sifatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy kompetensiya bo‘lajak iqtisodchining nafaqat professional vazifalarni bajarishga tayyorligini, balki uning ijtimoiy va axloqiy mas’uliyatini ham ifodalaydi.

Iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalari mazmuni

Iqtisodchi kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi iqtisodiy tafakkur, tahliliy yondashuv va iqtisodiy muammolarni hal etish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalari quyidagi tarkibiy komponentlar orqali tavsiflanadi:

1. Bilimiy (kognitiv) component
– iqtisodiy nazariya, moliya, menejment, marketing, buxgalteriya hisobi asoslari;
– iqtisodiy qonuniyatlar va tushunchalarni anglash va tahlil qilish.
2. Amaliy-operatsion component
– iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish;
– hujjatlar bilan ishlash;
– axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
– iqtisodiy qarorlar qabul qilish.
3. Analitik-tanqidiy fikrlash komponenti
– iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish;

– muammolarni aniqlash va yechim variantlarini ishlab chiqish;
– oqibatlarni oldindan baholash.
4. Kommunikativ-kommunikatsion component
– og‘zaki va yozma nutq madaniyati;
– jamoada ishlash;
– muzokara olib borish va professional muloqot.
5. Shaxsiy-axloqiy component
– mas’uliyat, intizom, mehnatsevarlik;
– kasbiy etika;
– ijtimoiy mas’uliyat va halollik.

Iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim shartlardan biri talabaning o‘quv faoliyatida faol subyekt sifatida ishtirok etishidir. Talaba o‘z kasbiy rivojlanishini ongli ravishda rejalashtirib, bilim va ko‘nikmalarni izchil egallashi lozim. Bunda o‘zini o‘zi tashkil etish, o‘zini nazorat qilish va refleksiya muhim ahamiyatga ega.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ichki motivatsiyasi yetarli darajada shakllanmagan hollarda kasbiy kompetensiyalar rivoji sekinlashadi. Shu sababli professor-o‘qituvchilarning vazifasi — ta’lim jarayonida iqtisodiy muammolarga asoslangan topshiriqlar, loyiha faoliyati va reyting tizimi orqali o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishdan iborat.

Shunday qilib, iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalari bilim, ko‘nikma, shaxsiy sifat va kasbiy tajribaning integrativ tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni shakllantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonini, faol va amaliy metodlarni, shuningdek, talabaning o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan ichki motivatsiyasini talab etadi. Mazkur yondashuv oliy ta’lim muassasalarida iqtisod yo‘nalishi bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodchi mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi tarkibida doimiy o‘zini o‘zi o‘qitish va o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyati muhim qo‘shimcha komponent sifatida namoyon bo‘ladi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, bugungi kunda va yaqin istiqbolda har qanday mutaxassis o‘z kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borishga majbur. Kasbiy kompetensiyalarning dinamik rivojlanishi sharoitida ularning “yarim umri” qisqarib bormoqda: ayrim yuqori texnologiyali va iqtisodiy sohalarda bu ko‘rsatkich 2–7 yilni tashkil etadi. Bu holat oliy ta’lim muassasasini tamomlagan bitiruvchining dastlab egallagan bilimlarining muayyan qismi qisqa muddat ichida eskirib qolishini anglatadi.

Mazkur sharoitda iqtisodchi mutaxassisning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun uzluksiz o‘qish, mustaqil bilim olish va kasbiy rivojlanishga ichki tayyorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiy sohada bilimlarning tez eskirishi talabalarni ta’lim jarayonidayoq o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo‘llovchi o‘qituvchilar ta’lim jarayonini shunday tashkil etishlari kerakki, talabalar muammolarni mustaqil aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, muayyan masalalarni tahlil qilish hamda olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini egallasinlar. Bu jarayonda o‘qituvchining asosiy vazifasi — bitiruvchining real iqtisodiy hayotda uchraydigan kasbiy muammolarga yechim topishga tayyorligini shakllantirishdan iborat.

Umumiy kasbiy xususiyatlar bilan bir qatorda, iqtisodchi kasbiy kompetensiyalarining o‘ziga xos jihatlarini ham hisobga olish zarur. Iqtisodchi faoliyati ko‘pincha muayyan normativ hujjatlar, algoritmlar, rasmiy talablar va stereotiplar asosida amalga oshiriladi.

Bunga moliyaviy va iqtisodiy hisobotlarni tuzish, biznes-rejalar ishlab chiqish, iqtisodiy tahlil o‘tkazish kabi qat’iy belgilangan harakatlar kiradi. Shu bilan birga, iqtisodchi kasbiy faoliyati aniq natijalarga — foyda olish, iqtisodiy samaradorlik va investitsion jozibadorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Kelajakdagi iqtisodchilar uchun ixtisoslashgan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti ixtisoslashgan kompetensiyalarni egallash hisoblanadi. Jumladan, turli shartnomalar va moliyaviy hujjatlarni tuzish, biznes muzokaralarini olib borish, iqtisodiy xulosalar va asoslangan qarorlar ishlab chiqish ko‘nikmalarining shakllanganligi muhimdir. Ushbu kompetensiyalar samarali ijtimoiylashuv jarayonida rivojlanadi. Iqtisodchi shaxsining tarbiyalanganlik darajasi, ijtimoiy mas’uliyati va kasbiy etikasiga rioya qilishi uning kasbiy faoliyati samaradorligini bevosita belgilaydi.

Shu bois iqtisod yo‘nalishidagi talabalarda kasbiy kompetensiyalarning mazmuni va tarkibiy tuzilmasi haqida aniq tasavvur hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalar ko‘pincha tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha kelajakda ulardan talab etiladigan kompetensiyalarni yetarli darajada anglab yetmaydilar. Bu esa kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida semestr davomida va imtihon sessiyasi jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi metodik tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida talabalar ishtiroki passiv emas, balki faol bo‘lishi zarur. O‘qituvchi talabalarning muhokamalarda qatnashishini, savol berishini va o‘z fikrlarini asoslab bayon etishini rag‘batlantirishi lozim. Ayniqsa, murakkab iqtisodiy mavzularni o‘rganishda interaktiv seminar mashg‘ulotlari talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, talabalarga semestr davomida muntazam o‘qishning ahamiyatini tushuntirib borish muhimdir. Faqat imtihon davrida intensiv tayyorgarlik ko‘rish o‘quv yuklamasini oshiradi, bilimlarning yuzaki o‘zlashtirilishiga olib keladi va kasbiy kompetensiyalarni chuqur shakllantirishga to‘sqinlik qiladi. Muntazam o‘quv faoliyati esa bilimlarni tizimli o‘zlashtirish, ularni amaliyot bilan bog‘lash va iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy yetukligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘qituvchi iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning ijodiy va kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirishi, ularning individual salohiyatini ochishi hamda tadqiqot va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim. Ta’lim jarayonida hisobot tayyorlash va uni seminar mashg‘ulotlarida jamoa oldida taqdim etish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali o‘quv faoliyati shakli hisoblanadi. Ommaviy taqdimotlar talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda kelgusida iqtisodiy muzokaralar va professional muloqot jarayonlarida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni kamaytiradi. Shu bois o‘qituvchi kurs boshidayoq hisobot va taqdimotlarga qo‘yiladigan baholash mezonlarini aniq belgilashi talab etiladi, bu esa talabalarning o‘z ishlarini sifatli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tayyorlashiga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodchi mutaxassisni tayyorlash oliy ta’lim muassasalarida o‘zini o‘zi o‘qitish, o‘zini takomillashtirish va o‘zini rivojlantirish metodologiyalarini puxta egallashni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta’lim faoliyati talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, ilmiy va ijtimoiy imkoniyatlarini anglashini, asosiy g‘oyalarni ajratib olish hamda tizimli va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi mustaqil ish turlari, mazmuni va natijalariga qo‘yiladigan talablarni oldindan belgilashi zarur.

Professor-o‘qituvchilar mazkur jarayonni, birinchi navbatda, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifatiga qo‘yiladigan talablarni oshirish, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan

foydalanish, shuningdek, talabalarning mustaqil ishlarini monitoring qilishning yangi shakllarini joriy etish orqali amalga oshirishlari mumkin. Iqtisodiy ta’lim sifatini oshirish va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun real professional faoliyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda o‘qitish muhim hisoblanadi. Bunga muammoli ma’ruzalar, seminarlar, biznes va simulyatsiya o‘yinlari, munozaralar, keys-stadiylar hamda mahorat darslari kiradi. Shu bilan birga, mustaqil o‘quv loyihalari va ijodiy topshiriqlar talabalarning individual kasbiy salohiyatini namoyon etishiga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ish beruvchilar va yuqori lavozimli menejerlar ko‘pincha universitet bitiruvchilarining real professional faoliyatga yetarli darajada tayyor emasligini ta’kidlaydilar. Xususan, bitiruvchilarda cheklangan axborot sharoitida qaror qabul qilish, qarorlar oqibatini oldindan baholash, iqtisodiy xavflarni hisobga olish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Bundan tashqari, ularning ish yozishmalari, professional terminologiyadan foydalanish, iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish va nostandart sharoitlarda optimal yechim topish borasidagi muloqot kompetensiyalari ham yetarli emasligi kuzatiladi.

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy voqelik iqtisodchilardan o‘zgaruvchan qonunchilikka, bozor munosabatlariga va iqtisodiy jarayonlarga tez moslasha olishni talab etadi. Ushbu moslashuvchanlik universitetda o‘qish jarayonidayoq shakllantirilishi lozim. Shu sababli har bir iqtisodiyot talabasi quyidagi asosiy kasbiy talablarni egallashi zarur: professional kompetensiyalarni kasbiy faoliyatga tayyorlikning yaxlit holati sifatida o‘zlashtirish; hujjatlar, amaliy dasturlar va ma’lumotlar bilan ishlash texnikalarini egallash; samarali shaxslararo muloqotni amalga oshirish; iqtisodiy va huquqiy muammolarni qo‘yish, tushunish va hal qilish; qarorlarni amaliy harakatlarga o‘z vaqtida tatbiq etish; o‘z kasbiy faoliyati natijalarini mustaqil baholash.

Universitet ta’lim jarayonining cheklanganligi sababli talabalarda shakllangan kasbiy kompetensiyalar darajasi va sifati hujjatlashtirilishi lozim. Oliy ma’lumot diplomi umumiy kasbiy tayyorgarlikni tasdiqlovchi hujjat bo‘lsa-da, u har doim ham bitiruvchining real kasbiy kompetensiyalarini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini baholash uchun qo‘shimcha vositalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday vositalardan biri karyera portfeli hisoblanadi.

Karyera portfeli talabaning akademik va shaxsiy yutuqlarini aks ettiruvchi hujjatlar majmuasi bo‘lib, u professional rezyume, o‘zlashtirilgan kurslar va treninglar ro‘yxati, darsdan tashqari faoliyat, liderlik tajribasi, amaliyot va loyiha ishlari natijalari, shuningdek, professor-o‘qituvchilar va amaliyot rahbarlarining tavsiyalarini o‘z ichiga oladi. Mazkur portfel talabalarga o‘z kasbiy kompetensiyalarini xolis baholash, rivojlanish istiqbollarini aniqlash va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, barcha ta’lim yo‘nalishlarida umumiy fundamental kompetensiyalar shakllantirilishi zarur bo‘lsa-da, kasbiy kompetensiyalarning o‘ziga xos tarkibiy komponentlari aynan oliy ta’lim tizimida rivojlantiriladi. Iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, raqobatning kuchayishi va innovatsion jarayonlarning jadallashuvi iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan talablarni yanada oshirmoqda. Shu sababli iqtisod yo‘nalishidagi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga moslashuvi va raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–5847-son

qarori “O‘qituvchi va murabbiylar mavqeini oshirish to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6106-son Farmoni “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

1. Buimov, A. Talabalar kadrlar sifatida: motivatsiya muammolari / A. Buimov, B. Buimov // Xodimlarni boshqarish. - 2007. - Iyun (№ 12). - B. 45-50.

2. Bydanova, E. N. Universitet bitiruvchilari vakolatlarini tahlil qilish / E. N. Bydanova // SOCIS. - 2008. - No 5. - B. 140-142.

3. Jalinskiy, A. E. «Yurisprudensiya» mutaxassisligiga kirish. Advokatning kasbiy faoliyati: darslik / A. E. Jalinskiy. - 2-nashr, qayta ko’rib chiqilgan. va qo’shimcha. - M.: Prospekt, 2009. - 368 b.

4. Krivtsova, O. V. Iqtisodiyot mutaxassisligi talabalarining professional kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish: mualliflik referati. dis. ... pedagogika fanlari nomzodi / O. V. Krivtsova. - M., 2008. - 24 b.

5. Kuzminov, Ya. Rossiyada biznes ta’limi

YOSH SPORTCHILARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xusenov Xusenali Maxmudovich,
Buxoro olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh sportchilarning intellektual rivojlanish jarayoni psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Intellektual rivojlanish sport faoliyatining muhim omillaridan biri sifatida qaralib, uning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Aristotelning fikrlaridan boshlab, P.F. Lesgaftning shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan pedagogik modeli asosida intellektual tarbiyaning tarkibiy qismlari aniqlanadi. Aqliy, axloqiy, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi sportchilar shaxsiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Shuningdek, o‘zbek olimlari – N.K. Mirzaahmedov, Sh.K. Raxmonov va T. Nematov tadqiqotlariga tayanib, sport muhitida qaror qabul qilish, muomala madaniyati va o‘z-o‘zini anglash kabi intellektual operatsiyalarni rivojlantirishning dolzarbligi asoslab beriladi. Maqolada biologik va ijtimoiy determinantlar o‘rtasidagi nisbatga alohida e’tibor qaratilib, o‘smirlar sportida intellektual faoliyatni faollashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: yosh sportchi, intellektual rivojlanish, psixologik, pedagogik, sport faoliyati, aqliy, axloqiy, psixologik va ijtimoiy omillar.

O‘smirlarning bolalar va o‘smirlar sportida intellektual rivojlanish jarayoni tarixiy jihatdan, sport faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydigan va vaqt sinovidan o‘tgan dolzarb fazilatlar hamda qobiliyatlar asosida belgilangan. Pedagogik tafakkur tarixining boshlanishidayoq Aristotel quyidagicha ta’rif bergan:

«Har doim eng yaxshisi deb aql mavjud bo‘lgan narsa hisoblanadi. Bizning qabul qilgan tasnifimizga ko‘ra, aql ikki turga bo‘linadi: amaliy aql va nazariy aql (...). Xatti-harakatlar ham aynan shunday nisbatda mavjud. Bu ta’rif allaqachon o‘smirlarning aql-zakovatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi, biroq bu yondashuv hali hanuz bolalar sport tayyorlov amaliyotida to‘liq aks ettirilmagan.

Intellektual rivojlanish o‘smir shaxsining intellektual tarbiyasi asosida amalga oshiriladi. Intellektual rivojlanishni shaxsning uyg‘un tarbiyasining ajralmas qismi sifatida talqin qilish P.F. Lesgaft asarlarida batafsil yoritilgan. Olim o‘zining pedagogik qarashlarida shaxsni jamiyatning bir bo‘lagi sifatida ko‘radi va uning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik sharoitlar modelini ishlab chiqadi. Ushbu modelda quyidagi tarkibiy qismlar mavjud: estetik, ma’naviy, psixologik, aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya.

Lesgaft tomonidan ishlatilgan kategoriyalar quyidagicha ajratilgan:

- Aqliy rivojlanish: «fikrlash», «muhokama qilish», «kuzatuvchanlik», «dunyoqarash», «ideallar», «tajribadorlik»;
- Jismoniy rivojlanish: «jismoniy sifatlar», «tana tuzilishi», «harakat ko‘nikmalari», «harakatlarni boshqarish»;
- Axloqiy tarbiya: «boshqalarga hurmat», «haqiqat», «intizomlilik», «o‘zini rivojlantirish», «mehnatsevarlik», «irodaviy fazilatlar»;
- Ma’naviy rivojlanish: «vatanparvarlik», «oliyjanoblik», «o‘zlikni anglash», «bag‘rikenglik», «an’analar»;
- Psixologik rivojlanish: «temperament», «xarakter», «shaxsiy tip», «motivlar», «qiziqishlar», «individuallik»;
- Estetik rivojlanish: «go‘zallik», «nazokat», «muvaffaqiyatli harakat», «yengillik».

Lesgaft o‘z ishlarida intellektual rivojlanishni bosqichma-bosqich biologik

zaminlardan to ijtimoiy munosabatlargacha tahlil qilgan.

T.E. Kopeykina (2013) ta’kidlaydiki, P.F. Lesgaft ilgari surgan shaxs kamolotiga erishish g‘oyasi faqat oila va jamiyat muhitida samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali ro‘yobga chiqishi mumkin.

O‘zbek olimlari orasida, masalan, N.K. Mirzaahmedov o‘smir yoshidagi sportchilarni intellektual rivojlantirishda sport mashg‘ulotlarining psixologik va pedagogik aspektlarini chuqur o‘rganib chiqadi. Unga ko‘ra, «intellektual faoliyatni sport muhiti orqali yo‘naltirish, qaror qabul qilish, vaziyat tahlili kabi operatsiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi» (Mirzaahmedov N.K., 2020).

Yana bir muhim tadqiqotchi, Sh.K. Raxmonov sportchilarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishda o‘qituvchi-murabbiy shaxsiy namunasi va muomala madaniyatining o‘rni haqida fikr yuritadi. U shunday deydi: «Shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘smirlar aqliy va ijtimoiy jihatdan o‘sadi, bu esa ularning sportdagi muvaffaqiyatini oshiradi» (Raxmonov Sh.K., 2019).

Shuningdek, T. Nematov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘smirlar orasida o‘z-o‘zini anglash, shaxsiy qaror qabul qilish va irodaviy sifatlarning sport bilan chambarchas bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan (Nematov T., 2021).

Xulosa o‘rnida, o‘smirlarning sportdagi intellektual rivojlanishi o‘ziga xos yoshga oid morfofunksional, kognitiv va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lib, biologik va ijtimoiy determinantlar o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, hamda bu rivojlanishni pedagogik tizimda uyg‘un tarzda yo‘lga qo‘yish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

D.I. Feldshteyn ta’kidlaydi: «Shaxs rivoji – bu insonning psixik rivojlanishidagi eng yuqori maqsad va daraja bo‘lib, unda rivojlanish, bilish va ijtimoiy faollik natijalari jamlanadi». Bunday jarayonlarsiz o‘smir yuqori darajadagi sportchi sifatida shakllanmaydi, biroq sportchining shaxs sifatidagi rivojlanish muammolari bolalar va o‘smirlar sportidagi tayyorlov tizimida deyarli ko‘zda tutilmagan. Yosh sportchi ko‘pincha murabbiy faoliyatining obyektiga, uning irodasining bajaruvchisiga aylanadi.

A.N. Leontyev bolaning rivojlanishidagi asosiy jihatga e’tibor qaratadi: «Bolani shaxs sifatida tarbiyalashni nazarda tutgan holda, biz psixik rivojlanishni shaxsiy rivojlanishdan ajratib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblamaymiz. Chunki aynan psixik rivojlanish jarayonida bola jamiyat a’zosiga aylanadi. Uning rivojlanish bosqichlari esa bu o‘zgarishning ketma-ket pog‘onalaridan boshqa narsa emas».

L.S. Vygotskiy rivojlanishda bola shaxsiyati va faoliyatidagi muammoli zonalarning ahamiyatini ta’kidlaydi: «Faqat rivojlanishning ichki o‘zgarishlari, uning yo‘nalishidagi burilishlar va o‘zgarishlargina bolaning shaxsiyati shakllanishidagi asosiy davrlarni belgilashga asos bo‘la oladi». Bu yerda intellektual muammolar kontekstini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

D.B. Elkonin, L.S. Vygotskiy g‘oyalariga tayangan holda, bolalarning psixik rivojlanishini bosqichlarga ajratishda har bir yosh davrining o‘ziga xos faoliyat turlari va ularda yuzaga keladigan «psixologik yangiliklar»ni asosiy omil sifatida ko‘rsatadi. Olim har bir yosh bosqichida o‘ziga xos yetakchi faoliyatlar mavjudligini ta’kidlaydi, aynan shu faoliyatlar yoshga mos psixologik xususiyatlar shakllanishiga olib keladi.

«Intellektual rivojlanish» kategoriyasi bir qator tadqiqotchilar tomonidan «intellektual tayyorgarlik» prizmasi orqali tahlil qilinadi. A.G. Shiryaev bu jarayonni «muayyan sport turi uchun zarur bo‘lgan aqliy qobiliyatlar va axborotni qayta ishlash, optimal qarorlar qabul qilish jarayonlarini rivojlantirish» deb ta’riflaydi. U sensor tayyorgarlik (musobaqaga oid axborotni sezish), harakat tayyorgarligi (harakatlarni moslashtirish) va qaror qabul qilish bosqichlarini ajratadi, bu esa P.K. Anoxinning funksional tizimlar haqidagi nazariyasi bilan bog‘liq.

Yosh sportchining intellektual rivojlanishi murabbiy va o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga bevosita bog‘liq. E.A. Levanova o‘qituvchining o‘quvdan tashqari

faoliyatdagi o‘quvchilar bilan samarali muloqotga tayyorligini quyidagicha izohlaydi: «Barcha pedagogik faoliyatni hissiyot va fikrlash jarayonlari uyg‘unligi belgilaydi <...> ayni shu sababli, bu faoliyatda intellektual komponentning roli serqirra». Shunga qaramay, sportchining intellektual rivojida «murabbiy – sportchi-o‘smir» tizimidagi kasbiy muloqotning intellektual konteksti yetarlicha tadqiq etilmagan.

Sport tayyorgarligi komponentlari o‘rganilganida, V.V. Cheshixina intellektual yoki aqliy tayyorgarlikni sport faoliyati uchun zarur bo‘lgan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi. U sport texnikasining bir qismini tashkil etuvchi maxsus aqliy harakatlarga e’tibor qaratadi, shuningdek, doimiy mashg‘ulot va musobaqalarga tayyorgarlik jarayonida psixik tayyorgarlikning muhimligini ta’kidlaydi. Sport mashg‘ulotida jismoniy va maxsus intellektual tayyorgarlik o‘zaro bog‘liqligining nazariy-metodik asoslari. Olim «psixik», «aqliy» va «intellektual» tayyorgarlik tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratib, aynan shular orqali sportchining fikrlash qobiliyatlari shakllanishi va rivojlanishini asoslaydi. Bu jihatlar bolalar va o‘smirlar sportida intellektual rivojlanish mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Yosh sportchilarning intellektual rivojlanishiga oid muammolarni o‘rganish sport psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Psixik rivojlanishning shaxsiy va ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq tomonlarini ochib beruvchi nazariyalar (Feldshteyn, Vygotskiy, Elkonin va boshqalar) sportchilarning faqat ijrochi emas, balki faol intellektual subyekt sifatida shakllanishi uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Intellektual tayyorgarlik jarayonida qaror qabul qilish, sport muhitidagi murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va psixik barqarorlik kabi omillar sport natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu masalaning chuqur tadqiqi sport ta’limi va tarbiyasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yosh sportchilarning intellektual rivojlanishi – bu ularning shaxsiy, psixik va ijtimoiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab psixologik-pedagogik jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi sport natijalari nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki intellektual, psixik va ijtimoiy faoliyatning uyg‘un rivojlanishini ham talab qiladi. Psixolog-olimlarning (D.I. Feldshteyn, L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin va boshqalar) nazariy yondashuvlari shuni ko‘rsatadiki, intellektual rivojlanish bolalar va o‘smirlar sportining tarkibiy qismi sifatida alohida e’tiborni talab qiladi. Shu bilan birga, sport mashg‘ulotlarida ushbu jarayonni rag‘batlantirish trener va pedagoglarning kasbiy saviyasi, ularning intellektual-psixologik kompetensiyalariga bog‘liq. Intellektual tayyorgarlikning tarkibiy qismlari (sensor, aqliy, harakat va qaror qabul qilish bosqichlari) sport faoliyatiga xos xususiyatlarni aks ettirib, sportchining fikrlash qobiliyatini chuqur rivojlantiradi. Bu holat murabbiy – sportchi o‘rtasidagi intellektual muloqot va shaxslararo hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Фельдштейн, Д.И. Психология развития человека как личности: Избранные труды: В 2 т. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: НПО «МОДЕК», 2005. – Т.1. – 586 с.

2. Леонтьев, Д.А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – 2-е испр. изд. – М.: Смысл, 2003. – 487 с.

3. Выготский, Л.С. Сборник сочинений в 6-ти т. Т. 4. Детская психология / Под ред. Д.Б. Эльконина. – М.: Педагогика, 1984. – 432 с.

4. Эльконин, Д.Б. Детская психология. – М.: Учпедгиз, 1960. – 327 с.

5. Кузьменко, Г.А. Развитие интеллектуальных способностей подростков

в условиях спортивной деятельности: теоретико-методологические и организатsionные предпосылки. – М.: Прометей, 2013. – 532 с.

6. Ширяев, А.Г. Педагогические основы организатsii и содержания многолетней подготовки спортсмена (на примере бокса): автореф. дис. д-ра пед. наук. – СПб: СПбГИФК, 1992. – 46 с.

7. Леванова, Е.А. Формирование практической готовности учителя к взаимодействию с учащимися во внеучебной деятельности: автореф. дис. д-ра пед. наук. – М.: МПГУ, 1994. – 31 с.

8. Леванова, Е.А. Технология конструктивного взаимодействия педагога с подростком: методическое пособие. – М., 2002. – 224 с.

9. Чешихина, В.В. Теоретико-методические основы взаимосвязи физической и специализированной интеллектуальной подготовки в процессе спортивной тренировки (На материале спортивного ориентирования): автореф. дис. д-ра пед. наук. – М.: РГАФК, 1996. – 40 с.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA VOLONTYORLIK FAOLIYATI ORQALI KOLLABORATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Yadgarova Dildora Ibadulloyevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, Buxoro shahar “Qandimcha” maktabgacha ta’lim tashkiloti mudirasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kollaborativ (jamoa bilan hamkorlikka asoslangan) kompetensiyani shakllantirishda volontyorlik faoliyatining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Hamkorlik, birgalikda faoliyat yuritish, o‘zaro yordam va jamoada ishlash ko‘nikmalari maktabgacha yoshda shakllanishni boshlaydi. Volontyorlik faoliyati orqali bolalarda ijtimoiy mas’uliyat, birgalikda qaror qabul qilish, empatiya va rahmdillik singari insonparvarlik qadriyatlari shakllanadi. Maqolada volontyorlik elementlarini o‘yinlar, ijtimoiy loyihalar va har kunlik mashg‘ulotlarga integratsiya qilish orqali kollaborativ kompetensiyani rivojlantirish usullari va metodik tavsiyalar keltirilgan. Xulosa sifatida, volontyorlik faoliyati maktabgacha ta’lim tizimida tarbiya jarayonini boyitishning innovatsion vositasi sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, volontyorlik, kollaborativ kompetensiya, hamkorlik, ijtimoiy faoliyat, bolalar tarbiyasi, pedagogik yondashuv.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida ta’lim sohasidagi innovatsion yondashuvlar bolalarda ijtimoiy faollik, hamkorlikka tayyorlik va jamoaviy faoliyatga qodirlik singari muhim kompetensiyalar formallashuviga katta e’tibor qaratayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) kompetensiyani shakllantirish, ya’ni bolalarning boshqalar bilan samarali munosabatga kirisha olishi, jamoaviy vazifalarni bajarishda ishtirok etishi, o‘zaro mas’uliyat va hurmatni his qilish qobiliyatini rivojlantirish xalqaro tadqiqot dasturlarida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Jahon banki, YuNESKO, UNICEF kabi tashkilotlar 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan dasturlarida yosh bolalarda «21 asr ko‘nikmalari»ni, jumladan, hamkorlik, kommunikatsiya, empatiya va faol fuqarolik kabi kompetensiyalarni tarbiyalash zarurligini qayd etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019 yil 8 oktyabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmonida maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy asosda takomillashtirish, fuqarolik jamiyati elementlarini, xususan, volontyorlik faoliyatini tarbiya jarayoniga integratsiya qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, 2022 yilda tasdiqlangan “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da bolalarning muloqotchanligi, jamoaviy faollikka tayyorligini shakllantirish ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlar bolalarda kollaborativ kompetensiyani shakllantirishda yangi metodik yondashuvlarni joriy etishga keng imkoniyat yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini volontyorlik faoliyati orqali ijtimoiy-emotsional va kollaborativ kompetensiyalar bilan boyitishning metodik asoslari, xorijiy tajriba va milliy amaliy yo‘nalishlar tahlili asosida yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni ijtimoiylashtirish va hamkorlikda faoliyat yuritishga o‘rgatish pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biri

hisoblanadi. Bolada yoshlikdanoq jamoa bilan muloqot qilish, o‘zaro mas’uliyatni his etish, boshqalar fikriga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalari shakllansa, keyinchalik u mustaqil, yetuk shaxs sifatida jamiyatda faol ishtirok eta oladi.

Kollaborativ kompetensiya – bu bolaning boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, kommunikativ munosabatlar o‘rnatish, maslahatlashish, umumiy maqsad yo‘lida mas’uliyatni bo‘lishishga tayyorlik darajasini aks ettiradi. Bu tushuncha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasida «ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish», «muloqotga tayyorlik», «jamoaviy faoliyat ko‘nikmalari» bilan chambarchas bog‘liq. V.V. Rubsov, A.G. Asmolov, Ye.O. Smirnova kabi olimlar tomonidan bolalarda ijtimoiy interaksiya va kollaboratsiya jarayonlarini rivojlantirishga oid muhim nazariy asoslar yaratilgan.

Volontyorlik faoliyati esa nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham muhim tarbiyaviy vosita sifatida qaraladi. Xususan, YuNESKO (UNESCO, 2021) va UNICEF (2022) ning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan ta’lim standartlarida faol fuqarolik, insoniylik, ko‘mak va mas’uliyat singari qadriyatlar bola psixologiyasiga mos shakllarda, o‘yinlar va ijtimoiy loyihalar orqali singdirilishi kerakligi ta’kidlangan.

Respublikamizda ushbu yo‘nalida qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Sh.X. Rahimov, S.R. Rahimova, D.A. Hamidovlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqqan. M.I. Madraximova maktabgacha ta’limda muloqot madaniyatini shakllantirish, jamoaviy o‘yinlar orqali bolalarni hamkorlikka o‘rgatish usullarini ilmiy asosda bayon qilgan. T.J. Jo‘raevaning maktabgacha ta’limda fuqarolik tarbiyasiga oid tadqiqotlarida volontyorlik faoliyati elementlaridan foydalanish samaralari ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, Lev Vigotskiy nazariyasi (Zone of Proximal Development) bo‘yicha bolalarda kattalar yoki tengdoshlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish orqali yangi salohiyat rivojlanadi, bu esa kollaborativ kompetensiyani shakllantirishning psixologik asosi hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribada, masalan Finlyandiya, Kanada va Yaponiya ta’lim tizimlarida bolalarni erta yoshdan jamoaviy faoliyatga jalb qilish orqali ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish amaliyoti keng qo‘llaniladi. Ularda volontyorlik va «peer support» asosidagi dasturlar maktabgacha yoshga moslashtirilgan holda olib boriladi.

Psixologlarning fikricha, insonning xarakteri 5 yoshdan oldin shakllanadi. Agar bu yoshdan oldin kattalar poydevor qo’yishga va bolaga sog’lom odatlarni singdirishga muvaffaq bo’lishsa yaxshi bo’ladi. Bu axloqiy fazilatlarga ham tegishli. Ota-onalar farzandiga nafaqat tishlarini yuvish, kiyinish, o’qish va ishonch bilan hisoblashni, balki mehribon bo’lishni ham o’rgatishi mumkin! Mehribonlik nafaqat tug’ilish paytida paydo bo’ladigan xarakter xususiyati, balki o’zini tutish va boshqalarga yaxshi munosabatda bo’lish odati bo’lib, u bolalikdan bolaga singdirilishi va butun umri davomida rivojlanishi mumkin.

O’qituvchilar va ota-onalar sifatida bizning vazifamiz - iliqlik, muloyimlik, sabr-toqat va sevgining kichik manbai qurib qolishiga yo’l qo’ymaslikdir. Bolalar kattalar va tengdoshlarning sevgisi va adolatini erta his qila boshlaydilar va ular yomon niyat va e’tiborsizlikning eng kichik ko’rinishlariga sezgir munosabatda bo’lishadi.

Bolalar nafaqat o’zlariga nisbatan insoniy tuyg’ularni kuchaytirishlari, balki kattalar, tengdoshlari va «bizning kichik birodarlarimiz» - hayvonlarga hamdard bo’lishlari juda muhimdir. Rahm-shafqat nima? So’zning o’zi o’zi uchun gapiradi - mehribon, shirin qalbga ega bo’lish. Har doim kimgadir yordam berishga tayyor bo’ling, birovning baxtsizligi ustidan kulmang, balki rahm-shafqat va xayriya tuyg’usi tufayli achinish, yordam berish, kechirish imkoniyatiga ega bo’ling.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirish ishlarida ota-onalarni

bu boradagi tadbirlarga jalb etish, bu boradagi o‘qituvchilarning kasbiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohada ota-onalar bilan ishlash maktabgacha ta’lim tashkilotining o’qituvchilari bilan hamkorlikka asoslangan bo’lishi kerak va qo’shma loyihalar, ijodiy tadbirlar (tanlovlar, ko’rgazmalar va boshqalar), bo’sh vaqtni o’tkazish, reklama aktsiyalari, axborot taqdimotlari, bukletlar yaratish, o’quv kvestlarida ishtirok etish va boshqalar kabi o’zaro hamkorlik shakllarini o’z ichiga olishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirishga qaratilgan ta’lim amaliyotlari orasida volotyorlik faoliyati innovatsion faoliyatlardan biri sifatida ajralib turadi, lekin u o’zining samaradorligini allaqachon isbotlagan bo’lib, uning davomida bola tashabbus va mustaqillik, mehr va rahm-shafqat, xayrixohlik va sezgirlikni namoyon etish imkoniyatiga ega. Volotyorlik birgalikdagi sa’y-harakatlar, ya’ni oila va maktabgacha ta’lim muassasasi ishiga asoslanganligini hisobga olish kerak.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida volotyorlik harakati faoliyatini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishda bir qator ishlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

• maktabgacha ta’lim tashkilotida volotyorlik harakatini tashkil etish bo’yicha ishlar tizimini yaratish;

• o’qituvchilar va ota-onalarning volotyorlik harakati haqida xabardorlik darajasini oshirish;

• maktabgacha ta’lim muassasasining pedagogik jamoasi va ota-onalar jamoasi tomonidan volotyorlik harakatini qo‘llab-quvvatlash;

• bolalarda mehr-oqibat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglikni singdirishda o‘qituvchilar va ota-onalarning sa’y-harakatlarini birlashtirgan yangi shakl va usullarni ishlab chiqish.

Mulohaza. Hozirgi zamon maktabgacha ta’lim tizimi bolalarda nafaqat bilim va malaka, balki keng ma’noda ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishni maqsad qilgan. Kollaborativ kompetensiya — bu bolaning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, jamoada faoliyat yuritish, birgalikda qaror qabul qilish va o‘zaro mas’uliyat hissini anglash salohiyatidir. Ushbu kompetensiyaning poydevori aynan maktabgacha yoshda qo‘yiladi.

Volontyorlik faoliyatini maktabgacha ta’limga integratsiya qilish bolalarda fuqarolik pozitsiyasini, hamdardlik, insoniylik va yordamga tayyorlik tuyg‘usini shakllantirish imkonini beradi. Mazkur faoliyat kollaborativ kompetensiyaning shakllanishida quyidagi jihatlar orqali namoyon bo‘ladi:

O‘zaro hamkorlik muhitini yaratish. Volontyorlik faoliyati davomida bolalar guruhda faoliyat yuritishni o‘rganadilar. Bir-biriga yordam berish, masalan, kichik guruh a’zolariga turli ishlar topshirish orqali mas’uliyat va ishonch tuyg‘usi rivojlanadi.

Empatiya va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirish. Yosh bolalar uchun “katta bo‘lib yordam berish”, “doim yordam qo‘lini cho‘zish” kabi ruhiy mashg‘ulotlar orqali empatiya rivojlanadi. Masalan, bolalar keksa odamlarga yoki ehtiyojmandlarga simvolik ravishda yordam berish uchun o‘yin elementlarini o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlarda ishtirok etadilar.

Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish. Misol uchun: “Men va do‘stlarim tabiatni asraymiz” mavzusida kichik volontyorlik aksiyasi (gulash hashar, gul ekish, maktab yoki bog‘da tozalik aksiyalari). Bolalarga kichik rollar berish orqali ularning javobgarlik tuyg‘usi mustahkamlanadi.

Metodik ishlar (amaliy tadbirlar namunasi)

Tadbir nomi Maqsad Metodik vositalar Kutilayotgan natija

“Yordamchi do‘st” kuni Bolalarda yordam ko‘rsatish ko‘nikmasi va empatiyani shakllantirish Rolli o‘yinlar, afishalar, muloqot mashqlari Kollaborativ fikrlash,

ishonchli muomala, bir-birini tushunish

“Biz — bir jamoamiz” mashg‘uloti Guruhda ishlash va birgalikda muammo hal qilish ko‘nikmasini shakllantirish Mozayka yig‘ish, konstruktorlar bilan ishlash, maqsadli topshiriqlar Hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi, mas’uliyat, rahbarlikka tayyorlik

“Yordamchi bola” bellashuvi Volontyorlik faoliyatining sodda modelini amalga oshirish Ochiq dars, hayotiy rolli o‘yinlar (masalan: nonushta tayyorlash, kitob joylashtirish) Foydali mehnatga qiziqish, guruhda ishlashning ijobiy tajribasi

“Qo‘limdan keladi!” kutubxona aksiyasi Kitoblarga e’tibor, mas’uliyatli munosabat, guruhli faoliyat Katta yoshlilar uchun kitob yig‘ish, navbat bilan kitoblarni tozalash Jamoaviy ish, vazifani bajarish, shaxsiy hissa qo‘shish hissi

Natija. Ushbu tadqiqot ishi 2024 yilning oktyabr–dekabr oylari davomida Buxoro shahridagi “Qandimcha” maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshirildi. Tadqiqot maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda volontyorlik faoliyati elementlarini joriy etish orqali kollaborativ kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash va baholashdan iborat bo‘ldi.

Tajriba jarayoni 3 bosqichda tashkil etildi.

1-bosqich: Tashxis (diagnostik) bosqich. Bu jarayonda bolalarda mavjud ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari, empatiya va jamoaviy faollik darajasi aniqlandi. Buning uchun bolalar 2 ta guruhga (tajriba va nazorat, har biri 15 nafar, 5–6 yoshli) ajratildi. Ushbu jarayonda quyidagi diagnostik testlardan foydalanildi.

- “Hamkorlikka tayyorlik” metodikasi (E.O. Smirnova).
- Pedagogik kuzatuv va intervyu (bolalarning yordamga tayyorligi va muloqotchanligi).
- Rolli o‘yinlar orqali empatiya darajasini baholash.

2-bosqichda esa amaliy (tajriba-taqqoslash) ishlari amalga oshirildi. Volontyorlik faoliyati elementlarini joriy etish orqali kollaborativ kompetensiyani rivojlantirish maqsad qilib olindi. Buning uchun 6 haftalik maxsus dastur ishlab chiqildi. Va tajriba guruhida quyidagi mashg‘ulotlar joriy etildi:

- “Yordamchi bola” haftaligi – gul ekish, kitob tozalash, guruhda navbatchilik.
- Rolli va jamoaviy o‘yinlar – “Biz birga qilishimiz mumkin”, “Yordam beraman”.
- Mini-loyihalar – “Mening yaxshi ishim”, “Kichik yordam – katta ish”.
- Volontyorlik jadvali va rag‘batlantiruvchi nishonlar joriy etildi.

3-bosqichda esa nazorat va tahlil ishlari amalga oshirildi. Tajriba samaradorligini baholash, natijalarni chuqur tahlil qilindi.

Ushbu jarayonda diagnostik metodikalar asosida so‘nggi baholash o‘tkazildi. Olingan natijalar nazorat guruhi bilan solishtirildi. Pedagog va ota-onalar fikrlari, anketa va mulohazalari yig‘ildi.

Olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida bir qator ijobiy natijaga erishildi va buni 1-jadvalda keltirib o‘tdik.

1g‘jadval.

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (boshida)	Tajriba guruhi (oxirida)	Nazorat guruhi (oxirida)
Hamkorlikda ishlashga tayyorlik (%)	46%	87%	52%
Empatiya va yordam berish qobiliyati (%)	40%	82%	47%
Jamoada muloqotga kirisha olish (%)	52%	90%	55%

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, volontyorlik faoliyatiga asoslangan mashg‘ulotlar bolalarda ijtimoiy faollik va hamkorlik qobiliyatini shakllantirishda samarali ekanligi asoslandi. Kollaborativ kompetensiyaning yuqori darajada

shakllanganligi kuzatildi. Bolalar o‘rtasida empatiya, javobgarlik va tashabbuskorlik darajasi oshdi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida volontyorlik faoliyati orqali kollaborativ kompetensiyani shakllantirish — bu ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvar, ijtimoiy mazmun bilan boyitishga xizmat qiladigan innovatsion yondashuvdir. Ushbu maqolada amalga oshirilgan nazariy tahlillar, xalqaro va milliy tajribalar asosida to‘plangan ma’lumotlar hamda Buxoro shahridagi “Qandimcha” maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki:

- Volontyorlik faoliyati elementlarini maktabgacha ta’lim tizimiga moslashtirilgan holda joriy etish bolalarda jamoaviy ishlash, yordam berish, empatiya va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi;
- Tajriba davomida bolalarda hamkorlikka tayyorlik, ijtimoiy faollik va muloqot qobiliyatlari sezilarli darajada oshdi;
- Kollaborativ kompetensiyani rivojlantirishda rolli o‘yinlar, ijtimoiy loyihalar, mini-aksiyalar, guruhli faoliyatlar katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida volontyorlik faoliyatini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish orqali bolalarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar rivojiga keng yo‘l ochiladi. Ushbu usulni respublika miqyosida amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” PF–60-sonli Farmoni.
2. Smirnova Ye.O. Sotsialnoe razvitie detey doshkolnogo vozrasta. — M.: Pedagogika, 2019.
3. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti: Prinsipы metasistemnoy organizatsii. — M.: Izd-vo MGU, 2021.
4. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. UNESCO. (2021). Early Childhood Care and Education Programme. Retrieved from: https://www.unesco.org/en/early-childhood-education
6. UNICEF. (2022). UNICEF’s Vision for Early Childhood Development. Retrieved from: https://www.unicef.org/media/145336/file/Early_Childhood_Development_-_UNICEF_Vision_for_Every_Child.pdf
7. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yil 16 dekabr.
8. Jo‘raeva T.J. Maktabgacha ta’limda fuqarolik tarbiyasi: nazariy va amaliy asoslar. — Toshkent, 2022.
9. Madraximova M.I. Maktabgacha ta’limda muloqot va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish. — Toshkent, 2021.
10. Rahimova S.R., Hamidov D.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish. — Toshkent, 2020.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY, PEDAGOGIK VA SAN’ATSHUNOSLIK TALQINLARI

Yo‘ldoshev Sarvarbek Uktamboy o‘g‘li,
Urganch davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada estetik madaniyat tushunchasining falsafiy, pedagogik va san’atshunoslik nuqtayi nazaridan talqinlari tahlil qilinadi. Estetik madaniyat insonning go‘zallikka bo‘lgan munosabati, didi, tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Muallif estetik ehtiyoj, ideal, tafakkur, his-tuyg‘u va faoliyat kabi asosiy tarkibiy qismlarini ajratgan holda, ularning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib bergan. Shuningdek, estetik madaniyatning bolalikdan to voyaga yetguncha bo‘lgan bosqichlari izchil yoritilgan. Estetik madaniyat shaxsning go‘zallikni idrok etish, baholash va yaratish qobiliyatlari majmui sifatida yoritiladi. Shuningdek, estetik madaniyatning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni, uning shaxs kamolotiga ta’siri hamda san’at orqali shakllanish mexanizmlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: estetik madaniyat, estetik ong, go‘zallik, san’at, estetik tarbiya, shaxs kamoloti, madaniy qadriyat, ijodkorlik

ФИЛОСОФСКАЯ, ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ИСКУССТВОВЕДЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Юлдошев Сарварбек Уктамбой ўғли,
преподаватель кафедры «Искусствоведение»
Ургенчского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье анализируются философские, педагогические и искусствоведческие интерпретации понятия эстетической культуры. Эстетическая культура рассматривается как важный фактор формирования отношения человека к красоте, его эстетического вкуса, мышления и творческих способностей. Автор, выделяя такие основные структурные компоненты, как эстетическая потребность, идеал, мышление, чувства и деятельность, раскрывает их роль в личностном развитии и общественном прогрессе. Также последовательно освещаются этапы формирования эстетической культуры от детства до зрелости. Эстетическая культура представлена как совокупность способностей личности воспринимать, оценивать и создавать красоту. Кроме того, раскрывается роль эстетической культуры в образовательном процессе, ее влияние на развитие личности и механизмы формирования через искусство.

Ключевые слова: эстетическая культура, эстетическое сознание, красота, искусство, эстетическое воспитание, развитие личности, культурные ценности, творчество.

PHILOSOPHICAL, PEDAGOGICAL, AND ART STUDIES INTERPRETATIONS OF THE FORMATION OF AESTHETIC CULTURE IN FUTURE MUSIC TEACHERS

Yuldoshev Sarvarbek Uktamboy o'g'li,
Department of Art Studies lecturer
Urgench State Pedagogical Institute

Annotation: This article analyzes the philosophical, pedagogical, and art studies interpretations of the concept of aesthetic culture. Aesthetic culture is considered an important factor in shaping an individual's attitude toward beauty, aesthetic taste, thinking, and creative abilities. By identifying such key structural components as aesthetic needs, ideals, thinking, emotions, and activity, the author reveals their role in personal development and social progress. The stages of the formation of aesthetic culture from childhood to adulthood are consistently examined. Aesthetic culture is presented as a set of an individual's abilities to perceive, evaluate, and create beauty. In addition, the role of aesthetic culture in the educational process, its influence on personal development, and the mechanisms of its formation through art are elucidated.

Keywords: aesthetic culture, aesthetic consciousness, beauty, art, aesthetic education, personal development, cultural values, creativity.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda shaxsning har tomonlama rivojlanishi nafaqat intellektual va axloqiy, balki estetik jihatdan ham yetuk bo'lishini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, estetik madaniyat tushunchasi falsafa, pedagogika va san'atshunoslik fanlarining muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Estetik madaniyat shaxsning atrof-muhit, san'at asarlari va hayotiy hodisalardagi go'zallikni his etish, anglash va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Bu tushuncha nafaqat insonning go'zallikka bo'lgan munosabati, balki uning ichki dunyosining boyligi, didi, madaniy qadriyatlarni anglash va ularga amal qilish darajasini ham ifodalaydi. Estetik madaniyat — bu shaxsning go'zallikni sezish, idrok etish, yarata olish va uni qadrlash qobiliyatining yig'indisidir. Estetik madaniyat – insonning estetik faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Estetik madaniyat shaxs, millat, jamiyatning o'z-o'zini anglashi ham demakdir. Chunki estetik madaniyatda ijtimoiy birliklarning ehtiyojlari va manfaatlari, o'ziga xosliklari, jahon tarixida tutgan o'rni, turli ijtimoiy tizimlarga bo'lgan munosabati ham o'z ifodasini topadi. U jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti, milliy o'zlikni anglash, badiiy-estetik qadriyatlarni shakllantirish va avlodlar ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi[1, 16].

Bugungi kunda estetik madaniyat nafaqat san'at, adabiyot va arxitektura kabi sohalar bilan cheklanmaydi, balki kundalik hayotimizda, odamlar o'rtasidagi muloqotda, kiyinish madaniyatida, muhitga bo'lgan munosabatda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu boisdan, estetik madaniyatni keng qamrovli tushuncha sifatida o'rganish, uning mohiyati, tarkibiy qismlari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Estetik madaniyat — bu insonning borliqni estetik idrok etish darajasi, go'zallikni his etish, tushunish va uni ifodalash orqali o'zini va atrof-muhitni go'zallashtirishga bo'lgan intilishidir. Bu tushuncha shaxsning ma'naviy olami, didi, estetik ehtiyojlari, qadriyatlari va madaniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liqdir. Antik davr falsafasida estetik madaniyat go'zallik, ezgulik va haqiqat kategoriyalari birligi asosida izohlangan. Aflotun estetik tarbiyani inson ruhini

yuksaltiruvchi omil sifatida ko‘rgan bo‘lsa, Arastu san’atning katarsis xususiyatini asoslab, estetik tajribaning tarbiyaviy ahamiyatini ochib bergan. Ushbu qarashlar estetik madaniyatning ontologik va aksiologik asoslarini belgilab berdi.

Yangi davr falsafasida estetik madaniyat subyektiv idrok va estetik baholash bilan bog‘liq holda talqin qilindi. I. Kant estetik hukmni manfaatdan xoli zavq sifatida izohlab, estetik idrokni shaxs madaniyatining muhim ko‘rsatkichi sifatida baholadi. G. Gegel esa estetik madaniyatni mutlaq ruhning san’at orqali namoyon bo‘lish shakli sifatida talqin qilib, uni madaniy taraqqiyotning mezoni deb hisoblagan.

Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda (V. Bychkov, M. Kagan) estetik madaniyat shaxs estetik ongining rivojlanganlik darajasi, estetik qadriyatlarni anglash va ularni hayotga tatbiq etish qobiliyati sifatida izohlanadi. Bu yondashuv estetik madaniyatning integrativ xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Pedagogik adabiyotlarda estetik madaniyat shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganiladi. O‘zbek olimlaridan D.S. Qodirova estetik madaniyatni nafosat falsafasi bilan bog‘liq holda, shaxsning estetik tafakkuri va badiiy didini shakllantiruvchi jarayon sifatida talqin etadi. A. Rasulov estetik madaniyatni estetik bilimlar, his-tuyg‘ular va faoliyatning birligi sifatida izohlab, uning pedagogik mazmunini ochib beradi.

Pedagogik yondashuvda (V.A. Slastenin, N.A. Muslimov) estetik madaniyat kognitiv, emotsional-aksiologik va faoliyat-kompetentlik komponentlaridan iborat tizim sifatida asoslanadi. Bu yondashuv estetik madaniyatni shakllantirishda ta’lim mazmuni, metodlari va muhitining muhimligini ko‘rsatadi.

San’atshunoslik tadqiqotlarida estetik madaniyat san’at asarlarini idrok etish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlari bilan bog‘liq holda talqin etiladi. J. Dewey estetik tajribani inson faoliyatining uzviy qismi sifatida baholab, san’atning shaxs estetik madaniyatini rivojlantirishdagi rolini asoslab bergan. Musiqa, tasviriy san’at va adabiyot estetik madaniyatni shakllantiruvchi asosiy manbalar sifatida e’tirof etiladi.

Estetik madaniyat shaxsning umumiy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u go‘zallikni anglash, qadrlash, estetik faoliyat bilan shug‘ullanish orqali namoyon bo‘ladi. Estetik madaniyat insonda jamiyatda qabul qilingan madaniy va axloqiy me’yorlarga asoslangan go‘zallik tushunchalarini shakllantiradi. U shaxsning ijtimoiylashuvi, san’atni anglash, mehnat va turmushdagi go‘zallikni idrok etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Estetik madaniyat — bu faqatgina san’at asarlarini tushunish emas, balki kundalik hayotdagi estetik qadriyatlarni anglab yetish va ularga amal qilishni ham anglatadi[2].

Muhokama. Estetik madaniyatning tarkibiy qismlariga: Estetik ehtiyoj — shaxsning go‘zallikka bo‘lgan tabiiy ehtiyoji. Bu ehtiyoj bolaning kichik yoshidanoq paydo bo‘ladi va ta’limtarbiya jarayonida rivojlanadi; Estetik bilim va tafakkur — shaxsning san’at, tabiat va jamiyatdagi estetik hodisalarni tahlil qilish, solishtirish va baholash qobiliyati. Bu tafakkur orqali inson go‘zallik mezonlarini chuqurroq anglaydi; Estetik tarbiya — bu shaxsda go‘zallikni anglash, his etish, qadrlash va uni yaratish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan tarbiya jarayonidir. U insonning didini, estetik ehtiyojlarini, go‘zallikka bo‘lgan munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Estetik hislar — estetik obrazlar va hodisalarga nisbatan sezgi va kechinmalar. Masalan, san’at asaridan zavqlanish, musiqadan ruhlanish, tabiat manzarasidan hayratlanish; Estetik faoliyat — insonning ijodiy faoliyati, masalan, rasm chizish, she’r yozish, kiyinish madaniyati, hayotni bezashga qaratilgan harakatlar. Bu faoliyat estetik did va madaniyatni rivojlantiradi.

Madaniyatning asosi bo‘lgan estetik tarbiya - aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan aloqadorlikda rivojlanib kelgan. Tarbiyaning bu yo‘nalishi jarayonida shaxsning estetik rivojlanishi amalga oshiriladi va estetik tarbiya, bu atrofdagi voqelikda, tabiatda, jamoat hayotida, san’at hodisalarida, go‘zallikni maqsadga muvofiq ravishda idrok etish va

to‘g‘ri anglash, baholash va yaratish qobiliyatini tarbiyalashdir. “Estetik tarbiya” atamasi birinchi bo‘lib buyuk olmon faylasufi Fridrix Shiller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Shiller ta’kidlaydiki – “Faqat go‘zallikdangina, biz bir paytning o‘zida, ham individ, ham odamzod sifatida zavq ola bilamiz. Hissiyot bandasi bo‘lgan insonni oqil insonga aylantirish, faqat uni estetiklashtirish orqaligina ro‘y berishi mumkin[3].

Falsafada estetik madaniyat insonning estetik ongiga, estetik ehtiyoj va qadriyatlariga bog‘liq holda talqin qilinadi. Antik davr faylasuflari — Aflotun va Arastu asarlarida go‘zallik haqiqat va ezgulik bilan uzviy bog‘liq holda qaralgan. Ularning fikricha, go‘zallik inson ruhini poklaydi va komillikka yetaklaydi.

Yangi davr falsafasida (I. Kant, G. Gegel) estetik madaniyat estetik idrok va estetik hukm bilan bog‘lanadi. Kant estetik bahoni manfaatdan xoli, sof zavq manbai sifatida izohlaydi. Gegel esa estetik madaniyatni mutlaq ruhning san’at orqali namoyon bo‘lish shakli deb hisoblaydi.

Shu bois, falsafiy yondashuvda estetik madaniyat:
shaxsning estetik ong darajasi;
go‘zallikka bo‘lgan munosabati;
estetik ideallarni hayotga tatbiq etish qobiliyati sifatida qaraladi.

Estetik madaniyatning pedagogik talqinida Pedagogika fanida estetik madaniyat tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganiladi. Estetik madaniyat pedagogik nuqtayi nazardan shaxsda go‘zallikni his etish, badiiy didni rivojlantirish va ijodiy faoliyatga undashga xizmat qiladi.

Pedagog olimlarning ta’kidlashicha, estetik madaniyat:
estetik bilimlar;
estetik his-tuyg‘ular;
estetik faoliyat ko‘nikmalarining birligi asosida shakllanadi.

Ta’lim jarayonida musiqa, tasviriy san’at, adabiyot, texnologiya fanlari orqali estetik tarbiya berish shaxsning estetik madaniyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning estetik madaniyati ularning kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir.

Estetik madaniyatning san’atshunoslik talqini

San’atshunoslikda estetik madaniyat san’at asarlarini idrok etish, tahlil qilish va baholash qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq. San’at inson estetik madaniyatini shakllantiruvchi eng kuchli vosita hisoblanadi.

Musiqa, tasviriy san’at, teatr, kino kabi san’at turlari orqali shaxs:
estetik tajriba orttiradi;
badiiy obrazlarni anglaydi;
estetik didini rivojlantiradi.

San’atshunoslik nuqtayi nazaridan estetik madaniyat nafaqat san’atni tushunish, balki estetik qadriyatlarni kundalik hayotga tatbiq eta olishni ham nazarda tutadi.

Qadimgi Yunonistonda estetik tarbiyaning maqsadi, fuqarolarni har tomonlama kamol toptirib, “ruh va tana” mukammalligi va uyg‘unligini qaror toptirishga qaratilgan edi. Suqrot, o‘z nutqida, “chiroyli”, “yaxshi” va “foydali” tushunchalarni ifodalaydi.

Abdulla Sher ta’kidlaganidek: Estetik madaniyat shaxs-jamiyat-shaxs tizimida mavjud bo‘lib, bunda shaxs madaniyati ustuvor ahamiyatga ega. Ya’ni estetiklashga shaxs jamiyatni estetiklashtiradi, estetiklashgan jamiyat esa, o‘z navbatida yangi darajadagi estetiklashgan shaxsni yaratadi va shu tartibdagi o‘zaro ta’sir millatning qadam-baqadam komillik darajasiga ko‘tarilishi uchun xizmat qiladi[1, 18].

Natija. Estetik madaniyatning rivojlanishi shaxsiy va ijtimoiy omillarga bog‘liq holda bosqichma-bosqich shakllanadi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Boshlang‘ich bosqich (ilk bolalik) — bu bosqichda estetik madaniyat asosan oila va atrof-muhit ta’sirida shakllanadi. Bolaning ranglar, tovushlar, shakllarga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Bu bosqichda ona tili, ertaklar, bolalar musiqasi, rang-barang muhit katta rol o‘ynaydi.

2. Tarbiyaviy bosqich (maktab davri) — estetik madaniyat maktab ta’limi orqali rivojlanadi. Dars jarayonida musiqa, tasviriy san’at, adabiyot va teatr kabi fanlar orqali estetik did va idrok boyitiladi. Maktabda estetik tarbiya jamiyat tomonidan ma’qullangan qadriyatlarga asoslanadi.

3. Ijodiy bosqich (yoshlar va kattalik davri) — bu bosqichda insonda mustaqil estetik qarashlar, ideal va ehtiyojlar shakllanadi. Estetik ong rivojlanadi, ijodiy faoliyat kengayadi. Shaxs hayotni go‘zallashtirishga ongli ravishda harakat qiladi.[4]

4. Ijtimoiy-madaniy bosqich (jamiyat darajasida) — bu bosqichda estetik madaniyat milliy va umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismiga aylanadi.

Estetik qadriyatlar madaniy meros, san’at va ommaviy madaniyat orqali avloddan-avlodga o‘tadi. Estetik madaniyat shaxsda go‘zallikka, nafislikka, poklikka intilishni kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida axloqiy madaniyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Estetik qadriyatlar orqali inson o‘zining ichki dunyosini boyitadi, jamiyatda ma’naviy uyg‘unlikka erishiladi. Shu sababli, estetik madaniyatni rivojlantirish barkamol avlod tarbiyasining ajralmas qismi hisoblanadi[5].

Estetik madaniyat inson hayotining barcha sohalariga — mehnat, muloqot, uy-joy, libos, hatto texnologiyalar dizayniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu esa uni nafaqat san’at sohasi, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun zaruriy omilga aylantiradi.

Xulosa. Estetik madaniyat bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida estetik qadriyatlar orqali o‘zining ichki dunyosini boyitgan, jamiyatda go‘zallik, nafislik, uyg‘unlik kabi tushunchalarni shakllantirgan. Ushbu maqolada tahlil etilganidek, estetik madaniyat — bu insonning go‘zallikni anglash, his etish, baholash va yaratishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va ijtimoiy tayyorligini ifodalovchi murakkab madaniy hodisadir. Estetik madaniyat o‘z ichiga bir necha muhim tarkibiy qismlarni oladi: estetik ehtiyoj, estetik ideal, estetik bilim va tafakkur, estetik his-tuyg‘ular hamda estetik faoliyat. Har bir komponent insonning estetik ongini shakllantiradi, uni badiiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetishiga zamin yaratadi. Shu bois, estetik madaniyatni rivojlantirish – bu faqatgina san’at bilan shug‘ullanish emas, balki har bir kishining kundalik hayotda go‘zallikni yaratish va qadrlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Jamiyat taraqqiyotida estetik madaniyatning ahamiyati beqiyosdir. U nafaqat inson didi va ijodkorligini oshiradi, balki axloqiy me’yorlar, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy ong shakllanishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv va axborot oqimi kuchayib borayotgan hozirgi zamonda estetik madaniyat milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Estetik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya, ijtimoiy loyihalar, san’at va madaniyat sohasidagi islohotlar davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Estetik madaniyat ko‘p darajali va integrativ hodisa bo‘lib, uning mazmuni falsafiy, pedagogik va san’atshunoslik yondashuvlarning uzviy birligi asosida ochib beriladi. Falsafiy yondashuv estetik madaniyatning ontologik va aksiologik asoslarini belgilasa, pedagogik yondashuv uni shakllantirish mexanizmlarini, san’atshunoslik yondashuv esa estetik tajribaning mazmuniy manbalarini yoritadi. Ushbu yondashuvlarning uyg‘unligi bo‘lajak mutaxassislarning, xususan pedagoglarning estetik madaniyatini rivojlantirish metodikasini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kadirova D.S. Nafosat falsafasi. Darslik. – Toshkent.: “Mumtoz so’z” nashriyoti. 2022. 438 b.

2. Rasulov A. Estetik madaniyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2016. – 240 b.

3. Abdulla Sher. Estetika . Darslik. – Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti. 2015.

4. Yuldasheva N. Madaniyat va estetik tafakkur rivoji. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2022. – 180 b.6.

5. G‘ulomov X. Milliy qadriyatlar va estetik tarbiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2015. – 200 b.

JINOYATCHILIKKA QARSHI TA’LIMIY TADBIRLAR: MAKTAB, OILA VA JAMOATCHILIK O‘RTASIDAGI HAMKORLIK

Sharipov Baxodirxo‘ja Zarifovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, Buxoro viloyat Ichki Ishlar Boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

Annotatsiya. Jamiyatda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish muammosi global dolzarblikka ega bo‘lib, uni hal etishda ta’lim muassasalari, oila va jamoat tashkilotlarining o‘zaro integratsiyalashgan hamkorligi muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada jinoyatchilikka qarshi profilaktik ishlarning targ‘ibot-ta’limiy yo‘nalishlari tahlil etilib, maktab — oila — jamoatchilik kollaboratsiyasi orqali yosh avlodda huquqiy ong va sotsial javobgarlikni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari taklif etiladi. Ta’limiy klasterlar, multiagentlik hamkorlik, raqamli huquqiy savodxonlik va patronaj modeli kabi zamonaviy yondashuvlar yoshlarni jinoiy ta’sirlardan himoya qilishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, maqolada profilaktik tadbirlarning ilg‘or xalqaro tajribasi ham tahlil qilinadi va milliy tizimda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: profilaktik ta’lim, huquqiy ong, sotsiokultur xavfsizlik, maktab-oila-jamoatchilik kollaboratsiyasi, jinoyatchilikni oldini olish, raqamli huquqiy savodxonlik, targ‘ibot-ta’limiy mexanizmlar, multiagentlik hamkorlik, patronaj tizimi, fuqarolik jamiyati instituti.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida jamiyatning barqarorligi va xavfsizligini ta’minlash muhim ijtimoiy-ijtimoiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Aholi, ayniqsa bolalar va o‘smirlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bugungi kunda nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki ta’lim muassasalari, oilalar va jamoat tashkilotlari zimmasiga ham yuklatilgan. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy profilaktika konsepsiyasi tobora dolzarb tus olmoqda. U nafaqat mavjud muammoni bartaraf etishga, balki uning ildiz sabablarini bartaraf etish va kelgusida takrorlanishini oldini olishga yo‘naltirilgan kompleks, ilmiy asoslangan va tizimli chora-tadbirlar majmuasini anglatadi.

Ijtimoiy profilaktika shaxsning sog‘lom ijtimoiylashuvini ta’minlash, qonuniylik va axloqiy me’yorlar ustuvorligini qaror toptirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy sharoitlarni yaratadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar – bolalar, o‘smirlar va asotsial hayot tarzini olib borayotgan fuqarolar ushbu yondashuvdan keng qamrovli foyda olishi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasi va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, “Oila kodeksi”, shuningdek, Prezidentning 2021-yil 13-yanvardagi PQ-4954-sonli qarori asosida jinoyatchilikning oldini olish va yoshlar bilan ishlash sohasida kompleks tizim yaratilmoqda. Maktab va mahalla institutlari, xususan, «mahalla–maktab–ota-ona» uchburchagi asosida tashkil etilayotgan hamkorlik tizimi bolalarda huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Ta’lim tizimi doirasida ijtimoiy profilaktikaga zamonaviy yondashuvlar faqat jazolash yoki muammoni bartaraf etishga emas, balki uning oldini olishga – ya’ni salbiy oqibatlarga olib keluvchi psixologik va ijtimoiy omillarni aniqlash, ularni erta bosqichda bartaraf etishga qaratilgan. Bu esa resurslarni tejash, muammoni yengilroq shaklda hal qilish va sog‘lom ijtimoiy muhitni qaror toptirish imkonini beradi.

Ijtimoiy profilaktika jarayonida maktab, oila va jamoat tashkilotlarining integratsiyalashgan hamkorligi asosida jinoyatchilikning oldini olishga oid tizimli

yondashuvlar, amaliy mexanizmlar va samaradorlik omillari borasida ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyati mavjud.

So‘nggi yillarda jinoyatchilikning oldini olish va ijtimoiy profilaktika masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularning asosiy e’tibori fuqarolarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy xavf-xatarlarni erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan.

Rossiya va G‘arb olimlari orasida N.F. Kuznetsova, I.A. Ilyin, A.V. Naumova, R.M. Valeev, L.L. Matison kabi tadqiqotchilar ijtimoiy profilaktikani huquqbuzarlikning sababini aniqlovchi, jamiyatda salbiy ijtimoiy illatlar tarqalishini oldini oluvchi tizimli faoliyat sifatida izohlaydi. Jumladan, Naumovaning ta’kidlashicha, ijtimoiy profilaktika – bu nafaqat ogohlantiruvchi, balki ijtimoiy muvozanatni tiklovchi mexanizmdir [Naumova A.V., 2019].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham bu yo‘nalish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan: X. Xodjayev o‘z izlanishlarida jinoyatchilikni kamaytirish uchun maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi. U ta’lim muassasalarida huquqiy targ‘ibot, yoshlar bilan individual ishlash, ijtimoiy xizmatlarning faol integratsiyasi orqali salbiy xatti-harakatlarning oldini olish mumkinligini asoslaydi [Xodjayev X., 2022]. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan e’lon qilingan metodik tavsiyalarda esa jinoyatchilikka qarshi kurashda “mahalla–maktab–oila” uchburchagi asosidagi monitoring tizimi samaradorligi alohida ta’kidlanadi. Ushbu tizimda ta’lim muassasalari psixologlari, mahalla faollari, profilaktika inspektorlari va ota-onalar o‘rtasida doimiy aloqa kanallarining mavjudligi samarali natijalar beradi. Sh. G‘ulomov ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarning oldini olishda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ayniqsa maktabdan keyingi mashg‘ulotlar, sport to‘garaklari va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ahamiyatini tahlil qilgan [G‘ulomov Sh., 2020].

Xalqaro miqyosda esa AQShning 21-asr jamoat o‘quv markazlari dasturi (21st Century Community Learning Centers) maktabdan keyingi faoliyatlar orqali jinoyatchilikka qarshi samarali ta’limiy profilaktik model sifatida e’tirof etilgan. Little (2011) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu dastur maktablar va jamoat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy profilaktika bo‘yicha samarali tizim yaratish uchun quyidagi omillar muhim:

- fan va amaliyotning integratsiyasi;
- hududiy xususiyatlarni hisobga olish;
- yosh toifasiga mos yondashuvlar;
- maktab–mahalla–ota-ona hamkorligining doimiyligi va tizimliligi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaror va farmonlari, xususan, PQ-4954 (2021) va PQ-5280 (2021) qarorlari jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy himoya va yoshlar bilan ishlash tizimining normativ asosini belgilab bergan. Ushbu hujjatlar asosida ta’lim muassasalari va jamoat tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichi boshlandi.

“Ijtimoiy profilaktika” tushunchasining etimologik ildizlarini o‘rganganimizda, “profilaktika” atamasi dastlab tibbiyot fanida shakllanib, kasalliklarning oldini olish, sog‘liqni saqlash va aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini anglatganini ko‘rish mumkin. Shu bois, ijtimoiy kontekstda ushbu tushuncha normal holatni saqlash va mustahkamlashga, ayniqsa ijtimoiy xavfsizlik, qonun-tartibot va madaniy muhitda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy profilaktika – bu shaxs hayotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy

jarayonlarning oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan va o‘z vaqtida amalga oshiriladigan faoliyatlar tizimidir. Bu faoliyatlar, bir tomondan, jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi salbiy ijtimoiy omillarni bartaraf etishga, ikkinchi tomondan, sog‘lom ijtimoiylashuvni rag‘batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratishga qaratiladi. Profilaktikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi salbiy ijtimoiy omillarni bartaraf etish;
- fuqarolarda huquqiy madaniyat va qonunchilikka hurmatni shakllantirish;
- ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
- voyaga yetmaganlar o‘rtasida g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish;
- ijtimoiy muhitda tartib-intizomni mustahkamlash va fuqarolik mas’uliyatini oshirish.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy profilaktika sohasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning 2021-yil 5-noyabrdagi PQ–5280-sonli qarori asosida “Yoshlar bilan tizimli ishlash va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi. Shu bilan birga, Mahalla kodeksi, Oila kodeksi va Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda ham bolalar va o‘smirlar tarbiyasi, profilaktik ishlarning huquqiy asoslari aniq belgilab qo‘yilgan.

Ijtimoiy profilaktikani samarali amalga oshirishda umumiy, maxsus va individual darajadagi chora-tadbirlar alohida o‘rin tutadi (1-jadval). Bu choralar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1-jadval. Ijtimoiy profilaktika choralarining darajalari

Umumiy choralar Maxsus choralar Individual choralar

Aholining huquqiy ongi va madaniy saviyasini oshirish, ta’lim va dam olish imkoniyatlarini kengaytirish Voyaga yetmaganlar o‘rtasida ma’muriy va jinoyat huquqbuzarliklarining oldini olish bo‘yicha ma’rifiy ishlar Jinoyat sodir etgan shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish, ularning reabilitatsiyasi bilan shug‘ullanish

Profilaktikaning birlamchi darajasi esa muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-psixologik omillarning oldini olishga xizmat qiluvchi tizim va tuzilmalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bu tizim quyidagi faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

- xavf guruhidagi shaxslar bilan individual ishlash;
- maktab–oila–mahalla o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi;
- bolalar va yoshlar uchun ijtimoiy foydali bandlik va mashg‘ulotlar tizimini yo‘lga qo‘yish;
- maktabdan keyingi ta’lim va tarbiyani qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu choralar orqali jinoyatchilikka qarshi kurash faqat jazolash emas, balki oldini olish, tarbiyalash va integratsiyalashgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi lozim.

Huquqbuzarliklarning, xususan jinoyatlarning ijtimoiy profilaktikasini samarali amalga oshirishda kompleks yondashuv va rejalashtirish tamoyillariga qat’iy rioya qilish zarur. Ijtimoiy profilaktikaning mohiyati — mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni erta bosqichda aniqlash, ularning sabablari va sharoitlarini yo‘qotish, fuqarolarda huquqiy ong va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar, xususan, “Yoshlar bilan ishlashning samarador tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–5280-sonli qaror, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyati, maktab-mahalla-oila integratsiyasini mustahkamlashga qaratilgan siyosat profilaktika ishlarining davlat darajasida rejalashtirilayotganini ko‘rsatadi.

Huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi bo‘yicha kompleks rejalashtirishda quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olish zarur (3-jadval):

2-jadval. Ijtimoiy profilaktikani rejalashtirish tamoyillari tizimi

№ Rejalashtirish tamoyili Mazmuni

1 Haqiqat printsipi Rejaga real imkoniyatlar (moliyaviy, texnik, insoniy resurslar) bilan ta’minlanadigan amaliy chora-tadbirlar kiritilishi kerak.

2 Qonuniylik printsipi Har qanday tadbir amaldagi qonunchilikka to‘liq mos kelishi, huquqiy asosga ega bo‘lishi lozim.

3 Direktivlik printsipi Rejadagi choralar o‘z vaqtida, majburiy va to‘liq amalga oshirilishi kerak.

4 Tizimlilik printsipi Choralar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi va barcha sub’yektlar faoliyati muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi kerak.

5 Aniqlik va mas’uliyat printsipi Har bir tadbirga aniq muddat, mas’ul ijrochi va kutilyotgan natija belgilanadi.

Profilaktika chora-tadbirlari aholining turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar o‘rtasida g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, shuningdek, fuqarolarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Jumladan:

- mehnat va ta’lim sharoitlarini yaxshilash;
- madaniy-ma’rifiy ishlarni faollashtirish;
- sport va san’at to‘garaklarini kengaytirish;
- jinoyat sodir etgan shaxslarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish.

Shuningdek, profilaktika samaradorligi quyidagilar asosida baholanadi:

- jinoyatlar dinamikasidagi o‘zgarishlar;
- jamoatchilik faolligi va ishtiroki darajasi;
- yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik holatlarining kamayishi;
- ta’lim va madaniyat sohalarida kadrlar almashinuvi va ijobiy o‘zgarishlar.

Reja asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini aniqlash uchun sotsiologik tadqiqotlar, monitoring tizimlari va ijtimoiy tahlil vositalaridan foydalanish zarur.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy profilaktikaning muvaffaqiyati:

- yashash va mehnat muhitida barqaror ijtimoiy nazorat o‘rnatilishi;
- mahalla, maktab va oila o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik;
- davlat va nodavlat tuzilmalar o‘rtasida aniq rollar va mas’uliyat taqsimoti bilan chambarchas bog‘liq.

Xulosa. Jamiyatda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bugungi kunda davlat va jamoatchilik oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlandiki, jinoyatchilikka qarshi samarali profilaktik tadbirlarni tashkil etishda maktab, oila va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida huquqiy ong va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ta’lim muassasalari, ota-onalar va mahalla faollarining uyg‘un harakati asosiy rol o‘ynaydi.

Profilaktika faoliyatida o‘zaro muvofiqlashtirilgan kompleks yondashuv, real ijro mexanizmlari, qonunchilik asoslari hamda axborot-targ‘ibot ishlari asosiy ustuvorlik sifatida namoyon bo‘ldi. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka yo‘naltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, turli ijodiy va sport to‘garaklari, debatlar, huquqiy mashg‘ulotlar orqali shaxs tarbiyasiga ta’sir o‘tkazish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, jinoyatchilikning oldini olishda mahalla–maktab–ota-ona hamkorligi

tizimini yanada takomillashtirish, har bir sub’ekt faoliyatini aniq vazifalar bilan belgilash, ijtimoiy profilaktikada birlamchi, maxsus va individual chora-tadbirlarni maqsadli amalga oshirish zarur.

Umuman olganda, profilaktika faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi omillar aniqlanib, bartaraf etishga qaratilgan ishonchli monitoring tizimini joriy etish;
- huquqiy tarbiya va sotsial xizmatlarni ta’lim tizimiga integratsiyalash;
- aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan keng qamrovli davlat dasturlarini qo‘llab-quvvatlash;
- sohadagi kadrlar salohiyatini oshirish hamda faol jamoatchilik ishtirokini ta’minlash.

Mazkur tadqiqot natijalari jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ta’limiy tadbirlarning samaradorligini oshirishda, shuningdek, maktab, oila va jamoat tashkilotlari o‘rtasida tizimli va uzviy hamkorlikni tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 yanvardagi “Jinoyatchilikning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta’minlashni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4954-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi PQ–5280-son Qarori – “Yoshlar bilan tizimli ishlash va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. Mahalla kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
4. Xo‘jaev, X. (2022). Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishda ta’lim muassasalari va jamoatchilikning hamkorligi. – Toshkent: “Ijtimoiy fikr” nashriyoti.
5. Go‘lumov, Sh. (2020). Ijtimoiy xatarli hodisalarning profilaktikasida ma’naviy tarbiyaning o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat.
6. O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Ijtimoiy xavfsizlikni tahlil qilish markazi. (2021). Profilaktika ishlarini tashkil etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent.

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA MEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Chorshanbiyev Zafar Esanpulatovich,
Qarshi davlat texnika universiteti professori, p.f.d., (DSc)
Nekboyev Xurshid Xoliyorovich,
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, p.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya. Maqolada axborot sohasidagi globallashuv insoniyat manfaati yo‘lida, dunyo barcha mintaqalaridagi odamlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni rivojlantirish uchun, ilm-fan va madaniy boylikni yuksaltirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayon ekanligi haqida mulohazalar yuritilgan.

Globallashuvning ijobiy tomonlari, axborot sohasidagi globallashuv insoniyat manfaati yo‘lida, dunyo barcha mintaqalaridagi odamlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni rivojlantirish uchun, ilm-fan va madaniy boylikni yuksaltirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir. Shu bilan birga, ayrim yovuz kuchlar bu axborot texnologiyalaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanayotganini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ularning harakatlari odamlarning tinch hayotiga xalal berayotgani tashvishlanarli holdir.

Kalit so’zlar. Axborot, multimedia, axborot texnologiyalari, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar va boshqalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Чоршанбиев Зафар Есанпулатович,
Профессор Каршинского государственного технического университета, кандидат наук (DSc)
Некбоев Хуршид Холиёрович, Каршинского университета, кандидат наук (PhD)

Аннотация. В статье рассматривается тот факт, что глобализация в информационной сфере представляет собой процесс, создающий огромные возможности на благо человечества, для развития взаимного общения между людьми во всех регионах мира, для приумножения научного и культурного богатства.

Положительные аспекты глобализации, особенно глобализации в информационной сфере, представляют собой процесс, создающий огромные возможности на благо человечества, для развития взаимопонимания между людьми во всех регионах мира, для продвижения научного и культурного богатства. В то же время не следует упускать из виду, что некоторые злонамеренные силы используют эти информационные технологии в злонамеренных целях. Вызывает озабоченность тот факт, что их действия нарушают мирную жизнь людей.

Ключевые слова. информация, мультимедиа, информационные технологии, критическое мышление, педагогические технологии и др.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING MEDIA TECHNOLOGIES IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

Chorshanbiyev Zafar Esanpulatovich,
Professor of Karshi State Technical University, Ph.D., (DSc)
Nekboyev Khurshid Kholiyorovich,
Associate Professor of Karshi State Technical University, Ph.D., (PhD)

Abstract. This article examines the fact that globalization in the information sphere is a process that creates enormous opportunities for the benefit of humanity, for the development of mutual communication between people in all regions of the world, and for the enhancement of scientific and cultural wealth.

The positive aspects of globalization, globalization in the information sphere, are a process that creates enormous opportunities for the benefit of humanity, for the development of mutual communication between people in all regions of the world, for the promotion of scientific and cultural wealth. At the same time, it should not be overlooked that some evil forces are using these information technologies for malicious purposes. It is a matter of concern that their actions are disrupting the peaceful life of people.

Keywords. information, multimedia, information technology, critical thinking, pedagogical technologies, etc.

Kirish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida barkamol shaxsni tarbiyalash umummilliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim masala va ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu maqsadga erishishning eng samarali vositalaridan biri o‘quv jarayoniga ilg‘or ta’lim shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning texnik va axborot vositalarini joriy etishdir. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun o‘qituvchi nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalariga, balki ma’lumotni uzatish va qayta ishlash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi, shuningdek, o‘quvchilarda axborot madaniyatini shakllantira olishi lozim. [1]

Hozirgi kunda yangi ta’lim paradigmasi ta’lim muassasalarida o‘qituvchining o‘z bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini ta’limga bo‘lgan onglilik darajasidan shaxsiy rivojlanishni boshqarish darajasiga ko‘tarishdan iboratdir. Bu ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning asosiy vositasi bo‘lib, davlat, mehnat bozori va jamiyatning ehtiyojlarini eng maqbul tarzda qondirishga imkon beradigan axborot texnologiyalari ushbu jarayonda alohida o‘rin tutishini anglatadi.

Globallashuvning ijobiy tomonlari ko‘p bo‘lib, axborot sohasidagi globallashuv insoniyat manfaati yo‘lida, dunyo barcha mintaqalaridagi odamlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni rivojlantirish uchun, ilm-fan va madaniy boylikni yuksaltirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir. Shu bilan birga, ayrim yovuz kuchlar bu axborot texnologiyalaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanayotganini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ularning harakatlari odamlarning tinch hayotiga xalal berayotgani tashvishlanarli holdir [2].

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Internetdagi axborot hujumi yoshlarning ongini kemirib, ularning kelajagini barbod qilish bilan barobardir. Shu nuqtai nazardan, ushbu zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan yanada ijobiy maqsadlarda foydalanish yo‘llarini izlash mantiqan

to‘g‘ri bo‘ladi. Bunday samarali usullardan biri ommaviy axborot vositalari texnologiyalari orqali ta’limni yanada rivojlantirishdir. Shu sababli, talabalarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, ularni turli mafkuraviy tajovuzlardan himoya qilishda media ta’limidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotning metodologik asosini bakalavriat ta’lim jarayonida media ta’lim orqali ta’limni tashkil etish jarayonida pedagogik hodisalarni tahlil qilish va tavsiflashda qo‘llaniladigan modellashtirish yondashuvi nazariyasi tashkil etadi.

Ushbu meyoriy-huquqiy tadqiqot metodologiyasi O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», oliy ta’lim sohasidagi davlat va hukumat qarorlari va ko‘rsatmalariga asoslanadi [3].

Tadqiqot usullari: Bakalavr ta’limi kurslarida o‘quv muassasalaridan foydalangan holda media ta’lim, tegishli adabiyotlarni o‘rganish, kuzatish, tajriba, statistik tahlil va natijalarni matematik tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Kompyuterli multimedia paydo bo‘lishi bilan media ta’lim sohasida axborot texnologiyalari qo‘llanila boshlandi. Mediata’lim sohasi xodimlarining asosiy vazifasi — ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan kurslar mazmunini tahlil qilish, ulardan o‘quv mavzulari uchun samarali didaktik material sifatida foydalanish hamda mustaqil yangiliklar matnlarini yaratishdan iborat. Mediata’lim — bu talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, axborotni tahlil qilish va qayta ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, fanlarni chuqurroq anglash va axborot savodxonligini yuksaltirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. [4].

Media ta’lim texnologiyasi - bu ta’lim jarayonida alohida fanlar va intizomlarni birgalikda o‘qitishga yordam beradigan amaliy faoliyatdir. Chunki media ta’limning asosiy vazifasi xalqaro muloqot olamida umumiy axborot ko‘nikmalari, axborot madaniyati, muloqot etikasi va estetikasini shakllantirishdan iborat [5]. Media ta’limning pedagogik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: media ta’lim pedagogik zaruriyat sifatida axborotni erkin talqin qilish va tushunish natijasida yuzaga kelgan, media ta’lim pedagogik paradigmani shakllantirgan. Olingan ma’lumotlar asosida o‘qituvchi va o‘quvchi teng huquqlarga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ta’lim bermaydi, balki olingan ma’lumotlarni tushunishning turli darajalarida dunyoni anglashga yordam beradi, media ta’lim o‘qituvchisi zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanish madaniyatiga ega bo‘lishi kerak, o‘quvchi zamonaviy medianing texnik jihatlari haqida o‘qituvchidan ko‘ra ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi ta’limni tezlashtirish va samaradorligini oshirish uchun undan qanday foydalanishni bilishi kerak.

Zamonaviy ta’lim taraqqiyotini belgilaydigan asosiy omillardan biri tashqi media muhitining ta’siri tobora kuchayib borayotganidir. Bugungi kunda ta’lim muhitining eng muhim jihatlaridan biri media aloqa vositalari (ommaviy axborot vositalari, radio, kino, televideniye, kompyuter, multimedia jihozlari) hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari - og‘zaki, audio va vizual ma’lumotlarni uzatuvchi hamda markazlashgan tarzda tarqatuvchi tashkiliy-texnik majmuadir. Zamonaviy talabalar hayotida ommaviy axborot vositalarining o‘rnini hisobga olgan holda, hozirgi zamon media kommunikatsiyasi o‘smirlar uchun nafaqat ta’limiy ahamiyatga ega ma’lumot manbai, balki ularning dunyoqarashini shakllantiradigan omillardan biri ekanligini ta’kidlash zarur. Bu holat turli xil media matnlarni shunchaki passiv tushunish orqali emas, balki eng avvalo, ommaviy kommunikatsiya tilidan foydalanib o‘z matnlarini

yaratishga urinish jarayonida yuzaga keladi.

Talabalar kundalik hayotda media matnlar bilan to‘qnashadi. Ularni o‘zlashtirish, tushunish va o‘ziga xos matnlar yaratish ularning axborot madaniyati mavjudligini namoyon etadi. Biroq, axborot madaniyatining shakllanishi faqatgina o‘qituvchi va talabalarning maqsadli faoliyati orqali yuzaga keladi. Aynan shu nuqtada zamonaviy ta’limda keng qamrovli texnologiyalardan foydalanish va ularni rivojlantirish zaruriyati tug‘iladi, bu esa media ta’limning ahamiyatini oshiradi. Postindustrial jamiyatda axborot madaniyatiga ega bo‘lish kompyuter tarmoqlari, kutubxonalar va media kutubxonalardan bilim va yo‘nalish olishni anglatadi. Shuningdek, axborot madaniyatining mavjudligi axborotni izlash, uzatish, ko‘rib chiqish va tahlil qilishning maxsus usullari hamda ko‘nikmalariga ega bo‘lishni ham o‘z ichiga oladi.

Mediata’lim zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. U axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga, ta’limiy-metodik majmualarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladi. Bu jarayon, ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayoni jadal kechayotgan hozirgi davrda, zamonaviy maktablar va ta’lim muassasalari uchun eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Maktablarda media ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin [6]. Integratsiyalashgan media ta’lim, ya’ni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida muayyan fanlar doirasida media matnlardan foydalanish orqali media ta’limni uyg‘unlashtirish. Zamonaviy media amaliyotlarini o‘zlashtirish - maktab nashrlari ustida ishlash, maktab kino va televideniye studiyalarida montaj qilish hamda videotasvir olish asoslarini o‘rganish. Mazkur yo‘nalishlarning uyg‘unlashuvi butun ta’lim jarayonida media texnologiyalarni faollashtirish uchun qo‘llaniladigan murakkab media ta’limni shakllantiradi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Integratsiyalashgan media ta’limida talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish haqida batafsil to‘xtalamiz. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari nafaqat o‘quv jarayonida foydalanish uchun ma’lumotlarni to‘plash va tekshirish, balki tanqidiy fikrlashning rivojlanishini tahlil qilish, umumiy va yo‘l qo‘yiladigan xatolarni aniqlash, ma’lumotlarga nisbatan shaxsiy ishonch darajasini oshirish va ishlab chiqish jarayonida maxfiy ma’lumotlarga nisbatan tanqidiy fikrlash faoliyatini belgilashni ham o‘z ichiga oladi. Misol uchun, ekran tasvirining sun’iy xususiyati auditoriya yoki o‘quv mashg‘ulotlarida turli xil ma’lumotlar uchun cheksiz imkoniyatlarni bevosita yaratadi.

Bu yerda biz media turizmning asosiy maqsadini, ya’ni talabalarni axborot loyihalariga asoslangan holda hayotga va zamonaviy jamiyatga tayyorlashni bevosita amalga oshirish mumkin, deydi pedagogika fanlari doktori L.S. Zaznobi, bu tushuncha mediatizatsiyaning asosiy mazmuniga asoslanadi.

Ta’lim jarayonining pedagogik maqsadlari nuqtai nazaridan, mediatizatsiya texnologiyalaridan foydalanish shaxsning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi universal pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, ta’lim faoliyatining mohiyati an’anaviy o‘quv dasturidan keskin farq qilishini hisobga olish zarur. Avvalo, ta’lim usullari sezilarli darajada o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda o‘qituvchi multimedia texnologiyalari sohasida yetarli nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi, shu bilan birga o‘quvchilarning shaxsiy ijodkorligi va kreativ salohiyatini rag‘batlantiradigan

maxsus pedagogik strategiya va metodik yondashuvlardan samarali foydalanishi lozim. Ikkinchidan o‘quv dasturining ma’lum qismlari o‘quvchilarga bog‘liq. Ya’ni, bu o‘quvchining faoliyati va shaxsiy qiziqishlariga bevosita aloqador. Bu esa o‘quv materiallarini, o‘qituvchi va o‘quvchining tashabbuskorligini talab etadi.

Dars o‘tkazish mahoratini oshirish uchun o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ma’lumot berishi, ta’limning multimedia turlaridan foydalanishni nazorat qilishi va sinfdagi kichik o‘zgarishlarga e’tibor qaratishi lozim. Masalan, badiiy filmlar tahlili natijasida quyidagi jihatlar aniqlangan: 1. Hayotiy darajani idrok etish (syujetning hayotiy sabablari, xarakterlar bilan aloqadorligi). 2. Ijtimoiy daraja (psixologiya, shaxsiyat, qahramonlarning ijtimoiy mavqeini chuqurroq tasvirlovchi fan). 3. Badiiy tasvir darajasi (ekrandagi tasvir va uning tarkibiy qismlari: ekran tasvirining muhim qismlariga izoh, o‘zaro ta’sir xususiyatlari, aktyorning xarakteri, kadr, suratga olish, yoritish, umumiy tasvir, rang tanlash, montaj jarayoniga alohida e’tibor qaratish). 4. Muallif g‘oyasini tushunish darajasi (muallif nimani targ‘ib qilmoqchi ekanligini xulosa qilish qobiliyati). 5. Muallifning shaxsiy darajasiga oid bahsli muloqot tushunchasiga asoslangan ishlab chiqarish va ekran muammolari tufayli muallifning yuzaga kelishi.

Estetik ma’lumotlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular ko‘pincha yuqori darajada tushunish osonroq, chunki ular mifologlar va qadimgi tafakkurning xususiyatlari hali aniq bo‘lmagan epik qahramonlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [7]. Asardagi har bir o‘smirning natijasi mahorat orqali bilimning rivojlanishiga olib keladi va bu estetik jihatdan isbotlanadi. Darsda namoyish etiladigan videolarni to‘g‘ri tanlash o‘qituvchi uchun juda muhimdir. Tomoshabinlarga iloji boricha qiziqarli bo‘lishi kerak bo‘lgan bir nechta aniq maslahatlar mavjud (masalan, bolalar hali ko‘rmagan yoki unutib yuborgan filmlar). Biroq, ko‘p hollarda nuqtai nazar va manfaatlar farqi tufayli kelishuvga erishish qiyin bo‘ladi. Bunday holatlarda bizga tushunish bilan bog‘liq maxsus anglash mexanizmi kerak bo‘ladi. Shu sababli, media ta’lim texnologiyalari zamonaviy ta’lim muhitida mantiqiy elementga aylanib bormoqda.

Tanqidiy fikrlash shaxsning badiiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish asosi bo‘libgina qolmay, zamonaviy maktablarni o‘zgartirish oqimining negizi hamdir. O‘rtacha akademik meyorlarga asoslangan ommaviy axborot vositalaridan oldingi ta’limning turli shakllari mavjudligini ta’kidlash lozim. Ikkinchi avlod standartlarining joriy etilishi ta’lim jarayonida media ta’lim texnologiyalarining ahamiyatini oshirmoqda va endi biz ularni hayotga tatbiq etishimiz zarur. Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayonida media ta’limdan foydalanishga oid nazariy ma’lumotlar tahlil qilindi. Xususan, media ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonida muayyan kurslar va fanlarni birgalikda o‘qitishga ko‘maklashadigan amaliy vositadir.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Oliy ta’lim tizimida ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalangan holda media ta’lim orqali ta’limni samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bakalavriat ta’lim jarayonida media ta’limdan foydalanish talabalarda samarali natijalarga erishish va o‘zini-o‘zi rivojlantirish mas’uliyatini oshiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda media ta’lim vositalari va texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Kasbiy faoliyatda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun zaruriy ko‘nikmaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5099-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3249651
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/6079561
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori. https://lex.uz/docs/3153714

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA EVRISTIK METODLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Choriyeva Zebiniso Odilovna,
Buxoro shahar 76-maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish muhim sanaladi. Maqolada shu haqda fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: evristik metodlar, Elementar matematik malakalar, Intellektual anglash, obrazli tafakkur, maqlidga moyillik, bilish jarayonlari, qiziqish va ijodkorlik.

Аннотация:Использование эвристических методов в развитии познавательных процессов у детей дошкольного возраста, формировании способности принимать правильные решения в проблемных ситуациях, считается важным. В статье рассматривается этот вопрос.

Ключевые слова: эвристические методы, элементарные математические навыки, интеллектуальное восприятие, образное мышление, склонность к подражанию, познавательные процессы, интерес и креативность.

Annotation: Ispolzovanie euristicheskikh metodov v razvitii poznavatelnyx protsesov u detey doshkolnogo vozrasta, formirovanii konnosti prinimat pravilnye reshenia v problemnyx situatsiyax, schitaetsya vajnym. V state rassmatrivaetsya etot vopros.

Key words: heuristic methods, elementary mathematical skills, intellectual perception, figurative thinking, tendency to adapt, cognitive processes, interest and creativity.

Maktabgacha yosh — bolaning intellektual rivojlanishida eng muhim va hal qiluvchi davrlardan biridir. Aynan shu bosqichda bola atrof-olamni anglash, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish va dastlabki xulosalar chiqarishga o‘rganadi. Intellektual anglash malakalari bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bolalarda mustaqil fikrlash, qiziqish va ijodkorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Evristik metod — bu bolani tayyor bilim bilan emas, balki savol berish, izlanish, taxmin qilish va xulosa chiqarish orqali bilimga olib keluvchi o‘qitish usulidir. Ushbu metod maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiiy qiziquvchanligiga tayangan holda ularning bilish faoliyatini faollashtiradi.

Maktabgacha yoshda quyidagi bilish jarayonlari faol rivojlanadi:

- Intellektual anglash malakalari
- Elementar matematik malakalar
- Tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat

Intellektual anglash — bu bolaning sezgi va idrok orqali olingan ma’lumotlarni tafakkur yordamida qayta ishlashi, ularni tushunishi va amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatidir. U kuzatish va idrok etish, taqqoslash va farqlash, tahlil va umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini anglash jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual anglash turli psixologik jihatlar bilan tavsiflanadi. Bolada qiziquvchanlikning yuqoriligi, ya’ni bola ko‘plab “nima uchun?” va

“qanday?” savollarini beradi. Obrazlilik – fikrlash ko‘proq tasvirlar va obrazlar asosida kichadi. Emotsional ta’sirchanlik – ijobiy hissiyotlar bilimni tezroq anglashga yordam beradi. Taqlidga moyillik – kattalar va tengdoshlar faoliyatini kuzatib o‘rganadi. Bu xususiyatlar hisobga olingan holda ta’lim jarayoni tashkil etilishi lozim.

Intellektual anglash malakalarining pedagogik ahamiyati shundaki, u bolaning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Turli bilimlarni ongli o‘zlashtirishga yordam beradi. Muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Nutq va muloqot madaniyatini boyitadi. Shuningdek, bu malakalar maktab ta’limiga psixologik tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida muammoli savollar va suhbatlar, didaktik va rivojlantiruvchi o‘yinlar, tajriba va kuzatish faoliyati, rasm chizish, qurish va modellashtirish, ertak va hikoyalar asosida fikrlashni faollashtirish kabi usullar ijobiy samara beradi. Mazkur usullar bolaning faolligini oshirib, bilimni tayyor holatda emas, balki anglab yetishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual anglash malakalari uning shaxs sifatida kamol topishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu malakalarni rivojlantirishda pedagog va ota-onaning hamkorligi, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayoni bolada mustahkam intellektual poydevor yaratadi.

Maktabgacha yoshda bu jarayonlar asosan ko‘rgazmali-obrazli tafakkur orqali amalga oshadi. Bola idrok orqali rang, shakl, tovushlarni farqlashni o’rganadi. Unda barqaror va ixtiyorsiz diqqatning kuchayishi kuzatiladi. Bola xotirasida – obrazlilik va emotsional xotiraning ustunligi namoyon bo’ladi. Bolada ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli tafakkur shakllari yuzaga keladi. Savol berish va fikrni ifodalash ehtiyoji kuchayadi. Evristik metodlar aynan shu jarayonlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yosh davri bolada aqliy rivojlanishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada elementar matematik malakalar shakllanib, kelgusida matematik tafakkur va mantiqiy fikrlash uchun mustahkam asos yaratiladi. Matematik malakalar bolaning kundalik hayotda mo‘ljal olishi, taqqoslash, sanash va tartibni tushunishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Elementar matematik malakalar - bu bolaning yoshiga mos holda egallaydigan dastlabki matematik bilim va ko‘nikmalar majmuidir. Ular sanash va sonlarni farqlash, miqdor va son o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, kattaliklarni taqqoslash (katta–kichik, uzun–qisqa, ko‘p–kam), geometrik shakllarni tanish va ajratish, fazoviy (o‘ng–chap, old–orqa) va vaqt (ertalab–kechqurun) tushunchalarini o’rgatishni o’zida aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik malakalar turli psixologik jihatlar asosida rivojlanadi. Bunda ko‘rgazmalilik asosida tashkil etilgan faoliyatda bola real buyumlar orqali tezroq anglaydi. O‘yin faoliyati yetakchiligida matematik tushunchalarni shakllantirish matematik materialni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Bolada qiziqish va emotsiyalar hamda ijobiy his-tuyg‘ular ular egallaydigan bilimni yanada mustahkamlaydi. Takrorlash ehtiyoji – malakalarning asta-sekin va muntazam amalga oshiriladigan mashqlar orqali shakllanadi. Shu sababli mashg‘ulotlar bolani zeriktirmaydigan, faol ishtirokni talab qiladigan shaklda tashkil etilishi zarur.

Pedagogik nuqtai nazardan elementar matematik malakalar bolaning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topish ko‘nikmasini shakllantiradi. Nutq va fikrni aniq ifodalashga yordam beradi. Maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini oshiradi. To‘g‘ri tashkil etilgan matematik mashg‘ulotlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi.

Elementar matematik malakalarni rivojlantirishning turli usullari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada samarali usullarni qo’llash asosida amalga oshiriladi.

Bunda didaktik va harakatli o‘yinlarni doimiy ravishda tashkil etish, sanash uchun predmet(kubik, tayoqcha, o‘yinchoq)lardan foydalanish, taqqoslash va guruhlash mashqlarini muntazam qo’llash, geometrik shakllar bilan ishlash, kundalik hayotda matematik vaziyat (mevalarni sanash, stol tuzash)lar yaratishda bolaning faol ishtirokini ta’minlash, ularga bilimlarni ongli ravishda egallashiga yordam beradi.

Bolada elementar matematik malakalarni rivojlantirish uning intellektual kamoloti va kelgusidagi ta’lim muvaffaqiyatining muhim omilidir. Ta’lim jarayonida bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, o‘yin va amaliy faoliyatga tayanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Pedagog va ota-onalarning hamkorligi esa ushbu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan evristik metodlar bolani ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Turli o‘yinlar, tajribaga asoslangan mashg’ulotlar, muammoli vaziyatlar orqali o‘quv jarayonini ta’minlaydi. Tarbiyachidan yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi rolni talab qiladi. Individual yondashuv va hamkorlikni kuchaytiradi.

Masalan, “Nima uchun muz eriydi?” kabi savollar orqali bola kuzatadi, taxmin qiladi va xulosa chiqaradi.

Evristik metodlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini tabiiy, qiziqarli va samarali rivojlantiradi. Ushbu metodlar bolaning psixologik xususiyatlariga mos bo‘lib, kelgusidagi ta’lim jarayoni uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi.
Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – Toshkent, 2018.
2. Lev Vigotskiy. Bolalar rivojlanishining psixologik asoslari. – Moskva, 1984.
3. Jean Piaje.Bolalar tafakkurining rivojlanishi. – Moskva, 1997.

NOFILOLOGIK OLIY TA’LIM MUASSASA TALABALARNING MUTAXASSISLIK BO‘YICHA INGLIZ TILIDA YOZMA NUTQ KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Alimov Sharabidin Soliyevich
Andijon davlat chet tillari instituti
Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada nofilologik oliy ta’lim muassasalari, xususan kimyo-biologiya fakulteti talabalarida ingliz tilida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Muallif yozma nutqni rivojlantirishda kommunikativ metod, didaktik o‘yinlar va muammoli o‘qitish texnologiyalarining ahamiyatini asoslab beradi. Tadqiqot jarayonida yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Yozma nutq kompetensiyasi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqola amaliy va nazariy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, yozma nutq kompetensiyasi, kommunikativlik, kommunikativ metod, yozuv, yozma nutq.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ И УМЕНИЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ У СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Алимов Шарабидин Солиевич
Андижанский государственный институт иностранных языков
Кандидат педагогических наук, профессор

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования письменной речевой компетенции на английском языке у студентов нефилологических высших учебных заведений, в частности студентов химико-биологического факультета. Автор обосновывает значимость коммуникативного метода, дидактических игр и технологий проблемного обучения в развитии письменной речи. В ходе исследования подчёркивается, что формирование навыков письменной речи осуществляется в два этапа. Научно доказано, что письменная речевая компетенция занимает важное место в профессиональной деятельности будущих специалистов. Статья имеет актуальное теоретическое и практическое значение.

Ключевые слова: компетенция, письменная речевая компетенция, коммуникативность, коммуникативный метод, письмо, письменная речь.

FORMATION OF WRITTEN SPEECH SKILLS AND ABILITIES IN ENGLISH FOR STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ACCORDING TO THEIR SPECIALIZATION

Alimov Sharabidin Soliyevich
Andijan State Institute of Foreign Languages
Candidate of Pedagogical Sciences, Professor

Abstract: This article discusses the issues of developing written speech competence in English among students of non-philological higher education institutions, particularly those of chemistry and biology faculties. The author substantiates the importance of communicative methods, didactic games, and problem-based learning technologies in the development of written speech skills. The study emphasizes that the formation of written

speech skills is carried out in two stages. It is scientifically proven that written speech competence plays an important role in the professional activity of future specialists. The article is relevant from both theoretical and practical perspectives.

Keywords: competence, written speech competence, communicativeness, communicative method, writing, written speech.

Kirish. Zamonaviy adabiyotlarda chet tilidagi talabalarning kompetensiyasini shakllantirish zarurligi haqida fikrlar keng tarqalgan. Bunga xozirgi kunda jahon miqyosida kechayotgan integrallashuv jarayonlari natijasida kelib chiqayotgan nutqiy muloqotga nisbatan extiyojni sabab qilib ko‘rsatish mumkin, chunki turli soxa mutaxassislari ko‘p hollarda xorijlik xamkasblari va xamkorlari bilan bo‘lgan muloqot jarayonida bir-birlarini yaxshi tushuna olmay noqulay ahvolga tushib qolmoqdalar. Shuning uchun ham oliy va kasb-xunar kollejlari bitiruvchilarida o‘rganilayotgan chet tilidagi nutqiy kompetensiyani shakllantirish dolzarb masalalardan biri deyish mumkin. Ushbu masala mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishga oid davlat xujjatlarida ham o‘z aksini topgan.

Malakali mutaxassis o‘z kasbiy faoliyati bilan bog‘liq nutqiy muloqot jarayonida chet tildan erkin foydalana olishni mutaxassisga qo‘yilayotgan standart talabalardan biri hisoblanadi [1].

Davlat ta’lim standartlarida oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet til bo‘lmagan fakultetlari bakalavriant bosqichi bitiruvchilari ta’lim standartlarining V2 darajasi talablariga javob berishi kerakligi ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra nofilologik fakultetlarning bakalavriat bosqichi bitiruvchilari o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha maxsus nomalar (xatlar), grammatik hamda mazmunan to‘g‘ri axborotlar, ilmiy maqolalar, taklif va xulosalar yoza olishlari kerakligi ko‘rsatilgan. Demak, nofilologik fakultet talabalari chet tilida kasbiy muloqot vositasi sifatida foydalana olish darajasidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi talab etiladi va bo‘lg‘usi mutaxassislarda chet tildagi yozma nutqqa xos kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni nazarda tutadi [2].

Chet tillarni o‘qitishga oid Davlat standartlarida xorijiy til o‘qituvchisiga xos bo‘lgan lingivistik kompetensiya bilan bir qatorda ijtimoiy lingivistik, pragmatik va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarni shakllantirish haqida ham so‘z yuritilgan. Bu albatta, chet tildan ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida maqsadli foydalanishga e’tiborni qaratadi. Bularning barchasi kommunikativ maqsad bilan bevosita bog‘liq holda chet til o‘qitish amaliyotida shakllantiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar ro`yhati. Mamlakatimizda chet tillarni o‘qitish sohasi darg‘alaridan biri professor J.J.Jalolov lingodidaktikaga “madaniyatlararo kognizant” atamasini olib kirdi. Bu chet tillarni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadlar tushunchasini yangicha mazmun bilan boyitdi, chunki “kognizant” deganda nafaqat o‘rganilayotgan chet til gramatikasi, leksikasi, talaffuzi, orfografiyasi haqidagi bilimlarga va o‘qish, yozish, to‘g‘ri artikulyasiya qilish texnikasiga hamda nutqiy faoliyat turlariga xos ko‘nikmalarga, balki o‘rganilayotgan chet til madaniyati bilan bog‘liq masalalarda ham muloqot qila oladigan shaxs tushiniladi [3].

Chet til o‘qitish kompetentsiya masalasi bir qator metodist olimlarning ishlarida bayon etilgan. Ular chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani shaxs ijtimoiy faoliyatining turli soxalarida va turli nutqiy vaziyatlarda nutqiy vaziat talabiga mos ravishda qo‘llay olishni tushunadilar. (Bim I.L., Solovova Ye.N., Galskova N.D. Jalolov J.J., Sattarov T.S. va boshqalar)

Professor Jalolov J.J. kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismiga chet tildagi nutqiy faoliyat turlarini (tinglab-tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv), nutqiy

koʻnikmalarini (leksik, grammatik, fonetik, orfografik), til texnikasini (artikulyasiya qilish, tinglab tushunish, oʻqish, yozuv) va til qoidalarini (grammatik, leksik, fonetik, orfografik) kiritadi [4.1].

Metodik adabiyotlarda chet til kompetensiyasini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillardan kelib chiqib, chet til oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismiga, lingvistik, psixologik, pedagogik, metodologik, viziual va tashkilotchilik kompetensiyalarini kiritilganini ham koʻrish mumkin. [5]

Shuni ta’kidlash lozimki, kommunikativlik kompetensiyasi chet til oʻqituvchisi kasbiy kompetensiyasining eng muxim komponentlaridan biri boʻlishi kerak, chunki nutqiy muloqotga layoqatli boʻlmagan shaxs oʻqituvchi boʻlishi qiyin. Til oʻrganishdan koʻzlangan asosiy maqsad esa til oʻrganuvchida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir.

Chet til oʻqitishda uch muhim omilga e’tibor qaratish lozim. Bularga til (til xodisalari), nutq hamda nutqiy faoliyatni kiritish mumkin. Ular nutqiy muloqotni amalga oshiruvchi muhim vositalardir. Nutqiy malakalarni xosil qilish nazariy jihatdan faoliyat nazariyasi (Vigotskiy L.S., Leontev A.N.,) va aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga (Galpern P.Ya.) asoslangan.

Ushbu nazariyalar chet til vositalari yordamida nutqiy muloqotni amalga oshirishni ta’minlovchi nutqiy malakalarni shakllantirishga qaratilgan kommunikativ metodni kelib chiqishida ham muhim rol oʻynaydi. Kommunikativ metodning asosiy prinsiplaridan biri oʻqitish jarayonini nutqqa yoʻnaltirilgan holda tashkil qilishdir. Bu esa oʻquv jarayonini maksimal darajada nutqiy vaziyatlarga asoslangan xolda tashkil qilishga erishish zarurligini taqazo etadi, chunki nutqiy vaziyatlar talabalarni faollashtiribgina qolmasdan oʻquv jarayonidagi nutqiy muloqotni tabiiy nutq jarayoniga yaqinlashtiradi.

Nofilologik fakultetlarda chet til oʻqitishdan koʻzlangan amaliy maqsadga talabalarning boʻlgʻusi kasblariga oid Mutaxassislik mavzularida muloqot qila olish, axborot almashishnigina emas, balki oʻzga til egasining turmush tarzi, madaniyatidan ham xabardor “kognizant” tayyorlash talab etilmoqda [4.2].

Muhokama. Ma’lumki, nutqiy muloqot ogʻzaki yoki yozma shaklda amalga oshadi. Yozma nutqqa xos nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlab olish zarur. “Kompetensiya” atamasi aslida lotin tilidan olingan boʻlib, shaxsning ma’lum soxa yuzasidan bilim va tajriba asosidagi vakolat doirasi bilan bogʻliq layoqatni ifodalaydi. Kompetentivlik esa ma’lum soxa boʻyicha xukm chiqarishga ega boʻladigan kompetensiyani anglatadi [6].

Bizning eksperimental tadqiqotlarimiz koʻrsatishicha nofilologik fakultet talabalarining yozma nutqini oʻstirishda ikki bosqichni farqlash maqsadga muofiq. Birinchi bosqichda talabalarda yozuvga xos orfografik koʻnikmalarni xosil qilishga va yozuv texnikasini oʻstirishga e’tibor qaratildi. Bu yozuvni oʻrgatishga qaratilgan mashqlar yordamida amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqichda talabalarning yozma nutq koʻnikmalari mutaxasislikka oid matnlarni oʻz ichiga olgan yozma nutq mashqlari yordamida oʻtkazildi [8]. Ushbu bosqichlarda foydalanilgan yozma nutq mashqlari kimyo, biologiya fakulteti talabalarining yozma nutq kompetenensiyasini shakllantirishga yordam berishi koʻzatildi.

Yozma nutq kompetensiyasi kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismiga kiradi. Chet tilidagi yozma nutq kompetensiyasi deganda shu oʻrganilayotgan chet tilda yozma ravishdagi tabriklar, ariza, xat yozish, turli shakllarni toʻldirish, anketa yozish kabilarni kiritish mumkin. Bundan tashqari axborot olish kompetensiyasiga ega boʻlish ham yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu kompetensiya shaxsda kerakli axborotni izlab topish, saralash, taxlil qilish, yozma

axborotni saqlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lish layoqatini shakllantirishga yordam beradi.

Yozma nutq xozirda nutqiy faoliyat turlaridan biri sifatida nutqiy muloqotda keng qo‘llanilmoqda. Bunga misol qilib ingliz tilida olib borilayotgan yozishmalarni (korrespondensiyalarni) keltirish mumkin. Matn yozma nutqiy faoliyatning maxsuli sifatida yozma axborotni o‘z ichiga oladi. Bu esa yozma nutqning yana bir muhim funksiyasini, ya’ni axborot saqlash funksiyasini ham alohida ta’kidlash zarurligini ko‘rsatadi, chunki og‘zaki axborotga nisbatan yozma axborot uzoq saqlanadi.

Til o‘rganuvchilarni o‘quv jarayonida faollashtirish va chet tildagi nutqiy muloqotga nisbatan motivasiya xosil qilishda zamonaviy metodika didaktik o‘yinlar, muammoli o‘qitish, modulli o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya qiladi [7].

Didaktik o‘yinlar talabalarga chet tildagi nutq jarayonida kelib chiqadigan psixologik to‘siqlarni olib tashlashga yordam beradi. Muammoli o‘qitish esa talabalarda kreativlikni shakllantiradi. Ular turli muammoli vaziyatlarda muammoni xal qilish yuzasidan o‘z fikrlarini erkin bayon qiladilar, chunki ularning fikrlari tanqid qilinmaydi. Bu esa talabalarni nutqiy faollashuviga undaydi.

Rolli o‘yinlardan “intervyu” o‘yinini misol qilib keltirish mumkin. Bu o‘yinga ko‘ra talabalardan biri muxbir sifatida ikkinchi bir talaba-mutaxassisdan ma’lum bir mavzu yuzasidan intervyu oladi. So‘ng, ushbu mavzu yuzasidan yozma axborot tayyorlaydi.

Kimyo-biologiya fakulteti talabalarining ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda quyidagicha topshiriqlarni berish ham ularni faollashtiradi va yozma ravishda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini o‘stiradi.

1. Rasmga qarang va o‘zingiz yoqtirgan olma navlari haqida yozma axborot tayyorlang.
2. Berilgan so‘zlardan foydalanib rasmni tasvirlang.

Yozma nutqda ekspressiv va ta’sirchanlikni ifodalovchi ekstralingvistik omillarning yo‘qligi yoki kamligi muallifdan yozma matnning ta’sirchanligini oshirish uchun ham tilning mantiqiyligi hamda ta’sirchanligini ifodalovchi so‘zlardan nutqiy vazifaga mos holda mohirona foydalanishi talab etiladi. Yozma nutqda eng ko‘p tarqalgan ish turi bu xatlar yozishdir. Xat yozishda ikki turli xatlarni farqlash lozim, chunki ular shakli va mavzuning bayoniga hamda uslubiga ko‘ra turlicha bo‘ladi.

Bular shaxsiy xarakterdagi va rasmiy xatlardir. Lekin har ikkisida ham quyidagilar hisobga olinmog‘i kerak:

-axborot berish;
-tasvirlash;
-xabar berish;
-axborot olish;
-biror narsa, voqea-hodisani tushuntirib berish yoki sharhlab berish;
-ariza bilan murojaat qilish;
-minnatdorchilik bildirish va h.k.z.

Bular xat yozishdagi boshlang‘ich, tayanch nuqta hisoblanadi va xatdan ko‘zlangan maqsad hamda vazifaga ko‘ra tanlanadi. Shuningdek xat yozayotgan shaxs avvalo xat mazmunini belgilab, kerakli grammatik strukturalar va leksik birliklarni tanlab olishi hamda xat turlariga ko‘ra uni yozish bilan bog‘liq qoidalarni bilishi kerak. Xat yozish qoidalari deganda uning tartibi, sana, murojaat shakli, imzo o‘rni, konvert ustiga manzilni qay tarzda yozish, xat yakunida qo‘llaniladigan xayrlashuv iboralari kabilar tushuniladi. Bularni o‘rgatishda o‘qituvchi tayyor trafaretlardan foydalanishi mumkin. Ko‘rib eslab qolish xotirada saqlab qolishni osonlashtiradi.

Yozma nutqni o‘stirishdagi mashqlardan yana biri annotasiya yozishdir. Annotasiya

deganda o‘qigan kitobi yoki ko‘rgan filmining qisqacha mazmunini bayon qilish tushuniladi. Bu asosan mutaxassislik bo‘yicha adabiyotlarni o‘qib, ulardan kerakli axborotni olishda qo‘llaniladi. Annotasiya yozishni matnni qisqartirib yozishdan iborat deb tushunmaslik kerak. U eng muhim axborotni tanlab olish, murakkab konstruksiyalarni soddaroq qilib tushuntirib berish bilan ham ajralib turadi.

Yozma nutqqa o‘rgatishdagi eng murakkab va ijodiy xarakterga ega ish turi insho yozishdir. Bunda yozayotgan shaxs o‘z fikr mulohazalarini hikoya qilib berish, tasvirlash, ta’riflash orqali bayon qiladi. Har qanday yozma matnning (xat, annotasiya, insho va h. k.) strukturaviy qurilishini gap-abzas-matn sifatida keltirish mumkin.

Talabalarning yozma nutqiy malakalarini o‘stirishda va sayqallashda hamda yozma nutqiy muloqot ular kundalik hayotining tarkibiy qismi bo‘lib qolishi uchun talabalarga auditoriyadan tashqarida, uyda bajarishga topshiriqlar berib borish ham maqsadga muvofiq. Ammo, bunday topshiriqlarni talabalar o‘z ixtiyorlari bilan bajarishlari uchun kuchli motivasiyaga ega bo‘lishlari kerak. Bunday motivasiyani keltirib chiqaruvchi omil sifatida ularga uyda ingliz tilida kundalik yozib borishlarini tavsiya qilish mumkin, chunki bu har bir talabaning individual bilim darajasi, yozishdagi erkinlik, turli qo‘shimcha manbalardan (darslik, qo‘llanma, lug‘at va h.k.z.) foydalanish imkoniyatini yaratgan holda talabada yozuvga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Ular kerakli so‘zni lug‘atdan topib foydalanish uchun o‘z xohishlariga ko‘ra o‘qib izlanadilar.

Kundalikni turli mavzularda yozish mumkin:

-har kungi bo‘layotgan voqealarni;

-ichki kechinmalarni;

-sayohatga borganda bo‘lgan voqealarni;

-til o‘rganish bilan bog‘liq kechinmalarni;

-joriy kundagi o‘ziga yoqqan yoki yoqmagan narsalarni;

-sportning biror turi bilan bog‘liq narsalarni va boshqa ko‘plab shu tarzdagi, o‘zlari hohlaganlarini yozib borish yozma nutqiy malakalarini shakllantirishdagi muhim omillardan hisoblanadi va talabalarda ijodiy fikrlashning o‘sishiga ham yordam beradi.

Yozma nutqiy malakalarni o‘stirishda matndagi mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlovchi and, then, after that, later, further on, besides, in addition to, it is proved that, this happened when …, it took place in … va shu kabi ko‘plab vosita so‘zlarni keltirish mumkin.

Muammoli o‘qitish texnologiyasidan foydalanilganda talabalar o‘qituvchi tomonidan berilgan muammoni xal qilish yuzasidan yozma fikr bildirishadi va o‘z fikrlarini isbotlab berishga xarakat qilishadi. Bu individual yoki guruh-guruh bo‘lib ishlash orqali amalga oshiriladi. So‘ng, har bir guruh liderlari o‘zlari taklif qilgan muammoning yechilishini o‘qib berishadi va ular birgalikda muammoning eng optimal variantini topishadi.

Ingliz tili o‘qitishda nofilologik fakultet talabalarining yozma nutqiy kompetentligiga, ularni o‘z soxalariga oid axborotni yozma ravishda ifodalay olish, ya’ni yozma axborot tayyorlay bilishlari, xorijlik xamkasblari bilan yozma axborot almasha olishlari, ilmiy anjumanlarga o‘z soxasi yuzasidan ma’ruza matnlari tayyorlay olishlari, ingliz tilidagi soxaviy manbalardan kerakli axborotni konspektlashtirib olish kabi malakalarini kiritish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda oliy ta’lim xalq xo‘jaligining barcha soxalari uchun mutaxassis tayyorlashda yetakchilik qiladi. Shu sababli ham nofilologik fakultetlar talabalarining nafaqat og‘zaki nutq kompetensiyasini, balki ularning yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish ham zamonaviy mutaxassis tayyorlashdagi muhim talablardan hisoblanadi.

Nofilologik fakultet talabalarida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda ushbu yuqoridagi ta’kidlangan didaktik o‘yinlar va yuqorida keltirib o‘tilgan mashqlardan

foydalanish yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875- sonli qarori // “Halq so‘zi” gazetasi 11 dekbr 2012 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori// Halq ta’limi, 4/2013 .

3. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. // “O‘qituvchi” nashriyoti 428 bet 2012.

4. Jalolov J.J. Sovremenniy didakticheskiy status uchebnogo predmeta “Inostranniy yazik”// TDPU ilmiy axborotlari №1 4-9 betlar T.:2014.

5. Sattarov T., Alimov Sh. Xorijiy ta’limni moderenizasiya qilish muammolari. // Respublika ilmiy-metodik konferensiya materiallari I-qism 118-122 betlar T.: 2012.

6. Sattarov T. Bo‘lajak chet til o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi T.: 2003.

7. Gurkina A.L. Razvitie inoyazichnoy kommunikativnoy kompetensii kak osnovnaya sel obucheniya inostrannomu yaziku//Molodoy ucheniy. №12. M., 2015. 8. Alimov F. “Learn writing” (kimyo-biologiya fakulteti talabalari uchun) // “Akademnashr” 118 bet T.: 2010.

TALABALARNI AXBOROT MODELLARIDAN FOYDALANIB MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHGA O‘RGATISHNING ZAMONAVIY ASPEKTLARI

Qodirov Mirjalol Tolmasovich
Turon universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos aspektlari yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, web-platformalar, elektron ta’lim muhitlari, onlayn resurslar va interaktiv vositalarning mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Web texnologiyalar yordamida talabalarning axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, masofaviy ta’lim, virtual kutubxonalar, o‘quv portallari va test tizimlaridan foydalanish orqali ta’lim oluvchilarning faolligi, motivatsiyasi hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari web texnologiyalar asosida tashkil etilgan mustaqil ishlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: web texnologiyalar, web 2.0, mustaqil ta’lim, mustaqil ishlar, elektron ta’lim, masofaviy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), o‘quv portallari, onlayn ta’lim platformalari, interaktiv ta’lim vositalari, virtual ta’lim muhiti, raqamli resurslar, talabaning mustaqil faoliyati, ta’lim samaradorligi, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari, ta’limni raqamlashtirish.

СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ

Кодирова Мирджалола Толмасовича
Преподаватель Туранского университета

Аннотация. В данной статье освещены специфические аспекты использования веб-технологий в организации самостоятельной работы в образовательном процессе. Проанализирована роль современных информационно-коммуникационных технологий, в частности, веб-платформ, электронных образовательных сред, онлайн-ресурсов и интерактивных средств в повышении эффективности самостоятельного обучения. Показаны возможности формирования у студентов навыков поиска, анализа, обработки и представления информации с помощью веб-технологий. Также особое внимание будет уделено развитию активности, мотивации и творческого мышления обучающихся посредством использования дистанционного обучения, виртуальных библиотек, образовательных порталов и тестовых систем. Результаты исследования обосновывают, что самостоятельная работа, организованная на основе веб-технологий, служит повышению качества образования.

Ключевые слова: web-технологии, web 2.0, самостоятельное обучение, самостоятельная работа, электронное обучение, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), образовательные порталы, образовательные онлайн-платформы, интерактивные образовательные средства, виртуальная образовательная среда, цифровые ресурсы, самостоятельная деятельность студента, эффективность обучения, навыки работы с информацией, цифровизация образования.

MODERN ASPECTS OF TRAINING STUDENTS TO ORGANIZE INDEPENDENT WORK USING INFORMATION MODELS

Qodirov Mirjalol Tolmasovich
Lecturer at Turan University

Abstract. This article highlights the specific aspects of using web technologies in organizing independent work in the educational process. The role of modern information and communication technologies, in particular web platforms, e-learning environments, online resources, and interactive tools, in increasing the effectiveness of independent learning is analyzed. The possibilities of forming students' skills in searching, analyzing, processing, and presenting information using web technologies are shown. Special attention will also be paid to the development of students' activity, motivation, and creative thinking through the use of distance learning, virtual libraries, educational portals, and testing systems. The research results substantiate that independent work organized on the basis of web technologies serves to improve the quality of education.

Keywords: web technologies, web 2.0, independent learning, independent work, e-learning, distance learning, information and communication technologies (ICT), educational portals, online educational platforms, interactive educational tools, virtual educational environment, digital resources, independent student activity, educational effectiveness, information skills, digitalization of education.

Kirish. Jahonda bugungi kunda axborot va bilimlar davlatning strategik zahiralaridan biri sifatida qaralib, jamiyatning asosiy ishlab chiqarish mahsuloti bo‘lib bormoqda. Bunday sharoitlarda informatika hamda axborot texnologiyalari sohasi bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlab borish dolzarb ahamiyat kasb etib boradi. Natijada oliy ta’lim muassalari talabalari uchun web-texnologiyalarni tadbiq etgan holda informatikadan mustaqil ta’limni tashkil etish yuzasidan yangi pedagogik va metodik g‘oyalarni ilgari surish va ularni amalga oshirish zarurati paydo bo‘ladi.

Dunyoda axborot intellektual makonini yaratishda Internet tarmog‘i muhim vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. U talabalar uchun nafaqat informatika hamda axborot texnologiyalari sohasi bo‘yicha balki turli fan sohalarini o‘zlashtirishda mustaqil ta’limini tashkil etishda keng imkoniyatlar eshiklarini ochib beradi. Bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida oliy ta’limni rivojlanish tendensiyalarini mustaqil ta’lim oluvchilar safini o‘sib borishi bilan tavsiflash mumkin. Internet tarmog‘ini rivojlanib borishi web-texnologiyalar asosida ishlab chiqilayotgan internet-xizmati guruhlarining paydo bo‘lishi hamda kontentni shakllantirishdagi foydalanuvchilarning faolligi bilan shartlanadi.

Mamlakatimizda Web-texnologiyalarni ta’lim jarayonida tadbiq etish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotchilarning izlanishlari - mustaqil ta’limni tashkillashtirishda yuqori potensial mavjudligini aniqlashmoqda. Ilmiy-nazariy darajada mazkur tadqiqotimizning dolzarbligi oliy ta’lim talabalari uchun mustaqil ta’limni tashkillashtirilishi uchun web-texnologiyalarini tadbiq etilishida nazariy-metodologik yondashuvlarni yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan shartlanadi. Mazkur muammo mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllaninishi, Internet texnologiyalarini respublikamiz iqtisodiyoti hamda ta’lim tizimida keng tadbiq etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2017-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston

Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-son Farmoni va 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni, 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasinining 2020 yil 31-dekabrdagi 824-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida, pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimining barcha bosqichlariga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, web texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali boshqarish, nazorat qilish va takomillashtirish imkonini bermoqda. Raqamli ta’lim muhitining shakllanishi natijasida an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda, talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv, masofaviy va gibrid ta’lim shakllari keng joriy etilmoqda.

Mustaqil ishlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Biroq mustaqil ishlarni an’anaviy usullarda tashkil etish ko‘pincha talabalarning faolligini yetarli darajada ta’minlamasligi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotning cheklanganligi hamda nazorat mexanizmlarining samarasizligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli mustaqil ta’lim jarayonini web texnologiyalar asosida tashkil etish zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Web texnologiyalar (Learning Management System, bulutli xizmatlar, onlayn platformalar, elektron ta’lim resurslari, forum va bloglar) mustaqil ishlarni rejalashtirish, topshiriqlarni taqdim etish, bajarilgan ishlarni baholash hamda tezkor teskari aloqani yo‘lga qo‘yishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, web asosidagi ta’lim muhiti talabalarning individual o‘qish sur’atini hisobga olish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada mustaqil ishlarni tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos pedagogik, texnologik va metodik aspektlari tahlil qilinadi hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ishlarni tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar web texnologiyalarni ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtiruvchi, interaktiv va ochiq ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholaydilar.

Xorijiy olimlar (T. Anderson, M. Moore, D. Jonassen va boshqalar) o‘z tadqiqotlarida masofaviy va elektron ta’lim muhitlari mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishini asoslab bergan. Ularning ishlarida Learning Management System (LMS) platformalari orqali mustaqil topshiriqlarni rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkoniyatlari keng yoritilgan.

Mahalliy va MDH olimlari (A.A. Abduqodirov, R.H. Djuraev, U.Sh. Begimqulov va boshqalar) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, web-resurslardan foydalanish metodikasi hamda talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Ushbu

tadqiqotlarda web texnologiyalar talabalarning axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekanligi ta’kidlangan.

Shuningdek, so‘nggi ilmiy manbalarda virtual kutubxonalar, onlayn test tizimlari, forumlar, bloglar va multimedia resurslaridan foydalanish mustaqil ishlarning mazmunini boyitishi hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Biroq ayrim tadqiqotlarda web texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda metodik ta’minotning yetarli emasligi va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi muammo sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Mazkur tadqiqotda mustaqil ishlarni tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘unlashtirildi, nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali mustaqil ta’limni tashkil etishda web texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlab olindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Empirik tadqiqot doirasida pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va suhbat metodlari qo‘llanildi. So‘rovnomalar ta’lim oluvchilarning web texnologiyalar asosida tashkil etilgan mustaqil ishlar bo‘yicha munosabati, faolligi va motivatsiyasini aniqlashga xizmat qildi. Pedagogik kuzatuv orqali esa mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabalarning faolligi, mustaqil fikrlashi va axborot bilan ishlash ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar tahlil qilindi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, unda web texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mustaqil topshiriqlar an’anaviy usullar bilan taqqoslandi. Tajriba natijalari sifat va miqdoriy tahlil metodlari yordamida qayta ishlanib, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi statistik usullar asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarilib, mustaqil ishlarni tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida web texnologiyalar asosida tashkil etilgan mustaqil ishlarning ta’lim oluvchilar faoliyatiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, web-platformalar orqali berilgan mustaqil topshiriqlar talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini va mustaqil ishlashga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, elektron o‘quv resurslari, onlayn topshiriqlar va test tizimlaridan foydalanish bilimlarni mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, web texnologiyalar asosida tashkil etilgan mustaqil ishlar talabalarning axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan. So‘rovnoma va kuzatuv natijalari ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarni bajarishda mas’uliyati va o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasi oshganini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov natijalari an’anaviy usullarga nisbatan web texnologiyalar qo‘llanilgan mustaqil ishlarning samaradorligi yuqoriroq ekanligini tasdiqladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari mustaqil ishlarni tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mustaqil ishlarni tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Web texnologiyalar asosida tashkil etilgan mustaqil ishlar ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari hamda o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Elektron ta’lim muhitlari va onlayn resurslardan foydalanish mustaqil ta’lim jarayonini yanada

moslashuvchan va qulay shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida web texnologiyalar qo‘llanilgan mustaqil ishlar an’anaviy usullarga nisbatan yuqori natijadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu esa ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Olingan natijalarga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

– mustaqil ishlarni tashkil etishda zamonaviy web-platformalar va elektron ta’lim tizimlaridan keng foydalanish;

– o‘qituvchilarning raqamli va metodik kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan trening va seminarlar tashkil etish;

– web texnologiyalar asosida mustaqil ishlar uchun metodik qo‘llanmalar va elektron resurslar ishlab chiqish;

– ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini baholash va monitoring qilishda onlayn nazorat vositalarini joriy etish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ishlarni web texnologiyalar asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy ta’lim talablariga moslashishda samarali pedagogik yechim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Богословский В.И., Васильев А.А., Извозчиков В.А., Плещенков И.Н., Потачев С.А., Силанов В.А., Шилова О.Н. Информационные системы.: Словарь/ Под ред. В.И.Богословского. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 1998. - 112 с.

2. Гончаров А. Самоучитель HTML - СПб: Питер. 2000 - 240с.: ил.

3. Леонтьев Б.К. Web-дизайн: Руководство пользователя.- М.: Познавательная книга плюс, 2001.- 320 с.

4. В.Л.Эпштейн Гипертекст и гипертекстовые системы. - М., 1998 (Предпринт / Ин-т проблем управления РАН), 40с.

5. Педагогические информационные технологии и картина мира в непрерывном образовании (Информологический аспект): Учебное пособие /Под общ. ред. В.А. Извозчикова. - СПб: Образование, 1997, 211 с.

6. Тихомиров В.П., Морозов В.П., Хрусталев Е.Ю. Основы гипертекстовой информационной технологии / Моск. Эконом. - стат. ин-т. - М., 1993. - 122с.

7. Ergashev N, G’., Eshmurodov A.G`. Mustaqil ta’limni tashkil etishda web 2.0 texnologiyasi xizmatlaridan foydalanish. // Ilm-fan va texnologiyalari– Buxoro, 2023. – №1. – B.326-332.

8. Eshmurodov A.G`. Axborot texnologiyalari fanidan talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning nazariy aspektlari. // O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o‘rni / respublika ilmiy amaliy anjumani, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti 15–16 may. – Qarshi, 2023. – B. 246-248.

TALABALARNI SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB GRAFIK MODELLASHTIRISHGA O‘RGATISHNING METODIK ASOSLARI

Eshonqulov Nurbek O‘ralovich
Qarshi davlar texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalarining kasbiy malakasini shakllantirish jarayonida grafikli vizualash metodidan foydalanishning didaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Metodning texnik fanlarni o‘qitishdagi pedagogik imkoniyatlari, talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari grafikli vizualash metodini tizimli qo‘llash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: grafikli vizualash, kasbiy malaka, texnika ta’limi, didaktik metodlar, vizual ta’lim, kasbiy kompetensiya.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ГРАФИЧЕСКОМУ МОДЕЛИРОВАНИЮ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ УМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Эшонкулов Нурбек Уралович
преподаватель Каршинский государственный технический университет.

Аннотация: В статье анализируются дидактические особенности использования метода графической визуализации в процессе формирования профессиональной компетентности студентов технических специальностей. Подчеркивается педагогический потенциал метода в преподавании технических дисциплин и его роль в развитии профессиональной компетентности студентов. Результаты исследования показывают, что систематическое применение метода графической визуализации может повысить эффективность учебного процесса.

Ключевые слова: графическая визуализация, профессиональная компетентность, техническое образование, дидактические методы, визуальное обучение, профессиональные навыки

METHODOLOGICAL BASIS OF TEACHING STUDENTS IN GRAPHIC MODELING USING SMART TECHNOLOGIES

Eshonkulov Nurbek Oralovich
Teacher at Karshi Davlar Technical University

Abstract: The article analyzes the didactic features of using the graphical visualization method in the process of forming professional competence of students in technical specialties. The pedagogical potential of the method in teaching technical disciplines and its role in developing students’ professional competence are highlighted. The study results show that the systematic application of the graphical visualization method can increase the efficiency of the learning process.

Keywords: graphical visualization, professional competence, technical education, didactic methods, visual learning, professional skills

Kirish (Introduction).

Hozirgi kunda Oliy ta’lim muassasalaring texnika yo‘nalishidagi kurslarida bakalavr darajasini egallashda quyidagi geometriya va grafikali fanlar bo‘yicha maxsus kurslar birinchi semestrdan to‘rtinchi semestrgacha (bo‘lgan davr mobayinida) o‘rganiladi.

Asos darajasidagi tayyorgarlikning geometrik va grafikali ravishda tasvirlash quyidagi: chizma geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasi kabi fanlarni o‘z majmuasiga oladi. Chizma geometriya geometrik modellashtirish nazariyasiga kiradi, geometrik va muhandislik hamda kompyuter grafikasi fanlarining nazariy asosi bo‘lib, bir qator umumiy texnika yo‘nalishidagi fanlarni o‘rganish uchun xizmat qiladi. Umuman olganda, bu xizmat ko‘rsatuvchi muhandislarni tayyorlashdagi asosiy fanlardan biridir. Muhandislik grafikasi - bu chizish ko‘nikmalarini bajarishni rivojlantiruvchi amaliy fan hisoblanadi. Ushbu maqolaimizda kompyuter grafikasi fani muhandislik grafikasi fanining bir qismi deb hisoblanib, o‘z navbatida axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan holda chizma hamda tasvirlarni yaratishga yaqindan yordam beradi.

Kompyuter texnologiyalari fani talabalarning grafik ravishda tasavvur qilishdagi tayyorgarliklarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, kompyuter yordamida avtomatlashtirilgan loyihalash tizimini (ALT) yaratishda loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, elektron ko‘rinishda loyihalashtirilgan qismlarning modellari va ularning ishlash tartibini o‘rganish imkoniyatini beruvchi KOMPAS 3D, Inventor, Solid Works va boshqalarning uch o‘lchovli modellashtirish paketlarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga joriy etishga yordam berdi.

Chizma geometriyada shakllantirish o‘zining cheksiz Vizual modellashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lgan to‘liq avtomatlashtirilgan loyihalash tizimini o‘z ichiga olib, buning natijasida chizma geometriya kursi talabalarning grafikali ko‘rinishda tasavvur qilish kompetentliliklarini shakllantirishga yordam beradigan Vizual modellashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Natijada jamiyatda, geometrik grafikali tayyorarliklarining roli sezilarli darajada ortib, geometrik bilimlarni qo‘llash sohasi doimiy ravishda kengayib boradi. Buning sababi shundan iboratki, elektron geometrik modelni kompyuterda loyihalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab va o‘rta murakkablikdagi mahsulotlarni ishlab chiqishda, loyihalar uchun texnik hisob kitoblarni amalga oshirishda, loyihalashtirilgan tuzilishlarning samaradorligini tahlil qilishda, loyihalashtirilgan hujjatlarni tahlil qilish nominal bosqich hisoblanadi. Uning yaratilishi bilan geometrik ma’lumotlarga asoslangan loyihalashtirish zamonaviy ta’lim jarayonidan boshlanadi. Bu kelgusida loyihani ishlab chiqishning har qanday bosqichidagi hisob kitoblarni amalga oshirishda, uning sxemasini tasavvur qilishda, mahsulot qanday ishlashini virtual tekshirishda, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishda, «uning qismlarini yig‘ishda va qaytadan qismlarga ajratish»ni tekshirish, loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish va hokazolarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ya’ni, istalgan bosqichda loyihani amalga oshirish bo‘yicha obyektni o‘rganish va uni ishlab chiqarishni nazorat qilish mumkin bo‘ladi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Shuni ta’kidlash lozim bo‘ladiki, xizmat ko‘rsatish sohasidagi muhandislik faoliyati aniq yechimga ega bo‘lmagan ijodiy kasbiy muammolarni hal qilish bilan bog‘liq, shuning uchun yutuqlar motivatsiya zarur bo‘ladi. Motivatsiya, I.A.Zimnyaya - bu «qotishma», subyektga inson faoliyatini bevosita belgilaydigan ehtiyojlar, intilishlar, qiziqishlar, ideallar, maqsadlar ko‘rinishida ochiladigan xatti harakatlarning harakatlantiruvchi kuchlarining murakkab birikmasi (Зимняя И.А. Педагогическая психология. М., 2000. 484 с.).

Ushbu maqolaimizda amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra, geometrik grafikali o‘qitishning maqsadi an’anaviy ta’lim maqsadlaridan farq qiladi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari mazmun va kasbiy faoliyat komponentlarini tashkil etuvchilari yaxlitligidan iborat. Mazmunli komponent talabalarning ijodiy innovatsiyalarga yo‘naltirilgan fundamental geometrik grafikali va kasbiy faoliyatida innovatsiyalarni amalga oshirishdagi tayyorgarligiga, talabalarning grafikali madaniyatini shakllantirishga, shuningdek, ta’lim

jarayonida grafikali ma’lumotlarga ega bo‘lish kabi kompetentliliklarni shakllantirishga asoslangan. Kasbiy faoliyat komponenti yangilik va ijodkorlik bilan ajralib turadigan loyihalash, tadqiqot va ilmiy faoliyatni uyg‘unlashtira oladigan yuqori malakali kasbiy mutaxassisni tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Grafikali o‘quv fanlarni o‘zlashtirishda ta’lim jarayonining dasturiy va texnik vositalari zamonaviy innovatsion chizmachilik texnologiyalaridan foydalanishni ta’minlagan holda chizma mahsulotlarini yaratishning an’anaviy metodlaridan voz kechishga imkoniyatini beradi.

Hozirgi davrda tadqiqotchilar tomonidan quyidagi:

– ikki o‘lchovli grafikli model. Shu nuqtai nazardan, kompyuter elektron chizma taxtasi sifatida ishlatiladi;

– uch o‘lchovli grafikli model kabi davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy axborot texnologiyalari yondashuvlarini yaratishdi.

Bunday model loyihalashtirish faoliyatini amalga oshirishdagi zarur shart sharoitlar yaratilib, uning natijasida original (asl) obyekt modeli yaratiladi. Loyihalashtirishning amalga oshirish jarayonida grafikli tavsifdagi turli xil geometrik masalalar yechilishi muhim, bu fazoviy modelga muvofiq ravishda fazoviy rejimda original(asl) obyektning tasvirini yaratishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Grafikali o‘qitish jarayonida bakalavrlar o‘z fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradilar, bu esa fazoviy obyektlarning shakllarini aqliy ravishda yaratish va ularni o‘zgartirishga yordam beradi. Shuning uchun muxandislik va kompyuter grafikasi kabi fanlarni o‘rganishning dastlabki bosqichida talabalarda fazoviy fikrlashni rivojlantirish kerak, bu esa kompyuter dasturlari yordamida grafikali masalalarni yechishga yordam beradi.

Ikki va uch o‘lchovli modellarni tuzish orqali o‘rganish odatiy ortogonal proyeksiya algoritmlari bilan jiddiy ziddiyatga olib kelmaydi. Darsning mazmun tuzilishini ishlab chiqish ikki va uch o‘lchovli modellarni yaratish nafaqat ko‘rgazmali vosita sifatida, balki grafikli masalalarni yechishning samarali vositasi sifatida foydalanish zarurligi haqidagi asosiy g‘oyaga asoslanadi. Chiziqli geometriya va muhandislik grafikasiga ega bo‘lish ijodiy loyihalashtirish faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rsatkichi bo‘lib, metrik masalalarni yechishning kengaytirilganligi tadqiqot kompetentli-ligini shakllantirishga yordam beradi.

Ta’limning kompetentlilikka asoslangan paradigmasi ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilishini nazarda tutadi. Bunday holda, o‘qituvchining vazifasi ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat bo‘lib, unda asosiy e’tibor talabalarning o‘ziga xos ta’lim trayektoriyasi bo‘yicha mustaqil ravishdagi ishlar olib boriladi

Grafikali ravishda o‘rganilayotgan fanlar kompetentliligiga asoslangan yondashuv mantig‘ida ta’limning bakalavr bosqichida kasbiy kompetentliliklarni shakllantirishda masalan, muxandislik va kompyuter grafikasi kabi fanlarning ahamiyati hamda o‘rnini belgilaydi. Xuddi shuningdek ushbu fanlarning tili texno1ogiya tili bo‘lganligi uchun “Texnologiya” yo‘nalishidagi o‘quv fanlari dasturiga ushbu tilni o‘qitishga yo‘naltirilgan fanlar kiritilgan.

Ushbu maqolaimizda ishlab chiqilgan muhandislik va kompyuter grafikasini o‘qitish texno1ogiyasi grafikali fanlarning mazmunini e’tiborga olgan holda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentliligining komponetlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Texnologiyani ishlab chiqishda quyidagi qoidalar asos qilib olingan:

1. Xizmat ko‘rsatish bakalavrlarini kasbiy tayyorlashda grafikaga oid fanlarning ahamiyatini asosli ravishda isbotlash.

2. Grafikaga oid fanlarni talabalar birinchi semestrdan to to‘rtinchi semestrga qadar

o‘rganishlari e’tiborga olinadi.

3. Ta’lim jarayoni maqsadlari va vazifalari fanlarning tegishli mazmuni va ularning to‘g‘ri metodik ta’minlanishi bilan belgilanadi.

4. Muxandislik va kompyuter grafikasiga kabi fanlarni fanlararo o‘zaro aloqadorligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi va birlashtirilishi ularning bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan aniq bog‘lanishi.

5. Muxandislik va kompyuter grafikasi kabi fanlarni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinadi.

Texnologiyani qo‘llash natijalariga asoslanib, mazkur tadqiqot ishmizda muxandislik va kompyuter grafikasiga kabi fanlarni o‘qitishda bo‘lajak muhandislarning kasbiy malakasini rivojlantirishga ta’sirini tahlil qilindi. Talabalar kasbiy kompetentliligining barcha komponentlarini shakllantirish darajasi oshganligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Natijada yuqorda qayd etilgan tadqiqotning ilmiy natijalarini ishonchliligi uchun ushbu maqolaimizda o‘ziga xos kompetetliliklarni emas, balki bo‘lajak muhandislarning kompetentliligini e’tiborga olgan holda ushbu tushuncha ancha kengroq bo‘lib, nafaqat kognitiv va faoliyat komponentlarini, balki motivatsiyani ham o‘z ichiga oladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ba’zi mualliflar qayd etib o‘tgan fikr mulohazalarini e’tiborga olgan holda, mazkur maqolaimizda kompetentlilik deganda shaxsning o‘ziga xos xususiyatini tushungan holda ya’ni, ma’lum bir kompetentliliklar majmuiga ega bo‘lishi tushuniladi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotda kompetentliligi bo‘lajak kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydigan shaxsning integrativ xususiyatlari (imkoniyatlari, motivlari, bilimlari, ko‘nikmalari) sifatida qarab chiqiladi.

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartiga muvofiq, xizmat ko‘rsatish sohasidagi bo‘lajak muhandis umumiy madaniy, umumiy kasbiy va kasbiy vakolatlarni egallashi kerak.

Adabiyotlarni o‘rganish natijasida, kompetentlilik shaxsning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatida namoyon bo‘lishi, amaliy foydalanishda bilim va tajribaga ega ekanligini aks ettirishi aniqlandi, shu munosabat bilan kompetentlilikning quyidagi: motivatsion, kognitiv, faolliklari kabi komponentlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ishonchliroq eksperimental ish va obyektiv natijalarga erishish uchun ushbu maqolaimizda har bir komponentning mazmunini aniqlanadi.

Bo‘lajak muhandisning kasbiy kompetensiyasining motivatsion komponenti talabalarning axborot texno1ogiyalaridan foydalanishga bo‘lgan motivatsiyasini aks ettiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, motiv biz uchun ehtiyoj, maqsad, niyat, motivatsiya va shaxsning xulq-atvorini belgilaydigan xususiyat sifatida tushuniladi.

Faoliyatni keltirib chiqaradigan motivatsiya, kasbiy o‘zi o‘zini belgilashga, insonning o‘z ishi natijalaridan qoniqishiga ta’sir qiladi. Kasbiy motivatsiya kasb tanlash va kasbiy faoliyatni amalga oshirish motivlari bilan bog‘liq. Tadqiqot kontekstida shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy faoliyatda axborot texno1ogiyalaridan foydalanish ushbu sohadagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun motivatsiyani talab qiladi.

Muhandislik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u texnik yechim va ijtimoiy oqibatlar o‘rtasidagi munosabatlarning fundamental muammolarini aks ettiradi va hal qiladi. Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq, xizmat ko‘rsatish sohasidagi bo‘lajak muhandis quyidagi: tashkiliy-boshqaruv, tadqiqot, ishlab chiqarish, texnologik va xizmat ko‘rsatish kabi faoliyat turlarini o‘zlashtirishi kerak. Barcha faoliyatlar xizmat ko‘rsatish jarayonlarini e’tiborga olgan holda axborot tizimlari va texno1ogiyalarini joriy etish va ulardan foydalanishni talab qiladi.

Motivlar talabalarning o‘quv va kelgusidagi kasbiy faoliyatidagi faolligini belgilaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, motivlar ichki va tashqi bo‘lishi mumkin. Ichki motivlarga qiziqish, topshiriqni bajarishdagi muvaffaqiyat kiradi, ular vaqt o‘tishi bilan nisbatan doimiy bo‘lib, aslida shaxs xususiyatlari bilan belgilanadi. Yyerkes Dodson qonuniga ko‘ra, ichki motivatsiya har qanday faoliyat turiga samarali ta’sir qiladi. Bundan tashqari, ijobiy motivatsiyaning yuqori darajasi kompensatsiya bilan bevosita bog‘liq omil rolini o‘ynaydi. Moddiy manfaatlarga erishish istagi - tashqi motiv hisoblanadi. Ichki motiv talabalarning zamonaviy axborot texno1ogiyalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, qayta ishlash va tizimlashtirish imkoniyatlarini yangilash imkonini beradi.

Kelgusidagi faoliyat uchun motivatsiya - bu o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj, zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalarini o‘rganish, o‘zlashtirish va joriy etish istagi bo‘lib, bu bo‘lajak muhandisga kelgusida davr talablariga javob beradigan yuqori toifali mutaxassis sifatida o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat beradi. Motivlar subyektning o‘zini yangi sifatda takrorlanishi ijodkorlikning rivojlanishiga yordam beradi. Motivatsiyaning nazariy tahlili amaliy tadqiqotlar bilan qo‘llab quvvatlandi. Axborot texno1ogiyalaridan foydalanish motivlarini aniqlash uchun xizmat ko‘rsatish sohasida ishlayotgan 40 nafar kundalik turmushdagi amalda ishlab turgan muhandislar ishtirokida pedagogik tajriba sinov tadqiqotini amalgaoshirildi.

V.I.Kochetov va S.I.Lazarevlarning ta’kidlashlarisha, komruuter grafikasi informatikaning bir tarmog‘i sifatida bo‘lajak muhandislarning texnologik faoliuatining asosini tashkil qiladi. Bo‘lajak xizmat ko‘rsatuvshi muhandislar komruuter grafikasining quuidagi: komruuter grafikasining qo‘llanilishi sohalari, komruuter grafikasi turlari, grafik faul formatlari, Internetdagi vektor grafiklari, rangli modellar va ularning turlari, RGB rang modeli, HSB rang modeli, SMY modeli (Syan Magenta Yellow), SMYK rang modeli, Lab rang modeli va boshqa shu kabi asosiu tushunshalarini o‘zlashtirishi kerak.

Kasbiy kompetentlilikning kognitiv komponentini shakllantirish mezon ko‘rsatkichlari quyidagi:

- axborot-kommunikatsiya texno1ogiyalari sohasida;
- kompyuterda modellashtirish sohasida;
- muhandislik grafikasi sohasida;
- kompyuter, interaktiv grafika va SAPR sohasida;
- rang bilan ishlash, uug‘un soualarni tanlash, kerakli faul formatlari va grafik axborotni qauta ishlash raketlaridan foudalanishni bilish kabi bilimlar majmuasida namouon bo‘ladi.

N.A.Moreva muhandislar ushun Internetning asosiu xizmat ko‘rsatish texno1ogiualaridan foudalanish imkoniuatlarini quuidagi: ma’lumotni keuinshalik kasbiu faoliuatida foudalanish ushun olish va saqlashda bulutli texno1ogiualardan foudalanish usullarini o‘z tadqiqot ishlarida alohida ta’kidlab o‘tgan.

Mazkur maqolaimizning oldingi raragraflarida ta’kidlab o‘tilishisha kasbiu komretentlilik muhandislik grafikasi bilan bog‘liq. V.M.Fetisovning ta’kidlashicha, malakali muhandislar muhandislik grafikasi sohasida quyidagi:

- nuqtani fazoning chorak va oktantlarida loyihalash;
- ko‘pburchaklarni tasvirlash;
- sirtning tekislik va to‘g‘ri chiziq bilan kesishish chizig‘ini, shuningdek, bir sirtning boshqasi bilan kesishish chizig‘ini tuzish;
- egri sirtlarni joylashtirish, shuningdek aksonometrik proyeksiyalarni tuzish;
- zamonaviy muhandislikda keng qo‘llaniladigan geometrik jismlar va sirtlarning grafik modellarini tuzish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Kompyuter grafikasi sohasidagi kasbiy kompetentlilik muammosi bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni tahlili natijasida quyidagi:

- turli grafik muharrirlarda chizmalar, grafik obyektlar va boshqa grafik hujjatlarni yaratish;
- asboblar va turli rang modellaridan foydalanish, uyg‘un soyalar va rang kombinatsiyalarini tanlash, o‘zgartirishlarni amalga oshirish, grafik obyektlar va umuman grafik ma’lumotlarni yaratish va tahrirlash;
- grafik obyektlarni qurish, yaratish, sozlash, ko‘p varaqli chizmalarni loyihalashda turli grafik muharrirlardan foydalanish;
- mustaqil ravishda olingan bilim, malaka va ko‘nikma hamda grafik obyektlar bilan ishlash bo‘yicha grafik muharrirlardan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion loyihalar yaratish va amaliy amaliy masalalarni yechishda qo‘llash kabi ko‘nikmalar guruhini ajratib ko‘rsatishga yordam beradi.

Kasbiy kompetentlilikning faoliyat komponentini shakllantirish mezon ko‘rsatkichlari quyidagi:
- axborotni qayta ishlash uchun Internet xizmatlaridan foydalanish;
- nuqta va to‘g‘ri chiziqning turli oktantlardagi proyeksiya tekisliklariga nisbatan o‘rnini aniqlash;
- zamonaviy muhandislikda keng qo‘llaniladigan geometrik jismlar va sirtlarning grafik modellarini qurish.
- pozitsion va metrik masalalarni yechish;
- turli grafik muharrirlarda chizmalar, grafik obyektlar va boshqa grafik hujjatlarni yaratish;
- asboblar va turli rang modellaridan foydalanish, uyg‘un soyalar va rang kombinatsiyalarini tanlash, o‘zgartirishlarni amalga oshirish, grafik obyektlar va umuman grafik ma’lumotlarni yaratish va tahrirlash;
- grafik obyektlarni tuzish, yaratish, sozlash, ko‘p varaqli chizmalarni loyihalashda turli grafik muharrirlardan foydalanish;
- xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion loyihalar yaratish va amaliy amaliy masalalarni yechishda grafik muharrirlar yordamida grafik obyektlar bilan ishlash bo‘yicha mustaqil egallagan ko‘nikmalardan foydalanish kabi ko‘nikmalar mavjudligida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, kasbiy kompetentlilik bo‘lajak muhandis shaxsining (imkoniyatlari, motivlari, bilimlari, ko‘nikmalari) integral xarakteristikasi sifatida taqdim etilishini e’tiborga olgan holda, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida kelgusidagi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi. Ko‘rsatilgan kompetentlilikning quyidagi: motivatsion, kognitiv, faollik kabi tarkibiy qismlari ajralib turadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Grafikli vizualash metodi talabalarining kasbiy malakasini shakllantirishda samarali didaktik vosita hisoblanadi. Ushbu metod yordamida murakkab texnik tushunchalar tushunarli va ko‘rgazmali tarzda talabalarga yetkaziladi, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanadi. Grafikli vizualash talabalarning texnik tafakkurini rivojlantiradi, muammolarni hal qilish ko‘nikmasini oshiradi va amaliy mashg‘ulotlarda xatolarni kamaytiradi. Shu bilan birga, tizimli qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarni bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Texnika fanlarini o‘qitishda grafik vositalarni keng qo‘llash. Talabalarni murakkab jarayonlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar bilan faol shug‘ullantirish. Grafikli vizualash metodini boshqa pedagogik metodlar bilan integratsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. Toshkent: Innovatsiya, 2021.
2. Khodjaev B.X. Kasbiy pedagogika asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. Toshkent: Fan, 2018.

4. Slastenin V.A., Isaev I.F. Pedagogika. Moskva: Akademiya, 2017.
5. Mayer R.E. Multimedia Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
6. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperative Learning in Technical Education. New York: Springer, 2019.
7. Novak J.D. Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps. Routledge, 2018.
8. Duffy T.M., Jonassen D.H. Constructivism and the Technology of Instruction. 2020.

ELEKTR MASHINALARI FANI AMALIY MASHG‘ULOTLARIDA TRANSFORMATORLARNING MAGNIT O‘TKAZGICHLARIDAGI NOSOZLIKLARNI ANIQLASHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Niyazov Jasur Abdirasulovich
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy “shipilkasiz” kanstruksiyadagi magnit o‘tkazgichlar qo‘llanib, bu magnit o‘tkazgichlarning nosozligi sabablarini o‘rganish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotni tashkil etish bilan talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularda ta’mirlash ishlarini bajarish bo‘yicha malaka ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: elektr mashinalari, amaliy mashg‘ulot, transformator, magnit o‘tkazgichlik, nosozliklar va boshqalar.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБНАРУЖЕНИЯ НЕИСПРАВНОСТЕЙ В МАГНИТНЫХ ПРОВОДНИКАХ ТРАНСФОРМАТОРОВ В ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ НА ЭЛЕКТРОМАГНИТЕЛАХ

Ниязов Жасур Абдирасулович
Ассистент Каршинского государственного технического университета

Аннотация. В статье раскрыты пути развития компетентностных навыков студентов по подготовке к будущей профессиональной деятельности и выполнению ремонтных работ с применением магнитных проводников в современных конструкциях “без шипов” с организацией практического занятия по изучению причин неисправности этих магнитных проводников.

Ключевые слова: электрические машины, практические занятия, трансформатор, магнитопроводность, неисправности и др.

DIDACTIC BASIS OF DETECTION OF FAULTS IN MAGNETIC CONDUCTORS OF TRANSFORMERS IN PRACTICAL TRAINING IN ELECTRICAL MACHINES

Niyazov Jasur Abdirasulovich
Assistant Professor, Karshi State Technical University

Abstract. The article reveals ways to prepare students for future professional activities and develop their skills in performing repair work on them by organizing a practical training on the use of modern «slotless» magnetic conductors and studying the causes of malfunctions of these magnetic conductors.

Keywords: electric machines, practical training, transformer, magnetic conductor, malfunctions, etc.

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxasislarni faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki hozirgi kunda tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxasislar shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta’lim tendensiyalari asosida o‘z mutaxasislik fanini chuqur bilishi va zamonaviy bozor talablariga javob beruvchi raqobatbardosh mutaxasislarni tayyorlashda ularning zaruriy kompetinsiyalarini shakillantira olishi, ularda kompetensiyalarni kelgusida kaspiy faoliyatida qullay olish mahoratini shakillantira olish talab etiladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizasiyalashga, jumladan, oliy ta’limni modernizasiyalashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 – oktabrdagi PF-5847-sonli, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlsh to‘g‘risidagi farmoniga ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish 2018-yil 5-iyundagi “ Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish vaularning mamlakatda amalga oshirayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimha chora tadbirlar to‘g‘risidagi PQ 3775-sonli qarorlarini amalga oshirish kadirlar tayyorlash jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishda ilg‘or ta’lim texnalogiyalardan foydalanish asosiy masalalardan biri bo‘lmoqda.

Bu esa o‘z navbatida kelajakdagi faoliyatida sodir bo‘ladigan turli hil muammoli vaziyatlarning bartaraf etish yullarini ochib beradi. O‘zgaruvchan tok kuchlanishining qiymatini o‘zgartirib beruvchi statik elektromagnit apparat transformator deyiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Elektr tarmoqlarida elektr energiyasini ma’lum masofaga uzatishda (kuchlanishni oshirish uchun) va uni iste’molchilar orasida taqsimlashda (yuqori kuchlanishni pasaytirish uchun) transformatorlar keng ishlatiladi. Talabalarning energetika sohasiga oid qiziqishi va qobilyatlari, ularni inovassion kasbiy faoliyatga yunaltirish orqali amalga oshiriladi. Energetika sohasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda yunalishdagi huquqiy iqtisodiy ijtimoiy texnalogik asoslari ishlab chiqariladi. Shuningdek o‘qituvchi birinchi bosqichda talabalarning amaliy ta’lim muassasining ichki tartib-qoidalari mehnatni muhofaza qilish xafsizlik texnikasi talablari elektro mantaj ishlarini bajarish qoidalari va ularning tartibi bilan tanishtiradi.

Elektr tarmog‘ining muhim apparati hisoblangan transformatorni rus elektrotexnigi P N. Yablochkov 1876 yilda ixtiro qilgan. Transformatorni yanada takomillashtirish ustida rus ixtirochisi I. F. Usagin ham ko‘pgina tadqiqot ishlari olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Elektr energiyasi turli xil elektrostansiyalarda ishlab chiqariladi. Odatda, elektrostansiyalar tabiiy energetika resurslari mavjud bo‘lgan rayonlarda quriladi. Bunday rayonlar esa ko‘pincha sanoat markazlaridan ancha uzoqda bo‘ladi. Elektrostansiyalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi elektr uzatish liniyalari orqali sanoat markazlariga, ya’ni iste’molchilarga uzatiladi. So‘nggi vaqtlarda elektr energiyasi uzatilishi lozim bo‘lgan masofa va uzatiladigan quvvatlar tobora ortib bormoqda.

Elektr energiyasi ma’lum masofaga uzatilganda liniya simlarida sodir bo‘ladigan quvvat isrofi mumkin qadar kam bo‘lishi lozim. Shundagina elektr uzatish liniyasining foydali ish koeffitsiyenti katta bo‘ladi, ya’ni iste’molchilarga ko‘proq energiya yetib boradi. Energiya uzatuvchi liniya simlarida quvvat isrofi, asosan, ulardan o‘tuvchi tok kuchining kvadratiga hamda liniya simlarining aktiv qarshiligiga bog‘liqdir. Tok kuchi qancha katta bo‘lsa, quvvat isrofi shuncha katta bo‘ladi. Liniyalarda tok kuchi katta bo‘lsa, bu simlarning ko‘ndalang kesim yuzalarini katta qilib olishga to‘g‘ri keladi. Quvvat isrofini kamaytirish uchun simlarning aktiv qarshiligini kamaytirish lozim. Ma’lum uzunlikdagi simning aktiv qarshiligini, asosan, uning ko‘ndalang kesim yuzini kattalashtirish yo‘li bilan kamaytirish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Liniyalarda ko‘ndalang kesim yuzi katta bo‘lgan simlarning ishlatilishi elektr uzatuvchi liniyalar uchun sarflanadigan rangli metallar (mis, alyuminiy va boshqalar) sarfini ko‘paytiradi hamda simlarning og‘irligini oshirib yuboradi. Og‘ir simlarni ko‘tarib turish uchun baqquvat tayanchlar o‘rnatish lozim bo‘ladi. O‘z navbatida bunday tayanchlar uchun ko‘p metall va yog‘och materiallar sarflash talab qilinadi. Bunday sharoitda elektr energiyasini ma’lum masofaga uzatish ancha qimmatga tushadi va ba’zan maqsadga muvofiq bo‘lmay qoladi.

Bu masalani boshqacha hal qilish mumkin. Ma’lumki, elektr tokining quvvati, asosan, kuchlanish va tok kuchi qiymatlarining ko‘paytmasi R= UI bilan aniqlanadi. Bu formulaga muvofik, ma’lum quvvatda kuchlanish katta bo‘lsa, tok kuchi kichkina bo‘ladi va aksincha. Ma’lum quvvatni uzoq masofaga uzatishda kuchlanish qiymati necha marta oshirilsa, simlardan o‘tadigan tok kuchining qiymati shuncha marta kamayadi. Energiya uzatishda liniya simlarida tok kuchi kichik bo‘lsa, kuchlanish pasayishi ham, quvvat isrofi ham kam bo‘ladi. Bundan tashqari, tok kuchi kichkina bo‘lganda elektr uzatish liniyalarida ko‘ndalang kesim yuzi kichikroq bo‘lgan simlar ishlatishga imkon yaratiladi. Natijada liniya qurish uchun sarflanadigan rangli metallar hamda tayanchlar qurish uchun ishlatiladigan metall va yog‘och materiallar sarfi kamayadi. Elektr energiyasini uzoq masofaga uzatish tannarxi arzonlashadi. Demak, elektr energiyasini uzoq masofaga kuchlanish qiymatini oshirib uzatish foydali ekan.

O‘zgaruvchan tok kuchlanishi qiymatini transformatorlar yordamida istalgancha oshirish ham, pasaytirish ham mumkin. Energetika sistemalarida va yuqori hamda past kuchlanishli elektr tarmoqlarida kuchlanish qiymatini oshirib beruvchi yoki kamaytirib beruvchi transformatorlar keng ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda elektrostansiyalarda ishlab turgan yoki yangi o‘rnatilayotgan generatorlarning nominal kuchlanishi 6...24 kV dan oshmaydi. Energiyani uzoq masofaga, chunonchi 10...24 kV kuchlanishda, uzatish (yuqoridagi mulohazalar asosida) maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Shuning uchun katta quvvatlarni uzoq masofaga uzatishda o‘ta yuqori kuchlanishlardan (masalan, 110 kV? 220 kV, 500 kV, 750 kV va hokazo) foydalaniladi. Bunday liniyalarda quvvat isrofi ancha kamayadi, energiya uzatish liniyasining FIK katta bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir elektr stansiya qoshidagi podstansiyada kuchlanishni bir necha o‘n marta oshirib beradigan kuch transformatorlari o‘rnatiladi. 2–rasmdagi sxemada ko‘rsatilgan T–1, T–2, T–5, T–6 transformatorlari kuchlanishni oshirib beradigan transformatorlardir.

Bizga ma’lumki, har bir sohada qo‘llanilayotgan jihoz va uskunalarning ishlatilishi davomida eskirishi yoki notug‘ri ekspluatatsiya qilinishi va boshqa turli sabablarga ko‘ra shikastlanishlar sodir bo‘lishi tabiy hol va bunday shikastlanishlar bartaraf etish bevosita muxandis-texnik hodimlarni oliy ta’lim tizimidan egallagan nazariy, amaliy bilimlari orqali hal etiladi. Hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligining barcha sohalarida turli xil elektr mashinalari, transformatorlar va boshqa elektr asbob–uskunalari ishlatilmoqda.

Elektr mashinalari va transformatorlar ma’lum quvvatga mo‘ljallab tayyorlanadi. Bu quvvat mashina ishlaganda undan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori bilan aniqlanadi. Har bir elektr mashinasi, transformator yoki boshqa elektr asbobining pasportida ularning normal sharoitda ishlashini xarakterlovchi kattaliklarning nominal qiymatlari, masalan, nominal quvvati, nominal kuchlanishi, nominal toki va boshqalar ko‘rsatilgan bo‘ladi. Iste’molchilarni elektrenergiyasi bilai ta’minlovchi tarmoqlarda bir fazali va uch fazali transformatorlar keng ishlatiladi. Bir fazali transformator, asosan. ferromagnit o‘zakdan va uning sterjenlariga o‘ralgan. ikkita yoki undan ortiq chulg‘amdan tuziladi. Ferromagnit o‘zak transformatorning magnit sistemasi, ya’ni magnit o‘tkazgichi hisoblanadi. Ferromagnit o‘zak magnit oqimi o‘tadigan konturning magnit qarshiligini kamaytiradi va chulg‘amlarning elektromagnig bog‘lanishlarini kuchaytiradi. Quvvati uncha katta bo‘lmagan transformatorlarning magnit sistemasi bronli (a), sterjenli (b) va toroidal (v) shaklga ega bo‘lishi mumkin. Amalda yupqa elektrotexnika po‘latidan ishlangan lentadan o‘rab tayyorlangan magnit o‘tkaz gichlar keng qo‘llaniladi. Transformatorlarning po‘lat o‘zagi yuqori legirlangan po‘latdan tayyorlanadi. Transformatorlarning salt ishlash toki birlamchi chulg‘amning nomipal tokiga nisbatan juda kichkina bo‘ladi va amalda nominal tokning 2 ... I0% idan oshmaydi. Salt ishlash toki ikki qismdan iborat bo‘ladi: salt ishlash tokining REAKTIV qismi IOr va salt ishlash tokining aktiv qismi IOa. Salt

ishlash tokining reaktiv qismi transformatorning ferromagnit o‘zagida uning magnit oqimini hosil qiladi. Shuning uchun ham tokning bu qismini ko‘pincha magnitlovchi tok (Ia) deyiladi. Magnitlovchi tok salt ishlash tokining asosiy qismini tashkil qiladi.

Har bir sohada qo‘llanilayotgan jihoz va uskunalarning ishlatilishi davomida eskirishi yoki notug‘ri ekspluatatsiya qilinishi va boshqa turli sabablarga ko‘ra shikastlanishlar sodir bo‘lishi tabiy hol va bunday shikastlanishlar bartaraf etish bevosita muxandis-texnik hodimlarni oliy ta’lim tizimidan egallagan nazariy, amaliy bilimlari orqali hal etiladi. Hozirgi vaqtda xalq xo‘jaligining barcha sohalarida turli xil elektr mashinalari, transformatorlar va boshqa elektr asbob–uskunalari ishlatilmoqda. Elektr mashinalari va transformatorlar ma’lum quvvatga mo‘ljallab tayyorlanadi. Bu quvvat mashina ishlaganda undan ajralib chiqadigan issiqlik miqdori bilan aniqlanadi. Har bir elektr mashinasi, transformator yoki boshqa elektr asbobining pasportida ularning normal sharoitda ishlashini xarakterlovchi kattaliklarning nominal qiymatlari, masalan, nominal quvvati, nominal kuchlanishi, nominal toki va boshqalar ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Elektr ta’minoti tizimida turli hil quvvatli transformatorlarning ularning magnet o‘tkazgichlarida quyidagi buzuqliklar uchrab turadi. Biz bunday buzuqlarni sababi va ularni bartaraf etish usullarini amaliy mashg‘ulot davomida talabalarga ko‘rgazmali holatda tushuntirib berganimizda mashg‘ulotni samaradorligi yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan elektr ta’minoti tizimida turli hil quvvatli transformatorlarning ularning magnit o’tkazgichlarida quyidagi buzuqliklar uchrab turadi. Biz bunday buzuqlarni sababi va ularni bartaraf etish usullarini amaliy mashg’ulot davomida talabalarga ko’rgazmali holatda tushuntirib berganimizda mashg’ulotni samaradorligi yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Majidov S.M. Elektr mashinalari va yuritmalari.- Toshkent.: O‘qituvchi, 2002. -358 b.

2.Majidov S.M., Berdiyev U.T. va boshqalar. Elektr mashina va elektr yuritmalardan praktikum. - Toshkent.: O‘qituvchi, 2005. -175 b.

3.Ibroximov U. Elektr mashinalari. – Toshkent.: O‘ќituvchi, 1982.-372 b.

4.Katsman M.M. Elektricheskiye mashini.- Moskva.: Visshaya shkola, 1990 g..-463 s.

5.Berdiyev U.T. va Tojiyev M.A. Gidromeliorativ mashinalar elektr yuritmasi Toshkent, TIMI, 2008 y. 139 b.

UO‘K 796.81 (045) BBK 75.715 B 99

KURASHCHILARNING NATIJADOR USULLARINI ANIQLASH
IDENTIFYING EFFECTIVE METHODS OF WRESTLERS

Bo‘riyev Kamol Suyunovich
Qarshi davlat universiteti Sport faoliyati kafedrasi PhD; dots v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kurashchilarning musobaqalarda qo‘llaydigan texnik-taktik harakatlari o‘rganilib, eng natijador usullarni aniqlashning ilmiy asoslari bayon etilgan. Tadqiqot natijalari kurashchilar tayyorgarligini takomillashtirish, mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish va musobaqalarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Jahonda kurash sport turi rivojlanayotgan mamlakatlar mutaxassislari tomonidan yosh kurashchilarni musobaqalarga tayyorlashning yangicha usullari qo‘llash, texnik usullarga o‘rgatishning yoshga xos xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlikni oshirish, yosh kurashchilarni mashg‘ulot va musobaqa jarayonida jarohatlanishlarini oldini olish va qayta tiklanishiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu boisdan, kurash bellashuvlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yosh kurashchilarni asosiy musobaqa faoliyatiga modellashtirish asosida tayyorlash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha mashg‘ulotlar sikllarini samarali ishlab chiqishga zaruratu yuzaga kelmoqda. Yosh kurashchilarni musobaqa faoliyatiga tayyorlashning boshlang‘ich bosqichida o‘quv-mashg‘ulot jarayoni tarkibining tuzilishi, mazmuni va metodikasi va ularni modellashtirish, amaliy ko‘rinishdagi texnik mahorat bilan pedagogik uslublarni deyarli yo‘qligi, kurashchilarni musobaqa faoliyatiga tayyorlashda model uslubidan foydalanishni takomillashtirish masalasi dolzarbligini taqozo etmoqda.

Abstract. This article studies the technical and tactical movements used by wrestlers in competitions and describes the scientific basis for determining the most effective methods. The results of the study serve to improve the training of wrestlers, individualize the training process, and increase efficiency in competitions. In the world, experts from countries where wrestling is developing are conducting scientific research on the use of new methods of training young wrestlers for competitions, age-specific features of training in technical methods, increasing physical fitness, preventing and recovering from injuries of young wrestlers during training and competitions. Therefore, based on the specific characteristics of wrestling competitions, there is a need to effectively develop training cycles to improve the process of training young wrestlers for the main competition activities based on modeling. The structure, content and methodology of the training process at the initial stage of preparing young wrestlers for competitive activities, the almost complete absence of modeling, practical technical skills and pedagogical methods, necessitates the urgent issue of improving the use of the model method in preparing wrestlers for competitive activities.

Kalit so‘zlar: kurash, texnika, taktika, natijadorlik, usul, tayyorgarlik, tahlil.
Keywords: wrestling, technique, tactics, effectiveness, method, preparation, analysis.

Kirish

Bugungi kunda kurash sporti nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyoda ommalashib bormoqda. Xalqaro maydonlarda yuqori natijalarga erishish uchun kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish zarur.

Kurashchi g‘alabasini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri – natijador usullarni amalda qo‘llay bilish va ularni o‘zlashtirishdir. Shuning uchun kurashchilar tomonidan eng ko‘p va muvaffaqiyatli qo‘llaniladigan usullarni aniqlash, ularni tahlil qilish va mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish sport tayyorgarligining ajralmas qismidir.

Ma’lumki, zamonaviy sportning rivojlanishida yuqori natijalarga erishish, to‘liq ravishda yoshlar sportiga asoslangan holda tashkil qilinadi. Sportchi xalqaro darajaga erishishi uchun 5 yildan 10 yilgacha davrni bosib o‘tishiga, yoshlar sportida ko‘nikma va malaka bazasini hosil qilishga to‘g‘ri keladi. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi davrga kelib yoshlar sporti nazariyasida sport zahirasini tayyorlashning ko‘pchilik masalalari yetarlicha ishlab chiqilgan.

Yoshlar sportining nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishga M.Y. Nabatnikova katta hissa qo‘shgan, u yoshlar sporti muammolarining fundamental taqdiqotlarini o‘rgangan.

1990-2000-yillarda professor M.Y.Nabatnikova rahbarligida sport zahiralari tayyorgarligining ko‘pchilik nazariy va amaliy masalalari hal etilgan. 2000-yillardan boshlab shu bugungi kungacha anchagina kitoblar va o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan. O‘quv-mashq jarayonini qurishning maqsadga muvofiqligi uning musobaqaviy faoliyati tuzilishini musobaqaviy kurash olib borishning eng ma’qul samaradorligini ta’minlovchi darajada shakllanishiga yo‘nalishini taqozo qiladi. Bunday shakllanishga musobaqalashuv faoliyatining o‘ziga xosligini belgilovchi omillar to‘g‘risidagi ko‘pqirrali ma’lumotlar mavjud bo‘lsa ham uning tuzilishi sportchining tayyorgarligi bilan o‘zaro omiqta bo‘lgan vaqtdagina amalga oshadi.

Ko‘rsatilgan omillar va o‘zaro harakatlar asosida musobaqa faoliyati tuzilishi omili hamda ushbu tuzilishlarning o‘zaro bog‘liqligi qonuniyatini aks ettiruvchi tayyorgarlik tuzilishi bilan birligi yotadi. Bunda musobaqa faoliyati tarkibi va sportchining tayyorgarlik ko‘rsatkichlari orasidagi musobaqalashuv faoliyatini tashkil etuvchi subordinasion munosabatlar quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

1) musobaqa faoliyati sportchi tayyorgarligining bosh integral tavsifi hisoblanadi;

2) musobaqalashuv faoliyatining asosiy komponentlari uning ekstremal holatlarda muvaffaqiyatli hal etilishining poydevorini tashkil etadi;

3) sportchining integral sifatlari va imkoniyatlari musobaqalashuv faoliyati asosiy tashkil etuvchilarini bajarish vaqtida uning harakatlari samaradorligini belgilaydi;

4) har xil funksional ko‘rsatkichlari integral sifatlar va imkoniyatlar rivojlanishining darajasini tavsiflaydi;

5) xususiy ko‘rsatkichlar asosiy funksional parametrlar va tavsiflar darajasini belgilaydi.

Musobaqa va mashg‘ulot faoliyatini tashkil qilishning mazmuni va subordinatsiyasiga bunday yondashish vaqtida shuni nazarda tutish lozimki, sportchilar ushbu faoliyat turlari uchun o‘zaro aloqasini belgilash boshqaruv jarayonini optimallashtirish muammosi bilan bog‘liq. U tayyorgarlik ko‘rsatkichlari aniq tashxisini, o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil qilishda barcha modellarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Sportchining musobaqa faoliyati mazmuni va tuzilishini uning xususiyatlari to‘g‘risidagi zamonaviy tasavvurlar negizida mufassalroq ko‘rib chiqar ekanmiz, shuni qayd etish mumkinki. Bunday faoliyatni joriy kilish vaqtida umumiy tarzda uchta ketma-ket realizatsiya qilinadigan fazani o‘z ichiga oladi:

- start oldi fazasi, motivatsiya asosida maqsadli ko‘rsatmani shakllantirish, musobaqa faoliyati va uning tizimini modellashtirish bilan tavsiflanadi;

-bellashuv jarayoni fazasi, sportchining maqsadli ko‘rsatmani haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan natija ko‘rinishida qo‘llash bo‘yicha faoliyatini, ko‘proq rasional musobaqadagi kombinasion harakatlarini, har xil bellashuv bosqichlarida musobaqa shakllarini o‘z ichiga oladi;

- pirovard fazasi, musobaqa faoliyati yaqin va nisbatan uzoq vaqtli samara izlar yo‘nalishi va ta’sir darajasi bilan tavsiflanadi.

Sportchi musobaqa faoliyatining fazaviy tavsifini ajratish va uning ma’nosini anglab

yetishi uchun zarur. Masalan, startoldi fazasi holati, kutish va oldinda turgan musobaqaga tayyorgarlik ko‘rishni o‘z ichiga oladi hamda startoldi jarayonlarini yengib o‘tish paytidagi sportchi holati keng ko‘lamdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bunday jarayonlar guruhiga quyidagilar kiradi: musobaqa maqsadini shakllantirish, bu ko‘rsatmani sportchining o‘z imkoniyatlarini baholashi bilan motivatsiyalash, oldinda turgan musobaqa faoliyatini modellashtirish hamda oldinda turgan bellashuvga emosional tayyorgarlik ko‘rish.

Sport kurashi sohasida klassifikatsiyaning asosiy vazifasi kurash texnikasi ulkan xilma-xilligini klasslar va guruhlarga taqsimlash hamda klasslanadigan ma’lumotlarni tizimga keltirishdan iboratdir, bu tizim sport kurashi asoslarini maqsadli tadqiq etishga ko‘maklashadi. Kurash texnikasini klassifikatsiyalash ob’yektlariga kurashchilar tanasi holatini gilamga nisbatan o‘zgarishga olib keluvchi barcha usullar majmuasi kiradi. Kurash bo‘yicha har qanday bolalar seksiyasi murabbiysi o‘z amaliy ishida ikkita o‘zaro qarama-qarshi vazifani yechishga harakat qiladi. Birinchi navbatda o‘quvchilarni kurash texnikasiga tavsiya etilgan o‘quv dasturlariga muvofiq o‘qitish, ikkinchi navbatda ularni iloji boricha tezroq musobaqalarda qatnashishga tayyorlash, bu yerda ular o‘zlariga notanish kurash texnikasiga duch kelishadi hamda ko‘pincha bu notanish usullar texnikasiga qarshi kurasha olmaydi. Shubhasiz, kurashchilar texnik arsenalini o‘rgatish va takomillashtirish ketma-ketligi muammosini yechishga zamonaviy yondashuv musobaqalashuv amaliyoti mazmunini hisobga olishi lozim. Bizning olib borgan izlanishlarimizga ko‘ra, hozirgi vaqtda kurash texnikasi klassifikatsiyasining bir nechta turlari mavjud.

Mamlakatimiz klassifikatsiyalari orasida professor K.T.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash usullari klassifikatsiyasi birinchilardan edi. Uning klassifikatsiyasi turish holatidagi kurash texnikasini uchta kichik klassga ajratadi:

- qo‘llar bilan ushlash;
- oyoqlar bilan chalish;
- gavda bilan harakalanish.

Bu klassifikatsiyani amalda J.M.Nurshin tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya takrorlaydi, bu kurashlarning tik turish holatidagi kurash texnikasi bir xilligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mamlakatimiz klassifikatsiyalari orasida K.T.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash usullari klassifikatsiyasi birinchilardan edi. Uning klassifikatsiyasi tik holatidagi kurash texnikasini uchta kichik klassga ajratadi: qo‘llar bilan ushlash, oyoqlar bilan chalish, gavda bilan xarakatlanish. N.G.Polko tomonidan, turish holatidagi kurash texnikasining quyidagi klassifikatsiyasini taklif etdi:

- egilib tashlash; - buralib tashlash (son orqali); aylantirib tashlash bukib tashlash; aylantirib tashlash; chalib tashlash, burab tashlash; o‘tirib tashlash. Shuni ta’kidlash lozimki, usullarning 6 ta guruhi hujum qiluvchi kurashchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarga muvofiq birlashtiriladi. Ayni vaqtda qolgan 2 ta guruh — hujumga o‘tuvchi tashlashni o‘tkazish davomida hujumga uchragan kurashchi harakatlariga muvofiq birlashtirilgan, ya’ni tashlashlar sistematizatsiyasi bitta umumiy belgi bo‘yicha emas, balki 2 ta har xil belgilar bo‘yicha amalga oshirilgan. Yana shuni qo‘shimcha qilish lozimki, egilish bilan tashlashlar guruhiga xos bo‘lgan, usulning tugash fazasida hujum qiluvchi gavdasini egish boshqa ko‘pchilik tashlashlar o‘tkazish vaqtida ham joiz bo‘ladi. Shuningdek, hujum qiluvchining gilamga orqasi bilan yiqilishi faqat o‘tirish bilan tashlashlar guruhiga, balki yiqilish bilan o‘tkaziluvchi har qanday boshqa usullarga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Tik holatidagi kurash usullarini klassik usullar va ularning variantlariga hamda noklassik texnika va uning variantlariga ajratadi. Turish holati klassik usullari guruhini oyoq bilan chalib tashlashlar, oyoqlarni ikkalasini chalib tashlashlar, juft chalish bilan, kombinatsiyalangan chalish bilan tashlashlar, shuningdek,

turishda oshirib tashlash usul bilan tashlash, turishda bir yoqani ushlab tashlash.) tashkil etadi. Ilmiy izlanuvchilarning fikricha, chalish guruhlari asosan oyoqlar hisobiga, ushlashlar qo‘llar hisobiga, tagidan ushlashlar oyoqlar hisobiga, tagiga o‘tirishlar korpus va tananing boshqa qismlari hisobiga bajariladi. Tik holati klassik texnikasini kichik guruhlarga ajratish «beldan oshirib tashlash» tayanchiga «ikki yengdan ushlab tashlash» ta’siri xususiyatlariga bog‘liqdir.

Natijador usul tushunchasi. Kurashda “natijador usul” — bu sportchi tomonidan musobaqa sharoitida eng ko‘p samarali natija (g‘alaba, yuqori baho, raqibni mag‘lub etish) keltiruvchi texnik harakatni anglatadi.

Bu usullar sportchining: jismoniy sifati (kuch, tezlik, chaqqonlik), texnik tayyorgarligi, taktik fikrlash darajasi, raqibga moslashuv qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Natijador usullarni aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin:

Videoanaliz – musobaqa yozuvlarini tahlil qilish orqali qaysi usullar eng ko‘p qo‘llanilganini va muvaffaqiyat foizini aniqlash.

Statistik tahlil – sportchilarning g‘alaba ko‘rsatkichlarini usullar bo‘yicha guruhlash.

Murabbiy va sportchilar so‘rovi – sub’ektiv baholar orqali qaysi usullar o‘zlashtirilganini bilish.

Eksperimental tadqiqot – mashg‘ulotlarda ma’lum usullarni sinov tariqasida qo‘llab, samaradorlikni solishtirish.

«Natijaviylik» texnik ko‘rsatkichi kurashchining hujum harakatlarini belgilaydi, bu kurashchi hujum harakatlarining o‘rtacha baholanishidir. Kurashda ballar yig‘indisi ham (baholash sifati asosi hisoblanadi), halol g‘alaba shartli ravishda quyidagicha qabul qilingan - «halol» usuli uchun 10 ball , «yonbosh» bahosi uchun 5 ta, «chala» usuli uchun ball 3 ta shartli birliklarga muvofiq keladi. Kurashchi tomonidan erishilgan ballar va ularning sifatini bilib, ularning o‘rtacha kattaligini yoki «Natijaviylik»ni hisoblash mumkin:

$P=(10\times H+5\times Y+3\times CH)/n$

bu yerda: H- “Halol” baholar soni;

Y- “Yonbosh” baholari soni;

Ch- “Chala” baholari soni;

Tadqiqot natijalari (namunaviy tahlil)

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

66–81 kg vazn toifasidagi kurashchilar orasida “bel bilan ko‘tarib otish” va “oyoqdan chalish” usullari eng samarali hisoblanadi.

Og‘ir vazn toifalarida esa “qarshi harakat bilan yiqitish” va “pastdan olib aylantirish” usullari yuqori natija beradi.

Tajribali sportchilar jang davomida o‘zlariga eng qulay usullarni kombinatsiya qilib qo‘llash orqali natijadorlikni oshiradi.

Mashg‘ulot jarayonida natijador usullarni shakllantirish

Mashg‘ulotlarda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

sportchining individual xususiyatiga mos usullarni tanlash;

raqib harakatlariga tezkor javob qaytarish ko‘nikmasini shakllantirish;

har bir usulni turli vaziyatlarda (hujum, himoya, qarshi hujum) qo‘llashni mashq qilish; texnik-taktik tayyorgarlikni jismoniy sifatlar bilan uyg‘unlashtirish.

Xulosa

Kurashchilarning natijador usullarini aniqlash — sport natijalarini yaxshilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Har bir sportchi o‘zining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda eng samarali usullarni o‘zlashtirishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy asosda olib borilgan tahlil va mashg‘ulot rejalashtiruvi kurashchining texnik repertuarini kengaytiradi va musobaqalardagi natijadorlikni sezilarli oshiradi. Biz tomonimizdan olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlarimizda respondent-trenerlar fikri va maslahatlari asosida o‘rganilgan yosh kurashchilarda texnik-taktik harakatlarini shakllantirish muammolarini anketa-so‘rovnomasi natijalariga asoslanib o‘rganish tahlil natijalariga ko‘ra, ular tomonidan bajarilayotgan texnik usullar o‘z maromiga yetkazilib bajarilayotganligi va noqulay vaziyatlardan ham yengillik bilan chiqib ketish holatlari tadqiqot davomida aniqlandi. Bu borada Jahon arenalarining kuchli kurashchilarni g‘alaba qozonishdagi hujum va himoya harakatlari to‘g‘risidagi ilmiy izlanishlarda yetarlicha ma’lumotlar yoritib berilmaganligi o‘rganildi. Kurashchilarni o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida texnik harakatlarni saralashda faqatgina nufuzli musobaqalarda muvofaqiyatli bajarilgan texnik harakatlar emas, shu texnik usullarni maromiga yetkazib bajargan bir qancha yuqori malakaliy kurashchilarning texnik-taktik mahorat darajalari o‘rganildi. Unga ko‘ra Anketa-so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, 12% mutaxassislar kurash samarali texnikasini har doim ham g‘alabaga erishishning asosiy vositasi hisoblanmaydi, degan fikrni bildirganlar.

Har bir kurashchi tomonidan ko‘proq qo‘llaniladigan usul, ya’ni “Toj” usuli uning samarali texnik harakatidir degan fikr uchinchi o‘rinni (10%) egalladi. 8% respondentlar oshirib tashlash texnik harakat sifatida ushbu sportchi tomonidan shaxsan yagona qo‘llaniladigan usulni hisoblashadi.

Raqib yoqasidan ushlab chalish, yaktagdan ushlash holatlari, oyoq osti bilan ilib olish, beldan oshirib tashlash usullari. Kabi texnik harakatlar mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ushbu klassifikatsiyani kurashda qo‘llanish mutlaqo o‘rinli deb topishadi, chunki kurashning paydo bo‘lish asoslari boshka (fargona uslubi) bilan chambarchas bog‘langan, tik turish holatida bajariladigan usullari arsenali esa amalda deyarli bir xildir. Kurashchilarni o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarining asosiy mazmuni va ketma-ketligi muammosini yechishga zamonaviy yondoshish musobaqalashuv nizomlarini amaliyotini hisobga olishi lozim. Uning tahlili kurash texnik arsenalini boshlang‘ich egallash vaqtida orqaga tashlashlar guruhiga kam e’tibor qaratilayotgani to‘g‘risida xulosaga olib keladi. Xolbuki, tik turish holatidan va tizzadan orqaga elkadan oshirib tashlash hamda chalish (ko‘proq orqa chalish), har xil ichidan chalishlar, oyoqlar bilan chalib, ilib tashlashlar ko‘proq musobaqalashuv bellashuvlarida samaraliy bajarilishi kuzatildi. Kurash turining texnik harakatlarining amaldagi klassifikatsiyalarini tahlil etishni yakunlarini qayd etish lozimki, malakatimizning ko‘pchilik mutaxassislari kurash turi texnikasiga o‘rgatish jarayoni uchun aynan mos keluvchi K.T.Yusupov va Y.M.Chumakov tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiyalarga ustunlik berishi aniqlandi.

Kurashchilarning musobaqa bellashuvlariga tayyorlash samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri muddatidan oldin g‘alabaga erishish yoki anchagina ustunlikka erishishga imkon beruvchi texnik-taktik harakatlarni tanlash modelini hal etish kerakligi aniqlandi. Bu tanlov maqsadli yo‘nalishga ega bo‘lishi va quyidagilarga asoslanishi lozim: sportchining individual xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar; jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olish; har bir kurashchining anatomo-morfologik belgilari hamda u yoki bu texnik-taktik harakatlarni bajarishga shaxsiy qobiliyatlari rivojlanganlik darajalari kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abdiyev A.N. Борба monografiya. T.:, 2004.
Aliyev I.B. Kurash bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarni mashg'ulot yuklamalarining optimal nisbatlari. /diss., T., 2012.
Platonov V.N. Sistemi podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Kiev, 2015.
Mirzaev A., Tursunov B. Kurashchilarning tayyorgarlik jarayonida model ko'rsatkichlardan foydalanish. – "Sport ilm-fani" jurnali, №2, 2022.

To'xtayev B., Raxmonov S. Kurashda texnik va taktik tayyorgarlik asoslari. Toshkent, 2021.
Olimov A. Sport turlari nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2020.
7. Axmedov F.Sh. Yosh kurashchilarni pedagogic nazorat qilish asosida trenirovka nagruzkalarini boshqarish ped. fan. nom. diss. avtoreferat. - T., 2005.
8. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. Toshkent– 2009.
9. Bayto'rayev E.I, Odilov B.B. Sambo bo'yicha sport pedagogik mahoratini oshirish. O'quv qo'llanma, 2018.
10. Bakiyev Z.A. Erkin kurash nazariyasi va amaliyoti. T.: O'quv qo'llanma. 2011.
11. Bobomurodov F.I. Kurashchilarning morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga defferensial yondashuv. avtoref. diss. – Ch., 2019.

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FIZIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yusupova Dildora Uktamovna,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti fiziologiya fani o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0008-1455-8810
usupovadildora8@gmail. com; Tel: (90)271-09-39

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida fiziologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan usullar, zamonaviy texnologiyalar va baholash mezonlari tahlil etiladi. Fiziologiya fanining tibbiy ta’limdagi ahamiyati, kelajakdagi shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli, shuningdek, fanni o‘qitishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Fiziologiya, tibbiy ta’lim, o‘qitish usullari, ta’lim texnologiyalari, kasbiy kompetensiya, baholash, muammolar.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИОЛОГИИ В ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Юсупова Дилдора Уктамовна,
Преподаватель физиологии Самаркандского государственного медицинского университета
https://orcid.org/0009-0008-1455-8810
usupovadildora8@gmail.com; Тел.: (90)271-09-39

Аннотация: В данной статье анализируются особенности, цели и задачи преподавания физиологии в медицинских вузах, методы, применяемые в образовательном процессе, современные технологии и критерии оценки. Рассматривается значение физиологической науки в медицинском образовании, ее роль в формировании профессиональных компетенций будущих врачей, а также проблемы, с которыми сталкивается преподавание дисциплины, и пути их решения.

Ключевые слова: физиология, медицинское образование, методы обучения, образовательные технологии, профессиональная компетентность, оценка, проблемы.

SPECIFIC FEATURES OF TEACHING PHYSIOLOGY IN HIGHER MEDICAL EDUCATION INSTITUTIONS

Yusupova Dildora Uktamovna,
Teacher of physiology at Samarkand State Medical University
https://orcid.org/0009-0008-1455-8810
usupovadildora8@gmail. com; Tel: (90)271-09-39

Abstract: This article analyzes the features, goals and objectives of teaching physiology in medical universities, methods used in the educational process, modern technologies and evaluation criteria. The article examines the importance of physiological science in medical education, its role in shaping the professional competencies of future doctors, as well as the problems faced by teaching the discipline and ways to solve them.

Keywords: physiology, medical education, teaching methods, educational technologies, professional competence, assessment, problems.

- Kirish (Introduction).

Fiziologiya - tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan fundamental fanlardan biri bo‘lib, organizmning normal hayot faoliyatini, a’zolar va tizimlarning funksiyalarini o‘rgatadi. Kelajakdagi shifokorlar uchun fiziologiyani mukammal o‘zlashtirish tashxis qo‘yish, davolash va kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida fiziologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ta’lim jarayonini takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Fiziologiya fanini oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning ayrim xususiyatlari bo‘lib, bularga talabalarning bilimlarini yanada mustahkamroq va samarali bo‘lishi uchun fanlar aro bog‘lanishning naqadar muhimligi talabar tomonidan to‘liq anglab yetmasliklari, ularning fanni o‘zlashtirishlarida qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Fiziologiya fanining o‘qitilishining quyidagi xususiyatlariga o‘qituvchi tomonidan alohida e’tibor qaratilishi lozim deb bilamiz:

• Talabalarning mavzuga tayyorgarlik darajasining pastligi yoki fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyaning yo‘qligi;

• Birinchi bosqich talabalarining oliy ta’limga ma’naviy jihatdan tayyor emasliklari, o‘z- o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyaning yo‘qligi yoki o‘ta pastligi;

• Amaliyot bilan nazariya o‘rtasidagi uzilishlarning bo‘lishi;

• Zamonaviy tekshirish, diagnostika metodlari (matematik modellashtirish, klinik metodlar va h.k.) ning amaliy mashg‘ulotlarda to‘liq yoritib berilmasligi;

• O‘qitishning distansion formatlarini mustaqil ta’limda kam qo‘llanilishi;

• Amaliy mashg‘ulotlarni nazoratlar, kollokviumlar sonini ko‘paytirish va h.k.lar darsning samaradorligi oshiradi.

• Fiziologiya fani bu - fundamental bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan muvofiqlashtirib, zamonaviy texnologiya va motivatsiya muammolarini, shuningdek o‘qish protsessi va real klinikadagi muammolarga yechim topish bilan shug‘ullanadi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Zamonaviy fiziologiya bo‘lajak shifokorlarni klinikada qo‘llaniladigan amaliy ko‘nikmalar, real hayotga yaqinlashtirilgan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishlari va to‘g‘ri yechim topishlari, ekstremal holatlarda kazustik vaziyatlardan chiqib keta olishlari, bemor yoki patsiyent organizmida kechayotgan fiziologik protsess haqida to‘liq fikrlay olishlari lozim.

Fiziologiya fani tibbiy ta’limda quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

• Anatomiya va boshqa fanlar bilan integratsiya: Fiziologiya anatomiya, gistologiya, biokimyo va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, organizmning tuzilishi va funksiyalari o‘rtasidagi aloqadorlikni tushunishga yordam beradi.

• Kasalliklarning patogenezini tushunish: Fiziologiya normal funksiyalar haqidagi bilimlarni berib, kasalliklarning patogenezini, ya’ni kasallikning rivojlanish mexanizmini tushunish uchun zamin yaratadi.

• Klinik tafakkurni shakllantirish: Fiziologiya talabalarda klinik tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular normal funksiyalar va ularning buzilishi o‘rtasidagi aloqani tushunish orqali tashxis qo‘yish va davolash strategiyalarini ishlab chiqishga o‘rganadilar.

• Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish: Fiziologiya laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy topshiriqlar orqali talabalarda turli xil fiziologik parametrlarni o‘lchash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Fiziologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari:

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida fiziologiya fanini o‘qitish quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

• O‘quv dasturining mazmuni: O‘quv dasturi organizmning barcha asosiy tizimlarining funksiyalarini qamrab oladi, shu jumladan nerv tizimi, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi, ovqat hazm qilish tizimi, endokrin tizimi, siydik chiqarish tizimi va hokazo.

• O‘qitish usullari: Ta’lim jarayonida leksiyalar, seminarlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, klinik holatlarni muhokama qilish va mustaqil ish kabi turli xil usullar qo‘llaniladi.

• Zamonaviy texnologiyalar: Ta’lim jarayonida multimedia prezentatsiyalari, virtual laboratoriyalar, kompyuter simulyatsiyalari va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi.

• Baholash mezonlari: Talabalarning o‘zlashtirish darajasi yozma imtihonlar, og‘zaki imtihonlar, testlar, laboratoriya ish hisobotlari va klinik holatlarni tahlil qilish orqali baholanadi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Fiziologiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan usullardan foydalanish fanni talabalar tomonidan mavzuni umuman olganda fanni o‘zlashtirilishi samaradorligini oshiradi.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida fiziologiya fanini o‘qitishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

• Leksiyalar: Leksiyalar talabalarga fanning asosiy nazariy tushunchalarini yetkazish uchun ishlatiladi. Leksiyalar interaktiv shaklda o‘tkazilishi, talabalarning savollariga javob berilishi va munozaralar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

• Seminarlar: Seminarlar talabalarning mustaqil ishlashini rag‘batlantirish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va guruhda ishlash qobiliyatini shakllantirish uchun ishlatiladi. Seminarlarda talabalar ilmiy maqolalarni tahlil qiladilar, klinik holatlarni muhokama qiladilar va o‘z taqdimotlarini tayyorlaydilar.

• Laboratoriya mashg‘ulotlari: Laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarga fiziologik parametrlarni o‘lchash, eksperimentlar o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ishlatiladi. Laboratoriya mashulotlarida zamonaviy uskunalar va kompyuter dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

• Klinik holatlarni muhokama qilish: Klinik holatlarni muhokama qilish talabalarga fiziologik bilimlarni klinik sharoitda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ishlatiladi. Klinik holatlarni muhokama qilishda talabalar tashxis qo‘yish, davolash rejasini tuzish va natijalarni baholashda ishtirok etadilar.

• Mustaqil ish: Mustaqil ish talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini o‘qitish qobiliyatini shakllantirish uchun ishlatiladi. Mustaqil ishga referatlar tayyorlash, ilmiy maqolalarni tahlil qilish, test savollariga javob berish va klinik holatlarni tahlil qilish kiradi.

Fiziologiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa, o‘qituvchi yoki trenerning mavzuni talabalarga yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytiradi:

Zamonaviy texnologiyalar fiziologiya fanini o‘qitishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

• Multimedia prezentatsiyalari: Leksiyalarni vizuallashtirish va materialni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

• Virtual laboratoriyalar: Xavfsiz sharoitda eksperimentlar o‘tkazish va fiziologik jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi.

• Kompyuter simulyatsiyalari: Organizmning turli xil tizimlarining funksiyalarini modellashtirish va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga yordam beradi.

• Onlayn platformalar: Talabalarga o‘quv materiallariga kirish, testlardan o‘tish va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, fiziologiya fanini o‘qitishda talabalarning bilimlarini baholab borish ularining fanni o‘zlashtirishlaridagi motivatsiyasini oshiradi.

Talabalarning fiziologiya fanini o‘zlashtirish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

• Yozma imtihonlar: Fanning nazariy asoslarini bilish darajasini baholash uchun ishlatiladi.

• Og‘zaki imtihonlar: Fanning asosiy tushunchalarini tushunish, savollarga javob berish va munozaralarda ishtirok etish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.

• Testlar: Fanning asosiy tushunchalarini o‘zlashtirish darajasini tezkor baholash uchun ishlatiladi.

• Laboratoriya ish hisobotlari: Laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.

• Klinik holatlarni tahlil qilish: Fiziologik bilimlarni klinik sharoitda qo‘llash, tashxis qo‘yish va davolash rejasini tuzish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladi.

Fiziologiya fanini o‘qitishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari:

Fiziologiya fanini o‘qitishda quyidagi muammolar uchrashi mumkin:

• Talabalarning fanga qiziqishining pastligi: Fanning nazariy va murakkab ekanligi talabalarda qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

• O‘quv materiallarining yetarli emasligi: Zamonaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining yetishmasligi ta’lim sifatiga ta’sir qilishi mumkin.

• Laboratoriya uskunalarining eskirganligi: Zamonaviy laboratoriya uskunalarining yo‘qligi talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

• O‘qituvchilarning malakasining yetarli emasligi: Zamonaviy ta’lim usullari va texnologiyalarini o‘zlashtirmagan o‘qituvchilar ta’lim sifatini pasaytirishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi choralarni ko‘rish lozim:

• Fanga qiziqishni oshirish: Darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, klinik misollardan foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali fanga qiziqishni oshirish.

• O‘quv materiallarini ta’minlash: Zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va elektron resurslar bilan ta’minlash.

• Laboratoriya uskunalarini yangilash: Zamonaviy laboratoriya uskunalari bilan ta’minlash va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

• O‘qituvchilarning malakasini oshirish: O‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, ularni zamonaviy ta’lim usullari va texnologiyalari bilan tanishtirish.

Demak, fiziologiya fanining tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishida, fanning fundamental fan ekanligini e’tiborga olgan holda, fanlar aro bog‘lanishni ya’ni integratsion mashg‘ulotlarni kengaytirish, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli va kerakli mavzuda qo‘llanilishi, turli murakkablikdagi vaziyatli muammoli masalalardan, keys stadi, turli holatdagi tibbiyot kazustik vaziyatlaridan foydalanish lozim deb bilamiz.

Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida dars beruvchi o‘qituvchi yoki trenerlar yetarlicha malakali bo‘lishi, darsga o‘quv uslubiy hujjatlari va tarqatma didaktik materiallari hamda amaliy ko‘nikmalarni bajarish uchun barcha inventarlar jamlangan va darsga tayyor bo‘lishi lozim deb bilamiz.

Fiziologiya fanini o‘qitishdagi muammolarni hal qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

- O‘quv dasturining mukammalligi;
- Yetarlicha kompitensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislarning mavjudligi;
- Dars o‘tish metodlarini takomillashtirish;

- Amaliy mashg‘ulotlarda talabalarning faolligi oshirish;
- Talabalar bilimlarini doimiy nazoratini olib borish va h.k.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida fiziologiya fanini o‘qitish kelajakdagi shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim sifatini oshirish uchun zamonaviy o‘qitish usullari va texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv materiallari bilan ta’minlash, laboratoriya uskunalarini yangilash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati (References):

1.Yusupova D.U. “ Ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari: dolzarbligi, muammolari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy- amaliy konferentsiya materiallari. Qarshi 2024 y.

2. Yusupova D.U. “ Talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirishda simulyatsion yoki imitatsion metodlardan foydalanishning afzalliklari”. Mug’allim 2023.

3. Юсупова Д.У. “Применение метода казустики в медицинском образование” Mug’allim 2023.

4. Yusupova D.U. “ Tibbiyot oliygohi talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirishda amaliy mashg’ulotlardagi kichik guruhlarda ishlashning afzalliklari” Xalq ta’limi 2024.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA BADIIY MATNLARNI O‘QIB TUSHUNISH JARAYONIDA KOGNITIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Maxmudova Nigora Hikmatovna,
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida badiiy matnlarni o‘qib tushunish asosida o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘qish fanida badiiy matnlar bilan ishlash jarayonining o‘quvchilarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Badiiy matn mazmunini tushunish, obrazlarni anglash va muallif g‘oyasini talqin qilish orqali o‘quvchilarning mantiqiy, tahliliy hamda obrazli fikrlashi faollashishi asoslab beriladi. Shuningdek, badiiy matnlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirish, o‘quv axborotini ongli o‘zlashtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi yoritib beriladi. Maqolada badiiy matnlarni o‘qib tushunishga yo‘naltirilgan texnologiyaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, o‘qib tushunish, o‘qish fani, kognitiv ko‘nikmalar, kognitiv jarayonlar, idrok, tafakkur, tasavvur, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, o‘quv motivatsiyasi.

Ma’lumki, kognitiv jarayonlar insonning atrof-muhitdan, jumladan, ta’lim jarayonida olinadigan axborotni qabul qilishi, anglash, tahlil etish va unga munosabat bildirishini ta’minlovchi muhim psixik mexanizmlar hisoblanadi. Ushbu jarayonlar orqali shaxs voqelikni ongli ravishda baholaydi hamda o‘z faoliyatini muhit talablariga mos ravishda tashkil etadi. Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, biologiya, fiziologiya, psixologiya, pedagogika, lingvistika va semantika kabi bir qator fanlar bilan uzviy bog‘liq holda kechadi.

Biologik jihatdan inson Homo sapiens turiga mansub tirik organizm sifatida tabiiy va ijtimoiy muhit bilan doimiy o‘zaro aloqada bo‘ladi. Fiziologiya esa inson organizmining rivojlanish qonuniyatlari, miya faoliyati va nerv tizimining axborotni qayta ishlash jarayonlarini o‘rganadi. Lingvistik va semantik yondashuvlar til birliklari orqali bilimning shakllanishi va ifodalanishini tahlil qiladi. Ushbu bilimlar majmui psixologiya va pedagogika fanlari doirasida o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalalarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Falsafa esa mazkur fanlar oldiga qo‘yiladigan muhim metodologik savollarni belgilab, ularni kengroq ilmiy nuqtai nazardan talqin qilish imkonini beradi.

Ta’kidlash joizki, ta’lim muhiti mustaqil va yopiq tizim emas, balki ijtimoiy-madaniy muhitning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimiga XXI asr talablariga mos, o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yangi O‘zbekiston – maktabdan boshlanadi” g‘oyasi, milliy o‘quv dasturlarining joriy etilishi hamda boshlang‘ich ta’lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa

sifatida belgilamoqda. Ayniqsa, o‘qish fanida badiiy matnlar bilan ishlash jarayonini takomillashtirish, ularni ongli o‘qish va chuqur tushunishga yo‘naltirish kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim muhitida axborotni vizual va semantik jihatdan idrok etish, obrazli tasavvur asosida mazmunni anglash, matn orqali muallif g‘oyasini tahlil qilish kabi faoliyat turlari o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim muhiti kognitiv jarayonlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi, o‘quvchilarning sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, xotira, tafakkur va nutq kabi asosiy bilish komponentlarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Sezgi va idrok orqali olingan axborot tafakkur jarayonida qayta ishlanadi, xotirada mustahkamlanadi va nutq orqali ifodalanadi. Ushbu jarayonlarning o‘zaro uyg‘un rivoji o‘quvchilarning badiiy matnlarni o‘qib tushunish darajasini belgilaydi. Fikrlash va boshqa kognitiv komponentlarning rivojlanishi nafaqat axborotni o‘zlashtirish darajasini, balki uni qayta tiklash va amaliyotda qo‘llash imkoniyatini ham oshiradi. Chunki bilimning samaradorligi faqat uni xotirada saqlash bilan emas, balki zarur vaziyatda undan foydalana olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Shu bois, boshlang‘ich ta’limda badiiy matnlarni o‘qib tushunish jarayonida kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilayotgan bo‘lsada, badiiy matnlarni chuqur va ongli o‘qib tushunishga yetarli e’tibor qaratilmayotgan holatlar ham uchramoqda. Holbuki, erta maktab yoshidagi (1–4-sinflar) bolalarning miya faoliyati yuqori darajadagi obrazli va ijodiy fikrlashga moyil bo‘lib, aynan shu davrda badiiy matnlar bilan ishlash orqali kognitiv ko‘nikmalarni samarali rivojlantirish imkoniyati mavjud. Afsuski, amaliyotda o‘qish fanida ko‘proq mexanik o‘qish va matnni yuzaki tushunishga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustunlik qilmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirishga davlat darajasida yondashish, badiiy matnlarni o‘qib tushunish texnologiyalarini takomillashtirish va ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish zarur. Ushbu masala psixologiya, neyropedagogika va psixolingvistika sohalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bolalarning matnni idrok etishi, mazmunni anglash va talqin qilish jarayonlariga miya faoliyatining bevosita ta’sirini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda.

Ma’lumki, badiiy matnni to‘liq tushunish uchun o‘quvchida shakllangan kognitiv tayyorgarlik zarur. Mashhur olima T.V. Chernigovskayaning “Nima uchun insonga san’at kerak?” degan fikrini o‘qish savodxonligi kontekstida talqin qilar ekanmiz, “o‘qish va tushunish uchun ham mashq qilingan miya zarur” degan xulosaga kelish mumkin. Chunki badiiy matndagi obrazlar, ramzlar, yashirin ma’nolar va muallif g‘oyasini anglash o‘quvchidan rivojlangan neyron aloqalar, faol tafakkur va xotirani talab etadi.

Masalan, badiiy asardagi qahramonlar xarakterini tushunish, voqealar ketma-ketligini tahlil qilish yoki muallif munosabatini aniqlash jarayonida o‘quvchi miyasining turli funksional hududlari faol ishlaydi. Ushbu jarayonlar o‘qish jarayonida miyaning neyron tarmoqlarini “mashq qildirish”, yangi axborotni qayta ishlash va mazmunli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Natijada o‘quvchining nafaqat o‘qish savodxonligi, balki umumiy intellektual rivoji ham ta’minlanadi.

Yaxshi tashkil etilgan badiiy-ta’limiy muhitda o‘quvchi miyaning chap va o‘ng

yarim sharlaridan samarali foydalana oladi. Bu esa matnni mantiqiy tahlil qilish bilan bir qatorda, obrazli tasavvur, empatiya va ijodiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar vizual, eshitish va semantik axborotni birgalikda idrok etishni o‘rganadilar, bu esa o‘qilgan materialni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Ta’kidlash joizki, badiiy matnlarni o‘qib tushunish jarayonida o‘quvchilarda idrok, diqqat va xotira kabi muhim kognitiv jarayonlar faol rivojlanadi. Matnni o‘qish, qayta o‘qish, asosiy g‘oyani ajratib olish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va qahramonlar faoliyatini baholash orqali kuzatuvchanlik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu jarayonlar miyaning neyron tarmoqlarida mustahkamlanib, bilim mazmunining yanada chuqur va tizimli bo‘lishiga olib keladi.

Shuningdek, badiiy matnlar bilan ishlash xotirani rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. O‘qilgan matnni eslab qolish, qayta hikoya qilish va mazmunini izohlash jarayonlari axborotning miyaning frontal bo‘limlarida mustahkam saqlanishiga xizmat qiladi. Bu esa keyinchalik o‘quvchining o‘qilgan materialni esga tushirish, tushuntirish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatini oshiradi.

Shu bois, boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida badiiy matnlarni o‘qib tushunishga yo‘naltirilgan kognitiv texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

“Yodlash”, ya’ni axborotni ajratib olish, saqlash va zarur vaziyatda qayta tiklash kognitiv jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yodlashning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ulardan eng samaralisi ongli yodlashdir. Ongli yodlash jarayonida o‘quvchi matn mazmunini mexanik takrorlash bilan cheklanmay, balki uni tushunadi, tahlil qiladi va shaxsiy tajribasi bilan bog‘laydi. Aynan shu jihat yodlashning mustahkamligini ta’minlaydi va uning samaradorligini oshiradi. Ongli yodlash ko‘p jihatdan shaxsiy xususiyatlarga bog‘liq bo‘lsa-da, uni maqsadli pedagogik faoliyat orqali rivojlantirish va o‘rgatish mumkin.

Badiiy matnlarni o‘qib tushunish jarayonida ongli yodlashni shakllantirish uchun matnni batafsil o‘rganish, voqealar ketma-ketligiga e’tibor qaratish, qahramonlar xarakterini tahlil qilish, muallif g‘oyasini anglash hamda matndagi asosiy obraz va tushunchalarni ongda tiklash muhim hisoblanadi. O‘qilgan matnni tayanch so‘zlar, asosiy g‘oya va obrazlar asosida qayta hikoya qilish, savollarga javob berish yoki mustaqil xulosa chiqarish jarayonlari o‘quvchilarning nafaqat xotirasini, balki tafakkuri va tasavvurini ham faollashtiradi. Bu jarayonlar o‘quvchilarning ichki ijodiy tasavvurini kengaytirib, verbal va vizual xotirani birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tasavvur kognitiv jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, u badiiy matnlarni o‘qib tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi. Tasavvur yordamida o‘quvchi matndagi voqealarni ko‘z oldiga keltiradi, obrazlarni jonlantiradi va ularning harakatlarini mantiqiy jihatdan bog‘laydi. Rivojlangan tasavvursiz matn mazmunini chuqur anglash, yashirin ma’nolarni tushunish va muallif pozitsiyasini idrok etish qiyinlashadi. Shu bois, tasavvur ham boshqa kognitiv jarayonlar kabi maqsadli ravishda tarbiyalanishi va rivojlantirilishi lozim.

O‘qish darslarida badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida hissiy va kognitiv mazmunga ega bo‘lgan topshiriqlardan foydalanish muhimdir. Masalan, qahramonning his-tuyg‘ularini tasvirlash, voqealar rivojini davom ettirish, matnga muqobil yakun yaratish yoki o‘qilgan matn asosida savol-javoblar tashkil etish o‘quvchilarda matnga nisbatan hissiy munosabatni kuchaytiradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning matnni ongli idrok etishiga, o‘qilgan axborotning ahamiyatini tushunishiga va uni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashiga imkon yaratadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan kognitiv jarayonlar fikrlash ishtirokisiz to‘liq amalga oshmaydi. Fikrlash kognitiv jarayonlarning eng yuqori bosqichi bo‘lib, u ob’ekt va hodisalar o‘rtasidagi qonuniy bog‘liqliklarni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Dars jarayonida beriladigan savollarga javob topish, matn mazmuni asosida hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish yoki muammoli topshiriqlarni bajarish doimo fikrlash jarayoni bilan boshlanadi.

Fikrlash jarayonida amalga oshiriladigan aqliy operatsiyalar turiga ko‘ra, aniq-faol, vizual-obrazli va mantiqiy-nazariy fikrlash turlari ajratiladi. Badiiy matnlarni o‘qib tushunish jarayonida, ayniqsa, vizual-obrazli va mantiqiy fikrlash uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi matndagi obrazlarni tasavvur qiladi, voqealarni ongida jonlantiradi va shu asosda mantiqiy xulosalar chiqaradi. Ushbu jarayonda shakllanadigan kognitiv fikrlash o‘quvchining dunyoni nafaqat faktlar yig‘indisi sifatida, balki mazmunli va obrazli tizim sifatida idrok etishiga yordam beradi.

Jonli assotsiatsiyalar yaratish qobiliyati badiiy matnlarni o‘qib tushunishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Assotsiatsiyalar yordamida o‘quvchi ilgari o‘zlashtirilgan bilim va tajribalarni yangi matn mazmuni bilan bog‘laydi, xotirasidan zarur axborotni tez va samarali tarzda qayta tiklaydi. Natijada o‘qish jarayoni samaradorligi oshib, o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalari izchil rivojlanadi.

Har qanday akademik fan o‘qituvchi va o‘quvchi (yoki o‘quvchilar) o‘rtasidagi muloqotni o‘z ichiga oladi. Ushbu muloqot nutq orqali amalga oshiriladigan muhim kognitiv jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqotning tushunarli va samarali bo‘lishi uchun uning barcha ishtirokchilari til vositasida axborot uzatishning umumiy usullarini egallagan bo‘lishi lozim. Xususan, o‘qish fanida badiiy matn muallifi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi bilvosita muloqot aynan matn orqali yuzaga chiqadi. Bunday muloqot mazmunan obrazli va semantik xarakterga ega bo‘lib, uni shartli ravishda “matn orqali muloqot” deb atash mumkin.

Badiiy matnni o‘qish jarayonida o‘quvchi nafaqat so‘zlarni talaffuz qiladi, balki muallif fikrini anglaydi, obrazlarni tasavvur qiladi va ularning mazmunini talqin etadi. Shu orqali bola dunyo bilan muloqot qilishning yana bir muhim usulini — badiiy matn orqali muloqot qilishni o‘zlashtiradi. Bu jarayonda o‘quvchining nutqi, tasavvuri, tafakkuri va xotirasi bir butun tizim sifatida faoliyat yuritadi. Badiiy matn tili ham o‘ziga xos “ifoda tili” bo‘lib, uni tushunish uchun o‘quvchidan muayyan tayyorgarlik, fikrlash va talqin qilish ko‘nikmalari talab etiladi.

Ma’lumki, badiiy matnni tushunish faqat “yoqdi” yoki “yoqmadi” darajasida baholash bilan cheklanmaydi. Uni anglash, mazmuniga kirish, muallif pozitsiyasini tushunish va g‘oyaviy-estetik qiymatini his etish o‘quvchidan ongli o‘qish faoliyatini talab qiladi. Shu ma’noda, badiiy matn bilan ishlash jarayoni o‘quvchining kognitiv salohiyatini rivojlantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘qilgan matn ustida mulohaza yuritish, savollarga javob berish, xulosa chiqarish va matn mazmunini baholash orqali o‘quvchi yuqori darajadagi kognitiv fikrlashni amalga oshiradi.

Bolaning badiiy nutqini, ya’ni matnni tushunish, talqin qilish va ifodalash qobiliyatini rivojlantirish orqali uning boshqa kognitiv funksiyalari ham faollashadi. Bunday o‘quvchi kelgusida nafaqat o‘qish fanida, balki boshqa akademik fanlarni o‘zlashtirishda ham yuqori natijalarga erishadi. Chunki badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida shakllangan tasavvur, mantiqiy fikrlash va assotsiativ bog‘lanishlar o‘quvchining umumiy intellektual rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, to‘g‘ri tashkil etilgan badiiy-ta’limiy muhit boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ularning tabiiy qobiliyatlari va kuchli tomonlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan kognitiv tushunchalar bilan boyitadi. Ayniqsa, o‘qish darslarida badiiy matnlarni o‘qib

tushunishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy va kognitiv rivojlanishini uyg‘un holda ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv jarayonlarning rivojlanishi maktab ta’lim muhitining ajralmas qismi bo‘lishi, jumladan, o‘qish savodxonligini shakllantirish jarayonida badiiy matnlarni o‘qib tushunish faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim. Bu yondashuv boshlang‘ich ta’limda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi **PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”**gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Boshlang‘ich ta’lim uchun Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021.
4. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Karimova G.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2020.
7. Safarov F., Norqobilova D. O‘qish darslarida matn bilan ishlash texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
8. Vygotskiy L.S. Fikrlash va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
9. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Toshkent: Fan, 2016.
10. Rubinshteyn S.L. Psixologiya asoslari. – Toshkent: Sharq, 2018.
11. Chernigovskaya T.V. Inson miyasi va til: kognitiv yondashuv. – Sankt-Peterburg, 2019.
12. Solso R., Maclin O., Maclin M. Cognitive Psychology. – Boston: Pearson Education, 2018.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK MULOQOTGA LINGVOMETODIK TAYYORGARLIKNI TIZIMLI-DARAJALI VA MODULLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Itolmasova Zarina To’lqin qizi
Qarshi shahar, Turon universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik muloqot jarayonlariga lingvometodik tayyorgarligini tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazmun tanlashga bo‘lgan tizimli-darajali yondashuv hamda modulli ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari asoslab beriladi. Talabalarning o‘quv-bilish faoliyati, psixologik-pedagogik va kommunikativ xususiyatlarini hisobga olgan holda lingvometodik tayyorgarlikning bosqichma-bosqich modeli ishlab chiqiladi. Mazkur yondashuv talabalarda pedagogik muloqot kompetensiyasini izchil shakllantirish, nutqiy faoliyatni ongli rejalashtirish va kasbiy kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik muloqot, lingvometodik tayyorgarlik, tizimli-darajali yondashuv, modulli ta’lim, kommunikativ kompetensiya, oliy ta’lim.

ORGANIZATION OF LINGUISTOCK METHODOLOGICAL PREPARATION FOR PEDAGOGICAL INTERACTION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS ON THE BASIS OF A SYSTEMATIC-LEVEL AND MODULAR APPROACH

Itolmasova Zarina Tulkin kizi
Teacher of Turon University, Karshi city

Abstract. This article analyzes the issues of organizing linguo-methodological training for students’ pedagogical communication in higher education institutions. The study substantiates the didactic potential of a systemic-level approach to content selection combined with modular educational technologies. Taking into account students’ cognitive activity as well as their psychological, pedagogical, and communicative characteristics, a step-by-step model of linguo-methodological training is proposed. This approach contributes to the consistent development of pedagogical communication competence, conscious planning of speech activity, and the formation of professional communication culture.

Keywords: pedagogical communication, linguo-methodological training, systemic-level approach, modular education, communicative competence, higher education.

ОРГАНИЗАЦИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО МЕТОДИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНО-МОДУЛЬНОГО ПОДХОДА

Итолмасова Зарина Тулкин кизи
Преподаватель, Туран университет, город Карши

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы организации лингвометодической подготовки студентов к педагогическому общению в условиях высшего образования. Обосновываются дидактические возможности системно-уровневого подхода к отбору содержания и модульных образовательных технологий. С учётом учебно-познавательной деятельности, психолого-педагогических и коммуникативных особенностей студентов предлагается

поэтапная модель лингвометодической подготовки. Реализация данного подхода способствует формированию педагогической коммуникативной компетентности, развитию культуры профессионального общения и осознанному управлению речевой деятельностью.

Ключевые слова: педагогическое общение, лингвометодическая подготовка, системно-уровневый подход, модульное обучение, коммуникативная компетентность, высшее образование.

Kirish. Psixologik-pedagogik bilimlar hamda amaliy ta’lim tajribasini idrok etish jarayonida shakllanadigan, talabalarning izchil ta’lim bosqichlari doirasida kechadigan o‘quv-bilish faoliyati, intellektual hamda shaxsiy-ijtimoiy rivojlanishining yetakchi xususiyatlarini aks ettiruvchi tizimli-darajali modullashtirish yondashuvi talabalarning pedagogik muloqot jarayonlariga lingvometodik tayyorgarligini samarali tashkil etish imkonini beradi. Mazkur yondashuv OTM ta’lim jarayonining bosqichma-bosqichligi hamda ta’lim subyektlarining verbal-kommunikativ ehtiyojlari dinamikasiga mos ravishda tilga oid faoliyat strategiyasi va taktikasini metodik jihatdan asosli rejalashtirishni taqozo etadi.

Ayniqsa, abituriyentlarning talabalik hayotiga moslashuvi hal qilinadigan birinchi kurs bosqichida talabalarning xulq-atvori yuqori darajadagi konformizm, ijtimoiy rollarni anglashda yetarli darajada tabaqalashgan yondashuvning mavjud emasligi hamda yangi ijtimoiy muhitda o‘z mavqei va kommunikativ “o‘rni”ni izlash jarayoni bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda talabalarning pedagogik muloqotga tayyorgarligi ko‘pincha fragmentar xarakterga ega bo‘lib, ularning nutqiy va kommunikativ faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi.

Asosiy qism. O‘qituvchi va ota-onalarning doimiy nazoratidan nisbatan mustaqil bo‘lgan oliy ta’lim muhitida birinchi kurs talabalari o‘z ta’limiy va kommunikativ faoliyatini o‘z-o‘zini boshqarish asosida tashkil etish zarurati bilan to‘qnash keladilar. Mazkur ko‘nikmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi pedagogik muloqot jarayonlarida namoyon bo‘ladigan bir qator obyektiv qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Jumladan, talabalarning ma’ruzalarni mantiqiy konspektlashtirish, ilmiy va o‘quv matnlari bilan samarali ishlash, birlamchi manbalar asosida bilim olish, katta hajmdagi axborotni tahlil qilish hamda o‘z fikrlarini aniq, izchil va nutq madaniyati me’yorlariga muvofiq bayon etishdagi muammolari ularning pedagogik muloqot kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, talabalarning pedagogik muloqot jarayonlariga lingvometodik tayyorgarligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqishda birinchi kurs bosqichining psixologik-pedagogik va kommunikativ xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda tilga oid ishlarning mazmuni bazaviy lingvometodik modul sifatida umumadabiy til me’yorlarini og‘zaki va yozma nutq shakllarida o‘zlashtirish, shaxsiy ish hujjatlarini (tarjimayi hol, ariza, tushuntirish xati) tuzish, shuningdek, umumta’lim fanlari materiallari asosida ikkilamchi baholanmaydigan ilmiy matnlarni (reja, tezislar, konspekt) yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Mazkur bazaviy modul talabalarda pedagogik muloqotning lingvistik asoslarini puxta egallash, o‘quv va kasbiy muloqot vaziyatlarida nutqiy faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish va amalga oshirish hamda keyingi bosqichlarda murakkab pedagogik kommunikatsiya turlarini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan lingvometodik poydevorni yaratadi.

Auditoriya yuklamasi bo‘yicha eng jadal bosqich hisoblangan ikkinchi kursda talabalar oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv-tarbiya jarayonining barcha shakllariga —

fundamental tayyorgarlik, auditoriyadan tashqari ijtimoiy, madaniy va ijodiy faoliyatga faol jalb etiladilar. Ushbu jarayon talabalarda keng madaniy ehtiyojlar va kommunikativ talablarning shakllanishiga xizmat qilib, ularning til ongi va nutqiy qobiliyatlarining tabiiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Mazkur bosqichda pedagogik muloqotga lingvometodik tayyorgarlikning mazmuni asosan fanning bazaviy moduliga tayangan holda tashkil etiladi, biroq bunda oliy ta’lim muassasasining ta’lim yo‘nalishi va profili bilan bog‘liq didaktik matn materiallariga ustuvorlik beriladi. Natijada talabalar o‘quv-muloqot vaziyatlarida kasbiy yo‘naltirilgan til birliklaridan ongli va maqsadli foydalanishga o‘rganadilar.

OTM muhitiga moslashuv jarayonining yakunlanishi va ixtisoslashuvning boshlanishi bilan tavsiflanadigan uchinchi kursda talabalarning ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi ularning kasbiy intilishlarini chuqurlashtirishning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ixtisoslashuvning boshlanishi ko‘pincha shaxsiy qiziqishlar doirasining torayishi hamda pragmatik ustuvorliklarning shakllanishi bilan kechadi.

Mazkur bosqichda talabalarning pedagogik muloqotga lingvometodik tayyorgarligi fanning aspektli moduli — “Ishbilarmonlik va ilmiy muloqot tili. Ommaviy nutq madaniyati” doirasida amalga oshiriladi. Ushbu modul talabalarni tanlangan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ishbilarmonlik va ilmiy nutqning og‘zaki va yozma shakllaridagi me’yoriy xususiyatlar bilan tanishtirishni, shuningdek, shaxsiy va axborot-ma’lumot xarakteridagi ish hujjatlarini (tilxat, ishonchnoma, xizmat yozuvi/ma’ruza yozuvi) tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, baholash elementlariga ega bo‘lgan ikkilamchi o‘quv-ilmiy profilli matnlar (annotatsiya, retsenziya, referat) bilan ishlash orqali talabalarning ilmiy-pedagogik muloqot kompetensiyasi rivojlantiriladi.

Amaliyot davrida talabalarni haqiqiy mutaxassislik faoliyatiga yo‘naltiruvchi va bakalavriat bosqichini yakunlovchi to‘rtinchi kursda talabalarda maxsus tayyorgarlikning ratsional shakl va usullarini izlash, shuningdek, ta’lim jarayonining yakunlanishi munosabati bilan shaxsiy, kasbiy va madaniy qadriyatlarni qayta baholash jarayonlari faollashadi.

Mazkur bosqichda lingvometodik ishlarning mazmuni aspektli modulning amaliy komponentlariga asoslanib, talabalarning mutaxassisligi bo‘yicha og‘zaki va yozma pedagogik-kommunikativ faoliyatning real vaziyatlariga yo‘naltiriladi. Bu jarayon axborot-ma’lumot va tashkiliy-farmoyish xarakteridagi ish hujjatlarini (ish xatlari, shartnomalar, kontraktlar) tuzish, shuningdek, tayyorgarlik yo‘nalishi bo‘yicha birlamchi o‘quv-ilmiy matnlarni (kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi) yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Mutaxassis va magistrlar tayyorlashni yakunlovchi beshinchi (hamda ayrim yo‘nalishlarda oltinchi) kurslarda oliy ta’lim muassasasini yaqin orada tamomlash istiqboli talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyatga nisbatan aniq va pragmatik munosabatlarning shakllanishiga olib keladi. Bu jarayonda ularning moddiy, oilaviy, kasbiy va ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq qadriyatlar dolzarblashadi.

Mazkur bosqichda talabalarning mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllangan bo‘lib, ularning aksariyati o‘qishni ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasi bilan uyg‘unlashtiradi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb etiladi.

Shu bois, bu bosqichdagi pedagogik muloqotga lingvometodik tayyorgarlik “Rus tili va nutq madaniyati” fanining maxsus moduli — “Malakaviy ilmiy ishning nutqiy rasmiylashtirilishi” asosida amalga oshiriladi. Mazkur modul talabalarni tanlangan mutaxassislik bo‘yicha ishbilarmonlik va ilmiy nutqning me’yoriy talablari bilan chuqur tanishtirishni, axborot-ma’lumot va tashkiliy-farmoyish xarakteridagi ish hujjatlarini (aktlar, protokollar, yo‘riqnomalar, texnik topshiriqlar, ish xatlari, kelishuvlar va

shartnomalar) tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishni, shuningdek, birlamchi ilmiy matnlarni (bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy maqola va ma’ruza) pedagogik muloqot talablari asosida rasmiylashtirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning pedagogik muloqot jarayonlariga lingvometodik tayyorgarligini amalga oshirishni mazmun tanlashga bo‘lgan tizimli-darajali yondashuv asosida tashkil etish hamda uni modulli texnologiyalar yordamida bosqichma-bosqich amalga oshirish oliy ta’lim muassasalarida kommunikativ-nutqiy tayyorgarlikni samarali tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarning o‘quv-bilish faoliyati, intellektual hamda shaxsiy-ijtimoiy rivojlanishidagi yetakchi xususiyatlarni inobatga olgan holda, pedagogik muloqot jarayonida zarur bo‘lgan lingvistik, nutqiy va metodik kompetensiyalarni izchil shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida asoslab berilgan lingvometodik tayyorgarlikning modulli tashkil etilishi nafaqat talabalarda umumiy madaniy va kasbiy-pedagogik muloqot sohalarida zarur bo‘lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga, balki ularning ushbu kompetensiyalarni doimiy ravishda takomillashtirib borishiga, nutqiy faoliyatda mustaqil va ijodiy yondashuvni namoyon etishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, tilga oid ishlarning mazmuni, shakli va vositalarini ta’lim bosqichlarining psixologik-pedagogik xususiyatlariga mos holda differensiallashtirish talabalarning nutqiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan mexanizmlar talabalarning pedagogik muloqot subyekti sifatida shakllanishini ta’minlab, ularni pedagogik kommunikatsiyaning turli vaziyatlarida samarali muloqot olib borishga, axborotni to‘g‘ri qabul qilish va uzatishga, nutqiy xatti-harakatlarni me’yoriy va etik talablar asosida amalga oshirishga yo‘naltiradi. Bu esa kelajak mutaxassisining kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan refleksiv, mas’uliyatli va muloqotga tayyor shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Mazkur yondashuv doirasida til shaxsining rivojlanishi uzluksiz va bosqichma-bosqich jarayon sifatida talqin etilib, u tegishli pedagogik sharoitlar mavjud bo‘lganda yuqori, o‘suvchi trayektoriya bo‘ylab rivojlanish imkoniyatiga ega ekani bilan tavsiflanadi. Aynan shu jihat lingvometodik tayyorgarlikni faqat bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki talabaning pedagogik muloqot madaniyatini, kasbiy tafakkurini va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi uzluksiz jarayon sifatida qarash zarurligini asoslaydi.

Shunday qilib, mazmunni tanlashga bo‘lgan tizimli-darajali yondashuv va modulli texnologiyalar asosida tashkil etilgan pedagogik muloqotga lingvometodik tayyorgarlik mexanizmlari oliy ta’lim muassasalarida raqobatbardosh, kommunikativ jihatdan yetuk va o‘z kasbiy faoliyatini til vositalari orqali samarali amalga oshira oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun keng pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ziyomuhammedov B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
3. Karimova G.M. Pedagogik muloqot nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2018.
4. Safarov F.S. Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya. – Toshkent, 2021.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

УРОВЕНЬ ЦИФРОВОЙ ВОВЛЕЧЁННОСТИ ПОДРОСТКОВ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЫ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

Алимова Елена Геннадьевна,
Доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Ташкентский национальный педагогический университет имени Низами

Аннотация: В статье рассматривается проблема уровня цифровой вовлечённости подростков как одного из ключевых факторов, определяющих особенности их психологического функционирования в условиях современной информационной среды. Актуальность исследования обусловлена возрастающей ролью цифровых технологий в процессе социализации подростков, изменением форм коммуникации, досуга и самореализации, а также ростом рисков чрезмерного использования цифровых устройств. Цель статьи — осуществить теоретико-методологический анализ уровня цифровой вовлечённости подростков, определить его психологическое содержание и возможные последствия для эмоционального и социального развития личности. Методологическую базу работы составил содержательный анализ и систематизация ключевых положений российских и зарубежных психологических исследований по проблеме цифровизации, обобщения и систематизации психологических исследований. В статье предложено рассматривать уровень цифровой вовлечённости, как интегративный показатель, отражающий интенсивность и характер взаимодействия подростка с цифровой средой. Особое внимание уделено практическим рекомендациям для школьных психологов, педагогов и родителей, направленным на формирование сбалансированного цифрового поведения подростков.

Ключевые слова: подростки, цифровая среда, уровень цифровой вовлечённости, информационное поведение, психологическое развитие, интернет-активность.

THE LEVEL OF DIGITAL ENGAGEMENT OF ADOLESCENTS IN THE CONTEXT OF THE MODERN INFORMATION ENVIRONMENT: PSYCHOLOGICAL ANALYSIS AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS

Elena Gennadyevna Alimova,
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology Tashkent National Pedagogical University named after Nizami

Abstract: The article examines the problem of the level of digital involvement of adolescents as one of the key factors determining the features of their psychological functioning in the modern information environment. The relevance of the study is due to the increasing role of digital technologies in the process of adolescent socialization, changing forms of communication, leisure and self-realization, as well as the increasing risks of excessive use of digital devices. The purpose of the article is to carry out a theoretical and methodological analysis of the level of digital involvement of adolescents, to determine its psychological content and possible consequences for the emotional and social development of personality. The methodological basis of the work was a substantial analysis and systematization of the key provisions of Russian and foreign psychological research on the problem of digitalization, generalization and systematization of psychological research. The article suggests considering the level of digital engagement as an integrative indicator reflecting the intensity and nature of a

